Qadriyat - bu inson borlig‘ining o‘ziga xos mohiyatini tasdiqlovchi, uning barcha ma’naviy jihatlarining markazida turuvchi universal antropologik fenomendir. Inson mavjudligining barcha asl, ya’ni ma’no va mazmuniga mos hodisalarini o‘zida mujassamlashtirgan qadriyat “insondagi insoniylik” ning asosiy belgisidir. U inson borlig‘ining asosiy kategoriyasi sifatida namoyon bo‘lib, uning turli-tuman hodisalarini birlashtiradi va shu bilan birga insonparvarlikning sinonimi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, har bir ijtimoiy-gumanitar fan o‘zining qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini aniqlab, uni tasdiqlashi lozim.

Tahlil va natijalar

Qadriyat kategoriyasi inson, inson faoliyati va jamiyat xususiyatlarini o‘rganuvchi bir qator fanlar - falsafa, sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik va boshqalarning tadqiqot obyektiga aylandi. Bu fanlarning har biri o‘z tadqiqot vazifalari va bilim sohalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘z yondashuvlari va o‘rganish usullarini rivojlantirmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda qadriyatlar muammosini o‘rganishga turli xil yondashuvlarga bag‘ishlangan keng qamrovli materiallar mavjud. Turli olimlarning aksiologiyaga bo‘lgan faol qiziqishiga qaramay, qadriyatlarning nazariy va metodologik jihatlari, madaniy, ijtimoiy, psixologik asoslari hali ham yetarlicha ishlab chiqilmagan holda qolmoqda.

So‘nggi o‘n yilliklarda jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalarida yuz berayotgan o‘zgarishlar insonlarning psixologiyasi, qadriyat yo‘nalishlari va xatti-harakatlarida o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shaxs va jamiyatning asosiy qadriyatlari negizini tashkil etuvchi madaniy va milliy an’analarga yangicha nazar solish zarurati paydo bo‘lmoqda. Qadriyat tushunchasi aksiologiyaning markaziy kategoriyasi hisoblanadi. Aksiologiya - qadriyatlarning mohiyati, ularning voqelikdagi o‘rni va qadriyatlar olamining tuzilishi, ya’ni turli qadriyatlarning o‘zaro aloqasi, ijtimoiy va madaniy omillar hamda shaxs tuzilishi bilan bog‘liqligi haqidagi falsafiy ta’limotning eng yosh sohalaridan biridir.

Qadriyatlar inson faoliyatining ideallari va ustuvorliklari sifatida shaxsning ma’naviy dunyosini hamda tilda mustahkamlangan va aks ettirilgan milliy-madaniy dunyoqarashning o‘ziga xosligini tavsiflaydi. Lingvoaksiologiya nuqtai nazaridan, qimmatli bo‘lgan barcha narsa tilning baholash tizimida o‘z aksini topadi, tilda aks etgan har qanday narsa esa uni so‘zlovchi uchun qadrli hisoblanadi. Qadriyatlar va me’yorlar dunyoning aksiologik manzarasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi.

V.V.Prozerskiy 16; 173] aksiologiyaning postklassik davrining eng yorqin vakili bo‘lgan pragmatist J.Dyui haqida yozar ekan, u shunday deydi: “Dyui qadriyat narsalar va hodisalarning ichki xususiyati emasligini, balki u faqat muayyan vaziyatda, inson faoliyati jarayonida va subyektning bu faoliyat haqidagi mulohazalari paytida yuzaga kelishini ta’kidlagan”. Qadriyatlarni o‘rganish esa vaziyatning barcha tarkibiy qismlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Bunday qismlarga, xususan, qiziqishning paydo bo‘lish shartlari va qadriyatni ifodalovchi istakni namoyon bo‘lish ehtimolligi kiradi. Madaniy-tarixiy relyativizm vakillari qadriyatni har qanday madaniyatning mavjudligi va faoliyat yuritishining asosi sifatida tushunganlar. Ular qadriyatni “o‘zaro muloqotda bo‘lgan shaxslar egalik qiladigan ma’nolar, qadriyatlar va me’yorlar majmui hamda bu ma’nolarni obyektivlashtiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi va ochib beruvchi tashuvchilar yig‘indisi” [17; 218] deb ta’riflashgan.

Jamiyat shunchaki odamlarning o‘zaro ta’siri va munosabatlari yig‘indisidan iborat emas. U o‘zining ichki mohiyatiga ega bo‘lib, bu mohiyatni “madaniyat” tushunchasi orqali ifodalash mumkin. Madaniyat esa o‘z navbatida qadriyatlar, me’yorlar va ularning tashuvchilari orqali namoyon bo‘ladi. Qadriyatlar dunyosi aniq bir tarixiy davrda, muayyan ijtimoiy muhitda, konkret insonlarning birgalikdagi faoliyati natijasida shakllanadi. Bu qadriyatlar va ularga mos yo‘nalishlar anglab yetilgan yoki yetilmagan bo‘lishi mumkin, biroq har qanday holatda ham ular jamiyatning mulki hamda o‘zining ruhiy tabiatiga ko‘ra, ushbu jamiyatni o‘zida mujassamlashtirgan, uni shaxslantiradigan va o‘z xatti-harakatlarida bu jamiyatni namoyon etadigan shaxsning boyligini

tashkil etadi. Shu bois, har qanday qadriyat doimo madaniy jihatdan belgilanganligini, har bir madaniyat esa tarixiy jihatdan o‘ziga xos ijtimoiy shakl sifatida muayyan insoniy jamiyatga nisbatan birlashtiruvchi vazifani bajaruvchi qadriyatlarning o‘ziga xos majmuasi (tizimi) va ierarxiyasi bilan tavsiflanishini ta’kidlash mumkin.

Qadriyatlarning vazifasi borliqni shakllantirish qoidalarini belgilashdir [18; 203]. Ular jamiyatning yaxlitligini ta’minlaydi, insonlarga hayotiy muhim vaziyatlarda ijtimoiy maqbul xulq-atvorni tanlashda ko‘maklashadi. Qadriyatlar tizimi madaniyatning ichki o‘zagini, shaxslar va ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlari hamda manfaatlarining ma’naviy mohiyatini tashkil etadi [19; 27-28]. Har qanday madaniyatning mavjudligi va faoliyati asosi sifatida qadriyatlarni tushunishga asoslangan madaniy-tarixiy nisbiylik an’analari falsafiy mulohazalarda davom ettirildi. M.Turovskiy qadriyatlarni “madaniyatning moddiy boyligini shaxsga yo‘naltirish” usuli” deb hisoblashni taklif etgan [20; 45]. Shu vaqtdan boshlab qadriyatlarning falsafiy talqini uchun ularning madaniy konteksti hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshladi.

Aksariyat tilshunoslar tomonidan qadriyat muayyan madaniyatda shakllangan, xulq-atvor namunalari va standartlarini belgilaydigan, ehtimoliy u yoki bu xulq-atvor o‘rtasida tanlovga ta’sir ko‘rsatadigan umume’tirof etilgan me’yor sifatida tushuniladi. Aynan qadriyat har qanday madaniyatning poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

I.A.Sternin [21; 69] ta’kidlaganidek, qadriyatlar “... har bir yangi avlod tomonidan bo‘lishiladigan va meros qilib olinadigan ijtimoiy hamda ijtimoiy-psixologik g‘oyalar va qarashlar” hisoblanadi. Qadriyatlarni bevosita idrok etish mumkin bo‘lmasa-da, qadriyatlar tizimining tavsifini tahlil qilish imkoniyati mavjud. Buning sababi shundaki, biz tildan foydalanamiz va til lug‘atida qadriyat tushunchasini o‘z ichiga olgan ma’nolarga ega so‘zlar mavjuddir. Dastlab qadriyatlarni o‘rganish sohasini psixologlar va sotsiologlar ixtiyoriga topshirish mantiqan to‘g‘ri ko‘rinishi mumkin.

N.S.Fedosyutkina [22; 5] ta’kidlaganidek psixolingvistik yondashuv qadriyatlar tasavvurlarini boshqacha nuqtai nazardan ko‘rish imkonini beradi, tajribani tashkil etish va tajriba natijalarini tahlil qilishning o‘ziga xos usullarini taklif qiladi. Qadriyatli tasavvurlarni o‘rganishda til maqsad emas, balki tadqiqot vositasi hisoblanadi. Bunday yondashuv psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik va kognitiv fanlar ma’lumotlarini tadqiqotda uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi. Bu esa qadriyat tasavvurlarini o‘rganish natijalarini iloji boricha til ongi nazariyasi nuqtai nazaridan tushuntirib berishga yordam beradi. E.Benvenist [23; 104] ta’kidlashicha, til “biz aytmoqchi bo‘lgan narsani”yetkazish uchun ishlatiladi. Biroq, biz “yetkazmoqchi bo‘lgan narsamiz, aytmoqchi bo‘lgan fikrimiz” deb ataydigan hodisa niyatlar va mazmunlarsiz (o‘y-fikrlarsiz) ro‘yobga chiqishi mumkin emas. Bu niyat va mazmunlar faqatgina ifoda etilganda, ya’ni til orqali va tilda shakllangandagina o‘z ko‘rinishini oladi.

Ye.F.Serebrennikova [24; 16-17] shunday deb hisoblaydi: “Tilga aylangan stereotiplar va me’yorlar shaklida namoyon bo‘ladigan ustun ijtimoiy-madaniy qarashlar muayyan qadriyatlar tizimini obyektiv tarzda shakllantiradi. Bu tizim inson tomonidan o‘zlashtirilgach, uning hayotiy ustuvorliklarni tanlashida va kutilayotgan hayot ufqida qadriyatli munosabatini ifodalashda o‘z aksini topadi. Bugungi kunda inson ongining aksiologik tabiatga ega ekanligi, uning jamiyat tomonidan

ishlab chiqilgan va ong subyekti tomonidan qabul qilingan qadriyatlarga yo‘naltirilganligi umume’tirof etilgan qoida sifatida tan olinishi lozim”.

Bugungi kunda tilshunoslik qadriyatlarni turli nuqtayi nazardan o‘rganmoqda. Xususan, qadriyatlarning ijtimoiy omillar bilan aloqasi faol tadqiq etilmoqda. Ijtimoiy muammolarni tilshunoslik yordamida o‘rganish insonning nutqiy va fikrlash faoliyatini ijtimoiy kontekst doirasida ochib berishga imkon yaratadi. Bu kontekstga shaxslararo, madaniy, modal, mafkuraviy, pragmatik va boshqa turdagi o‘zaro munosabatlar kiradi. Bunda ularning har birining baholash mezonlari e’tiborga olinadi. T.A.Shiryayeva [25; 62] ta’kidlaganidek, tildan foydalanish inson tajribasi, uning bilimlari, taxminlari va kutishlarini o‘z ichiga oladi. Bular u yoki bu ijtimoiy institutda qabul qilingan ma’lum o‘zaro ta’sir modellariga muvofiq o‘zgarib boradi. Shunday qilib, qadriyatlarni o‘rganish tilshunoslik va muloqot yuz beradigan ijtimoiy kontekst tutashgan nuqtada amalga oshiriladi.

Qadriyatlarni o‘rganishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ularni kognitiv jihatdan tahlil qilishdir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tushunchalarning ko‘p qismi nomoddiy mohiyatlar olamida joylashgan bo‘lib, ular insonni konseptuallashtirishining natijasi hisoblanadi. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator tushunchalar inson tajribasidan tashqarida mavjud bo‘lmay, ularni anglash natijasiga bog‘liqdir. Bu tushunchalarning barchasi kognitiv jarayonlar, xususan, konseptuallashtirish jarayonlarining dalilidir [26; 24].

“Konseptuallashtirish” tushunchasini V.Z.Demyankov [27; 5] tahlil qilib, tilning tuzilishi aynan shu jarayonga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi: “konseptuallashtirish - insonning borliq makonida o‘zini anglashi hamda ushbu tashqi dunyoga munosabatini shakllantirishining natijasidir”. Qadriyatlar, boshqa jihatlar qatori, qadriyat tushunchalari shaklida so‘zlar bilan ifodalangani sababli, ushbu hodisaga lingvokognitiv yondashuv nuqtai nazaridan ta’rif berish muhim ahamiyatga ega. “Konsept” atamasi haqiqiy yoki xayoliy dunyoga tegishli bo‘lgan idrok etilayotgan obyekt haqidagi aqliy tasavvur sifatida tavsiflanishi mumkin. U tilda muayyan leksik birliklar vositasida namoyon bo‘ladi [28; 12].

Tilshunos olimlar o‘zlarining turli tasniflarini taklif etadilar. Jumladan, tilshunos A.V.Golovanovaning [29; 56] tadqiqotida qadriyat subyektning obyektga bo‘lgan munosabati sifatida talqin etiladi va shu bois qadriyatni tushunish ushbu munosabatning mohiyatini belgilovchi nuqtai nazarni aniqlashni taqozo qiladi. U quyidagi qadriyatlarni ajratib ko‘rsatadi: 1) axloqiy (ma’naviy), 2) estetik (utilitar), 3) amaliy, 4) gedonistik.

Ye.F.Serebrennikova [30; 29] tasnifida qadriyatlarning 5 ta maxsus doirasini ajratiladi: 1) Haqiqat doirasi (qadriyat “haqiqiy/yolg‘on” tushunchalari orqali aniqlanadi); 2) Go‘zallik doirasi (qadriyat “go‘zal/xunuk” mezonlari asosida belgilanadi); 3) Axloq doirasi (qadriyat “yaxshi/yomon” tushunchalari bilan ifodalanadi); 4) Zavq-shavq doirasi (qadriyat “yoqimli/jirkanch” mezonlari asosida baholanadi); 5) Amaliy foyda doirasi (qadriyat “foydali/foydasiz/zararli” tushunchalari orqali tavsiflanadi).

Qadriyatlar inson ongining ajralmas qismlari bo‘lib, voqelikni obyektiv va subyektiv, shaxsiy va jamoaviy tarzda aks ettiruvchi yig‘indini tashkil etadi. Shu bois, tushunchani og‘zaki shaklda ifodalovchi til birliklarining tuzilishi va ma’nosini lingvokognitiv jihatdan o‘rganish insonning bilish tajribasini tashkil etuvchi aqliy jarayonlarni tadqiq qilish imkonini beradi. Kognitiv faoliyat tilda aks etgani sababli, bu qadriyatlar inson tomonidan atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlash

natijasi ekanligini va insonlar hayotida shunchalik muhim o‘rin egallaganini hisobga olsak, ular shaxsiy nutq, rasmiy muloqot yoki boshqa har qanday nutq turida muqarrar ravishda turli xil diskursiv amaliyotlarda mujassamlashishini taxmin qilishga asos bo‘ladi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, shuni ta’kidlash joizki, tilni anglash inson mavjudligining ikki ajralmas tizimi - idrok va muloqot tutashgan nuqtada sodir bo‘ladi. Zamonaviy tilshunoslikda insonning nutqiy-fikrlash faoliyati haqidagi tasavvur tobora mustahkamlanmoqda. Bu faoliyat hayotiy dunyoning muayyan vaziyatlarida tajribani his etish, o‘zlashtirish, baholash hamda uni ijtimoiy amaliyotlar sifatida ta’sir ko‘rsatuvchi diskursiv-matnli shakllanishlar orqali moddiylashtirish usuli sifatida qaralmoqda. Shu bois, qadriyatlar toifasi tobora ko‘proq kognitiv-kommunikativ nuqtai nazardan o‘rganilmoqda. Bu esa oddiy dunyo manzarasini shaxsning qadriyatlar tizimi ko‘rinishida namoyon bo‘lgan va muloqot jarayonida qadriyatli tushunchalar tarzida ifodalangan shaxsiy dunyoqarash va idrok prizmasidan ko‘rib chiqishni taqozo etadi [30; 41-49]. Qadriyatlar va baholashni o‘rganishning bunday paradigmasi gumanitar bilimlarning turli sohalarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Xulosa

Shunday qilib, qadriyatlar muammosi o‘zining “qadimiy” kelib chiqishiga qaramay, allaqachon faqat falsafiy kategoriya bo‘lib qolmagan. Qadriyatlar tobora ko‘proq tilshunoslarning diqqat markaziga va qiziqish obyektiga aylanmoqda. Qadriyatni aksiologik tushunish masalalari qadriyat va baholashning til orqali ifodalanishi bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganilmoqda, chunki tabiat hodisalari, jamiyat va tafakkurni tasniflashdan iborat axborotni yetkazishning eng samarali va keng tarqalgan vositasi aynan til tizimi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Виноградов С.Н. К лингвистическому пониманию ценности // Русская словесность в контексте культуры. Н. Новгород: Изд-во Нижегородского госуниверситета, 2007. С. 93–97.
2. Schwartz S.H., Bilsky W. Toward a universal psychological structure of human values // Journal of Personality and Social Psychology. 1987. Vol. 58. N 5. P. 550—562.
3. Вебер М. Основные социологические понятия / / Вебер М. Избранные произведения: пер. с нем. / Сост., Общ. ред. и послесл. Ю.Н. Давыдова; предисл. П.П. Гайденко. -М.: Прогресс, 1990. -205 с.
4. Рапацевич Е.С. Психолого-педагогический словарь / сост. Е. С. Рапацевич. – Минск, 2006. – С. 869.
5. Ананьев Б.Г. Психология и проблемы человекознания. Избранные психологические труды. – М., 2005. – С. 205 с.
6. Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. – М., 1973. – С. 371.
7. Зейгарник Б. В., Братусь Б. С. Очерки по психологии аномального развития личности. – М.,1980. – С.119.
8. Лэнгле А. Введение в экзистенционально-аналитическую теорию эмоций // Вопросы психологии. – 2004. – № 4. – С. 3.
9. Карандашев В. Н. Методика Шварца для изучения ценностей личности: концепция и методическое руководство. – СПб., 2004. –С. 5.

10. Хотинец В. Ю., Сунцова Я. С. Согласованность социальных и культурных ценностей в регуляции межличностного взаимодействия // Психологический журнал. – 2009. – № 6. – С. 17–18.
11. Виндельбанд В. Прелюдии: Философские статьи и речи. СПб.: Издательство Д. Е. Жуковского, 1904. – С.29.
12. Риккерт Г. Философия истории // Науки о природе и науки о культуре. М.: Республика, 1998. С. 179.
13. Анисимов С. Ф. Духовные ценности: Производство и потребление. М.: Мысль, 1988. – С. 67.
14. Crapo R. H. Cultural Anthropology. McGraw-Hill, 1999. – P. 323.
15. Абишева А. К. О понятии «ценность» // Вопросы философии. 2002. №3. С. 140.
16. Прозерский В.В. Проблема ценностей и оценки в философии Дж. Дьюи // Проблема ценностей в философии. М. – Л.: Наука, 1966. – С. 173.
17. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество / общ. ред., сост. и предисл. А. Ю. Согомонов; пер. с англ. М.: Политиздат, 1992. – С.218.
18. Ильин В. В. Аксиология. М.: Изд-во МГУ, 2005. – С.203 с.
19. Лингвистика и аксиология: этносемиометрия ценностных смыслов: коллективная монография / под ред. Е. Ф. Серебренниковой. М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – С.27-28.
20. Туровский М. Б. Философское основание культурологии. М.: Росспэн, 1997. – С.45.
21. Стернин И.А. Концепты и невербальность мышления // Филология и культура. Материалы ежународной конференции 12-14 мая 1999 г. – Тамбов, 1999. – С.69.
22. Федосюткина Н. С. Слова-ценности как средство доступа к ценностной картине мира: Экспериментальное исследование. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Курск, 2005. – С. 5.
23. Бенвенист Э. Общая лингвистика. М.: Прогресс, 1974. – С. 104.
24. Серебренникова Е.Ф. Аспекты аксиологического лингвистического анализа // Лингвистика и аксиология: этносемиометрия ценностных смыслов: коллективная монография. – М. : ТЕЗАУРУС, 2011. – С. 16-17.
25. Ширяева Т. А. Язык как средство конструирования социальной реальности // Язык. Текст. Дискурс. Ставрополь: Изд-во СГПИ, 2009. № 7. С. 62.
26. Dijk T.A. van. News as discourse. – New-York: Hillsdale, 1988. – P. 24.
27. Демьянков В.З. Studia Linguistica Cognitiva – призыв к сотрудничеству // Studia Linguistica Cognitiva, 1. Язык и познание. Методологические проблемы и перспективы. М.: Гнозис, 2006. – С. 5.
28. Алимурадов О.А.,Гусева М.А. Структурная и признаковая модели концепта BEAUTY (КРАСОТА), объективируемого в современном англоязычном женском дискурсе // Вопросы когнитивной лингвистики. –№3. – Издательство Тамбовского государственного университета им. Г.Р. Державина. Тамбов, 2010. – С. 12.
29. Голованова А.В. Ценности и оценки в языковом отражении: На материале русского и польского языков. Автореф. дис. ... канд. филол.наук: Пермь, 2002.- С. 56.
30. Серебреникова Е.Ф. Этносемиометрия как способ лингвистического аксиологического анализа // Лингвистика и аксиология: этносемиометрия ценностных смыслов: коллективная монография. М.:ТЕЗАУРУС, 2011. С. 29.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

I.Ergashev
Independent researcher of Ferghana State University

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

INITIATIVES FOR ENSURING PEACE IN THE WORLD AT THE NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

Abstract. This article is devoted to the initiatives of Uzbekistan to ensure peace in the world at a new stage of its development, and it describes the systematic reforms of our country to ensure peace in the world in today's turbulent world and their practical results. In particular, the article reflects the views on the strategic documents adopted to ensure peace and security at a new stage of Uzbekistan's development and their content. The article uses the methods of systemic and functionalist analysis.

Keywords: New Uzbekistan, Assembly, peace, stability, contradictions, danger, threat, consensus, cooperation, global peace and stability

ИНИЦИАТИВЫ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ МИРА В МИРЕ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Статья посвящена инициативам Узбекистана по обеспечению мира во всем мире на новом этапе развития. В ней описываются системные реформы нашей страны по обеспечению мира во всем мире в современном нестабильном мире и их практические результаты. В частности, в статье отражены взгляды на стратегические документы, принятые для обеспечения мира и безопасности на новом этапе развития Узбекистана, и их содержание. В статье использованы методы системного и функционалистского анализа.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Ассамблея, мир, стабильность, противоречия, опасность, угроза, консенсус, сотрудничество, глобальный мир и стабильность.

ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ДУНЁДА ТИНЧЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ТАШАББУСЛАРИ

Аннотация. Мазкур мақолада Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида дунёда тинчликни таъминлаш ташаббусларига бағишланган бўлиб, бунда бугунги қалтис дунёда мамлакатимиз тамонидан дунёда тинчликни таъминлаш борасидаги тизимли ислоҳотлари ва уларнинг амалдаги натижалари ёритиб берилган. Хусусан, мақолада, Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида тинчлик ва хавфсизликни таъминлаш учун қабул қилинган стратегик ҳужжатлар ва уларнинг мазмуни тўғрисида фикрлар акс этган. Мақолада тизимли ва функционалистик таҳлил усулларидан фойдаланилган.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистон, Ассамблея, тинчлик, барқарорлик, зиддиятлар, хавф, таҳдид, консенсус, ҳамкорлик, глобал тинчлик ва барқарорлик.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

КИРИШ

Маълумки кейинги йилларда Ер юзида кескин ўзгаришлар рўй бермоқда, халқаро миқёсда хавфсизлик ва барқарорлик тизими издан чиқмоқда. Глобаллашув жараёнининг тобора шиддатли тус олиши нафақат инсоният имкониятларини кенгайтирмоқда, балки зиддиятларнинг кескинлашуви, ривожланган ва қолоқ давлатлар ўртасидаги тафовутнинг ўсишига олиб келмоқда. Бунинг оқибатида тинчлик ва барқарорликка рахна солаётган, моҳияти ва кўламига кўра трансмиллий хусусиятига эга турли хатти-ҳаракатлар содир этилмоқда. Бу борада давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг “сўнгги йилларда дунёнинг турли минтақаларида қуролли тўқнашувлар, экологик ва техноген фожиалар, иқтисодий инқирозлар, “савдо урушлари”, терроризм ва экстремизм таҳдидлари тобора кучайиб бормоқда. Бундай ўта мураккаб шароитда жаҳонда тинчликни сақлаш, ижтимоий тараққиёт ва адолатни таъминлашда парламентлар иштироки ва таъсирини оширишни замоннинг ўзи талаб этмоқда” деб таъкидлаши фундаментал асослар мавжуд. Айнан Шавкат Мирзиёевнинг мазкур Ассамблеясидаги нутқида энг аввало эаҳоннинг турли минтақаларидаги низолар глобал ва минтақавий тинчлик ва хавфсизликка жиддий таҳдид солаётганлик билан боғлиқ ҳолатни кун тартибидаги биринчи даражали вазифа қаторига қўйди. Чунки, бугун Украина атрофидаги муаммоларга халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган меъёрлари, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Низоми ва резолюциялари асосида ечим топиш муҳимлиги, Фаластин – Исроил низосининг ягона ва адолатли ечими “икки халқ учун – икки давлат” тамойилини рўёбга чиқариш, Афғонистонга Марказий Осиё минтақасининг ажралмас қисми ва янги имкониятлар макони сифатида қараш лозимлигини таъкидлар экан, бунда Ўзбекистон ҳар қандай зиддият ва қарама-қаршиликларни фақат дипломатия ва тинч музокаралар йўли билан ҳал этишнинг қатъий тарафдори эканини яна бир бор таъкидлади. Давлатимиз раҳбарининг юқоридаги муаммоларни глобал ва минтақавий тинчлик ва хавфсизликка жиддий таҳдид сифатида баҳолаётган ташаббуслари ва қарашлари дунё давлатлари учун катта тажриба сифатида баҳоланмоқда.[1]

НАТИЖАЛАР

Хавф-хатарлар, таҳдидлар тўғрисида сўз борар экан, уларнинг демократия билан боғланаётганини кўрамиз. Жаҳон, айниқса ғарб мамлакатлари тажрибаси шуни кўрсатадики, жамият, тараққиёт, истиқбол хавф-хатарлардан ҳолироқ бўлишига эришиш учун қуйидаги демократик тамойилларга: томонлар позицияларини эмас, кўпроқ умумий манфаатларини ҳисобга олишлик; ижтимоий сиёсий гуруҳлар ҳоҳишидан қатъий назар муаммо ечимига нисбатан барчани маълум маънода қаноатлантира оладиган тамойилларга таяниш (ижтимоий консенсуснинг биринчи поғонага кўтарилиши); субъектнинг хавф-хатарлар даражасини аниқ баҳолаш, замонавий мулоқот маданиятига эга бўлиш; рақибни тушунишга мойиллик; демократик мулоқот маданияти; рақибга нисбатан конституциявий (легитим) ваколатдан чиқиб ёндашув; ҳаққоний ахборот муҳитини шакллантириш ва ҳоказо. [2] Қуйида Ўзбекистоннинг тинчлик ва барақарорликни сақлашдаги тажрибаларини келтириб ўтмоқчимиз. Дастлаб Ўзбекистон Республикасиинг халқаро муносабатларнинг субъекти сифатидаги мақоми ва халқаро ташкилотлар тамонидан эътироф этилиши мамлакатимиз тараққиёти учун муҳим. Бугун Ўзбекистон БМТга аъзо бўлганидан бери 40 та мамлакатда

элчихона ва консулхонасини очди. Ўз навбатида, юртимизда 42 мамлакатнинг элчихона ва ваколатхонаси фаолият юритади. Республикамиз деярли барча давлатлар билан дипломатик алоқаларни ўрнатган. Бу алоқаларни ижтимоий-фалсафий нуқтаи назардан умумлаштирсак, Ўзбекистон Республикасининг дунёда тинчлик ва барқарорликни таъминлаш концепцияси аён бўлади. Унга:

-жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашув;

-диний экстремизм, ақидапарастлик, наркобизнес ва халқаро терроризмга қарши кураш;

-Марказий Осиёда тинчлик ва барқарорликни таъминлаш;

-тинчлик ва барқарорликни таъминлашга қаратилган нуфузли халқаро ташкилотлар фаолиятини қўллаб-қувватлаш ҳамда улар фаолиятида қатнашиш;

-глобал тинчлик ва барқарорлик учун янги ташаббуслар, таклифлар билан чиқиш кабилар киради.

Жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашув Ўзбекистон ташқи сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Мазкур интеграцияда ижтимоий-иқтисодий ҳамкорлик муҳим ўрин тутади. Бугунга келиб Ўзбекистон жаҳондаги 140 дан зиёд давлатлар савдо ва иқтисодий алоқалар олиб боради. Шулардан 42 таси билан ўзаро савдода қулайлик бериш режими тадбиқ этилган, 47 та давлат билан инвестицияларни ўзаро ҳимоя қилиш бўйича битимлар имзолаган.[3]

Янги таҳрирдаги Бош қомусимизнинг энг муҳим жиҳатлари шундан иборатки, Конституциянинг 1-моддасида мамлакатимиз ҳуқуқий давлат сифатида эътироф этилди. Қолаверса, суверен давлат мақомини мустаҳкамлаш, хусусан, янги синовлар ва таҳдидлар шароитида миллий манфаатлар устуворлигини таъминлаш, ўзаро ишонч ва ҳамкорликка асосланган ташқи сиёсатни давом эттириш устувор вазифа сифатида белгиланди. Шунингдек, Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти, қўшни давлатлар билан дўстона муносабатларни «давлатларнинг ҳудудий яхлитлиги» ва «тинчликсевар ташқи сиёсат» принциплари асосида суверен давлат мақомини мустаҳкамлаш бўйича ҳуқуқий асосларни кучайтириш, янги синовлар ва таҳдидлар шароитида миллий манфаатлар устуворлигини таъминлаш бўйича амалий чоралар кўриш, ўзаро ишонч ва ҳамкорликка асосланган ташқи сиёсатни давом эттириш масалаларини қамраб олади.

Шунингдек, Ўзбекистоннинг тинчлик ва барқарорлик борасидаги ташаббуслари 2023 йил 11 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони билан қабул қилинган «Ўзбекистон – 2030» стратегиясидир. Мазкур стратегияда 5 устувор йўналиш бўйича 100 та муҳим мақсад ўз аксини топган бўлиб, ўз ичига барқарор иқтисодий ўсиш орқали даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар қаторидан ўрин олиш, аҳоли талабларига ва халқаро стандартларга тўлиқ жавоб берадиган таълим, тиббиёт ва ижтимоий ҳимоя тизимини ташкил қилиш, аҳоли учун қулай экологик шароитларни яратиш, халқ хизматидаги адолатли ва замонавий давлатни барпо этиш, мамлакатнинг суверенитети ва хавфсизлигини кафолатли таъминлаш каби асосий ғояларни ўз ичига олган. Мазкур стратегиянинг бешинчи йўналишида:[4]

дунёдаги мавжуд мураккаб вазиятда очиқ, прагматик, фаол ва яхши қўшничилик ташқи сиёсати олиб борилишини изчил давом эттириш;

ҳамкор мамлакатлар билан ва нуфузли халқаро ташкилотлар доирасида минтақавий ва глобал масалалар бўйича мувозанатли ва доимий мулоқотлар ўрнатиш;

барча қўшни давлатлар билан яхши қўшничилик ва стратегик шериклик муносабатларини жадал ривожлантириш, сиёсий, иқтисодий, маданий ва гуманитар йўналишлардаги икки ва кўп томонлама музокараларни мунтазам ва самарали олиб бориш;

Марказий Осиё минтақасида амалий ҳамкорликни сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш;

анъанавий шериклар билан ўзаро манфаатли алоқаларни ривожлантириш, халқаро ҳамкорлик географиясини кенгайтириш, глобал ишлаб чиқариш ва етказиб бериш занжирларига қўшилиш;

Жаҳон савдо ташкилотига тўлақонли аъзо бўлиш;

хорижда истиқомат қилаётган ватандошларни қўллаб-қувватлаш, улар билан доимий мулоқот тизимини жорий этиш;

мамлакатимиз хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш бўйича ислоҳотлар;

чегаралар хавфсизлигини мустаҳкамлаш ва жамиятда миллатлараро тотувлик муҳитини мустаҳкамлаш ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини ривожлантириш каби мақсадлари белгиланган.

Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Ўзбекистон дунёга тинчлик ва барқарорликни таъминлаш бўйича олиб бораётган ҳаракатлари негизида Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июндаги “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусида ўтказилган анжумандаги нутқида Ўзбекистоннинг дунё ва минтақадаги ташқи сиёсати дунёдаги, айниқса қўшни давлатлар билан ҳамкорлик алоқларини ривожлантиришга, “улар билан рақобат қилиш эмас, балки ҳамкорлик алоқаларини кучайтириш, умумий муаммоларни биргаликда ечишдан иборат”,[6] деган концептуал фикрлари мазмунида ифодаланади. Шундан келиб чиқиб, айтиш лозимки, тараққиётнинг янги босқичида Ватанимиз ички ва ташқи тинчликни таъминлашда Ўзбекистоннинг ўз стратегик мақсади, модели бор эканлигини англатади. Бу мақсад, модел ташқи сиёсатда:

- жаҳонда тинчлик ва барқарорликни асраш, мустаҳкамлашга қаратилган халқаро ҳаракатларни, ташкилотлар фаолиятини, лойиларини қўллаб-қувватлаш;

- давлатларнинг ички ишларига аралашмасдан улар билан маданий-гуманистик, ижтимоий-иқтисодий, халқ дипломатияси йўли билан икки ва кўп томонлама алоқалар ўрнатиш;

Ички сиёсатда:

- мавжуд полиэтник муносабатларни, маданиятлараро интеграцияни чуқурлаштириш;

- фуқаролар онгида, ҳаёт тарзида бағрикенглик, ўзаро ҳамкорлик, бунёдкорлик, аҳиллик ғояларини шакллантириш;

- миллати, ирқи, тили ва эътиқодидаги ҳар хилликдан қатъий назар барчани ислоҳотлар жараёнларига, жамиятни модернизациялашга, социокреатив изланишларга жалб этиш;

- инсон ҳуқуқи ва эркинликларини таъминлаган ҳолда ижтимоий онгда умуминсоний қадриятларга содиқликни, жамият билан муросада, иттифоқда, конструктив мулоқотда яшаш истагини шакллантириш;

- кишилараро муносабатларни, оиладаги, маҳалла ва меҳнат жамоаларидаги муҳитни ишчанлик, тадбиркорлик, ижодий рақобат, юксак маънавий идеалга асосланиб қуриш кабилардан иборатдир.

МУНОЗАРАЛАР

Инсон, унинг ҳаёти, тинчлиги барқарор ривожланиш имкониятларига эга бўлиши Ўзбекистон учун олий қадриятдир. Юрт тинчлиги, мамлакатимизнинг барқарор ривожланиши инсон қалбидан, унинг маънавий оламидаги гўзал ва олийжаноб мақсадлардан бошланади. Юксак маънавиятли янги авлодни тарбиялаш стратегик мақсадимиз, жамиятимиз орзу тилаги, идеалидир. Тинчлик ва барқарорлик ушбу тилак ва идеалга ҳамоҳанг феноменлар ҳисобланади.[7]

Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида ички ва ташқи тинчликни, барқарорликни асраш борасидаги сиёсати: 1) миллий манфаатлар устуворлиги; 2) бошқа давлатларнинг ички ишларига аралашмаслик; 3) ўзаро фойдали интеграция тамойилларига асосланган. Миллий манфаатлар негизида Ўзбекистонда демократик ҳуқуқий давлат, фуқаролик жамияти барпо этиш, тинчлик ва барқарорликка асосланган социокреатив муҳитни яратиш, миллатлараро муносабатларни мустаҳкамлаш, халқ билан бевосита мулоқотни йўлга қўйиш ётади. Бугун Ўзбекистон халқи давлат ҳокимиятининг чин субъекти эканини, мамлакатдаги вазият, аҳвол ва тараққиёт жараёнлари унинг ижтимоий фаоллиги маҳсули эканига иқрор бўлмоқда. Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг ички ва ташқи сиёсати халқни, барча миллат ва элат вакилларини мамлакатдаги ислоҳотларнинг фаол субъектларига айлантиришга, тинчлик ва барқарорлик барчанинг ижтимоий бурчи, вазифаси, орзу тилакларининг маҳсули эканини англаб етишга имкон туғдирган. Мазкур фундаментал аҳамиятга эга ёндашув, сиёсат Республикамизнинг ички ва ташқи тинчликни, барқарорликни белгилаб бермоқда.Ўзбекистон мустақил давлат, халқаро муносабатларнинг фаол актори, субъекти сифатида жаҳон ҳамжамияти ҳаётига, айниқса дунёда тинчлик ва барқарорликни таъминлашга муносиб ҳисса қўшмоқда. Унинг бу борадаги модели ва концепцияси конструктив ҳамкорликка, интеграцияга ва глобал тинчликни таъминлашга қаратилган. Унинг Марказий Осиёни ядро қуролидан холи зонага айлантириш, Афғонистонда тинч воситалар билан барқарорликни таъминлаш, наркобизнес, террорчилик ва сепаратизм ҳаракатлари содир бўлаётган ҳудудларда тинчликни биргаликда, тез, ўз вақтида ўрнатиш, қочоқлар муаммоларини ҳар бир давлат қонун-тартибларидан келиб чиқиб ҳал қилиш борасидаги ташаббуслари, амалий сайъ-ҳаракатлари ижобий баҳоланмоқда. Уруш фалсафаси ўрнига Ўзбекистон тинчлик фалсафасини тавсия этади. Унинг моҳияти инсон ҳаётини асраш, борлиқни гуманизм тамойилларига қуриш, низоларни консенсус, ҳамкорлик, шериклик талабларига мувофиқ ҳал этишдан иборат.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида юқоридаги таҳлилларга таяниб, Ўзбекистон тараққиётининг бугунги босқичида дунёда бўлаётган нотинчликлар, турли хил таҳдид ва хавфларга нисбатан

гуманизимга асосланган фалсафа асосида ўзининг консенсус ва ҳамкорликга асосланган ташаббусларини илгари суради ва уларга нисбатан содиқлик сиёсатини олиб боради деб айтиш мумкин. Зеро, тинчлик ва омонлик. Оддий, аммо дунё қадар чуқур маънони ўзига жо этган шу икки калом замирида ривожланиш, тараққиёт ва фаровонлик тушунчалари мужассамлашади. Демак, Ўзбекистон бу йўлда барча имкониятларни ишга солиб, “Хавфсизликка таҳдидларни “ўзиники ва ўзгаларники” деб ажратишдан воз кечиш, “яхлит хавфсизлик” тамойилига амалда риоя қилиш зарур” деган тамойилга амал қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йил 7 апрелдаги Парламентлараро Иттифоқнинг 150-Ассамблеясидаги нутқи.// https://president.uz/uz/lists/view/8034

2. Пахрутдинов Ш.И. Дунёвий демократик давлатчилик қурилиши амалиётида диний экстремизм таҳдиди . Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. – Тошкент: 2001, – Б.189-190.

3. Тўхлиев Н. Ўзбек модели: тараққиёт моделлари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2014. – Б. 104-111.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги ПФ-67-сон Фармонига 1-ИЛОВА Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясидан келиб чиқадиган вазифаларни амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар дастури.// https://lex.uz/acts/6461609

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони.// https://lex.uz/ru/docs/6600413

7. Мирзиёев Ш. 2017 йил 15 июнда Тошкентда ўтказилган “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусида ўтказилган анжумандаги нутқи.//Халқ сўзи, 2017 йил 16 июнь.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

UDK: 1(091)+165.742+37.013.42

Qo‘chqarov Oybek G‘ulomovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: oykuchkarov@mail.ru

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

INTEGRATION OF VOCATIONAL EDUCATION AND LABOR MARKET: DUAL EDUCATION AS A PHILOSOPHICAL MODEL OF ADAPTATION

Abstract: The article is devoted to a socio-philosophical analysis of dual education as a form of integrating academic knowledge with practical training. The role of dual education in shaping professional identity, human capital, and social mobility is emphasized. The German model is considered a representative example, while its adaptation in Uzbekistan is viewed as part of a global educational trend. The article employs a comparative-philosophical method, interpreting dual education as a new social contract between the state, business, and the individual.

Keywords: vocational education, labor market, integration, dual education, adaptation model, education-production alignment, skilled workforce training, socio-economic coherence, improving education quality, adaptation to labor market demands.

ИНТЕГРАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНКА ТРУДА: ДУАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК ФИЛОСОФСКАЯ МОДЕЛЬ АДАПТАЦИИ

Аннотация: Статья посвящена социально-философскому анализу дуального образования как формы соединения академических знаний и практической подготовки. Подчеркивается роль дуального образования в формировании профессиональной идентичности, человеческого капитала и социальной мобильности. Немецкая модель рассматривается как репрезентативный пример, её адаптация в Узбекистане - как часть глобального образовательного тренда. В статье применяется метод сравнительно-философского анализа, интерпретирующий дуальное образование как новый общественный договор между государством, бизнесом и личностью.

Ключевые слова: профессиональное образование, рынок труда, интеграция, дуальное образование, модель адаптации, согласование образования и производства, подготовка квалифицированных кадров, социально-экономическая согласованность, повышение качества образования, адаптация к требованиям рынка труда.

KASB-HUNAR TA’LIMI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI: DUAL TA’LIM – MOSLASHUVNING FALSAFIY MODELI

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Аннотация: Ushbu maqola akademik bilim va amaliy tayyorgarlikni birlashtiruvchi shakl sifatida dual ta’limning ijtimoiy-falsafiy tahliliga bag‘ishlangan. Dual ta’limning kasbiy identifikatsiyani shakllantirish, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy mobillikni ta’minlashdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Nemis modeli namunali tizim sifatida ko‘rib chiqiladi, uning O‘zbekistonga moslashtirilishi esa global ta’limiy tendensiyalarning bir qismi sifatida baholanadi. Maqolada dual ta’limni davlat, biznes va shaxs o‘rtasidagi yangi ijtimoiy kelishuv sifatida talqin qiluvchi qiyosiy-falsafiy tahlil usuli qo‘llanilgan.

Kalit so‘zlar: kasb-hunar ta’limi, mehnat bozori, integratsiya, dual ta’lim, moslashuv modeli, ta’lim va ishlab chiqarish uyg‘unligi, malakali kadrlar tayyorlash, ijtimoiy-iqtisodiy muvofiqlik, ta’lim sifatini oshirish, mehnat bozori talablariga moslashish.

KIRISH

Hozirgi tez o‘zgarayotgan ijtimoiy dunyo sharoitida ta’lim nafaqat bilimlarni uzatish mexanizmi, balki ijtimoiylashish, iqtisodiy moslashuv va professional identifikatsiya shakllanishining asosiy instituti sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy davr — postindustrial jamiyat, raqamlashtirish, avtomatlashtirish va mehnat bozoridagi o‘sib borayotgan beqarorlik davrida — an’anaviy ta’lim modellarini transformatsiya qilish zarurati ortmoqda. Sanoat jamiyatidan axborot va kognitiv turga o‘tish akademik va amaliy bilimlarning yaqinlashishi, ta’lim muassasalari, biznes va davlat o‘rtasidagi yangi o‘zaro ta’sir shakllarining paydo bo‘lishi bilan kechmoqda [7, 115].

An’anaviy chiziqli ta’lim, asosan nazariy tayyorgarlikka yo‘naltirilgan, samaradorligini yo‘qotmoqda: diplom o‘zi bilan bandlikni kafolatlamaydi, oliy ta’limda o‘qitilayotgan va amaliyotda talab qilinayotgan bilimlar o‘rtasidagi tafovut yanada sezilarli bo‘lmoqda. Bu muammolar bilim bilan birga haqiqiy professional ko‘nikmalarni shakllantira oladigan moslashuvchan, integrativ ta’lim modellariga talabni yuzaga keltirmoqda [14, 118].

Shunday modellaridan biri — ta’lim va mehnat komponentlarini birlashtirgan, talabaga nazariyani o‘quv muassasalarida o‘rganish va uni ishlab chiqarish muhitida qo‘llash imkonini beruvchi dual ta’limdir. Bu mutaxassislarni tayyorlash jarayonini yanada dinamik, kontekstga mos va ijtimoiy ahamiyatga ega qiladi. Dual ta’lim ko‘pincha pedagogik yangilik emas, balki yoshlarni ijtimoiy moslashuv mexanizmi sifatida ko‘riladi, ishsizlik darajasini pasaytirish, professional integratsiya vaqtini qisqartirish va ta’lim hamda iqtisodiyot o‘rtasidagi institutlararo aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi [11, 45].

Dual ta’limga bo‘lgan falsafiy qiziqish uning samaradorligida emas, balki uning qadriyatli, antropologik va etik mazmunida ham yotadi. Bu tizim shaxsni mehnat sharoitida shakllantirish, professional rivojlanishga mas’uliyat va inson potensialining amalga oshirilish shakli sifatidagi mehnat tabiatining o‘zgarishi masalalarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, dual ta’lim shaxs, davlat va ish beruvchi o‘rtasidagi yangi ijtimoiy shartnoma shakli sifatida talqin qilinishi mumkin.

Maxsus qiziqish Germaniya dual ta’lim modeli — Duales Studium — ga to‘g‘ri keladi, u O‘zbekistonga ham kirgan o‘nlab mamlakatlardagi shunga o‘xshash dasturlarning prototipi bo‘ldi. Ushbu modelning O‘zbekiston kasb-hunar ta’lim tizimiga joriy etilishi ta’lim amaliyotlarining globalizatsiyasini va madaniy-iqtisodiy haqiqatlarga lokal moslashuv zaruratini ko‘rsatadi [2, 33].

Ushbu maqolada dual ta’lim ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida ko‘rib chiqiladi, u institut, qadriyat va amaliy darajalar kesishmasida ochib beriladi. Ayniqsa, uning ijtimoiy vazifalari, inson kapitalini shakllantirishdagi roli va barqaror rivojlanish vositasi sifatidagi potentsialiga e’tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot metodologik asosi klassik sotsiologiya, ta’lim nazariyasi va tanqidiy ijtimoiy falsafa elementlarini o‘z ichiga olgan multidisipliner va ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida shakllangan. Dual ta’lim ushbu tahlilda faqat institut modeli sifatida emas, balki mehnatga, bilimlarga va ijtimoiy mas’uliyatga munosabatni shakllantiruvchi qadriyatga boy amaliyot sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunday yondashuv individual ta’lim yo‘nalishlari bilan ijtimoiy tuzilmalar, shaxs va tizim o‘rtasidagi munosabatlarni tushuntiruvchi nazariy modellarni jalb qilishni talab qiladi [7, 132].

Markaziy metodologik asos sifatida turli milliy va madaniy dual ta’lim modellari taqqoslanib, universal xususiyatlar va o‘ziga xos farqlar aniqlanadigan taqqoslash-falsafiy tahlil xizmat qiladi. Bu yondashuv ta’limni neytral bilim uzatish emas, balki ijtimoiy reproduktsiya va madaniy translyatsiya shakli sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Tadqiqotda Yu. Habermasning kommunikativ harakat va legitimlik konsepsiyasiga oid ishlari qo‘llaniladi, unda ta’lim mantiqiy sub’yektni shakllantirish maydoni sifatida talqin qilinadi, u ma’noli o‘zaro ta’sir tizimiga kiradi [3, 51]; P. Burdyoning ta’lim maydoni va madaniy kapital nazariyasi orqali dual ta’lim amaliyotlari ijtimoiy ierarxiyalarni qanday mustahkamlashi yoki aksincha o‘zgartirishini tahlil qilish imkoniyati [4, 35]; T. Parsons ta’limni ijtimoiylashish va integratsiyaning asosiy instituti sifatida ko‘rib, ijtimoiy tizimning barqarorligi va reproduktsiyasini ta’minlashiga e’tibor qaratadi.

Shuningdek, G. Bekker va T. Shults inson kapitali haqidagi fikrlari hisobga olinadi, unda bilim va ko‘nikmalar mehnat samaradorligi, daromad va ijtimoiy maqomga ta’sir qiluvchi investitsiyalar sifatida qaraladi. Dual ta’lim nazariy va amaliyotni birlashtirgan inson kapitaliga eng maqbul investitsiya shakli sifatida tushuniladi [5, 70].

Bundan tashqari, quyidagi usullar qo‘llaniladi:

– O‘zbekiston va Germaniya qonunchiligi, UNESCO va OECD hisobotlari kabi normativ hujjatlar kontent-tahlili;

– dual ta’limning hunarmandlar gildiyalaridan Duales Studium zamonaviy shakllargacha evolyutsiyasini o‘rganadigan taqqoslash-tarixiy tahlil;

– davlat, o‘quv muassasalari va korxonalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini o‘rganadigan institutlararo tahlil.

Ushbu kompleks metodologik vositalar dual ta’limni ta’lim, mehnat va madaniyat kesishmasida joylashgan fenomen sifatida tushunishga, uni falsafiy, etik va strategik ahamiyatga ega ijtimoiy innovatsiya sifatida ochishga imkon beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dual ta’lim nazariyani va amaliyotni bog‘lovchi institut shaklida bir nechta asosiy ijtimoiy va falsafiy vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, u faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim prinsipini amalga oshiradi, bu yerda ta’lim ishlab chiqarish faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bunday yondashuv professional identifikatsiyani ta’lim jarayonida shakllantirishga yordam beradi, talabalar o‘zlarini faqat o‘quvchi sifatida emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etayotgan kelajakdagi (yoki qisman allaqachon amalga oshirilgan) mutaxassis sifatida qabul qilishlariga imkon yaratadi. Bu esa ijtimoiylashuv jarayonlarini tezlashtiradi va universitetdan ishga o‘tishda yuzaga keladigan frustratsiyani kamaytiradi.

Ikkinchidan, dual ta’lim davlat, biznes va shaxs o‘rtasidagi yangi ijtimoiy shartnoma shaklidir [7, 140]. Ushbu modelda davlat normativ bazani va institut infrastrukturani ta’minlaydi, biznes ta’limning amaliy qismini va qisman moliyalashtirishni amalga oshiradi, shaxs esa professional rivojlanishda faol ishtirok etadi [12, 23]. Rol taqsimoti jarayon ishtirokchilarining ijtimoiy birligi kuchayishiga olib keladi va barqaror hamkorlik modellarini shakllantirish shart-sharoitlarini yaratadi.

Misol sifatida Germaniya Duales Studium tizimi keltiriladi, unda talabalar vaqtning bir qismini universitetda, qolgan qismini esa korxonada o‘tkazadilar. Ular nazariy tayyorgarlik olib, shu bilan birga ko‘pincha ishga joylashadigan tashkilotda amaliy bilimlarni qo‘llaydilar. Dastur tugagandan so‘ng 74% dan ortiq talabalar kompaniyalarda qoladi, bu modelning yuqori ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatadi [8, 15].

Inson kapitali nuqtai nazaridan bitiruvchilar nafaqat akademik malaka, balki ishlab chiqarish kompetentsiyalarini, jumladan yumshoq ko‘nikmalar, moslashuvchanlik, jamoada va haqiqiy mehnat bosimi ostida ishlash qobiliyatini olishadi [5, 80]. Bu ularni raqobatbardosh qiladi va kompaniyalarning yangi xodimlarni qo‘shimcha o‘qitish xarajatlarini kamaytiradi.

Dual ta’limning ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlili uni samarali pedagogik model sifatida emas, balki zamonaviy ijtimoiy tuzilmaning muhim o‘zgarish elementi sifatida ko‘rishga imkon beradi. U universal akademik tayyorgarlikning inqirozi, amaliy ko‘nikmalar tanqisligi, ijtimoiy parchalanishning o‘sishi hamda ta’lim va bandlik o‘rtasidagi aloqaning zaiflashishiga javob bo‘ladi. Dual ta’limning asosiy falsafiy ta’sirlaridan biri ta’lim identifikatsiyasining qayta shakllanishidir. Klassik tizimda ta’lim mehnat sohasiga kirishdan oldingi bosqich deb qaralgan bo‘lsa, dual model o‘qish va professionalizatsiya chegaralarini yo‘q qiladi, yangi, gibrid «o‘quvchi-mutaxassis» identifikatsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Bu postindustrial jamiyat sharoitida juda muhim, chunki shaxs qayta tayyorgarlikdan o‘tishga, moslashishga va o‘z yo‘lini anglashga qodir bo‘lishi lozim.

Pyer Burdyoga ko‘ra, dual ta’lim ijtimoiy tengsizlikni reproduktsiya qilish an’anaviy mexanizmini buzadi: korxonalar ishtiroki va erta ishga joylashish imkoniyati kam imtiyozli ijtimoiy guruh vakillariga, ayniqsa viloyatlardan yoki ijtimoiy zaif qatlamlardan kelgan yoshlar uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratadi [4, 43]. Ammo Burdyo ogohlantirishicha, bu faqat kapital (madaniy va ijtimoiy kapital ham) institutlararo kafolatlar va mehnat sharoitlari nazorati orqali qoplanadigan hollarda ishlaydi.

Habermas nuqtai nazaridan dual ta’lim kommunikativ harakat shakli sifatida ko‘rilishi mumkin, bu yerda shaxs, bozor va ta’lim institutlari mantiqiy dialogga kirishadi. Talaba xizmatlar passiv iste’molchisi emas, balki ijtimoiy almashinuv tizimida, shu jumladan axloqiy almashuvda faol

sub'yekt hisoblanadi. Ta'lim bunday holatda nafaqat utilitar funktsiyani bajaradi, balki fuqarolik jamiyati uchun juda muhim bo'lgan avtonomiya, mas'uliyat va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi [3, 55].

Dual ta'limning etik jihati katta ahamiyatga ega. U nafaqat professional muvaffaqiyat yo'lini taklif qiladi, balki halol mehnat, haqli kompetentlik va tan olinish imkonini beradi, bu ayniqsa yoshlar ishsizligi yuqori bo'lgan yoki ta'limning qadrsizlanishi kuzatiladigan jamiyatlarda muhimdir. Shunday qilib, dual ta'lim ijtimoiy adolat shakli bo'lib, faqat imtihonlar yoki o'quv muassasasi maqomi orqali emas, balki haqiqiy amaliy ish orqali kasbga kirish imkonini beradi. O'zbekiston kabi mamlakatlarda, dual model davlat, biznes va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani, g'arb modelini shunchaki nusxa ko'chirish emas, balki mintaqaviy o'ziga xosliklar, milliy qadriyatlar va iqtisodiyotning haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olgan madaniy moslashtirilgan format yaratish imkoniyatini beradi [12, 40].

Bundan tashqari, dual ta'lim qadriyatlarni uzatish shakli sifatida qaralishi mumkin, bunda mehnat etikasi, professional birdamlik, aniqlik va mustaqillik kabi sifatlar abstrakt shaklda emas, balki bevosita o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali uzatiladi. Bu ta'limga insoniy o'lchovni qaytaradi, u ommaviy raqamlashtirish va bilimlarning byurokratlashuvi davrida yo'qolgan edi.

Shunday qilib, dual ta'limni falsafiy tushunish shuni ko'rsatadiki, bu nafaqat metodika, balki amaliyotga yo'naltirilgan, etik motivatsiyalangan va ijtimoiy adolatga asoslangan yangi ta'lim fikrlash turi. Dual ta'lim bu nazariya va amaliyot o'rtasidagi ko'prik, shuningdek inson va jamiyat, individual biografiya va mehnat tuzilmasi o'rtasidagi ko'prikdir.

XULOSA

Dual ta'lim zamonaviy jamiyatda nafaqat innovatsion pedagogik model, balki nazariy bilim va amaliy harakatning yaqinlashuviga doir asosiy ijtimoiy-falsafiy amaliyot sifatida namoyon bo'ladi. Mehnat, raqamlashtirish va global ijtimoiy tengsizlik transformatsiyalari sharoitida ushbu tizim shaxsni ijtimoiy jarayonlarga integratsiya qilish vositasi bo'lib, nafaqat professional tayyorgarlik, balki mas'uliyatli, mustaqil va malakali sub'yektni shakllantirishni ta'minlaydi. Tadqiqot ko'rsatdiki, dual tizim barqaror professional identifikatsiya shakllantirishga, mehnat bozoriga kirishni kengaytirishga, inson kapitalini rivojlantirishga, ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, yoshlarning ijtimoiy izolyatsiyasi va ajralishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Falsafiy nuqtai nazardan dual ta'lim shaxsga haqiqiy ishlab chiqarish sharoitida o'zini amalga oshirish imkonini beruvchi yangi ijtimoiy shartnoma shakli sifatida ko'rilishi mumkin, jamiyat esa malakali va motivatsiyalangan mutaxassislar tayyorlashning ishonchli mexanizmini qo'lga kiritadi.

Kelajakda dual ta'limning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini chuqur o'rganish, uning fuqarolik jamiyati va ijtimoiy adolatdagi o'rnini kengroq tahlil qilish zarur. Bu ta'lim tizimining barqarorligini va ijtimoiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Соколов В.А. Философия образования: концепции и перспективы. - М.: Логос, 2018. - 256 с.
2. UNESCO. Dual Training Systems: Global Trends and Future Challenges. - Paris, 2020. - 48 p.
3. Хабермас Ю. Техника и наука как идеология. - М.: Прогресс, 1991. - 320 с.
4. Бурдьё П. Социальное пространство: поля и практики. - СПб.: Алетейя, 2005. - 400 с.
5. Беккер Г. Человеческий капитал: Теоретический и эмпирический анализ. - М.: ГУ ВШЭ, 2003. - 310 с.
6. Duale Hochschule Baden-Württemberg. URL: https://www.dhbw.de (дата обращения: 22.06.2025).
7. Шумкова О.А. Дуальное обучение как эффективная форма подготовки кадров // Образование и наука. - 2021. - №5. - С. 115–120.
8. Berufsbildung in Deutschland. Statistisches Bundesamt, 2023. - 60 p. URL: https://www.destatis.de (дата обращения: 22.06.2025).
9. Parsons T. The Social System. - N.Y.: Routledge, 1991. - 350 p.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
11. Гаджиева Н.Р. Дуальное обучение в странах СНГ: проблемы и перспективы // Педагогика. - 2022. - №2. - С. 20–27.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni davlat dasturi.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" PF-93-sonli Farmoni.
14. Власова Н.В. Cotsиальные аспекты модернизatsии образованиуа в XXI веке // Вестник образованиуа. - 2020. - №6. - С. 120–130.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Adilov Zafar Yunusovich
Ma’mun universiteti “Umumkasbiy fanlar” kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

MAHMUD AZ-ZAMKHSHARI'S PHILOSOPHICAL VIEWS ON BEING

Abstract. This article explores the philosophical perspectives of the eminent 11th–12th century scholar Mahmud az-Zamakhshari on existence, time, and the meaning of life. Drawing from his works such as *Atwaquz-Zahab*, *Al-Kashshaf*, and *Muqaddamat al-Adab*, the paper analyzes his views on the transience of time, the value of human life, and the metaphysical structure of the universe. Zamakhshari presents detailed interpretations of natural phenomena, celestial systems, and the Qur'anic cosmology using Arabic, Persian, and Turkic terminologies. His contributions to linguistic, theological, and philosophical thought remain profoundly relevant.

Keywords: Mahmud az-Zamakhshari, existence, philosophy of time, tafsir, Muqaddamat al-Adab, stars, Qur’anic interpretation, cosmic order.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING BORLIQ HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XI–XII asrlarda yashab ijod qilgan buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariyning borliq, vaqt va hayot haqidagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Allomaning “Atvoquz-Zahab”, “Kashshof” va “Muqaddamat ul-Adab” asarlarida mavjudlik, vaqtning o‘tkinchiligi, umrning qadri, tabiiy olam hodisalari va Qur’oni karim tafsiridagi kosmik tartib haqida bergan izohlari bugungi kunda ham dolzarbdir. U zamon, makon, tabiat va yulduzlar tizimi haqida turkiy, arabiy va forsiy tillarda keng tafsilot beradi. Zamaxshariyning tafsir, tilshunoslik va hikmatga boy qarashlari falsafa va tafakkur madaniyatining boy namunasi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Mahmud az-Zamaxshariy, borliq, vaqt falsafasi, tafsir, Muqaddamat ul-Adab, yulduzlar, Qur’on tafsiri, kosmik tartib.

ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ МАХМУДА АЗ-ЗАМХШАРИ НА БЫТИЕ

Аннотация. В статье рассматриваются философские взгляды выдающегося мыслителя XI–XII веков Махмуда аз-Замахшари на бытие, время и смысл жизни. На основе его трудов - «Атвоқуз-Захаб», «Кашшаф» и «Мукаддамат аль-Адаб» - анализируется его отношение к преходящей природе времени, ценности жизни и организации мира. Учёный подробно описывает феномены природы, движения небесных тел и даёт лингвистические и


International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

философские объяснения на трёх языках: тюркском, арабском и персидском. Его богословские и философские идеи остаются актуальными и в наше время.

Ключевые слова: Махмуд аз-Замахшари, бытие, философия времени, тафсир, Мукаддамат аль-Адаб, звезды, Коран, космос.

Kirish. XI–XII asrlarda yashab o‘tgan buyuk mutafakkir, Fahru’l-Xorazm, Ustazu’l-Arab va’l-Ajam, Jorulloh nomli unvonlar sohibi Mahmud Zamaxshariy va uning ilmiy ma’naviy merosini yaxshiroq tushunish va tahlil qilish bugungi kunda nihoyatda muhimdir. Allomaning ilmiy merosi uni nafaqat Xorazm, balki butun islom olamida tanilgan yirik namoyondaga aylantirgan. Mahmud az-Zamaxshariy ilm-fan, til va din sohasida yetuk shaxs bo‘lib, uning ilmiy merosi hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U ilm va aqllni birlashtirgan mutafakkir sifatida islom dunyoqarashi va ma’naviyatiga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, allomaning borliq haqidagi falsafiy qarashlari bugungi kunda ham nihoyatda ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mahmud az-Zamaxshariyning «Atvoquz-Zahab fi al-mavaiz va al-xutob» asaridagi “hayot bir soat” nomli uchunchi maqolasida: Umr bo‘ronning o‘tib ketishidek tez tugaydi. Senuni[1]


عُمْرٌ يَنْقَضِي مَرَّ الْإِعْصَارِ (١) ، وَأَنْتَ تَرْجُوهُ مَدَى الْأَعْصَارِ (٢) ،
ضَـلَّةً (٣) لِرَأْيِكَ الْفَـائِلِ (٤) ، فِي ظِـلِّكَ الزَّائِلِ (٥) ، مَـا هُوَ إِلَّا بَيَاضُ
نَهَارِكَ فَتَغَنَّمْهُ ، وَسَوَادُ لَيْلِكَ فَلَا تَنَمْهُ ، وَاتَّبِعْ (٦) مَنْ ضَرَبَ أَكْبَادَ
الْمَطِيِّ (٧) ، حَتَّى أَنَاخَ بِكَنَفِ (٨) وَطِيٍّ (٩) .

asrlar qadar uzoq deb umid qilasan. O‘tib ketuvchi soyang haqidagi bu qarashing naqadar xato vazaif! Umr nima o‘zi? Kunduzingdagi oqlik, hali zamon kun botadi, bas, uni g‘animat bil. Umr bu kechangning koronguligi, halizamon tong otadi, bas, uni uxlab o‘tkazma. Ulovini qamchilayotganlarga ergash, kun keladi karvon to‘xtab, tuyalar cho‘kadi. Allomaning hayot bir soat deb nomlangan maqolasida: Umir inson uchun nihoyatda ahamiyatli bir ne’mat ekanligini uqtiradi. Vaqtdan unumi foydalan, bu vaqt sen ga kayta berilmaydi. Sen ga berilgan umri kecha va kundizdan iborat. U vaqt o‘tkinchi, vaqtni to‘g‘ri chamalay olmaslik havas, orzular og‘ushida bo‘lish xato hamda zaiflikdir, deb ko‘rsatadi. Vaqt shunday bir narsa ki, tong otadi, kun botadi, sen uning qadriga yet. Uni uxlab o‘tkazma, botining vazifalari doimo obod bo‘lsin, deyidi. Umr – soat kabi o‘tkinchi, bu vaqt dir. Vaqtdan unumi foydalanish aqlega sig‘inishdir. Ilm, taqvo, aql va tafakkur orqali vaqt

[1] الزمخشري محمود، أطواق الذهب في المواعظ و الخطب. ألقاهرة: دار الفضيلة، 1993. 55-ص.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

qadriga yetgan insonlarga ergashish hikmatdir. Umr ni imidsiz, ilmsiz, harakatsiz, natijasiz havoga savurish g‘aflatdir, deb xulosach chiqarishimiz mumkin. Ulug‘ alloma Ibn Arabiy «Vaqt va On» risolasida vaqt to‘g‘risida to‘xtalib... ومن هنا قال المتقدمون من علماء الحق إن الوقت هو الحق لاستغراق رسمه في الحق، وقد كشف لنا الحق في الوقت أمراً جليلاً، إن الوقت واحد المشهد، لكنه يختلف باختلاف المقامات، والمقصود ها هنا ذكر وقت المريد الصادق فهو برزخ بين الجلال والجمال، وهو باطنه وباعثه إلى نعت الجمال، وإلى نعت الجلال على السواء. وذلك أن وقت المريد هو آنٌ من الفرد الأحد، الذي هو أجلّ أن يُعبّر بوقت، لنزاهته عن الوقت، وسابقيّته على الفناء والبقاء في شأن الخلق الجديد، المشار بقوله {بَلْ هُمْ فِي لَبْسٍ مِنْ خَلْقٍ جَدِيدٍ}

Avvalgi Haq yo‘lida bo‘lgan ulamolar vaqtni rasman Haqqa g‘arq bo‘luvchi Haq deyishgan. “Bizga kashf bo‘ldiki, vaqt bu juda ulug‘ ishlardan biri. Vaqt bu bir “mashhad”, ya’ni, ko‘rinishdir, biroq maqomlar o‘zgargani sari u ham o‘zgarib boraveradi. Bu joyda esa maqsad muridning vaqti to‘g‘risida bo‘lib, bu vaqt Allohning jaloli va jamoli orasidagi bir barzax, ya’ni oraliqdir. Vaqtning botini va bois ijalol va jamol na’tiga tengdir. Albatta, muridning vaqti yakka va yolg‘iz vaqt deb ataluvchi, aslida vaqt dan ozoda (bo‘lak) dan iboratdir. U fano da sobiq bo‘ladi, baqoda esa yangi xil qatnashning sha’nida bo‘ladi. Bu oyat shunga ishora qiladi: “Ular yangidan xalq qilinishlariga shubha dadirlar” (Qof: 15-oyat). Vaqtni o‘tkinchi ekanligini bilish, sezish. Kishining ma’naviy tafakkuri oshgani sari vaqt haqidagi qarashlari o‘zgaradi, uning qadriga yetadi. Inson Allohning (Jalol) tengsiz qudrat sohibi barcha holning biladigan zotligini anglab yetish orqali Jalol sifatidan umid qilishidir. Fano (o‘tkinchi dunyo) da Jalol sifat bilan no‘rlansa, baqoda (abadiy hayot) Jalolga erishadi. Allomaning Kashshoftafsiridagi Sajda surasi, 4-oyatida:

{ ٱللَّهُ ٱلَّذِى خَلَقَ ٱلسَّمَـٰوَ تِ وَٱلْأَرْضَ وَمَا بَيْنَهُمَا فِى سِتَّةِ أَيَّامٍ ثُمَّ ٱسْتَوَىٰ عَلَى ٱلْعَرْشِ ۖ مَا لَكُم مِّن دُونِهِۦ مِن وَلِىٍّ وَلَا شَفِيعٍ ۚ أَفَلَا تَتَذَكَّرُونَ }

U osmonlaru yerni va ularning orasidagi narsalarni olti kunda yaratgan, so‘ngra Arshni egallagan zotdir. Siz uchun undan o‘zga do‘st ham, shafoatchi ham yo‘qdir.

Tafsiri:

وَهُما لَكُم مِن دُونِهِ مِن وَلِيٍّ وَلَا شَفِيعٍ.

قلت: هما على معنيين احدهما: انكم اذا جاوزتم رضاه لم تجدوا لانفسكم وليا اي ناصرا ينصركم ولا شفيعا يشفع لكم، والثاني: ان الله **وَهُما لَكُم مِن** :وليكم التي يتولى مصالحكم وشفيعكم اي: ناصركم على سبيل المجاز لان الشفيع ينصر المشفوع له، فهو كقوله تعالى **دُونِهِ مِن وَلِيٍّ وَلَا نَصِيرٍ**، فاذا خذلكم لم يبق لكم ولي ولا نصير.

“Siz uchun undan o‘zga do‘st ham, shafoatchi ham yo‘qdir” oyatida men aytamanki, ikki ma’no bordir. Birinchisi, “Agar uning rizosini topmasangiz, sizga yordam beradigan bironta do‘st va shafoat qiluvchini topaolmaysiz”. Ikkinchisi, “Alloh sizlarning yaxshi ishlaringizni boshqarib turuvchi do‘st va shafe’dir”[2]. Inson uchun Allohdan yaqin do‘st va himoyachi yo‘qdir. Rahmat va marhamat egasi u zotdir.

Vaqt muhim falsafiy tushunchadip. Vaqt falsafiy tushunchasi olam atpibuti bo‘lib, bapcha ob’ektlap mavjudligining davomiyligi va holatlar almashinuvining izchilligini xarakteplaydi. Qadimdan hozirgi kungacha bu muammo faylasuflarning baxs mavzusi bo‘lgan va bo‘lmoqda. Sitsepon “Falsafa Falesdan boshlanadi, u birinchi edi”, deb aytadi. Ana shu inson, ya’ni Fales: “Hammadan donoroq narsa nima?” degan savolga, “Vaqt” deb javob berib, chunki yolg‘iz vaqtgina

[2] الزمخشري محمود. تفسير الكشاف، بيروت: دار المعرفة. 2009. 842-ص.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

hamma narsani oydinlashtipadi[3], degan. Qadimgi Yunonstondagi yetti yetakchi faylasuflarning biri pienalik Biant: “Eng yaxshi maslaxatchi kim?” deb so‘raganda, “Vaqt” degan. Boshqa yunon faylasufi Lukpesiy Tit Kap – “Vaqt ildamlagani sayin bu yumalarning mohiyati ham o‘zgara boradi”, degan. O‘rta asr faylasufi italiyalik Foma Akvinskiy: “Vaqt va mangylikayni bir narsa emas”, “Boesiyning fikricha, vaqt va mangylik o‘rtasidagi fapq shundaki, mangylikning xar bip lahzasi yahlit voqelikdan iborat”. Vaqt esa bunday sifatdan maxrumdip. Mangylik – mavjudlik mezoni bo‘lsa, vaqt – harakat mezoni, “Vaqtning cheki yo‘q, deydilar. Lekin uning ma’lum bir bo‘lagini olib boshlanishi va tugash nuqtasini belgilash mumkin. Masalan, biz kun yoki yilning boshlanishi va ohiri haqida gapiramiz. Ammo mangulik haqida bunday deya olmaymiz. U bunday sifatdan xolidir, degan so‘zlari. Mahmudaz-Zamaxshariyning vaqt umr to‘g‘risidagi falsafiy qarashlarining ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mahmudaz-Zamaxshariy “Muqaddamatul-adab” asarida borliqning mavjudlik atributi hisoblangan Vaqtni quyidagicha tariflaydi;

وَقتٌ, أوْقَاتٌ ج vaqt, avqot *j*	هنگام hangom	{vaqt, payt}
دَهْرٌ, دُهُورٌ ج, أدْهَارٌ ج dahr, duhỳr*j*, adhor*j*	روزگار دراز ro‘zgori daroz	{uzoq muddat, vaqt}
أبَدًا abado	همیشه hamisha	{hamma vaqt}
مُذْ muz	از آن وقت باز Azon vaqt boz	{o‘sha vaqtdan boshlab}
مُذْ muz	أنكاه, وقت آینده, در زمان گذشت ongoh, vaqti oyanda, dar zamoni guzasht	{kelgusida, kelajakda}
دُنْيَا dunyo	این جهان injahon	{budunyo}
آخِرَةُ oxira	آن جهان onjahon	{u dunyo}
زَمَنٌ, أزمَانٌ ج zaman, azmon*j*	زمانه zamona	{zamona}
سَنَةٌ, سَنَوَاتٌ ج, سَنَهَاتٌ ج, سِنُونٌ ج sana, sanavot*j*, sanahot*j*, sinỳn*j*	سال sol	ییل yil

[3] Ҳақиқат манзаралари. – Т.: «Янги аср авлоди», 2007. 10-бет.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

الْعَام al-(‘)om	امسال imsol	بو ییل buyil
عَامٌ أَوَّلُ (‘)omavval	سال آینده solioyanda	کیچن ییل Kechagi yil
عَامًا أَوَّلَ (‘)omanavval	در این سال dar in sol	{buyil, buyilda}
الْقَابِلُ al-qobil[4]	سال آینده solioyanda	کلاسی ییل Kelasi yil

Borliqni insonlarga kengroq tariflash uchun kichik soniyalar, minut, soatlarni vaqt, payt, uzoq muddat, vaqt, bu dunyo, u dunyo deb tanishtiradi. Butun dunyo aholisi bugungi kunda Shamsiy taqvim asosida Vaqtni hisoblaydi (bir yil 365-kun), musulmonlar Qamariy yil taqvimdan foydalanadi. Allomaning Yil, Bu yil, O‘tgan yil, Kelasi yil deb Zamonni uch xil tilda turkiy, forsiy, arabiy, tillarda tariflashi allomaning borliq to‘grisidagi qarashlarining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

فَصْلٌ, فُصُولٌ ج fasl, fusỳl *j*	یک فصل از چهار فصل یا ب هاریا تابستان یا پاییز یا زمستان yak fasl azchahor fasl: yo bahor, yo tobiston, yo poyiz, yo zimiston	درت فصل دن بری to‘rt fasldan biri
رَبِيعٌ rabѝ’	بهار bahor	ایلک یاز ilkyoz
صَيْفٌ sayf	تابستان tobiston	یاز yoz
خَرِيفٌ (الزمان الذى تحرق فيه الثمار) xarѝf (mevalar pishadigan payt)	تیرماه پاییز tiyrmohipoyiz	کوز kuz
شِتَاءٌ shito	زمستان zimiston	قیش qish
شَهْرٌ, شُهُورٌج, أَشْهَرٌ ج shahr, shuhỳr*j*, ashhur*j*	یک ماه yakmoh	آی oy
غُرَّةٌ, غُرَرٌ ج g‘urra, g‘urar*j*	اول ماه avvalimoh	Oyning boshi}
أَوَاسِطُ الشَّهْرِ avositu-sh-shahr	میان ماه, نیمه ماه miyonimoh, nimayimoh	{oy o‘rtasi, oy yarmi}
مَحَاقٌ mahoq	آخر ماه oxirimoh	{oyningoxiri. ikki oy orasidagi qorong‘u payt}
سَرَارٌ saror	آخر شب از ماه oxirishabazmoh	{oyning oxirgi tuni}

[4]Маҳмуд Замахшарий<<Муқаддимат ул-адаб>>-Тошкент; << Навроз>> нашриёти,2018.24 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

سَلْخٌ salx	آخر روز از ماه oxiriro‘zazmoh	{oyning oxirgi kuni}
اَلْمُحَرَّمُ al-muharram	ماه محرم mohimuharram	{muharram oyi}
صَفَرُ safar	{mohi safar}	{safar oyi}
شَهْرُ رَبِيعٍ الْأَوَّلُ shahrurabиʼi-l-avval	{mohirabi’ulavval}	{rabi’ulavvaloyi}
شَهْرُ رَبِيعٍ الْآخَرُ shahrurabиʼi-l-oxir	{mohirabi’uloxir}	{rabi’uloxiroyi}
جُمَادَى الْأُولَى jumoda-l-avval	{mohijumodiyulavval	{jumodiyulavvaloyi}
جُمَادَى الْأُخْرَى jumoda-l-uxro	{mohijumodiyul-uxro}	{jumodiyul-uxrooyi}
رَجَبٌ rajab	{mohi rajab}	{rajaboyi}
شَعْبَانُ sha’bon	{mohisha’bon}	{sha’bonoyi}
رَمَضَانُ ramazon	{mohi ramazon}	{ramazon oyi}
شَوَّالٌ shavvol	{mohishavvol}	{shavvoloyi}
ذُو الْقَعْدَةِ zu-l-qa’da	{mohizulqa’da}	{zulqa’daoyi}
ذُو الْحِجَّةِ zu-l-hijja	{mohizulhijja}	{zulhijjaoyi}
جَدِيدَانِ jadиdon	شب و روز shaburo‘z	{kecha-kunduz}
لَيْلَةٌ, لَيْلٌ ج, لَيَالٍ ج layla, layl*j*, layol*j*	یک شب yakshab	{birkecha}
قِطْعَةٌ, قِطَعٌ ج qit’a, qita’ *j*	پاره از شب, یک بخش از سه بخش شب, سیاهی آخر شب تاریکی poraeazshab, yak baxshazsebaxshishab, siyohiyioxirishabitorikiy	{tunning bir bo‘lagi, tunning uch bo‘lagidan bir qismi, tunning oxiridagi qorong‘ulik}
وَهْنٌ vahn	نیم شب, میان شب Nimi shab, miyoni shab	{tun yarmi, yarim oqshom}
يَوْمُ السَّبْتِ yavmu-s-sabt	روز شنبه ro‘zi shanba	{har shanba}

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

{yakshanba kuni, yakshanba}	روز یکشنبه, یکشنبه ro‘zi yakshanba, yakshanba	يَوْمُ الْأَحَدِ yavmu-l-ahad
{dushanba kuni}	روز دوشنبه ro‘zi dushanba	يَوْمُ الْإِثْنَيْنِ yavmu-l-isnayn
{seshanba kuni}	روز سه شنبه ro‘zi seshanba	يَوْمُ الثَّلَاثَاءِ, ثَلَاثَاوَاتٌ ج yavmu-s-suloso‘, sulosovot *j*
{chorshanba kuni}	روز چهار شنبه ro‘zi chahorshanba	يَوْمُ الْأَرْبِعَاءِ, أَرْبَعَاوَاتٌ ج yavmu-l-arbi’o, arba’ovot*j*
{payshanba kuni}	روز پنجشنبه ro‘zi panjshanba	يَوْمُ الْخَمِيسُ, أَخْمِسَةٌ ج, أَخْمِسَاءٌ ج yavmu-l-xamȕs, axmisa*j*, axmiso‘ *j*
{jumakuni, odina}	روز جمعه, روز آدینه, آدینه ro‘zi jum’a, ro‘zi odina, odina	يَوْمُ الْجُمْعَةِ, جُمُعَاتٌ ج yavmu-l-jum’a, jumu’ot*j*
{bir hafta}	یک هفته Yak hafta	أُسْبُوعٌ, أَسَابِيعُ ج[5] usbu’, asobȕ’ *j*

Borliqni to‘rtta (Baxor, Yoz, Kuz, Qish) fasllari, o‘n ikki oy, yetti kunga ajratib har birini nomlar bilan Turkiy, Forsiy, Arabiy tillarda batafsil boyon qilinganligi, Yilning to‘rt faslni kuzatilmaydigan davlatlarda istiqomat qiladigan insonlar uchun borliq to‘g‘risidagi allomaning falsafiy qarashlarini hoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Mutafakkir Zamaxshariy Qur’oni karimning**“A’rof” surasi 54-oyatidagi**

{ إِنَّ رَبَّكُمُ ٱللَّهُ ٱلَّذِى خَلَقَ ٱلسَّمَـٰوَ تِ وَٱلْأَرْضَ فِى سِتَّةِ أَيَّامٍ ثُمَّ ٱسْتَوَىٰ عَلَى ٱلْعَرْشِ ۖ يُغْشِى ٱلَّيْلَ ٱلنَّهَارَ يَطْلُبُهُۥ حَثِيثًا وَٱلشَّمْسَ وَٱلْقَمَرَ وَٱلنُّجُومَ مُسَخَّرَا تٍۭ بِأَمْرِهِۦٓ ۗ أَلَا لَهُ ٱلْخَلْقُ وَٱلْأَمْرُ ۗ تَبَارَكَ ٱللَّهُ رَبُّ ٱلْعَـٰلَمِينَ }

“Albatta osmonlaru yerni olti kunda yaratgan, so‘ngra Arshni egallagan Robbingiz kecha ila kunduzni qoplaydir. Quyosh, oy va yulduzlarni O‘zamriga bo‘ysundirilgan qilib yaratdi. Ogoh bo‘ling yaratish va amr qilish Uning o‘ziga xosdir. Olamlarning Robbi–Alloh buyukdir” kalimasini shunday **tafsir** qiladi:

يُغْشِي اللَّيْلَ النَّهَارَ يَطْلُبُهُ حَثِيثًا

وقرىء: يغشى بالتشديد، أي: يلحق الليل بالنهار أو النهار بالليل يحملهما جميعاً، والدليل على الثاني: قراءة حميد بن قيس يغشى الليل النهار بفتح الياء ونصب الليل ورفع النهار أي يدرك النهار الليل، ويطلبه حثيثاً حسن الملاءمة لقراءة حميد **بأمره** بمشيئته وتصريفه، وهو متعلق بمسخرات أي: خلقهنّ جاريات بمقتضى حكمته وتدبيره وكما يريد أن يصرفها. سمي ذلك أمراً ألا :على التشبيه كأنهنّ مأمورات بذلك. وقرىء: والشمس والقمر والنجوم مسخرات بالرفع. ولما ذكر أنه خلقهنّ مسخرات بأمره قال له الخلق والأمر أي: هو الذي خلق الأشياء كلها وهو الذي صرفها على حسب إرادته.

“Robbingiz kecha ila kunduzni qoplaydir”. Bu joyda “qoplaydir” fe’li “yug‘shi” tashdid[6] bilan “yug‘ashshi” deb o‘qilsa, “kechani kunduz bilan kunduzni kecha bilan qoplaydi” degan jamlash ma’nosini beradi. Ikkinchi xil o‘qish Hamid ibn Qaysga tegishli. U “ya”ni fatha bilan “yag‘sha” deb va “layl” (ya’ni kecha)ni “nasb”da, ya’ni tushum kelishigida, “nahor”ni esa “raf”’da, ya’ni bosh

[5]Маҳмуд Замахшарий<<Муқаддимат ул-адаб>>-Тошкент; << Навроз>> нашриёти,2018.33 б.

[6]Ташдид бу - ундошни икки қайта-лаб (иккилантириб) айтишни билдирадиган белги. Араб ёзувида сўз таркибидаги бирор ундошнинг такрорийлигини, қўш талаффуз қилинишини билдириш учун ундош устига қўйиладиган диакритик белги.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

kelishikda o‘qiydi. Bunda “kunduz kechani quvib yetadi”, degan ma’no bo‘ladi. Hamidning bu o‘qishida go‘zal muloyimlik bor.

“O‘zamriga” deganining ma’nosi “O‘z xohishiga”, “O‘z tasarrufiga” bo‘ysundirilgandeganidir. Ya’ni, yaratilganlarning barchasi Uning hikmati va tadbiri taqozosiga ko‘ra joriy bo‘ladi va U o‘z xohlagandek tasarruf qiladi. Manashunarsani “amr” deb, qolgan narsalar “ma’murot”, ya’ni “amrga bo‘ysundirilgan” bo‘ladi.

Bu joydagi “shams” (quyosh), “qamar” (oy), “nujum” (yulduzlar) va “musaxxorot” (bo‘ysundirilgan) so‘zlarining hammasi “raf’”, ya’ni bosh kelishikda kelgan. Ya’ni “U barcha narsani O‘z amrigiga bo‘ysundirilgan qilib yaratilgan”, degani bo‘ladi.

“Ogoh bo‘ling, yaratilish va amr qilinish Uning o‘ziga xosdir” degani “U barcha narsalarni yaratdi va ularni O‘z xohlaganidek tasarruf qildi”, deganidir.”[7]. (365-bet).

Shuningdek alloma tabiiy olamni o‘ziga xos falsafiy borliqning bir bo‘lagi sifatida tushunarli qilib tariflaydi;

نَحْرُ النَّهَارِ nahru-n-nahor	روز یا روشنای ro‘zyo ro‘shnoiy	{kun, kunduz}
نَهَارٌ, نُهُرٌ ج nahor, nuhurj	اول روز avvali ro‘z	{kun boshlanishi}
يَوْمٌ أَيْوَمُ yavmayvam	روز روشن ro‘zi ravshan	{yorug‘ kun}
لَيْلٌ أَسْحَمُ laylas’ham	شب سیاه Shabi siyoh	{qorong‘u tun}
عَمُودُ الْفَجْرِ (‘)amỳdu-l-fajr	نشان صبح, روشنای سپیده دم, صبح الصادق nishonisubh, ro‘shnoiyi sapidadam, subhus sodiq	{tong nishonasi, subhi sodiq}
يَوْمٌ صَحْوٌ yavmsahv	روز بی میغ ro‘zi bemiyg‘	{havo ochiq kun}
يَوْمٌ دَفِئٌ yavmdafiy	روز گرم ro‘zi garm	{issiq kun}
يَوْمٌ صِرٌّ[8] yavmsirr	روز سرد ro‘zi sard	{sovuq kun}

Xulosa. Alloma tabiiy olam asosiy elementlaridan qilib, Kunduzning inson va tabiat uchun ahamiyatini, shuningdek kecha va kunduzni yorug‘ kun, qorong‘u tun deb tariflaydi. Havo xaroratini issiq, sovuq kunlarga ajratib falsafiy taqsimlaganini ko‘ramiz.

Allomaning “Muqaddamatul – Adab” asarida borliqdagi Quyosh, Oy, Yulduzlar to‘g‘risida: Osmonni quyidagilarga ajratib tariflaydi; “سمَاءٌ, آسمان” Osmon birinchiqat osmon, yettinchiqat osmon,

[7] الزمخشري محمود. تفسير الكشاف، بيروت: دار المعرفة. 2009. 365-ص.
[8] Маҳмуд Замахшарий<<Муқаддимат ул-адаб>>-Тошкент; << Навроз>> нашриёти,2018.28 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

osmon o‘rtasi, somon yo‘li, osmonning bizga ko‘rinib turgan qismi, osmonning ikki tomoni, kamalak, rusmat kamoni, qavsi quzah, hasan-husano‘q-yoyi, kahkashon[9], somonyo‘li, hojilar yo‘li, charx, falak, qutb deb xalqimiz tili bilan tariflaydi.

Quyosh, oftob:

- Quyosh chiqar joy, kun chiqar, Quyosh botadigan yer, kun botar, Quyosh tegrasi, Quyosh atrofi, Quyosh bulog‘i, Quyoshchi qish vaqtida undan birinchi bo‘lib tashlanadigan yorug‘lik, Quyosh atrofi, Quyosh va Oy yorug‘ligi.

Oy, (قَمَر)Oy yorug‘ligi, Oy yoqtisi, yangioy, hilol(هِلَالٌ) o‘n to‘rt kunlik, to‘lin Oy (بَدْرBadr), Oydin(فَخْتfaxt),tarif beradi.

Yulduz,(نَجْمٌ)Najm,yorug‘ yulduz (دُرِّيٌّ)Durriy, tong yulduzi (طَارِق)Tariq,

Yulduzlar nomlari: Zuhal(زُحَل), Mushtariy(مُشْتَرِي), Mirrix, baqirso‘qim, Bahrom (مِرِّيخ), Utorud, Tira,(عَطَارِد) (‘) atorid, Nohid (زُهرَة) Zuhra, Yaman tomondan chiqadigan yulduz, yaman yulduzi(سُهَيْل) Suhayl, Parvin(النَّجْم) an-Najm, yetti qaroqchi, yetikan(النَعْشِبَنَاتُ) banotu-n-na’sh, odamlar o‘z ko‘rish qobiliyatlarini sinab ko‘radigan yulduz, bano tun na’sholdidagi kichik vaxira yulduz(السُّهَى)as-Suho, ikkiog‘a-ini(الْفَرْقَدَان) al-farqadon, surayyo turkumi yaqinidagi yorug‘ yulduz(الْعُيُوق) al-(‘)uyuq, nomlari bilan tariflaydi. Shuningdek Yulduz burjlarining falsafiy qiyoslaydi: Qutb (قُطْب), Yulduzjoyi, Yulduzmaskani(بُرْجٌ) burj, qo‘zi, hamal burji(حَمَل) hamal, Savrburji(ثَوْر) Savr, egizaklar burji(جَوْزَاء) Javzo‘, Qisqichbaqa burji(سَرَطَان) Saraton, Asadburji(أَسَد)Asad, Boshoq burji(سُنْبُلَة) Sunbula, Tarozu burji(مِيزَان) Mиzon, Chayon burji(عَقْرَب) (‘)aqrab, Qavs burji(قَوْس) Qavs, Jadyburji(يُجَد) jady, Dalvburji(دَلْو) dalv, Baliq burji(حوُت) hut,[10]Aholimizning yoshi ulug‘ kishilari bugungi kunda ham yuqoridagi burj taqvimga qarab o‘zi shlarini tartibga soladilar, lekin ko‘pchilik yosh avlod bu ma’lumotlardan behabardir.

[9]Каҳкашон- араб тилининг имло луғатида “сомон йўли, галактика” маъносида келтирилган
[10] Маҳмуд Замахшарий<<Муқаддимат ул-адаб>>-Тошкент; << Навроз>> нашриёти,2018.44 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳақиқат манзаралари. – Т.: «Янги аср авлоди», 2007. 10-бет.
2. Маҳмуд Замахшарий “Муқаддиматул-адаб” -Тошкент; “Навроз” нашриёти, 2018.24 б.
3. Маҳмуд Замахшарий “Муқаддиматул-адаб” -Тошкент; “Навроз” нашриёти, 2018.33 б.
4. Ташдидбу – ундошни икки қайта-лаб (иккилантириб) айтишни билдирадиган белги. Араб ёзувида сўз таркибидаги бирор ундошнинг такрорийлигини, қўшталаффуз қилинишини билдириш учун ундош устига қўйиладиган диакритик белги.
5. Каҳкашон- араб тилининг имло луғатида “сомон йўли, галактика” маъносида келтирилган
6. Маҳмуд Замахшарий “Муқаддиматул-адаб”-Тошкент; “Навроз” нашриёти,2018.44 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Israilov Bektosh Erkinovich
Candidate of Philosophy, Associate Professor
Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages
E-mail: isroilov@gmail.com

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

PHILOSOPHICAL ASPECTS OF AN INNOVATIVE APPROACH TO SOCIAL SUCCESSION

Abstract. This article analyzes the socio-philosophical problems of an innovative approach to social succession. Social succession plays an important role in the economic and cultural development of society. Innovative approaches help make this process more effective and sustainable. The article reflects on the changes that social succession is undergoing in the modern context and the philosophical problems of these changes.

Keywords: social succession, innovative approach, socio-philosophical problems, sustainable development.

IJTIMOIY VORISIYLIKKA INNOVATSION YONDASHUVNING FALSAFIY JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy vorislikka innovatsion yondashuvning ijtimoiy-falsafiy muammolari tahlil qilinadi. Ijtimoiy vorislik, jamiyatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion yondashuvlar esa, bu jarayonni yanada samarali va barqaror qilishda yordam beradi. Maqola ijtimoiy vorislikning zamonaviy kontekstda qanday o‘zgarishlarga uchrayotgani va bu o‘zgarishlarning falsafiy muammolari haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy vorislik, innovatsion yondashuv, ijtimoiy-falsafiy muammolar, barqaror rivojlanish.

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА К СОЦИАЛЬНОЙ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ

Аннотация. В статье анализируются социально-философские проблемы инновационного подхода к социальной преемственности. Социальная преемственность играет важную роль в экономическом и культурном развитии общества. Инновационные подходы способствуют повышению эффективности и устойчивости этого процесса. В статье рассматриваются изменения, которые претерпевает социальная преемственность в современных условиях, и философские проблемы, связанные с этими изменениями.

Ключевые слова: социальная преемственность, инновационный подход, социально-философские проблемы, устойчивое развитие.

Kirish. Ijtimoiy vorislik - bu mulk, qadriyatlar va madaniyatning avlodlarga o‘tishi jarayoni bo‘lib, u jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo‘shadi. Innovatsion yondashuvlar esa, texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, bu jarayonni yangilashga imkon beradi.

Ijtimoiy vorisiylikka yangicha yondashuv bilan bog‘liq ijtimoiy va falsafiy xarakterdagi muammolarga kirish jamiyatimiz asosini yaratuvchi turli fanlarning o‘zaro ta’sirini oddiy tahlil qilishni talab etadi. Globallashuv va yangi texnologiyalar bilan bog‘liq zamonaviy o‘zgarishlar odatiy ijtimoiy tuzilmalar va qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. O‘zgarishlarga e’tibor qaratadigan yangi yondashuv mavjud me’yorlar va ijtimoiy o‘zaro ta’sir usullarining barqarorligini shubha ostiga qo‘yadi. Shu ma’noda, jadal o‘zgarishlar sharoitida madaniy, tarixiy va ijtimoiy elementlarning davomiyligini qanday saqlab qolish mumkinligini tushunish muhimdir. Ushbu masalani muhokama qilish nafaqat oqilona yechimlarni izlashni, balki shaxs va jamiyatning umumiy jarayondagi rolini falsafiy tushunishni ham anglatadi. [1,2].

Adaabiyotlar tahlili. Ijtimoiy vorisiylik ijtimoiy falsafada muhim bo‘lgan g‘oyadir. U ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlar vaqt o‘tishi bilan qanday barqaror bo‘lib qolishi, zamonaviy yondashuvlarda bu tushuncha yangi ma’nolarga ega bo‘lib borishi, nafaqat barqarorlikni, balki jamiyatning o‘zgarish qobiliyatini ham ta’kidlaydi. Ijtimoiy vorisiylik madaniyat, iqtisodiyot va siyosatdagi o‘zgarishlarni qamrab oladi, bunda yangi texnologiyalar va muloqot usullari eski ijtimoiy-madaniy modellarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Ijtimoiy vorisiylik kontekstida innovatsiyalar to‘g‘risidagi fikrlar xilma-xillikni keltirib chiqaradigan progressiv o‘zgarishlar ham mavjud tizimlarga kiritilishi kerakligini tushunishni talab qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy vorisiylik jamiyatlarning asosiy qadriyatlari va me’yorlariga sodiq qolgan holda davr sinovlariga qanday bardosh berayotganini tushunishning kalitidir.

Zamonaviy yangi usullar ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi uchun muhimdir, chunki ular ijtimoiy barqarorlikning yangi yo‘llarini yaratadi. Muloqot texnologiyalari va usullarining tez o‘zgarishi sharoitida jamiyat o‘zaro ta’sirning eski modellarini qayta ko‘rib chiqishi kerak. Ijtimoiy sohadagi yangiliklar, masalan, fuqarolarning ishtirok etishi uchun raqamli platformalardan foydalanish odamlarga qaror qabul qilishda faolroq ishtirok etishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi. Ammo bunday o‘zgarishlar texnologiyalarga kirish va ulardan noto‘g‘ri foydalanish ehtimoli bilan bog‘liq axloqiy masalalarni keltirib chiqarishi mumkin. Innovatsion yondashuvlar ijtimoiy amaliyotlarni yangilash imkoniyatlarini ochadi, shu bilan birga, globallashuv davrida o‘zaro ta’sir va mas’uliyat haqida jamiyat oldiga muhim falsafiy masalalarni qo‘yadi. Ularning ijtimoiy tuzilma va madaniy o‘ziga xoslikning barqarorligiga ta’sirini tahlil qilish zarur, bu esa turli fanlar o‘rtasida kompleks yondashuv va muloqotni talab qiladi. [3,4].

Ijtimoiy vorislik deganda, odatda, bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tadigan madaniy, ma’naviy, ijtimoiy va moddiy qadriyatlar, bilimlar, an’analar va me’yorlar majmui tushuniladi. Bu jarayon insoniyatning tarixiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, chunki u orqali jamiyatning ma’naviy va madaniy merosi saqlanib qoladi va rivojlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Ijtimoiy vorislikning falsafiy asoslarini quyidagi tamoyillar orqali tushuntirish mumkin:

1. Tarixiylik tamoyili: Ijtimoiy vorislik tarixning uzluksizligi va avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Har bir avlod o‘zidan oldingi avlodlarning tajribasi va bilimlariga tayanadi. Bu tamoyil orqali jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyoti ta’minlanadi.

2. Madaniy va ma’naviy uzluksizlik: Ijtimoiy vorislik madaniyat, an’analar, din, san’at va boshqa ma’naviy qadriyatlar orqali shakllanadi. Bu jarayon orqali jamiyatning o‘ziga xosligi va milliy kimligi saqlanib qoladi.

3. Ijtimoiy adolat va tenglik tamoyili: Ijtimoiy vorislik jarayonida adolat va tenglik masalalari muhim ahamiyatga ega. Avlodlar o‘rtasida resurslar, imkoniyatlar va bilimlarning adolatli taqsimlanishi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

4. Taraqqiyot va o‘zgarish tamoyili: Ijtimoiy vorislik statik emas, balki dinamik jarayon hisoblanadi. Har bir avlod o‘zidan oldingi avlodlarning merosini o‘zgartirib, yangi sharoitlarga moslashtiradi. Bu tamoyil orqali jamiyat doimiy ravishda rivojlanadi.

5. Shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyat: Ijtimoiy vorislik shaxslarning o‘z avlodlariga nisbatan mas’uliyatini talab qiladi. Har bir inson o‘z bilim, tajriba va qadriyatlarini keyingi avlodlarga yetkazish orqali jamiyatning kelajagini shakllantirishda ishtirok etadi.

Ijtimoiy vorislik nafaqat moddiy boyliklarni, balki ma’naviy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Uning falsafiy asoslari tarixiylik, madaniy uzluksizlik, ijtimoiy adolat, taraqqiyot va shaxsiy mas’uliyat kabi tamoyillarga tayanadi. Bu tamoyillar orqali jamiyatning barqarorligi va rivoji ta’minlanadi.

Ijtimoiy vorisiylikning nazariy asoslarida o‘zgarishlarda ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasidagi barqarorlik va aloqalarni ko‘rsatuvchi konsepsiyalar mavjud. Ijtimoiy vorisiylik jamiyatning barqarorligi va o‘ziga xosligini saqlashga yordam beradigan an’analar, qadriyatlar va me’yorlar kabi bog‘lovchi unsurlarning mavjudligini anglatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot yoki siyosat kabi o‘zgarishlarga moyil bo‘lgan sohalarda aynan shu elementlar yangiliklarning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar ijtimoiy vorisiylikka tahdid solishi yoki kuchaytirishi mumkin, bu esa eski va yangi o‘zaro ta’siri haqidagi eski g‘oyalarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Ijtimoiy vorisiylikka zamonaviy yondashuvda yangiliklarga moslashish va ijtimoiy tuzilmaning asosiy elementlarini saqlab qolish o‘rtasidagi muvozanatni izlash muhimdir. Shunday qilib, ijtimoiy vorisiylikning nazariy asoslari chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi, yangi ijtimoiy amaliyotlarni o‘ziga xoslikni yo‘qotmasdan birlashtirish yo‘llarini topishga imkon beradi. [5,6].

Ijtimoiy vorislik inson hayotida juda muhim o‘rin tutadi, chunki u orqali har bir shaxs o‘zining shaxsiy va ijtimoiy identitetini shakllantiradi, ma’naviy va madaniy qadriyatlarni egallaydi va jamiyatning bir qismi sifatida o‘sadi. Bu jarayon insonning hayotiy yo‘nalishini belgilashda, uning dunyoqarashini shakllantirishda va ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy vorislikning inson hayotidagi ahamiyatini va uning ta’sirlarini quyidagi jihatlardan ko‘rib chiqish mumkin:

Ma’naviy ta’siri. Ijtimoiy vorislik insonning ma’naviy dunyosini boyitadi va uning hayotiy qadriyatlarini shakllantiradi. Diniy e’tiqodlar, axloqiy me’yorlar, insoniy qadriyatlar va ma’naviy an’analar avlodlar orqali uzatiladi. Bu jarayon orqali inson o‘zining ichki dunyosini mustahkamlaydi, hayotga ma’no topadi va o‘zining maqsad va vazifalarini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan,

oila va jamiyatda qadrlangan adolat, mehribonlik, halollik kabi fazilatlar ijtimoiy vorislik orqali keyingi avlodlarga yetkaziladi.

Madaniy ta’siri. Ijtimoiy vorislik madaniyatning saqlanib qolishi va rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Til, adabiyot, san’at, an’analar, milliy bayramlar va urf-odatlar avlodlar orqali davom etadi. Bu jarayon orqali har bir inson o‘zining milliy va madaniy identitetini shakllantiradi. Masalan, Navro‘z kabi milliy bayramlar yoki xalq og‘zaki ijodi orqali avlodlar o‘rtasida madaniy uzluksizlik ta’minlanadi. Madaniy vorislik insonning o‘ziga xosligini saqlashga yordam beradi va global dunyoda uning o‘ziga xosligini himoya qiladi.

Ijtimoiy ta’siri. Ijtimoiy vorislik insonning jamiyatdagi o‘rnini va rolini belgilaydi. Oilaviy, professional yoki ijtimoiy meros orqali insonlar o‘zlarining ijtimoiy mavqeini shakllantiradilar. Masalan, oilaviy kasb yoki ijtimoiy mas’uliyatlar avlodlar orqali davom etadi. Bundan tashqari, ijtimoiy vorislik orqali jamiyatda barqarorlik va birdamlik saqlanib qoladi. Har bir avlod o‘zidan oldingi avlodlarning tajribasidan foydalanadi, bu esa jamiyatning taraqqiyotiga olib keladi. [7].

Shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyati. Ijtimoiy vorislik insonning shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. U orqali inson o‘zining kelajagini rejalashtirish, o‘zining maqsadlarini belgilash va ularga erishish uchun zarur bo‘lgan bilim va qadriyatlarni egallaydi. Masalan, ota-onalarning tajribasi yoki oilaviy an’analar bolalarning shaxsiy va kasbiy yo‘nalishini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Ijtimoiy vorislik inson hayotining barcha jihatlariga ta’sir ko‘rsatadi. U orqali inson o‘zining ma’naviy, madaniy va ijtimoiy identitetini shakllantiradi, jamiyatning bir qismi sifatida o‘sadi va kelajak avlodlar uchun meros qoldiradi. Bu jarayon insoniyatning tarixiy rivojlanishini ta’minlaydi va jamiyatning barqarorligini mustahkamlaydi. Ijtimoiy vorislik nafaqat o‘tmishni hurmat qilish, balki kelajakni qurish uchun ham asosdir. Shuningdek, ijtimoiy vorislikka innovatsion yondashuvlar nafaqat iqtisodiy yoki ijtimoiy jarayon sifatida, balki inson hayotining chuqur falsafiy aspekti sifatida ham muhimdir. Ushbu jarayonda yuzaga keladigan ijtimoiy-falsafiy muammolarni hal qilish uchun zamonaviy falsafa va amaliyotlarni birlashtirish zarurati mavjud. Ijtimoiy vorislikni yangicha yondashuvlar bilan rivojlantirish, jamiyatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. New York: Greenwood.
2. Sen, A. (1999). Development as Freedom. New York: Knopf.
3. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society. Oxford: Wiley-Blackwell.
4. Piketty, T. (2014). Capital in the Twenty-First Century. Cambridge: Harvard University Press.
5. Abdullayev, A. (2010). Vorislik va uning ijtimoiy ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
6. Jumaniyazov, A. (2015). Ijtimoiy vorislik: nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
7. Muhammadiev, U. (2021). Ijtimoiy tarmoqlar va vorislik: yangi yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Khakberdiyeva Vazira Jamshed kizi
student of Faculty of General medicine

Scientific supervisor: L.R.Usmonova, Associate Professor of the Department of Social and Humanitarian Sciences Samarkand State Medical University

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN BEING IN MEDICINE

Abstract. The anthropological dead end of technogenic civilization, expressed in the destruction of previously unchanging universal human values, shifted the consideration of human existence from the point of view of its essence to the fact of its existence. In the modern world of large-scale changes, the understanding of the phenomena of human existence remains necessary and relevant. The relevance of their research is determined by the need to develop a philosophical doctrine about man, the need to clarify and deepen modern concepts of human existence, and the importance of methodologically developing new approaches to understanding the problem of man.

Keywords: medicine, philosophical knowledge, being, life, medical anthropology.

TIBBIYOTDA INSON BORLIG‘INING FALSAFIY JIHATI

Annotatsiya. Ilgari o‘zgarmas bo‘lib tuyulgan umuminsoniy qadriyatlarning barbod bo‘lishida ifodalangan texnogen sivilizatsiyaning antropologik boshi berk ko‘chaga kirib qolishi inson borlig‘ini uning mohiyati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishni uning mavjudligi faktiga ko‘chirdi. Zamonaviy keng ko‘lamli o‘zgarishlar dunyosida inson borlig‘i hodisalarini anglash zarur va dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ularni tadqiq etishning dolzarbligi inson haqidagi falsafiy ta’limotni rivojlantirish zarurati, inson borlig‘i haqidagi zamonaviy tasavvurlarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish zarurati, inson muammosini anglashga yangicha yondashuvlarni metodologik jihatdan ishlab chiqish muhimligi bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: tibbiyot, falsafiy bilimlar, borliq, hayot, tibbiy antropologiya.

ФИЛОСОФСКИЙ АСПЕКТ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО БЫТИЯ В МЕДИЦИНЕ

Аннотация. Введение техногенной цивилизации в антропологический тупик, выразившееся в разрушении общечеловеческих ценностей, которые ранее казались неизменными, перенесло рассмотрение человеческого бытия с точки зрения его сущности на факт его существования. В современном мире масштабных изменений осознание явлений человеческого бытия становится необходимым и актуальным. Актуальность их исследования определяется необходимостью развития философского учения о человеке, необходимостью уточнения и углубления современных представлений о человеческом бытии, важностью методологической разработки новых подходов к пониманию проблемы человека.

Ключевые слова: медицина, философские знания, бытие, жизнь, медицинская антропология.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish.

Zamonamizning inqirozli antropologik vaziyati insonni nafaqat gumanitar, balki tabiiy fanlarning ham tadqiqot predmetiga aylantirmoqda. Bundan tashqari, inson muammosi faqat ilmiy va noilmiy bilimlarning butun majmuasining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan hal qilinishi mumkin. Gap shundaki, zamonaviy biotibbiyot texnologiyalari (inson genomiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari, transgen amaliyotlar, surrogat onalik, klonlash va h.k.) inson tabiati haqidagi barqaror tasavvurlarni shubha ostiga qo'ydi va shu bilan hayotga nafaqat inson va uning hayoti muammosini yangicha ishlab chiqish, balki borliq mohiyatini yangicha anglash zaruratini keltirib chiqardi. Yaxlit inson konsepsiyasiga bo'lgan ehtiyoj tibbiy bilimlardan foydalanganda qondirilishi mumkin, chunki tibbiyotda insonga individual yondashuv falsafiy umumlashtirishga aniqlik kiritadi. Shu bilan birga, bunday konsepsiyaga tibbiyotning o'zi ham muhtoj bo'lib, u antropologik-ontologik muammolarni keltirib chiqargan bo'lsa-da, ularni mustaqil ravishda hal qila olmaydi, chunki ular falsafiy antropologiya doirasidan tashqarida bo'lgan dunyoqarash va aksiologik xususiyatga ega.

Asosiy qism.

Falsafiy bilimlar asosida insonning yaxlit konsepsiyasi zamonaviy tibbiyotga zarur, chunki tibbiyot fanlari tomonidan ko'plab empirik bilimlar to'plangan, ammo har bir fan alohida inson borlig'ining ma'nosi haqidagi chuqur savollarga javob bera olmaydi, aks holda uning predmeti yo'q bo'lib ketadi. Bundan tashqari, insonning tabiiy jarayonlarga global aralashuvi biosferaning shunday o'zgarishlariga olib keldiki, bu uning hayot sifatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan inson uning qadrini chuqurroq anglay boshlaydi. Zamonamiz insoni o'z hayotining asosiy mazmunini tashkil etuvchi tirikchilik vositalarini topishdan yaxshi tirikchilik vositalarini topishga o'tdi.

Tibbiyot - bu ehtiyoj va talab ortib borayotgan vositalardan biridir. Ularni insonni qismlarga bo'lib o'rganadigan tahliliy tibbiyot (alohida a'zolar va funksiyalarga bo'lib o'rganadigan) vositalari bilan qoniqtirib bo'lmaydi. Ayni paytda tibbiyot ham busiz yashay olmaydi. Shuning uchun inson haqidagi barcha bilimlarni sintez qiluvchi yuqoriroq darajadagi ilmiy umumlashtirish zarur. Bizning fikrimizcha, bunga falsafiy antropologiyaning muammoli oqimida kesishuvchi tibbiy va falsafiy tasavvurlar birligi orqali erishiladi.

Tibbiy antropologiya madaniyatning etnografik tadqiqotlari va jismoniy antropologiyaga borib taqaladigan antropologik tushunchadir. Nemis olimi Krel "Patologik fiziologiya" asarida birinchi bo'lib tibbiyotda inson muammosini ko'rib chiqishning yangi "o'ziga xos shakllari" talab qilinishini aytdi.

Tibbiy antropologiyaning paydo bo'lishiga urushdan keyingi xalqaro sog'liqni saqlash harakati va ko'plab olimlarning tibbiyotni madaniy hodisa sifatida nazariy tushunishni taklif qilishga urinishlari ta'sir ko'rsatdi. Biroq, tibbiy antropologiya muammolari orasida eng muhimi insonning tabiati va mohiyatini, uning dunyodagi o'rnini, uning hayoti, azob-uqubatlari, sog'lig'i va kasalligi muammolarini yaxlit tushunishga urinishdir. Aslida, tibbiy antropologiyaning predmeti inson va uning kasalliklaridir. Kasallik haqida biror narsa bilish uchun muayyan bemorni va uning hayotiy dunyosini o'rganish, shaxs tarixning har bir tafsilotini sinchkovlik bilan ko'rib chiqish kerak.

Tadqiqotning maqsadi tibbiyotda inson borlig'ining falsafiy refleksiyasi xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Ilmiy ishning maqsadi quyidagi tadqiqot vazifalarida ochib berilgan:

• tarixiy kontekstda falsafiy va tibbiy tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini ko’rsatish.
• falsafiy antropologiyaning tibbiy bilim metodologiyasi sifatidagi rolini aniqlash.
• "hayot" tushunchasini falsafa va tibbiyot kategoriyasi nuqtai nazaridan yoritish.
• "o‘lim," "evtanaziya" va "o‘z joniga qasd qilish" tushunchalarini qiyosiy tahlil qilish.

Falsafiy "borliq" tushunchasi "hayot" tushunchasidan kengroqdir. Falsafada "borliq" tushunchasi umumbashariy tushuncha bo‘lib, u o‘z-o‘zini qadrlashdir. Falsafiy tafakkurda "hayot," "o‘lim," "abadiylik" inson borlig‘ining asosiy tushunchalari sifatida qaraladi. Shunday qilib, "kasallik," "salomatlik," "evtanaziya," "o‘z joniga qasd qilish" tushunchalari falsafa tomonidan faqat tibbiyot bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi mumkin.

"Borliq" falsafiy kategoriyasi inson borlig‘ining barcha hodisalarini qamrab oluvchi fundamental, dunyoqarash va mavhum tushunchadir. Tibbiyotda "borliq" tushunchasi uning qiymatini doimiy ravishda sinovdan o‘tkazadigan muayyan inson hayotini anglatadi. Tibbiyotda salomatlik va kasallik hayot hodisasi, evtanaziya va o‘z joniga qasd qilish o‘lim hodisasi sifatida qaraladi. Borliqning umumfalsafiy tushunchasi tibbiy "hayot" tushunchasini aksiologiklashtiradi va shu bilan tibbiy faoliyatni insonparvarlashtiradi. Shunday qilib, borliqning falsafiy refleksiyasi tibbiyot nazariyasi va amaliyotida amalga oshiriladigan ontologik-antropologik qadriyatlarni to‘playdi.

Shifokor oldida insonning yashashi yoki yashamasligi muammosining yechimi turganida falsafiy savollar berishga majbur bo‘ladi. Chegaraviy vaziyatlarda, ya’ni hayot va o‘lim o‘rtasida borliq muammosini anglash sodir bo‘lganda, tibbiyot "borliq" falsafiy tushunchasini eslaydi va o‘z usullarini umumiy g‘oyalar bilan bog‘laydi.

Tadqiqotning metodologik asosini falsafiy antropologiya va biofalsafaning konseptual qoidalari tashkil etadi. Tadqiqotning ushbu muhim asosidan tashqari, muallif inson borlig‘ining ko‘p o‘lchovliligi va ko‘p sifatliligi g‘oyasini asoslaydigan ijtimoiy va tarixiy bilishning metodologik tamoyillaridan foydalangan. Tanlangan mavzuning murakkabligi va ko‘p qirraliligi tarixiy-falsafiy va tarixiy-tibbiy materiallarni jalb qilishni talab qildi. Mazkur holat tadqiqot maqsadiga eng adekvat bo‘lgan qiyosiy tahlil, ijtimoiy-madaniy yondashuv va fanlararo sintez kabi usullardan foydalanishni taqozo etdi. Bundan tashqari, ishda obyektivlik, tarixiylik, to‘ldiruvchilik, ziddiyatlilik, tarixiylik va mantiqiylik birligi, inson faoliyatining ijtimoiy-madaniy shartlanganligi va boshqa tamoyillar qo‘llanilgan.

Borliqning mohiyati masalasi falsafada uzoq vaqtdan beri muhokama qilinib kelinadi. Borliq muammosi o‘zining chuqurligi va keng ko’lamliligi bilan boshqa falsafiy mavzulardan ajralib turadi. Aytish mumkinki, bu falsafaning yechimi bor va yechimi yo’q, mavhum va konkret, umuminsoniy va personifikatsiyalangan birinchi va oxirgi muammosidir. Ammo bizni tibbiyotning kategorial sohasiga borliq bilan bog‘liq tushunchalar olib chiqilgan ishlargina qiziqtirardi. Inson borlig‘ini hayot, o‘lim, o‘lmaslik kabi shakllarda tadqiq etish bilan falsafiy antropologlar M.Sheler, X.Plesner, A.Galen va boshqalar shug‘ullanishgan. Borliqning bo‘linmasligi g‘oyasi tibbiyot antropologlari V.Vayszekker, V.Gebzettel, V.Derr va boshqalar tomonidan ilgari surilgan. Ular tibbiy dunyoqarashga ekzistensial subyektini kiritish zarurligini ta’kidladilar. Zamonaviy tadqiqotchilar P.S.Gurevich, I.V.Vishev, P.P.Kalinovskiy, Z.M.Kakabadze, V.Sh.Sabirov, I.D.Pansxava, N.N.Trubnikov, A.P.Lavrinlar hayotning qadr-qimmati haqida fikr yuritib, uning betakrorligini ta’kidlaydilar. Ular hayotning ichki

qarama-qarshiligini qayd etadilar, ya’ni, bir tomondan, inson hayotni o‘limdan afzal ko‘rishi kerak - bu individual borliq qonuni, ikkinchi tomondan, o‘lim - bu hayotni tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi tabiat qonuni - turlar borlig‘i qonuni. Inson hayoti o‘limning doimiy qarshiligi orqali rivojlanib, yo‘qlikka qarshi turadi. Bu hayotning mutlaq qiymatini qayd etuvchi falsafiy refleksiyada o‘z aksini topadi.

O‘zbekiston Respublikasida tibbiyotda salomatlik va kasallik fenomenlarining falsafiy asoslari Z.M.Muxamedova, J.A.Rizayev, M.S.Abdullaxodjayeva, N.Yuldashev, O.Saydalixodjayeva, A.N.Maxmudova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning fikricha, salomatlik - bu fundamental qadriyat, zamonaviy texnogen davrda esa jamiyat oldida har qachongidan ham ko‘proq global muammo - sayyoramiz aholisi salomatligini saqlash turibdi.

Evtanaziya va o‘z joniga qasd qilish hodisalarining aksiologik jihatlarini ko‘plab faylasuflar o’rganganlar: S.Kerkegor, A.Kamyu, N.A.Berdyayev, E.Fromm, M.Fuko, A.A.Guseynov, S.V.Kurbatov, V.Sh.Sabirov, F.Fut; psixolog va sotsiologlar: Z.Freyd, U.Jeyms, E.Dyurkgeym, F.Divayn, R.Kastanbaum, R.Mey, V.Frankl va boshqalar. Ularning ta’kidlashicha, inson o‘z-o‘zini yo‘q qilishga moyil bo‘lgan yagona tirik mavjudotdir. Inson u yoki bu sabablarga ko‘ra hayotining ma’nosini ko‘ra olmaganida yoki bundan keyingi mavjudligini davom ettira olmaganida o‘z joniga qasd qilishga qaror qiladi. Ba’zi tadqiqotchilar o‘z joniga qasd qilishning bir nechta turlarini ajratib, ulardan biri evtanaziya deb hisoblaydilar, boshqalari esa evtanaziyani qotillikning ijtimoiy ma’qullangan shakllariga kiritadilar.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari falsafa va tibbiyotda ko‘rib chiqiladigan inson borlig‘i muammolariga kompleks tavsif berish imkonini bergan; zamonaviy tibbiyotga nisbatan falsafiy antropologiyaning metodologik va aksiologik roli ko‘rsatilgan. Tadqiqot SamDTU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o‘tkazilgan bo‘lib, ish materiallari va xulosalaridan falsafiy antropologiya va tibbiyot falsafasi sohasida bo‘lajak shifokorlar va tibbiyot xodimlari uchun foydalanish mumkin.

Tadqiq etilgan ma’lumotlar inson borlig‘i bilan bog‘liq asosiy falsafiy tushunchalarni chuqurroq anglashga va ularni tibbiyotda qo‘llashga olib keladi. Falsafiy g‘oyalar bemor va shifokorning idrokiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida aniq tasavvur hosil qilinadi, bu esa ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga imkon beradi.

Tadqiqot natijasi tibbiyot xodimlari duch keladigan asosiy axloqiy muammolarni aniqlash va tahlil qilish hamda ularning falsafiy ildizlarini tushunishga yordam beradi. Tibbiyot muassasalari va xodimlari uchun taklif etilayotgan tavsiyalar falsafiy jihatlarni kundalik amaliyotga singdirishga qaratilgan bo‘ladi.

Falsafiy jihatlarni amaliyotga joriy etish natijasida tibbiy yordamning insonparvarligi, samaradorligi va sifatini oshirish kutilmoqda.Tadqiqot materiallari bo'lajak shifokorlarga yordam beradigan mutaxassislar (tibbiyot xodimlari, psixologlar) uchun ilmiy va uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa.

Yuqoridagilarning barchasini umumlashtirib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Tibbiyotda inson borlig‘ining falsafiy jihatlari yanada insoniy va axloqiy tibbiy makonni yaratish uchun gumanitar va ilmiy bilimlarni birlashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Bu tibbiyot

xodimlaridan nafaqat professionallikni, balki inson tabiatini chuqur tushunishni ham talab qiladi, bu esa o’z navbatida bemorlarga yanada sifatli va sezgir g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga olib kelishi mumkin.

1. - Tibbiyotda bemorga nafaqat alomatlar yoki kasalliklar to‘plami, balki o‘ziga xos shaxsiyat, tajriba va kontekstga ega bo‘lgan yaxlit mavjudot sifatida qarash muhimdir.

2. - Tibbiyot amaliyotida uchraydigan axloqiy muammolar chuqur falsafiy mushohadani talab qiladi. Yashash huquqi, hayot sifati, shuningdek, tibbiy aralashuv chegaralari haqidagi masalalar muhokama markazida turadi.

3. - Salomatlikni shunchaki kasallikning yo‘qligi emas, balki to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida tushunish falsafiy tahlil uchun yangi ufqlarni ochadi.

4. - O‘lim va o‘lim haqidagi falsafiy mulohazalar bemorlar va tibbiyot xodimlariga hayotning qadr-qimmatini va o‘layotganlarga g‘amxo‘rlik qilishda insoniy yondashuv zarurligini anglashga yordam beradi.

5. – Inson borlig’ini tibbiy va gumanitar bilimlarning uyg‘unligida o’rganish uni to‘liqroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.В.П., Царегородцев Г.Ц. Философия медицины. Киев: Здоров’я, 1979.

2.Андреев И.Л. Человек и его здоровье // Экология и жизнь. 2006. № 5.

3.Гуревич П.С. Проблема целостности человека. М.: ИФРАН, 2004.

4.Саркисов Д.С. Философия в системе медицинского образования // Клиническая медицина. 1999. № 1.

5. Гуревич П.С. Уникален ли человек? // Философские науки. - 1994. - № 1-3.

6. Беляев И.А. Целостность человека в аспекте взаимосвязи его способностей и потребностей. Оренбург: ОГИМ, 2011.

7. Ракитов А.И. Наука и науковедение XXI века // Вестн. РАН. 2003. № 2.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Бўлдиева Собира Ражабовна
Ўзбекистон Ёзувчилар Уюшмаси аъзоси,
Бухоро Давлат Техника университети эркин тадқиқотчиси

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

THE ROLE OF INTELLECTUALS IN ELIMINATING THE IDEOLOGICAL THREAT

Annotation: This article discusses the ideology of Ahlus Sunnah wal Jama'ah, which the people of Turkestan have believed in for centuries. The teachings of Sufism or Khojagan-Naqshbandiyya are directly related to the ideology of Ahlus Sunnah wal Jama'ah. As our country falls under the oppression of Chorism, the ideology gradually begins to be attacked. We see this in the example of the negative impact on the education system in the Mir Arab Madrasah in Bukhara. The intellectuals of our people, however, resisted such attacks with the firmness of their beliefs and by continuing to teach subjects such as doctrine and Sufism.

Key words: Mir Arab Madrasah, Chorism, Eshon Babakhan, , Sufism, kalam, Khojagan-Naqshbandiyya.

РОЛЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛОВ В УСТРАНЕНИИ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ УГРОЗЫ

Аннотация: В этой статье обсуждается идеология Ахлю-Сунна валь-Джамаа, в которую народ Туркестана верил на протяжении веков. Учения суфизма или Ходжаган-Накшбандийа напрямую связаны с идеологией Ахлю-Сунна валь-Джамаа. Поскольку наша страна попадает под гнет чорризма, идеология постепенно начинает подвергаться нападкам. Мы видим это на примере негативного воздействия на систему образования в медресе Мир Араб в Бухаре. Однако интеллектуалы нашего народа сопротивлялись таким нападкам твердостью своих убеждений и продолжая преподавать такие предметы, как калом и суфизм.

Ключевые слова: медресе Мир Араб, Чорризм, Эшон Бабахан, суфизм, калам, Ходжаган-Накшбандия.

МАФКУРАВИЙ ХАВФЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ЗИЁЛИЛАРНИНГ ЎРНИ

Аннотация: Ушбу мақолада Туркистон халқларининг асрлар давомида эътиқод қилиб келган аҳли сунна вал жамоа мафкурасининг хавф остида қолганлиги ва уни ҳимоялашда зиёлиларнинг ўрни ҳақида сўз кетади. Тасаввуф ёки хожагон-нақшбандия таълимоти бевосита аҳли сунна вал жамоа мафкурасига боғлиқ. Мамлакатимизнинг Чорризм зулми остида қолиши билан аста-секин мафкурага ҳам тажовуз бошланади. Биз буни Бухородаги Мир Араб мадрасасида ўқитиш тизимига салбий таъсир қилиш мисолида баён этдик. Бухоро зиёлилари эса, бундай тажовузларга ўз эътиқодларининг қатъийлиги билан, ақоид, тасаввуф каби фанларнинг ўқитилишини давом эттириш билан қарши турганлиги асосланган.

Таянч сўзлар: Мир Араб мадрасаси, Чорризм, Эшон Бобохон, тасаввуф, калом, хожагон-нақшбандия, мафкура, аҳли сунна вал жамоа.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

КИРИШ: Ислом дини арконлари асрлар давомида Туркистон халқларининг мафкураси ҳисобланиб келган. Мана шу мафкурамизга қарши кураш яқин ўтмиш шўро тузими давридан олдинроқ, Чорризм ҳукмронлигидан бошланганига кўпинча эътибор қаратмаймиз. Бу даврда зиёлиларимизга қарши туриш бир оз силлиқ, бир оз сезилар-сезилмас кечгандек, бироқ бу кичик ўзгаришлар замирида катта истаклар мужассам бўлган. Нафақат Чорризм балки мусулмон бўлмаган ғарб давлатлари ҳам аҳли сунна вал жамоа эътиқодида бўлган халқларни фикридан қайтариш мақсадида бўлганлар.

Шундай бўлишига қарамасдан ота-боболаримиз, ўз эътиқодлари, ўзликларини сақлаб қолиш йўлида яширинча бўлса ҳам ҳаракат қилганликлари аён бўлади. Улар бунинг учун энг аввало ислом дини асосларидан бўлган калом илми, тасаввуф илми каби илмларни асраб қолишда фидойи бўлганлар. Ана шу фидойи инсонлар шахсини оммага маълум қилиш, калом илмини, тасаввуф илмини асраб қолинишида фидойи бўлганларни ёдга олиш бурчимиз. Шунингдек, бу устозлар ҳақида ёш авлодга таълим-тарбия бериш долзарб масаладир.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили ва тадқиқот методологияси

Ўзлигимизни англаш, қадриятларимизни ўрганиш, истиқлол мафкурасини яратишда муҳим аҳамият касб этади. Бу борада илмий тадқиқотлар олиб борилиб, тарихнинг ўрганилмаган жиҳатлари ўрганилди. Миллий мафкурамизнинг ажралмас қисми тасаввуф таълимоти тарихи ва унинг амалга оширилиб келинганлиги борасида исломшунос олим Уйғун Ғафуровнинг “Ўзбекистонда ислом таълим тизими: шонли тарих, истибдод зулмидан омон қолиш ва нурли истиқбол” номли монографияси[1], Абдуғафур Раззоқовнинг “Тариқатга йўлланма” китоби [2], Асророва Лобарнинг “Бухоро мадрасалари тарихидан”[3] каби адабиётлар нашр этилган. Ушбу манбалар асосида биз тадқиқотларимизни олиб бордик.

Бухоро амирлигида мадрасадаларда мафкурамиз асосларига хизмат қилувчи 137 хил йўналишда диний ва дунёвий фанлардан дарслар олиб борилган [3:25]. Бундан ташқари, талабалар мадрасаларда дарс олиш билан бирга Бухоро сўфийларидан инсонни камолотга эриштириш илмини ҳам эгаллайдилар. Шу ўринда айтиш мумкинки, Алихонтўра Соғуний, Эшон Бобохон ... каби талабалар Бухоро сўфийлари таъсиридан бебаҳра бўлмаганлар. Мисол учун Эшон Бобохон Домла Икромчадан тасаввуф илмини мукаммал эгаллаб валий даражасига эришган зотлардан. Тўғри тариқатда устозлари Домла Икромча саналса-да, валийлик мақоми Оллоҳдан эканини эътироф этиш зарур.

Эшон Бобохонга тасаввуф илмидан таҳсил берган Домла Икромча яъни, Домла Муҳаммад Икром (1847 – 1925) Бухородаги Бадалбек мадрасасини якунлаб, Жаъфархожа, Турсунжон, Мир Араб, Кўкалдош ва Абдуллахон мадрасаларида узоқ йиллар мобайнида мударрислик қилган. Шунингдек, Домла Икромча Муфти лавозимида ишлаган. Нақшбандия тариқати давомчиси пирларидан ҳисобланади. Домла Икромчадан Эшон Бобохон ёш пайтларида яъни Мир Араб мадрасасида таҳсил олиб юрган кезларида тасаввуф илмини ўрганганлар. Изомий Домла эса ёши катта бўлганда тасаввуфни ўрганган. Улар бир- бирлари билан кўришганда бир устоздан таҳсил олган ўқувчилар сифатида “биз ҳаммактабмиз”, деб бир-бирлари билан кўришар эканлар*.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Абдуғафур Раззоқовнинг устозларидан бўлган тасаввуф таълимоти назариётчилари ҳақидаги маълумотларни тўплаш учун у киши билан бевосита мулоқотда бўлиб, суҳбат қилдик. Суҳбат асосида аниқланган маълумотларни тарихийлик ва мантиқийлик услуби асосида таҳлил этиб хулосаларимизни баён қилдик.

Таҳлил ва натижалар

Тасаввуф аҳли суннага боғлик. Аҳли сунна вал жамоа ақидасига эътиқод қилинган Бухоро диёрида дунёга келиб, кенг тарқалган хожагон-нақшбандия тариқати Қуръон ва Суннатга таянгани учун бу хусусиятни доимо муҳофаза этиб келган. Абдураҳмон Жомий «Нафоҳот ул- унс» асарида хожагон ва нақшбандий шайхларини тилга оларкан, уларнинг аҳли сунна вал жамоа мазҳабига мансублигини махсус таъкидлаган.

Тасаввуф йўлида илгарилаш учун аҳли сунна эътиқодига риоя қилиш лозим. Чунки аҳли сунна фирқаи ножия (нажот топган гуруҳ) эканлигини қайд этган Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор: «Агар хожагон-нақшбандия тариқати дарвешларининг эътиқодини сўрасалар улар аҳли сунна вал жамоа эътиқодидалар, деб айт», дейди. Аҳрория шўъбасидан Шаҳобиддин Ғованд Маҳмуд (ваф. 950. 1553 йилдан кейин) ҳам: «Шайхларимизнинг усули ҳазрат пайғамбар суннатига ва аҳли сунна вал жамоа мазҳабига эргашмоқдир», деган. Аҳли сунна вал жамоага суянувчи тасаввуф тариқати инсониятга тўғри йўл кўрсата олувчи ғоявий мазмунга эга таълимот бўлиб, халқимиз асрлар давомида мана шу мафкурага содиқ бўлиб келган.

Бироқ, тарихга чуқурроқ назар ташланса, мамлакатда диний мустақилликка таъқиқлар, 1860 йилда Бухоро амирлигининг Чорроссияси томонидан ярим вассал ҳолга келтирилишидан бошланганига гувоҳ бўламиз. Россия империяси истеълосининг дастлабки йилларида мадрасаларда таълим ва ўқитиш ишлари анъанавий қоидалар асосида олиб борилган бўлса, кейинчалик уларнинг фаолиятини назорат қилиш ва ўқув ишларини тартибга солишни ўлка мавриф бошқармаси ўз қўлига олган. Бунга уларнинг ҳар бир мадрасада ўз вакилларини қўйиши, мударрислар устидан турли важларни баҳона қилиб Туркистон генерал-губернаторлиги Мавриф бошқармасига шикоятномаларнинг ёзишлари мисол бўлади. «...1914 йилда инспектор М. Андреев ёзган баённомасига кўра, айрим мударрисларнинг икки ва ундан ортиқ мадрасада дарс бераётгани, бир вақтнинг ўзида шунча мадрасадан иш ҳақи олишидан шикоят этган. Яна мазкур ҳолатга Бухоро хонлиги даврида йўл қўйилмагани, айни дамда, яъни амирлик даврида умуман рухсат берилмаслигини айтган...»[3: 48]

Чорризм ҳукмронлиги даврида таълим соҳасига нохолис ёндошувлардан ташқари мударрисларни саводсизларга чиқариш, уларга қарши турли баҳоналар билан иш очиш ҳужжатлари архивларда сақланиб қолган. Ҳужжатлар орасида мадраса талабалари номидан устозларининг билимли экани ва унга қарши ёлғон кўрсатма берилгани ҳақида баёнот берилган. Ёки нозирларнинг мадрасаларда фақат диний билимлар ўқитилиши, уларнинг назорат остига олинмаслиги сабабли мадраса фаолиятини тўхтатиш кераклиги хусусида баёнотлари мавжуд.

Мазкур ҳолатлар нохолис бўлиб, аслида хонлик даврида ҳам амирлик даврида ҳам бир мударриснинг икки лавозимда ишлаши кўп кузатилади. Мисол учун Субхонқулихон даврида

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

(1681 -1702) Мир Қосим исмли табиб «Доруш-шифо» мадрасасида мудир ва мударрис лавозимида ишлаган. Амир Ҳайдар даврида эса Атоуллохожа Шайхул ислом қози ал-куззот лавозими ҳамда «Кўкалтош» мадрасаси мударриси бўлиб фаолият олиб боргани ҳақида тарих гувоҳлик беради.

Нафақат Чорризм, балки мусулмон бўлмаган ғарб давлатларининг фиклари ҳам аҳли сунна вал жамоа эътиқодига тескари бўлган эди. Чет эл давлатларининг разведкаси асосан, Англия разведкаси Усмонли турк давлатини ўз ичидан емириш мақсадида 200 йилдан ортиқ кураш олиб борди. Бизга маълумки, уч қитъа императори, яъни ҳукмдори, деб тан олинган Усмонли турк давлати Ханафий мазҳабида эди. Улар, Туркияни мағлуб этиш учун Ҳанафий мазҳаби ва тасаввуфга қарши чиқиб, ваҳобийликни тарғиб қилдилар. Ғарб давлатлари Туркияни заифлаштириш мақсади-да, бу ишни амалга оширар экан, бу даврга келиб, арабларнинг ичидан бундайларни топиб, аллақачон ваҳобийликни кучайтирган эдилар.

Яъни, 1703 йилда Арабистоннинг Нажд воҳасида туғилган Муҳаммад ибн Абдулваҳҳоб ваҳобийлик сиёсий оқимининг асосчиси бўлиб майдонга чиқди. Бу оқимнинг ҳаракати XIX аср бошларида кучаяди. Улар асосий мақсадларини тавҳид (Худони ягона, деб билиш) деб даъво қилсалар-да, аслида диндан восита сифатида фойдаланиб, ҳокимиятни эгаллаш, мусулмонларни ичидан бузиш, низо чиқариб, бўлиб юборишга бел боғлаган эдилар. Ваҳоббийлар ўзларига эргашмаган Ҳанафий мазҳабидагиларни, қабрларни зиёрат этувчиларни, тасаввуф йўлига кирганларни ёки пайғамбар алайҳиссаломдан ёрдам сўраб: “Эй Расулуллоҳ, мени шафоат қилинг”, - деб дуо қилганларни; азиз авлиёлар, мўътабар кишиларнинг қабрларини зиёрат этганларни мушрик деб эълон қилиб, қанча-қанча бегуноҳ мусулмонларни ўлдириб юборишди.

Араб диёрида авж олган бундай сиёсий ўйинлар Туркияда давом эттирилиши, Туркиядан, Туркистон ўлкасига ушбу манзараларни кўчиришга уринишлар 1860 йилдан кейин бошланди. Чорроссияси вассалига айланиб бораётган Туркистон ўлкасини бошқариш учун ваҳобийларнинг ақидаси қўл келар эди. Четдан қилинган ҳар қандай уринишлар ҳанафий мазҳабига ёки тасаввуфга раҳна сололмади. Бунинг асосий сабаби Бухоро уламоларининг фидойиликлари ва улардан тасаввуфни мерос қилиб олган алломаларнинг саъй-ҳаракатларидир. Улар калом илми, тасаввуф илмига таянилган мафкуранинг йўқ бўлиб кетишининг олдини олиш учун жонбозлик кўрсатдилар.

Жумладан Бухорои шарифнинг муборак силсиласида номлари эҳтиром билан тилга олинган нақшбандия шайхлари қуйдагилар: Домла муфти Юсуф Бухорий, Эшон Султонхон, Домла Хулмурод, Домла Қутбиддин, Домла муфти Икромча, Домла Абдурозиқча, Эшони Ибодуллоҳхон, Эшони Саббоҳхон, Эшони Яҳёхон, Эшони Ҳабибуллоҳхон Ахсавий, Шайх Кароматуллоҳ – Саббоқ, Эшони Нақшбандхон, Домла Исмоил, Эшони Қамариддин, Қори Абдураҳим, Ҳожи Мардонқул – Ҳожи Марҳабо, Домла Абдулвоҳид, Домла Абдузоҳир, Домла Асрор, Қори Ғулом, Қори Абдулазиз, Домла Абдулҳаким ва охирги сарҳалқа Ғуломжон Изомий.[2:89]

Исмлари қайд этилган бу табаррук зотлар соф ислом ва сунний тасаввуф ҳамда ирфоний адабиёт тарғибида алоҳида жонбозлик кўрсатган ориф, олим ва тариқат арбобларидан бўлганлар. Шариат илми билимдони ва тариқат билими нуктадони бўлган бу

марифатпарварларнинг исми мубораклари “Иршод хат”ларда ва “Бухоройи шарифнинг муборак силсиласи”да алоҳида эҳтиром ила зикр этилган [4]. Бир қарашда, Х1Х асрнинг охири ХХ асрда ислом илми билан шуғуланган олимлар бўлганлиги бизга номаълум эди. Аммо тарих гувоҳлик бераяптики, бу даврда қанчалик динга қарши курашилган бўлишига қарамасдан, эътиқод масаласини қаттиқ ушлаш ва динимизни йўқолиб кетишини олдини олиш мақсадида, қолаверса нақшбандия таълимотини унутилишига йўл қўймаслик учун юқорида номлари зикр қилинган олим зотларнинг жонбозлик кўрсатганига гувоҳ бўламиз.

Юқоридаги силсилада номи тилга олинган Домла Икромча[5:31]дан тасаввуф илмини пухта эгаллаган Эшон Бобохон кейинчалик Туркистон ўлкасида, Тошкентда ёд ғояларнинг амалга ошишига йўл қўймадилар. Нақшбандия тариқати давомчиси ҳисобланган Эшон Бобохон ибн Абдулмажидхон 1857 йилда Тошкентда таваллуд топганлар [5:36]. Отаси Абдулмажидхон ва бобоси Юнусхонлар ҳам сулолавий диний илмларнинг билимдонлари бўлганлар. Эшон Бобохон дастлаб, Тошкентда Мўйи муборак мадрасаси мударриси, яъни ўз отасидан таҳсил олганлар. 1880-1890 йилларда Мир Араб мадрасасида таҳсил олган. Худди шунингдек, Алихон Тўра Соғиний ҳам бошқа жойларда таълим олиш билан бирга ўтган асрнинг бошларида Мир Араб мадрасасида таҳсил оладилар. Тарихан бундай шахслар рўйхатини бир нечтага узайтириш мумкин.

Мир Араб мадрасасида таҳсил олган уламоларнинг кучли ирода соҳиби, мафкура таянчи бўлиб етишишларида биргина аҳли сунна вал жамоа ёки тасаввуфда эканликлари буюк қилиб қўйган эмас. Бунга фанларни пухта эгаллаш, фикрлаш қобилятларини тинимсиз ўстириб бориш каби омиллар ҳам таъсир қилган. Мисол учун Мир Араб мадрасаси мударриси бўлган Аҳмадхон ибн Исмоилхон бу жараёнларни қуйдагича эслайди: Талабалар жамоа, жамоа бўлиб ўқишар. Бир жамоа 30 кишидан иборат бўлса, иккинчи жамоа ҳам шунча нафар талаба бўлиб, уларнинг бири Қуръон қироати билан шуғулланган пайтда, иккинчи жамоа мисол учун «Ҳидоя»ни ўқиш билан машғул бўларди* (Мир Араб мадрасаси ўқитувчилари сўзлаб берган. Аҳмадхон ибн Исмоилхон 1885 йилда Мир Араб мадрасасига ўқишга кириб, 12 йил мазкур илм даргоҳида таҳсил олган. Кейинчалик шу ерда мударрислик қилган).

Хулоса

Юқоридаги маълумотлар асосида, қуйдаги хулосага келиш мумкин: Мафкурамизга хавф Чорризм ҳукмронлиги давридан бошланган. Мафкурани сақлаш ва ҳимоя этишда Бухорои шарифнинг хожагон-нақшбандия силсилидаги номлари зикр қилинган шайхлар жонбозлик кўрсатиб муҳофаза қилдилар. Мир Араб мадрасасида илм олиш билан бирга зиёлилар юқорида номлари зикр этилган хожагон- нақшбандия пир-у устозларидан бу илмни ўрганганлар ва ўзгаларга талқин этганлар. Мисол учун Эшон Бобохон Мир Араб мударриси Икромча Домладан тасаввуфни ўрганиб кейинчалик бу илмни муҳофаза қилишда жонбозлик кўрсатган.

Тарихий ҳужжатлар гувоҳлик берадики, мафкурамизга зарар етказиш, энг аввало зиёлиларни тазйиқ остига олишдан бошланган. Гарчи у пайтда Чорросиясида диний тартибларни бузиш одат ҳисобланмаган бўлса-да, дин муқаддас саналган бўлса-да, улар, аҳли

сунна вал жамоа эътиқодига раҳна солишга, мафкурани обрўсизлантиришга ҳаракат қилдилар. Мафкурага раҳна солиш орқали мустақилликдан мосуво бўлишни таъминлаш назарда тутилганини кўрсатади. Буни мафкурага тажовуз, деб тушунадиган бўлсак, мафкурага тажовуз ортида давлатчиликка таҳдид борлигини тушуниш қийин эмас.

Фойдаланилган адабиётлар

[1] Ғафуров Уйғун, “Ўзбекистонда ислом таълим тимзими: шонли тарих, истибдод зулмидан омон қолиш ва нурли истиқбол”. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т.: 2023. 125. б
[2] Раззоқов А. “Тариқатга йўлланма”. “Мовароуннаҳр” Т.: 2003 й. 103. Б.
[3] Асророва Лобар Қобилжон қизи. «Бухоро мадрасалари тарихидан» «Hilol HASHR» нашриёти Т.: 2017й. 222 б.
[4] Мақолада силсилада номлари зикр қилинган устозлар ҳақидаги иршод хатининг аслидан олинган нусхаси мавжуд.
[5] Медресе Мир Араб пятивековой дворец просвещения. Сборник. Бухара: “Бухоро”, йили 207 б.
* Мир Араб мадрасаси ўқитувчилари сўзлаб берган. Аҳмадхон ибн Исмоилхон 1885 йилда Мир Араб мадрасасига ўқишга кириб, 12 йил мазкур илм даргоҳида таҳсил олган. Кейинчалик шу ерда мударрислик қилган.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Saidqulov Sodiqjon Botirovich,
National Institute of Pedagogical Skills named after Abdulla Avloni Doctoral student
saidqulovsodiqjon@gmail.com

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENHANCING THE SOCIAL ENVIRONMENT WITHIN THE MANAGEMENT OF GENERAL SECONDARY EDUCATION SCHOOLS

Annotation: This article examines the experiences of developed foreign countries such as the USA, Germany, Russia, and Japan in developing the social environment within the management of general secondary education schools. Their main directions have been analyzed, and the possibilities of applying the results of these analyses in the management activities of school principals in Uzbekistan's general secondary education institutions have been proposed.

Keywords: USA, Japan, Germany, Russia, management, institution, social environment, resources, educators.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI BOSHQARUVIDA IJTIMOIY MUHITNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshqaruvida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning AQSH, Germaniya, Rossiya hamda Yaponiya kabi rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalari o‘rganildi, ularning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilindi. Tahlillar natijasining O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida qo‘llash imkoniyatlari taklif etildi.

Kalit so‘zlar: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Rossiya, boshqaruv, muassasa, ijtimoiy muhit, resurs, pedagoglar.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ В УПРАВЛЕНИИ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ШКОЛАМИ

Аннотация: В данной статье изучен опыт развитых зарубежных стран, таких как США, Германия, Россия и Япония, по развитию социальной среды в управлении общеобразовательными школами. Проанализированы их основные направления, а также предложены возможности применения результатов анализа в управленческой деятельности директоров общеобразовательных школ Узбекистана.

Ключевые слова: США, Япония, Германия, Россия, управление, учреждение, социальная среда, ресурсы, педагоги.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy muhitni shakllantirish va uni boshqaruv orqali samarali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhit - jamiyatda istiqomat qilayotgan insonlarning ega

bo‘lgan resurslaridan samarali foydalanish maqsadida, ularga moddiy hamda ma’naviy shart-sharoitlar hamda ruhiy sog‘lom muhitni tashkil etib berishdan iborat jarayondir [3]. Shu sababli, ijtimoiy muhitni rivojlantirish jarayoni ta’lim muassasalarini boshqarish tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu boshqaruv samaradorligi maktabning umumiy faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda demokratik yondashuvlar, ijtimoiy sheriklik, o‘quvchilarning psixologik holatini monitoring qilish tizimlari, shuningdek, ota-onalar hamda mahalliy hamjamiyat bilan samarali hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Ushbu tajribalarni tahlil qilish orqali milliy ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash, ijtimoiy muhitni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshqaruvida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning AQSH, Germaniya, Rossiya hamda Yaponiya kabi rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalari ijtimoiy tarmoqlar [4,5,6,7,8], bir nechta xorijiy adabiyotlar hamda ilmiy jurnallar [2,3,9,10,11], Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari [1] asosida o‘rganildi, ularning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilindi. Tahlillar natijasining O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida qo‘llash imkoniyatlari taklif etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. AQSH va Yaponiyadagi menejment maktablari hozirgi kunda dunyoda yetakchi bo‘lib, boshqa mamlakatlarda menejmentni rivojlantirishning o‘ziga xos standarti sifatida qaralmoqda. Biroq, qutbli farqlar bilan ular o‘rtasida ma’lum bir o‘xshashlik mavjud: ikkala maktab ham inson omilini faollashtirishga (ammo turli shakl va usullardan foydalangan holda), doimiy innovatsiyalarga, muassasani rivojlantirishning uzoq muddatli strategik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni boshqarishga (garchi amerikalik menejerlar o‘z rejalarini 5-8 yilga ishlab chiqsalar ham, yapon menejerlari - 10 yilgacha va undan ko‘proq muddatga) asoslanadi. Shu bilan birga, tashqi o‘xshashlikka qaramay, bu ikki boshqaruv maktabi o‘z mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xususiyatlarga ega.

Amerika boshqaruv tizimining asosini 18-19-asrlarda, mamlakatga yuz minglab muhojirlar kelgan paytda Amerika jamiyatida vujudga kelgan individuallik tamoyili tashkil etadi. Keng hududlarni o‘zlashtirish jarayonida tashabbuskorlik va individuallik kabi milliy xarakter xususiyatlari rivojlandi. XIX-asr oxirigacha bo‘lgan Yaponiya uchun feodalizm saqlanib qoldi, jamoat ongining kollektivizmga (har qanday ijtimoiy guruhga mansub) an’anaviy munosabati xarakterli bo‘lib, zamonaviy Yaponiya boshqaruv tizimining shakllanishi ushbu xususiyatni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda yapon menejmenti umumiy madaniy qadriyatlar va an’analarni hisobga olgan holda Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong, Tailand kabi mamlakatlarda keng tarqalmoqda.

Yaponiya va Amerika boshqaruv tizimlari o‘rtasida boshqa farqlar ham mavjud. Qo‘shma shtatlarda boshqaruv jarayonida tashkilot faoliyatini yaxshilashga qodir bo‘lgan yorqin shaxsga e’tibor qaratilsa, Yaponiyada menejerlar guruh va butun tashkilot tomonidan boshqariladi. Amerika muassasalarida ma’lum funksiyalarga ega bo‘lgan qat’iy boshqaruv tuzilmalari mavjud bo‘lsa, Yaponiyada yanada moslashuvchan boshqaruv tuzilmalari qo‘llaniladi, aniq vazifalarni bajarish bilan yaratiladi hamda yo‘q qilinadi. Amerikalik pedagoglar uchun asosiy rag‘batlantirish iqtisodiy omil (pul) - yapon ishchilari uchun pul emas, balki ijtimoiy-psixologik omillar (jamoaga tegishlilik hissi,

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

kompaniya bilan faxrlanish) muhimroq rol o‘ynaydi. G‘arbiy Yevropa va Amerika muassasalari ishchilarning tashabbusi va ijodiga to‘sqinlik qiluvchi ma’naviy va psixologik taqiqlarning mavjudligi bilan ajralib turadi - Yapon ishchilari ichki burch va o‘z manfaatlarini jamoa manfaatlariga bo‘ysundirish tushunchalarini boshqaradi. Inqirozli vaziyatlarda amerikalik menejerlar o‘z muassasasi xarajatlarini kamaytirish va uni yanada raqobatbardosh qilish uchun xodimlarning bir qismini ishdan bo‘shatishga harakat qilishadi - Yaponiya muassasalarida esa ishchilarning umrbod bandligi deb ataladigan yozilmagan qonunlar mavjud. Xodimlar tashkilotning eng yuqori qadriyati hisoblanadi, shuning uchun ma’muriyat o‘z xodimlarini eng og‘ir vaziyatlarda ushlab turish uchun hamma narsani qiladi. Mehnat shartnomasiga ko‘ra, amerikalik ishchilar faqat o‘zlarining funktsional vazifalarini bajarishga qaratilgan - yapon ishchilari nafaqat o‘zlarining mehnat majburiyatlarini bajarishga, balki o‘z tashkiloti uchun maksimal darajada foydali bo‘lishga intilishadi, masalan, amerikalik usta yoki muhandis hech qachon ustaxonada tozalash ishlari bilan shug‘ullanmaydi, hatto bo‘sh vaqti bo‘lsa ham, ammo yapon mutaxassisi o‘zining asosiy faoliyatidan bo‘sh vaqtga ega bo‘lsa, albatta o‘z muassasasi uchun foydali ish qiladi, chunki u qa’'iy belgilangan funktsional vazifalarni bajarishga emas, balki diqqatini o‘ziga qaratadi. Ular o‘z muassasasining farovonligi uchun ishlashda davom etadi. Amerikalik ishchilar odatda bir necha yilda bir marta ish joylarini o‘zgartirib, ularga yaxshi ish haqi yoki yaxshi ish sharoitlarini taklif qiladigan muassasalarga o‘tishadi. Bu, shuningdek, Qo‘shma Shtatlarda faqat vertikal martaba an'anaviy ravishda muvaffaqiyatli deb hisoblanishi bilan bog‘liq. Muassasada 20-25 yil ishlagan xodimlarni pensiya yoshiga yetmagan taqdirda ham nafaqaga chiqarish odatiy holdir. Shu tariqa muassasa rahbariyati yosh mutaxassislarning martabasi o‘sishi uchun sharoit yaratishga va ularni o‘z tashkilotida saqlashga intiladi.

Quyidagi jadvalda menejmentning yapon va amerika modellarini solishtirish, ularning har birining afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatilgan [4].

Yaponiya va Amerika boshqaruv modellarining qiyosiy tahlili

Mezonlar	**Yaponiya modeli**	**Amerika modeli**
Boshqaruv qarorlarini qabul qilish xarakteri	Konsensus (kelishuv) asosida qaror qabul qilish	Qaror qabul qilishning individual xususiyati
Mas’uliyat	Kollektiv	Individual
Boshqaruv tuzilmasi	Nostandart, moslashuvchan	Jiddiy rasmiylashtirilgan
Boshqarishning tabiati	Kollektiv	Boshning individual nazorati
Boshqaruv faoliyati	Ijtimoiy-psixologik jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratiladi	Yakka tartibdagi tashabbusni ko‘proq rag‘batlantirishadi
Nazoratni tashkil etish	Yumshoq norasmiy nazorat	Aniq rasmiylashtirilgan qattiq nazorat tartibi
Rahbarning fazilatlarini baholash	Muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyati	Professionallik va tashabbuskorlik
Boshqaruvning yo‘naltirilganligi	Boshqaruvni guruhga yo‘naltirish, shaxsga e'tiborni	Boshqaruvni shaxsga yo‘naltirish, ijrochi sifatida

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

	kuchaytirish	shaxsga e'tibor berish
Xodimlar faoliyatini baholash	Kollektiv natijaga erishish	Shaxsiy natijalarga erishish
Bo‘ysunuvchilar bilan munosabatlar	Shaxsiy norasmiy munosabatlar	Rasmiy munosabatlar
Karyera	Ko‘tarilish yoshi, xizmat muddati va firmaga sodiqlik asosida	Biznes martaba shaxsiy yutuqlar bilan oldindan belgilanadi
Rahbarlik malakasini oshirish	Umumjahon yetakchilarni tayyorlash	Yuqori ixtisoslashgan menejerlarni tayyorlash
Ish haqi to‘lash	Guruh faoliyatiga, tajribaga ko‘ra ish haqi	Shaxsiy yutuqlar uchun mukofot
Muassasada ishlash muddati	Muassasa rahbarining uzoq muddatli mehnat faoliyati, umrbod ish	Shartnoma asosida, shartnoma asosida, qisqa muddatli ishga joylashish
Boshqaruvdagi nizolarni hal qilish	Hodimlarning hamkorlikdagi faoliyatlari samarasini oshiruvchi sharoitlarni yaratish	Hodimlarning shaxsiy-individual tashabbuslar ko‘rsatishlariga imkon beruvchi muhit bo‘lishi
Kadrlar bilan ta’minlash	Muassasada aniq belgilangan rol va vazifalarning mavjudligi	Funktsional bo‘ysunish va hokimiyatning aniq chegaralari
Malaka oshirish	Ishda (ish joyida)	Maxsus o‘quv dasturlari uchun ajratilgan

Yaponiyada xodimlar, odatda, butun umri davomida bitta korxonada ishlaydi va boshqa tashkilotga har qanday o‘tish axloqiy emas deb hisoblanadi. Yaponiyalik mutaxassisning karyerasi ko‘pincha gorizontal (masalan, o‘rta bo‘g‘in menejeri har 4-5 yilda boshqa bo‘limlarga o‘tadi, avvalgi maqomida teng lavozimlarni egallaydi). Bu muassasaga bo‘limlar va xizmatlar o‘rtasidagi gorizontal aloqalar tizimini takomillashtirish, keng profilli mutaxassislarni tayyorlash, o‘zaro almashinish muammosini hal qilish, jamoada ijtimoiy muhitni yaxshilash imkonini beradi. Pensiya yoshiga yetgan insonlar kamdan-kam hollarda nafaqaga chiqadilar, kuchlari bor ekan, har qanday soha va lavozimlarda korxona manfaati uchun ishlashga harakat qiladilar.

Yana bir muhim farq menejmentni tashkil etishdadir. Amerika muassasalarida rasmiy va ishlab chiqarish majburiyatlari qat’iy ajratilgan va ulardan foydalanishni yuqori shaxs nazorat qiladi, shuning uchun ularga ishonib topshirilgan masalalarning cheklangan doirasi ishchilar va xizmatchilarning nuqtai nazari bilan bog‘liq. Yaponiya muassasalarida doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib boruvchi xodimlar ishlab chiqarish faoliyatining ko‘plab muhim masalalariga mas’uldirlar. Shunday qilib, AQShda hukumat boshqaruvi “ierarxik”, Yaponiyada esa “universal” shaklda tashkil etiladi.

Qisqa muddatda Yaponiya boshqaruv tizimi qarorlar qabul qilishning katta murakkabligi va barcha darajadagi kadrlarni tayyorlashga sarflangan katta vaqt hamda mablag‘lar tufayli Amerikadan

yutqazadi. Ammo uzoq muddatda bu ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, chunki u ishchilarning boshqaruvda ishtirokini rag‘batlantiradi va ularning mas’uliyati va korxona ishlariga qiziqishini oshiradi.

Yapon va Amerika boshqaruv modellarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, bitta boshqaruv modelini boshqa mamlakat iqtisodiyotiga uning o‘ziga xos sharoitlari va birinchi navbatda psixologik va ijtimoiy-madaniy omillarni hisobga olmasdan o‘tkazib bo‘lmaydi. Biroq, modellarni taqqoslash katta qiziqish uyg‘otadi, chunki mahalliy boshqaruv modelini shakllantirish boshqa mamlakatlar tajribasini o‘rganishni talab qiladi.

Turli boshqaruv usullaridan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish katta qiziqish uyg‘otadi, xususan, Yaponiyada quyidagi usullar keng tarqalgan:

Ishni almashtirish. Yapon firmalari uchun odatiy holdirki, ishga yangi kelgan xodim, ta’lim va tayyorgarlik darajasidan qat’i nazar, tegishli lavozimni egallashdan oldin, barcha quyi lavozimlardan o‘tishi kerak. Vertikal aylanishdan tashqari, xodim vaqti-vaqti bilan qo‘shni bo‘linmalarda o‘xshash darajadagi lavozimlarga o‘tganda gorizontal aylanish ham mavjud. Ushbu rotatsiya usulining afzalliklari shundaki, xodimda butun kompaniya faoliyatini idrok etish ufqi kengayadi va xodimlar o‘rtasidagi norasmiy aloqalar darajasi oshadi.

Guruhlarda ishlashga e’tibor berish. Yapon firmasi uchun alohida xodim emas, balki guruh asosiy birlik sifatida qaralishi odatiy holdir. Guruhga yo‘naltirilganlik vazifalarni belgilash, uni amalga oshirish uchun vositalar va usullarni tanlash, natijalarni baholash bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Guruhga katta avtonomiya va keng vakolatlar berilgan. Yaponiyada “sifat doiralari” kabi guruhlar keng tarqalgan. Ularning a’zolari haftada bir marta yig‘ilib, mahsulot sifatini oshirish va boshqaruvning turli muammolarini hal etish yo‘llarini muhokama qiladilar. Uchrashuvlar odatda dam olish kunlari o‘tkaziladi. Agar to‘garak a’zolaridan biri g‘oyani ilgari sursa, qolganlar uni muhokama qiladilar hamda undan foydalanish mumkinmi yoki yo‘qmi, hal qiladilar. Faoliyat usullari yuqoridan belgilanmaydi, balki guruh a’zolari tomonidan belgilanadi.

“Oila” usuli xodimlarni kompaniyaning muvaffaqiyatli ishlashi ularning ish natijalariga bog‘liqligi haqidagi tushunchaga asoslanadi: kompaniya qanchalik ko‘p foyda olsa, xodimlar shunchalik ko‘p daromad oladi. Ushbu usulning ikkita turi mavjud:

a) “umr bo‘yi mehnat” - umrbod mehnat shartnomasi tuzilmaydi, lekin xodim, qoida tariqasida, pensiyaga chiqqunga qadar kompaniyada ishlaydi. Uning uchun bu kelajakka ishonchni, lavozimga ko‘tarilish imkoniyatini kafolatlaydi;

b) “ish staji bo‘yicha lavozimga ko‘tarilish” tizimi oliy ma’lumotga ega bo‘lgan xodimga 15 yil ichida rahbarlik lavozimiga ko‘tarilishini kafolatlaydi.

Ringi tizimi guruh qarorlarini qabul qilish usulidir. Qaror qabul qilish tashabbuskori turli darajadagi boshqaruv xodimlari bo‘lishi mumkin. Muammodan ta’sirlangan kompaniyaning barcha xodimlari yechimlarni ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

Aloqaning ochiq intensiv xususiyatidan foydalanish usuli. Yapon muassasalarida menejerlarning qo‘l ostidagilar bilan tez-tez muloqot qilishlari an’anaga aylangan. Menejer kuniga bir necha soatni xodimlar bilan ishlab chiqarish va shaxsiy muammolarni muhokama qilish uchun sarflashi mumkin. Firmalar gorizontal aloqani ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Xodimlarning mehnat natijalarini baholash. Ko‘pgina firmalarda prezidentlar nafaqat tayinlashda, balki xodimlarning ish faoliyatini baholashda ham ishtirok etadilar. Keng qo‘llaniladigan usullardan biri bu xodimlar bilan suhbat bo‘lib, u ko‘pincha menejerning kabinetida emas, balki neytral hududda o‘tkaziladi, shunda xodim o‘zini cheklangan his qilmaydi.

Xodimlarga nisbatan otalik. Rahbarning bo‘ysunuvchiga munosabati g‘amxo‘rlik va homiylik asosida quriladi. Avtonom boshqaruv usuli boshqaruv funktsiyalarini kichik guruhlarga topshirishni o‘z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, ishchilarning yetarlicha tayyorgarligi o‘rnatilganda, kichik guruhlarga ish joyida ishlab chiqarishni rejalashtirish va nazorat qilish funktsiyalarining bir qismi beriladi.

Avtonom boshqaruvning maqsadi: a) jamoada qulay ijtimoiy muhitni yaratishga hissa qo‘shish; b) korporatsiya va butun jamiyat rivojlanishiga hissa qo‘shish. Bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida mahalliy iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda xorijiy, xususan, Yaponiya boshqaruv tajribasi elementlaridan foydalanish xodimlarning samaradorligini oshirishga ko‘p jihatdan yordam beradi.

Yaponiya va AQSh davlatlarining boshqaruvdagi ijtimoiy muhitni rivojlantirish tajribalari bilan birgalikda, tadqiqotda Germaniya hamda Rossiya davlatlarining ham tajribasi o‘rganildi. Quyida ushbu davlatlarning boshqaruv jarayonlari hamda unga ijtimoiy muhitning ta’sirini atroflicha ko‘rib chiqamiz.

Germaniyada maktab ta’limi boshqaruvi federal tuzilishga asoslangan bo‘lib, 16 ta federal yer (Bundesländer)ning har biri o‘z ta’lim tizimini boshqaradi. Har bir federal yer o‘zining ta’lim to‘g‘risidagi qonunlariga ega bo‘lsa-da, umumiy tartib-qoidalar va standartlar mavjud. Maktab ta’limi majburiy va bepul bo‘lib, 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Maktab tizimi odatda boshlang‘ich (Grundschule), o‘rta (Sekundarstufe I) va yuqori (Sekundarstufe II) bosqichlarga bo‘linadi. Boshlang‘ich maktabda o‘qish muddati ko‘pchilik hududlarda 4 yil, Berlinda esa 6 yil [5].

So‘nggi yillarda Germaniyada maktab direktorlarining yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Masalan, 2024-yil noyabr holatiga ko‘ra, mamlakat bo‘ylab 1286 ta maktab direktori lavozimi vakant bo‘lib, bu ta’lim tizimida kadrlar tanqisligini ko‘rsatadi [6]. Ushbu tanqislikni bir necha omillar bilan izohlash mumkin:

Yuqori ish yuklamasi va ma'suliyat: Maktab direktorlarining vazifalari o‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, byudjetni boshqarish, ota-onalar bilan muloqot qilish kabi ko‘plab mas’uliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa ko‘pincha yuqori stress va ish yuklamasiga olib keladi.

Ma’muriy to‘siqlar va byurokratiya: Ta’lim tizimidagi murakkab ma’muriy jarayonlar va byurokratik to‘siqlar maktab direktorlarining ishini qiyinlashtiradi. Bu holat ko‘plab mutaxassislarni ushbu lavozimni egallashdan bosh tortishga undaydi.

Moliyaviy rag‘batning yetishmasligi: Maktab direktorlarining maoshi ko‘pincha ularning mas’uliyatiga nisbatan past baholanadi. Bu esa tajribali o‘qituvchilarni direktorlik lavozimini egallashdan tiyilishiga sabab bo‘ladi.

Yoshdagi o‘zgarishlar: Ko‘plab amaldagi maktab direktorlarining nafaqaga chiqishi natijasida yangi rahbarlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Biroq, yosh mutaxassislar orasida ushbu lavozimga qiziqish pastligi kuzatilmoqda.

Qo‘llab-quvvatlash va tayyorgarlikning yetishmasligi: Maktab direktorligi uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarining yetarli emasligi va yangi direktorlar uchun qo‘llab-quvvatlash tizimlarining sustligi ham muammo hisoblanadi.

Ushbu omillar Germaniyada maktab direktorlarining yetishmovchiligiga olib kelmoqda. Muammoni hal qilish uchun ish sharoitlarini yaxshilash, ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish, moliyaviy rag‘batlarni oshirish va maxsus tayyorgarlik dasturlarini joriy etish kabi choralar ko‘rilishi lozim.

Shuningdek, ba’zi Germaniya maktablarida o‘quvchilarning darslarga kechikishi muammosi ham mavjud. Masalan, Nyurnberg shahridagi Dyurer gimnaziyasida dars mashg‘ulotlariga kechikkan o‘quvchilarga 5 yevro miqdorida jarima joriy etilgan bo‘lib, bu chora kechikishlarni kamaytirishga yordam bergan [7].

Germaniyada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijtimoiy muhitni rivojlantirish maktab boshqaruvining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Maktab boshqaruvida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning asosiy jihatlarini quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

O‘qituvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish: O‘qituvchilarning ijtimoiy kompetensiyalari, o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Germaniyada o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning kommunikativ ko‘nikmalari, muammolarni hal etish qobiliyatlari va jamoa bilan ishlash malakalari rivojlantiriladi.

Ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish: Maktabda ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi uchun muhimdir. Bu jarayonda turli madaniy tadbirlar, sport musobaqalari va san’at dasturlari tashkil etiladi, bu esa o‘quvchilarning jamoaviylik hissini oshiradi.

Ta’lim tizimining boshqaruv strategiyalari: Germaniyada ta’lim tizimi boshqaruvida strategik yondashuvlar qo‘llaniladi. Maktablar o‘z rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishadi hamda ushbu strategiyalar asosida albatta maktabdagi ijtimoiy muhitni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradilar.

Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik: Maktablar ota-onalar va mahalla bilan yaqin hamkorlik o‘rnatib, o‘quvchilarning ijtimoiy muhitini yaxshilashga intiladilar. Bu hamkorlik o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Inklyuziv ta’limni joriy etish: Germaniya maktablarida inklyuziv ta’lim tizimi keng qo‘llaniladi, bu esa turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni umumiy ta’lim jarayoniga qo‘shib, ularning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning bir-birini tushunishi va hurmat qilishi, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish: Maktablarda o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan turli loyihalar va dasturlar amalga oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilar

jamiyatdagi muammolarni hal qilishda faol ishtirok etib, liderlik va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Madaniy muhit orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya: Maktablarda madaniy muhitni boyitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga e’tibor qaratiladi. Bu maqsadda san’at, adabiyot va musiqa kabi madaniy faoliyatlar tashkil etilib, o‘quvchilarning estetik didi va axloqiy qadriyatlari shakllantiriladi.

Jahon iqtisodiy forumi ekspertlari O‘zbekistonning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan asosiy tahdidlar sifatida ishchi kuchi va mutaxassislarning yetishmasligini qayd etgan. Statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasi 13,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston IT, muhandislik va yashil energetika kabi yuqori texnologiyali sohalarda malakali kadrlar tanqisligiga duch kelmoqda. Bu ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi, ya’ni o‘quv dasturlari ish beruvchilarning ehtiyojlariga yo‘naltirilmaganligi bilan izohlanadi

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi ekspertlari esa yuqoridagi muammoni bartaraf etish uchun bergan takliflarida ham aynan Germaniya tajribasi ko‘rsatib o‘tishgan.

Germaniyaning muvaffaqiyatli tajribasidan kelib chiqib “dual ta’lim” dasturini joriy etish. Germaniyada ushbu dastur doirasida talabalar bir vaqtning o‘zida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish bilan birga, OTMlar bilan hamkorlik shartnomalari tuzgan korxonalarda amaliyot o‘taydi, ya’ni talabalar o‘qishning birinchi kunidan boshlab nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiradi.

Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi, balki haqiqiy biznes muhitida muhim amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga, shuningdek, bakalavr yoki magistr darajasini to‘liq kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish orqali olish imkoniyatini yaratadi.

Yoki Singapurning SkillsFuture tashabbusi xodimlarning malakasini oshirish va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini yaxshilashga qaratilgan. Bunday yondashuv tufayli Singapurda bitiruvchilarning 70 foizdan ortig‘i o‘qishni tugatgandan so‘ng darhol ishga joylashadi [8].

Umuman olganda, Germaniya ta’lim tizimi federal yerlar tomonidan boshqariladi, lekin umumiy standartlar va qoidalar orqali ta’lim tizimida bir xillik ta’minlanadi. Maktab ta’limi majburiy va bepul bo‘lib, o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda turli yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi.

Rossiya ta’lim tizimi boshqaruvida ham ijtimoiy muhitning salmoqli o‘rni mavjud. Rossiyada ta’lim tizimi davlat tomonidan boshqarilsa ham, har bir ta’lim muassasasining muvaffaqiyati uning rahbariga, ya’ni direktoriga bevosita bog‘liq. Direktorlar maktabda nafaqat o‘quv jarayonini boshqaradi, balki maktab ichida ijtimoiy muhitini ham shakllantiradi. Bu esa o‘quvchilarning psixologik holati, o‘qituvchilarning ishlash sharoitlari va ota-onalarning ta’lim jarayoniga qiziqishi bilan bevosita chambarchas bog‘liq.

Rossiyada ijtimoiy muhit ta’lim muassasasi ichida va tashqarisida yuzaga keladigan insonlararo munosabatlar, me’yorlar, qadriyatlar va hamkorlik shakllarini o‘z ichiga oladi hamda sog‘lom ijtimoiy muhit quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarning shakllanganligi;
- Ota-onalarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi;
- Barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi;

Maktab va mahalliy hamjamiyat o‘rtasidagi hamkorlikning samarali tashkil etilganligi:

Ijtimoiy muhitning rivojlanishi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o‘qituvchilar samaradorligini yaxshilaydi va ota-onalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Rossiya maktablaridagi direktorlarning ijtimoiy muhitni rivojlantirishdagi asosiy vazifalarini ham quyidagicha qismlarga bo‘lish orqali talqin etish mumkin:

- *O‘qituvchilar jamoasida sog‘lom ish muhitini shakllantirish*

Direktorlar o‘qituvchilar jamoasi orasida ijobiy psixologik muhit yaratishga harakat qilishi lozim. O‘qituvchilarga professional rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish, o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlik hamda tajriba almashish an’analarini yo‘lga qo‘yish, stressni kamaytirish va ishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish uchun psixologik xizmatlardan foydalanish kabi ishlar jamoa ichidagi mikromuhitning sog‘lom bo‘lishiga hamda ta’lim sifati va o‘qitish samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

- *O‘quvchilar uchun xavfsiz va ijtimoiy jihatdan qulay muhit yaratish*

Maktabda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni xavfsiz va qulay muhitda kechishi kerak. Buning uchun maktab direktor quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

-Maktabda jismoniy va psixologik zo‘ravonlikka (bulling) qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqish;

-O‘quvchilar orasida ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun to‘garaklar tashkil qilish;

-Nogironligi bor o‘quvchilar va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun qo‘shimcha yordam mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish:

Bunday yondashuv o‘z-o‘zidan o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy tenglik hamda ta’limning ijtimoiy muhitidagi ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Rossiyada maktab direktorlarining asosiy funksional vazifasiga faqatgina akademik jarayonni boshqarishgina emas, maktabdagi ta’lim muhitini yaxshilash, jamiyat bilan hamkorlik qilish va zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali maktabning ijtimoiy muhitini rivojlantirish kabi masalalar ham kiradi. Direktorlarning samarali boshqaruvi esa bevosita ta’limning sifatiga, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning psixologik holatiga, ota-onalar bilan hamkorlik va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Rossiya hamda Germaniya davlatidagi maktab ta’limi boshqaruvi va undagi maktab direktorining ijtimoiy muhitni rivojlantirish jarayonlari bilan tanishish, o‘z-o‘zidan ushbu ikki davlatni qiyosiy tahlil jadvalini shakllantirishimizga hamda Respublikamiz maktablari boshqaruvi uchun tadbiq etishimiz mumkin bo‘lgan qiyosiy tahlilning tuzilishiga asos bo‘ldi. Quyida ushbu qiyosiy, tahliliy jadvalni e’tiboringizga havola etamiz.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Asosiy jihatlar	Germaniya maktablari	Rossiya maktablari	O‘zbekiston uchun tadbiq etilishi mumkin bo‘lgan jihatlar
Ta’lim boshqaruvi	Federal tizim: ta’lim federal yer hukumati (Länder) tomonidan boshqariladi. Ammo har bir federal yerning o‘ziga xos ta’lim standartlari bor.	Markazlashgan boshqaruv: ta’lim tizimi federal darajada nazorat qilinadi, yagona milliy ta’lim standartlari mavjud.	O‘zbekiston ta’lim tizimida hududiy mustaqillikni oshirish, viloyatlar ta’lim siyosatini moslashtirish.
Maktab ijtimoiy muhiti	O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida erkin va demokratik muloqot shakllangan, teng huquqlilik mavjud.	O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida rasmiy munosabatlar ustunlik qiladi, intizomiy talablar yuqori.	O‘quvchilarga mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilish imkoniyatini yanada yaxshilash imkoniyatlarini yaratish.
Ijtimoiy muhitni yaxshilashga qaratilgan loyihalar	Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlari (sozlamali ta’lim, ijtimoiy loyihalar, jamoaviy mashg‘ulotlar) keng qo‘llaniladi.	Ijtimoiy ko‘nikmalar ta’lim dasturlarida nazarda tutilgan, lekin amaliy loyihalar Germaniyaga qaraganda kamroq.	Germaniyadagi singari, o‘quvchilar uchun ijtimoiy loyihalar, jamoaviy tadbirlarni ko‘paytirish.
Ota-onalar bilan hamkorlik	Ota-onalar maktab hayotida faol qatnashadi, ota-onalar kengashlari (Elternbeirat) tizimi ishlab turadi.	Ota-onalar maktabda asosiy qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etmaydi, lekin majburiy yig‘ilishlar va maslahatlar o‘tkaziladi.	O‘zbekiston maktablarida ota-onalar ishtirokini oshirish, ular bilan ko‘proq hamkorlik qilish tizimini joriy etishga qaratilgan amaliy lohiyalar amalga oshirish.
O‘qituvchilar va boshqaruv	O‘qituvchilar mustaqil va kreativ dars o‘tish imkoniyatiga hamda ko‘nikmasiga ega, ularning mehnati yuqori baholanadi.	O‘qituvchilar davlat standartlariga qat’iy rioya qilishlari shart, dars metodikasi davlat tomonidan belgilanadi.	O‘qituvchilarga pedagogik erkinlikni kengaytirish va innovatsion dars usullarini joriy etish. Maktabning ishlab chiqayotgan qarorlarida pedagoglarning ham fikrlarini inobatga olish.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirib o‘tilgan davlatlarning tajribasidan O‘zbekiston Respublikasi maktablari direktorlarining boshqaruvida ham foydalanilmoqda. Xususan Vazirlar Makamasining 2023-yil 25-dekabrdagi “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 681-sonli qaroriga [1] muvofiq tashkil etilayotgan

menejerlik kurslarining o‘quv reja hamda dasturlarining bir nechta mavzularida, ijtimoiy muhitni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasidan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir davlatning, har bir millatning o‘ziga xos va mos bo‘lgan ta’lim boshqaruvi uslublari, usullari hamda yo‘nalishlari mavjud. Germaniya davlatidan maktablarning o‘ziga mustaqillik berish orqali ijtimoiy muhitni rivojlantirish xulosasiga kelgan bo‘lsak, Rossiyadagi maktab direktorlarining ijtimoiy muhitni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni tez-tez amalga oshirishlari kabi tajribalarni bizga ham tadbiq etish mumkin. Yaponiya va Amerika boshqaruvida esa, har qanday islohotlarning markazida doimo inson turishi, ta’limda va boshqaruvda olib borilayotgan o‘zgarishlar pedagoglar uchun qanday ta’sir ko‘rsatishi ilk navbatda inobatga olinishi kabi tajribalarni, bizning maktablarimiz uchun ham foydali hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vazirlar Makamasining 2023-yil 25-dekabrdagi “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 681-sonli qarori.

2. A.Shlyayxer “Jahon miqyosidagi ta’lim: XXI asr maktab tizimini qanday barpo etish kerak?

3. S.B.Saidqulov “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning nazariyasi”. “Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio” Ilimiy-metodikalьıq jurnal 2025-yil 3/5-san Nukus

4. https://optolov.ru/uz/apartment-design/raznica-mezhdu-yaponskim-menedzhmentom-i-amerikanskim-referat.html

5. https://tsil3.ucoz.net/news/germaniya_ta_lim_tizimi/2012-11-13-13

6. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/germaniyada-maktab-direktorlarining-keskin-tanqisligi-mavjud

7. https://kun.uz/news/2024/12/04/germaniyada-maktabga-kechikkan-oquvchilarga-jarima-solish-boshlandi

8. https://t.me/kunuz/85161

9. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv. O‘quv qo‘llanma. – T.: - 2021

10. Ismailova Z.K., Baybayeva M.X. Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishdagi samarali boshqaruv faoliyatini takomillashtirish. – T.: - “Nodirabegim” nashriyoti. 2019.

11. Djurayev.R.X. Ta’lim menejmenti. “Voris Nashriyoti”- T.: -2006.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

B.Y.Xaydarov
Farg‘ona davlat universiteti Sport o‘yinlari kafedrasi katta o‘qituvchisi
bahodirxaydarov7@gmail.com

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

THEORETICAL BASIS OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND COORDINATION ABILITIES

Annotation: This article discusses the theoretical foundations of physical development and coordination abilities. The role of morphological and functional indicators in sports specialization and motor performance is analyzed in detail. According to researchers, muscular strength, vestibular system, joint mobility, and body structure are key components of an athlete’s preparedness. Special emphasis is placed on approaches to developing coordination skills in adolescent athletes, which has significant scientific and practical relevance.

Keywords: physical development, coordination abilities, morphological indicators, muscular strength, vestibular system, sports preparation.

JISMONIY RIVOJLANISH VA KOORDINATSION QOBILIYATLAR NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy rivojlanish va koordinatsion qobiliyatlarning nazariy asoslari yoritilgan. Morfologik va funksional ko‘rsatkichlarning sport ixtisoslashuvi hamda harakat faoliyatidagi ahamiyati asosli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, mushak kuchi, vestibulyar tizim, bo‘g‘imlar harakatchanligi va tana tuzilmasi sportchi tayyorgarligining asosiy omillaridan hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smir yoshidagi sportchilar bilan ishlashda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy rivojlanish, koordinatsion qobiliyatlar, morfologik ko‘rsatkichlar, mushak kuchi, vestibulyar tizim, sport tayyorgarligi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ

Аннотация: В статье освещаются теоретические основы физического развития и координационных способностей. Обоснованно проанализировано значение морфологических и функциональных показателей в спортивной специализации и двигательной активности. По мнению исследователей, мышечная сила, вестибулярный аппарат, подвижность суставов и телосложение являются основными компонентами подготовки спортсмена. Особое внимание уделяется подходам к развитию координационных способностей у подростков, что имеет важное научно-практическое значение.

Ключевые слова: физическое развитие, координационные способности, морфологические показатели, мышечная сила, вестибулярный аппарат, спортивная подготовка.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

1. Kirish (Introduction). Jismoniy rivojlanish inson organizmining yoshga xos o‘zgarishlari, a’zolar va tizimlarning moslashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarda bu jarayon juda faol kechadi va jismoniy tarbiya vositalari orqali to‘g‘ri boshqarilsa, bola salomatligi va psixofiziologik tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[15].

Shu bilan birga, koordinatsion qobiliyatlar — harakatni boshqarish, fazoda yo‘nalish topish, muvozanatni saqlash, harakatlar uyg‘unligi va ritmini to‘g‘ri tashkil etish qobiliyatlaridir. Bu qobiliyatlar o‘smir yoshida eng faol rivojlanadi [14]. Mazkur maqolada jismoniy rivojlanish bilan koordinatsion qobiliyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik va nazariy asoslar tahlil qilinadi.

2. Metodlar (Methods). Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

Adabiyotlar tahlili — jismoniy rivojlanish va koordinatsion qobiliyatlar bo‘yicha 1980–2023 yillarga oid 40 dan ortiq ilmiy manbalar o‘rganildi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, morfologik ko‘rsatkichlar (tana tuzilishi, antropometrik parametrlari va hokazo) sport ixtisoslashuvi va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim omildir. Masalan, V.M. Zatsiorskiy va N.J. Bulgakovaning ishlarida [3,4,8.] skelet o‘lchamlari tashqi muhit ta’siriga kamroq moyil bo‘lib, sport natijalarini bashoratlashda barqaror mezon bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Aksincha, tana vazni kabi ko‘rsatkichlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va oziqlanishga kuchliroq bog‘liq bo‘lib, o‘zgaruvchan bo‘lishi ta’kidlanadi. Shu bois sportchilarning jismoniy rivojlanish darajasini baholashda ularning tana tuzilishi va funksional holati kompleks yondashuvda o‘rganiladi. Ilmiy adabiyotlarda harakat imkoniyatlarini aniqlovchi omillar to‘liq aniqlanmagan bo‘lib, bu mavzu doirasidagi izlanishlar davom etmoqda. Ko‘plab klassik tadqiqotchilar (V.M. Zatsiorskiy, E.Yu. Rozin, B.V. Sermeev va b.) jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish omillari va harakat texnikasini egallash tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan. Muscular kuch (mushak kuchi) harakat faoliyatining asosiy tarkibiy qismi ekani bir qator ishlar orqali isbotlangan. Jumladan, E.Yu. Rozin[2] gimnastika bilan shug‘ullanuvchi o‘smir sportchilarda 17–18 yoshga kelib mushaklarning mutlaq kuchi 3-4 barobar oshishini, bunda 12-13 va 16-17 yosh oralig‘i kuch o‘sishining tezlashgan davri ekani aniqlagan. Shu bilan birga, mushak kuchining nisbiy ko‘rsatkichlari asosan irsiyat bilan belgilanib, murakkab ko‘p koordinatsiyali sport turlarida bu yanada muhim ekani qayd etilgan. Demak, har bir sportchining jismoniy qobiliyatlari rivojiga uning genetik va morfologik xususiyatlari muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Koordinatsion murakkab harakatlarni bajarishda bo‘g‘imlarning harakatchanligi va vestibulyar apparatning roli alohida ta’kidlanadi. Masalan, B.V. Sermeev [12, 13.] tadqiqotlari bo‘yicha bo‘g‘imlarning elastikligi va egiluvchanligi sportchi tayyorgarligining muhim komponenti sanaladi. Egiluvchanlik qobiliyatini rivojlantirish qonuniyatlari qizlar bilan ishlashda yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozimligi ilmiy asoslangan.

Vestibulyar analizator esa murakkab harakatlarni muvofiqlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, tana fazodagi holati to‘g‘risidagi axborotni doimiy yetkazib beradi. Shu sabab, zamonaviy sportda koordinatsion mashqlar murakkablashgan sari vestibulyar tizim imkoniyatlarini chuqur o‘rganish zarurati ortmoqda. Xulosa qilib aytganda, sportdagi yuksak yutuqlarga erishish turli jismoniy sifatlarning uyg‘un rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, har bir sport turi mos morfologik va fiziologik tayyorgarlikni talab qiladi. Bu nazariy asoslar maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya orqali koordinatsion va harakat qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

• **Taqqoslash metodi** — yosh davrlari bo‘yicha harakat qobiliyatlari va jismoniy rivojlanish omillari tahlil qilindi.

• **Nazariy tahlil** — psixomotor rivojlanish va harakat koordinatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlab berildi.

3. Natijalar (Results). Jismoniy rivojlanish omillari. Jismoniy rivojlanish quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar bilan baholanadi:

• tana bo‘yi va vazni;
• ko‘krak qafasi hajmi;
• yurak urish chastotasi;
• mushak kuchi (maksiamal kuch va chidamlilik) [7].

Shuningdek, har bir yosh guruhiga xos bo‘lgan biologik va fiziologik xususiyatlar mavjud. Masalan, 12–14 yosh oralig‘i koordinatsion qobiliyatlarning eng faol rivojlanish davri sanaladi[9].

Koordinatsion qobiliyatlar turlari. Koordinatsion qobiliyatlar quyidagilarga bo‘linadi:


Qobiliyat turi	**Tavsifi**
Muvozanat saqlash	Tana holatini barqaror tutish (statik/dinamik)
Fazoviy orientatsiya	Fazoda o‘zini va predmetlarni aniqlash
Harakatni aniqlik bilan bajarish	Harakatni to‘g‘ri, samarali va ishonchli bajarish
Harakatlar ritmini ushlash	Harakatlarning ketma-ketlik va sur’atini moslashtirish
Reaksiya qobiliyati	Tashqi signalga tez va mos harakat bilan javob berish

Ushbu qobiliyatlar sportdagi muvaffaqiyat, kundalik faoliyatdagi muvozanat, shuningdek, aqliy rivojlanish bilan ham bevosita bog‘liq [1].

12–14 yoshdagi o‘quvchilarning koordinatsion qobiliyatlari[1*]:

[1] * Manba: Muallif tomonidan olib borilgan kuzatuv natijalari asosida tuzilgan (2024-2025).
Mazkur grafik muallif tomonidan o‘tkazilgan empirik tadqiqot asosida tuzilgan bo‘lib, 12–14 yoshdagi 60 nafardan ortiq o‘quvchi qizlar o‘rtasida bajarilgan baholash mashqlari natijalari asosida shakllantirilgan. Ballar koordinatsion testlar (muvozanat testi, fazoviy yo‘naltirish testlari, reaksiya aniqlovchi topshiriqlar) natijalarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari asosida chiqarilgan.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



Ta’rif: Ushbu chiziqli grafikda 12, 13 va 14 yoshdagi o‘quvchilarning uchta asosiy koordinatsion qobiliyatlari — muvozanat, fazoviy orientatsiya va reaksiya tezligi — bo‘yicha baholash ballari (1–5 ballik tizimda) yillarga qarab taqqoslab ko‘rsatilgan.

- Gorizontal o‘q (X-o‘qi): Yoshlik bosqichlari (12 yosh, 13 yosh, 14 yosh)
- Vertikal o‘q (Y-o‘qi): Baholash ballari (1 dan 5 gacha)
- Chiziqlar:
  - Muvozanat – har yili o‘sib boruvchi sariq chiziq
  - Fazoviy orientatsiya – apelsin rangli chiziq
  - Reaksiya tezligi – qizil chiziq

- Har uchala qobiliyat yoshi ulg‘aygan sari barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon qilmoqda.
- Muvozanat ko‘rsatkichi 12 yoshda nisbatan yuqoriroq bo‘lsa-da, 14 yoshda reaksiya tezligi eng yuqori ballga yetadi (taxminan 4.3).
- Bu esa 12–14 yosh oralig‘ida o‘quvchilarda koordinatsion qobiliyatlar muntazam va bir maromda rivojlanishini ko‘rsatadi.
- 14 yoshga kelib barcha ko‘nikmalar 4 balldan yuqoriga yetib, "yaxshi" baholash darajasiga yaqinlashgan.

4. Munozara (Discussion). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy rivojlanish va koordinatsion qobiliyatlar o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi. Ya’ni, mushak kuchi, yurak-qon tomir tizimi salohiyati ortib borgani sayin koordinatsion harakatlar ham aniqroq, muvofiqlashtirilgan tarzda bajariladi[11].

12–14 yosh oralig‘ida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar – arqon sakrash, gimnastika, muvozanat mashqlari, harakatli o‘yinlar kabilar – bolalarning harakat faolligini oshiribgina qolmay, ularning o‘quv faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[16].

Shuningdek, koordinatsion mashqlar bolaning psixologik barqarorligini, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish qobiliyatini, stressga bardoshliligini shakllantirishga xizmat qiladi[6: 54,60.].

5. Xulosa (Conclusion). Jismoniy rivojlanish va koordinatsion qobiliyatlar bolalik va o‘smirlik davrida bir-birini to‘ldirib boruvchi muhim rivojlanish mezonlaridir. Ta’lim jarayonida bu ikki omilni birgalikda rivojlantirish zarur. Ayniqsa, koordinatsion qobiliyatlarni yoshga mos metodika asosida muntazam mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish — sog‘lom, faol, aqliy salohiyati yuqori yosh avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Bouhard, C., Blair, S.N., Haskell, W.L. *Physical activity and health*. — Human Kinetics, 2007.
2. Rozin, E.Yu. The development of absolute and relative muscular strength in adolescent gymnasts. — Sports Physiology Journal, 1979.
3. Zatsiorsky, V.M., Kraemer, W.J. Science and Practice of Strength Training. 2nd ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2006.
4. Булгакова, Н.Ж. Подготовка юных спортсменов: Учебное пособие. — М.: Советский спорт, 2001.
5. Горбачев, А. Координацион қобилиятлар ва уларнинг спортдаги ўрни // *Педагогика журнали,* 2014. — №4. — Б. 41–47.
6. Давлетов, М. Координацион ҳаракатлар ва эмоционал ривожланиш // *Ўзбекистон педагогика ахборотномаси,* 2021. — №3. — Б. 54–60.
7. Зайцев, В.П. *Физиология спорта*. — СПб.: Лань, 2002.
8. Зацорский, В.М. Основы силовой подготовки спортсменов. — М.: Советский спорт, 2008.
9. Матвеев, Л.П. *Общая теория физической культуры*. — М., 1991.
10. Розин, Е.Ю. Гимнастическая подготовка юношей: физиолого-педагогический аспект. — М.: Просвещение, 1979.
11. Рудик, П.А. *Психология движений*. — М., 1970.
12. Кузнецов, В.В., & Тюмин, И.М. Развитие гибкости у спортсменов: современные подходы. — М.: Советский спорт, 2018. — 176 с.
13. Кузнецов, В.В. Эластичность суставов и гибкость у подростков-спортсменов: теория и практика. — М.: Спорт, 2019. — 164 с.Филин, В.П., Волков, Л.В. *Спортивный отбор*. — М.: Физкультура и спорт, 1986.
14. Фролов, В. *Физиология детей и подростков*. — М.: Академия, 2019.
15. Шелехов, И.В. Координацион қобилиятларни ривожлантириш методикаси // *Жисмоний тарбия ва спорт,* 2018. — №2. — Б. 31–35.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Akramov Mukhammadjon Khusanboy o‘g‘li
doctoral student, Tashkent State University of Law

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

MASS DISTURBANCES: SOCIO-LEGAL NATURE, CAUSES, AND ISSUES OF RESPONSIBILITY

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of mass disturbances as a social phenomenon. The causes of mass disturbances and their connection with socio-economic, political, ethnic, and religious factors are examined. The article also explores the legal nature of the crime of mass disturbances, its impact on public safety, and the measures of legal responsibility taken by the state. Furthermore, it highlights existing issues in the legislation and judicial practice, and discusses the difficulties in properly qualifying the crime from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: mass disturbances, social phenomenon, public safety, criminal law, legal responsibility, causes, qualification, mass consciousness, state policy.

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLAR: IJTIMOIY-HUQUQIY TABIATI, SABABLARI VA JAVOBGARLIK MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ommaviy tartibsizliklar ijtimoiy hodisa sifatida har tomonlama tahlil qilinadi. Ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqish sabablari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, etnik va diniy omillar bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada shuningdek, ommaviy tartibsizliklar jinoyatining huquqiy tabiati, mazkur hodisaning jamiyat xavfsizligiga ta’siri va unga nisbatan davlat tomonidan ko‘rilayotgan javobgarlik choralari yoritiladi. Amaldagi qonunchilik va sud amaliyotidagi mavjud muammolar, hamda ommaviy tartibsizliklar jinoyatini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ommaviy tartibsizliklar, ijtimoiy hodisa, jamoat xavfsizligi, jinoyat huquqi, huquqiy javobgarlik, sabablari, kvalifikatsiya, ommaviy ong, davlat siyosati.

МАССОВЫЕ БЕСПОРЯДКИ: СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВАЯ ПРИРОДА, ПРИЧИНЫ И ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируются массовые беспорядки как социальное явление. Рассматриваются причины их возникновения, а также их связь с социально-экономическими, политическими, этническими и религиозными факторами. В статье также раскрыта правовая природа преступления, связанного с массовыми беспорядками, его влияние на общественную безопасность и меры ответственности, принимаемые государством. Кроме того, рассматриваются существующие проблемы в законодательстве и судебной практике, а также сложности правильной квалификации данного преступления с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: массовые беспорядки, социальное явление, общественная безопасность, уголовное право, юридическая ответственность, причины, квалификация, массовое сознание, государственная политика.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish

Zamonaviy jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash har qanday davlat uchun ustuvor vazifalardan biridir. Biroq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar ta’sirida vujudga keladigan ommaviy tartibsizliklar barqarorlikka jiddiy tahdid tug‘diradi. Ommaviy tartibsizliklar – fuqarolarning norozilik kayfiyati, keng ko‘lamli tartib buzilishlari va ijtimoiy xavfli holatlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab hodisadir.

Mazkur jinoyatning murakkab ijtimoiy-huquqiy tabiati uni chuqur o‘rganishni talab etadi. Ayniqsa, ommaviylik mezonlari, ishtirokchilik shakllari, zo‘ravonlik darajasi va jinoyat oqibatlarining og‘irligi uni kvalifikatsiya qilishda muhim mezonlardir. O‘zbekiston Jinoyat kodeksining 244-moddasida ushbu jinoyat uchun javobgarlik belgilanib, so‘nggi yillarda bu norma bir necha bor tahrir qilingan.

Ushbu maqolada ommaviy tartibsizliklar jinoyatining huquqiy asoslari, tarixiy rivoji, amaliy muammolari va xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Maqsad – bu jinoyatga qarshi samarali huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ommaviy tartibsizliklar jinoyati murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lishiga qaramay, unga oid mustaqil ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud manbalarda bu jinoyat ko‘proq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar doirasida umumiy tarzda yoritilgan. Jumladan, E.A. Aripov ommaviylik mezonini guruhlar (40 kishigacha), olomon (50–300 kishi) va katta olomon (300 kishidan ortiq) shaklida ifodalaydi [1], biroq sifatiy mezonlar va ishtirokchilarning roli yetarli tahlil qilinmagan.

Matnda qayd etilganidek, sobiq SSSR davridagi Yangiyerkass voqeasi misolida ko‘rinib turibdiki, ommaviy tartibsizliklar siyosiy tusga ega bo‘lishi ham mumkin, ammo bunday holatlar ko‘pincha yashirilgan yoki boshqa moddalar bilan kvalifikatsiya qilingan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 244-moddasiga 2021-yilda kiritilgan o‘zgarishlar – ommaviy da’vat, zo‘ravonlik, qurol ishlatish va internet orqali harakatlarga oid bandlar – huquqiy yondashuvda yangilik bo‘lsa-da, ular chuqur ilmiy tahlil etilmagan. Sud amaliyotida esa ishtirokchilar soni emas, balki harakatlarning xavfliligi asosiy mezon sifatida qaralayotgani kuzatilmoqda. Masalan, Amir Temur xiyobonidagi voqealarda qatnashgan shaxslar ommaviy tartibsizlik emas, bezorilik bilan javobgarlikka tortilgan [3].

Xulosa shuki, ommaviy tartibsizliklar jinoyatining xalqaro yondashuvlar, ishtirokchilik shakllari va eksess harakatlar bilan bog‘liq jihatlari hozirgi kunda chuqurroq ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tarixiy voqealarni tizimlilik (sistemalilik) tamoyiliga asoslanib olib borildi. Daliliy materiallar va ma’lumotlar yig‘ildi, dalillar tizimlashtirildi hamda tahlil qilindi. Shuningdek, tarixiy taqqoslash uslubi ham qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

Ommaviy tartibsizliklar ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Ular turli sabablarga ko‘ra paydo bo‘lishi mumkin - ijtimoiy-iqtisodiy (oziq-ovqat etishmovchiligi, fojiali inflyatsiya, umumiy ishsizlik va boshqalar), siyosiy (hokimiyatning o‘zboshimchaliklari, demokratik

erkinliklarning buzilishi, hukumat siyosatidan norozilik va boshqalar), etnik (milliy ozchiliklar huquqlarining buzilishi yoki aksincha, mahalliy bo‘lmagan etnik guruhlar ijtimoiy hayotining muhim sohalari vakillaridagi ustunlik va boshqalar), diniy (turli dinlar vakillari o‘rtasidagi kurash), jinoiy (jinoiy guruhlar o‘rtasidagi ta’sir doiralarini qayta ko‘rib chiqish uchun kurash) va boshqalar. Masalan, so‘nggi paytlarda ekstremistik guruhlar, antiterroristik harakatlar va futbol muxlislari o‘rtasidagi to‘qnashuvlar keng tarqalmoqda.

Ammo g‘alayonning sabablari nima bo‘lishidan qat’i nazar, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshilikka, mojarolarga aylangan ziddiyatlarga asoslanadi. Ularning paydo bo‘lishi tabiati bo‘yicha, qasddan bo‘lishi mumkin, ya’ni ma’lum bir ijtimoiy kuchlarning xatti-harakatlari natijasida yoki bexosdan ba’zi bir obyektiv omillar ta’siri ostida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan. Harakatlar ko‘lamiga ko‘ra, ular, qoida tariqasida, mintaqaviy va mahalliy xususiyatlarga ega, chunki ba’zi bir shahar hududida yoki kichik shaharchada tarqalishi mumkin. Agar tartibsizliklar mahalliy ziddiyatlardan tashqarida bo‘lsa, lekin ular birinchi savolda aytib o‘tilgan barcha oqibatlarga olib keladigan mintaqaviy mojarolarni o‘z ichiga oladi.

Ommaviy tartibsizliklar jarayoni murakkab mexanizm hisoblanib, uning huquqiy tabiatini anglash uchun, uning ijtimoiy tabiati haqida biroz fikr yuritish lozim. Ommaviy tartibsizliklar yuz berishida ommaviy ong bevosita muhim rol o‘ynaydi. Ommaviy ongga ta’sir etish orqali esa ommaviy tartibsizliklar kelib chiqadi. Psixologiya nuqtayi nazaridan olib qaraganda, ommaviy tartibsizliklar qo‘zg‘atuvchisi ba’zi bir ijtimoiy da’volarning noroziligi va ko‘pchilik odamlar kutgan natijalariga erishish da’vati natijasida to‘plangan «salbiy energiya»ning mahsuli hisoblanadi.

Shu sababli, davlat, jamiyat, fuqarolar turli salbiy omillardan, jumladan, insonning xavfli xatti-harakatlaridan himoyalanganligiga ishonch hosil qilgan holda normal sharoitlarda yashash va hayot kechirishni xohlaydi. Ilk davrlardan ma’lumki, xavfsizlik tushunchasi “Inson ruhiyatining osoyishtaligi, har qanday xavf-xatardan xoli bo‘lishni” o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan olib qaraganda, jamoat xavfsizligi kabi tushuncha muhim ahamiyatga ega. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, jamoat xavfsizligi tushunchasi nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy tushuncha ham hisoblanadi. Keng ma’noda jamoat xavfsizligini ta’minlovchi munosabatlar qonun bilan, shu jumladan jinoyat huquqi normalari bilan himoya qilinadi.

Tarixdan ma’lumki, sobiq Sovet davlatining shakllanishi, uning rahbarlarining fikricha, sinfiy kurashning kuchayishi bilan bog‘liq edi. Bu o‘sha davrda qabul qilingan me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Ommaviy tartibsizliklar davlatga qarshi jinoyatlar guruhiga kiritilgan bo‘lib, jamoat xavfi ularning himoyalangan munosabatlarga alohida xavfi bilan bog‘liq edi. Shuning uchun bu jinoyat Markaziy Ijroiya hokimiyati qarori bilan qabul qilingan «Davlat jinoyatlari (aksilinqilobiy va ayniqsa SSSR uchun davlat boshqaruviga qarshi xavfli jinoyatlar») to‘g‘risidagi nizomda alohida ko‘rsatilgan va SSSR Qo‘mitasining 1927-yil 25-fevraldagi «SSSR uchun xavfli bo‘lgan tartibga qarshi jinoyatlar» [1] bo‘limiga kiritilgan. Biroq shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Sovet davlatida ommaviy tartibsizliklar bilan bog‘liq sud amaliyoti mavjud bo‘lmagan, chunki sovet xalqi mustahkam va rivojlangan sotsializm qurishni e’lon qilgan va ommaviy tartibsizliklar yuz bermagan. Biroq bizning fikrimizcha bu shunchaki bayonot bo‘lib, asl haqiqatlar davlat tomonidan yashirib kelingan. Chunki ba’zi ilmiy kitoblarda SSSR davrida yuz bergan ommaviy tartibsizliklar haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, 1962-yilda Yangicherkassda yuz bergan ommaviy tartibsizlik SSSR

tarixidagi jinoyatlar orasida muhim o‘rin tutadi. Mazkur tartibsizlikka davlat tomonidan go‘sht narxlarining oshirilishi sabab bo‘lgan. Qo‘zg‘olonlarni bostirish uchun armiya bo‘linmalari va tanklar kiritilgan. Bundan tashqari, tartibsizliklarning ayrim ishtirokchilari ham Sovet Ittifoqiga agitatsiya va propagandada ayblangan, yetti nafari banditizm uchun o‘limga hukm qilingan (RSFSR Jinoyat kodeksining 77-moddasi), aksariyatlari uzoq muddatga 10 yildan 15 yilgacha qamoq jazosiga hukm qilingan [2: 20-25 b.].

Shuningdek, ko‘pincha ommaviy tartibsizliklar statistikani buzmaslik uchun va mafkuraviy sabablarga ko‘ra RSFSR Jinoyat kodeksining boshqa moddalari bilan kvalifikatsiya qilingan[3: 22-26 b.].

Mustaqillik davridan so‘ng O‘zbeksitonda qabul qilingan 22.09.1994 yilgi jinoyat kodeksi shu sababdan ham jinoyat kodeksining XVII-bobi Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga atalgan bo‘lib, mazkur bobdagi 244-modda ommaviy tartibsizliklar jinoyati uchun javobgarlik belgilaydi. Dastlabki tahrirga ko‘ra, qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo‘rqitib shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatish, qirg‘in solish, o‘t qo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish orqali sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar tashkil qilish, shuningdek, ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashish uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, mol-mulk musodara qilinib, o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanish belgilangan. Keyingi tahrirga muvofiq esa sanksiya qism depanelizatsiya qilinib, mol-mulk musodara qilish sanksiyasi olib tashlangan. JK 244-moddasiga aloqador bo‘lgan navbatdagi o‘zgarish 30.03.2021 yildagi jinoyat kodeksi tahriri bilan bo‘gliq bo‘lib, unga ko‘ra mazkur norma bir necha marta takomillashtirilgan. Jumladan, modda qism va bandlarga bo‘lib chiqilgan va turli tarzdagi sanksiyalar belgilangan. Mazkur norma quyidagicha bayon etilgan.

Ommaviy tartibsizliklarga va fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga omma oldida da’vat qilish – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

b) ommaviy axborot vositalaridan, telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan, Internet jahon axborot tarmog‘idan, shuningdek matnni ko‘paytirishning bosma yoki boshqa usullaridan foydalangan holda sodir etilgan bo‘lsa bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo‘rqitib shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatish, qirg‘in solish, o‘t qo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish orqali sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar tashkil qilish, shuningdek, ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashish – o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar doimiy ravishda o‘zgarib borishi va birgina norma qisqa vaqt ichida ko‘plab tahrirlarga uchrashidan bilishimiz mumkinki, ommaviy tartibsizliklar jinoyati o‘zining ijtimoiy-huquqiy tabiati murakkabligi tufayli boshqa turdagi jinoyatlardan ajralib turadi. Shu

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

sababdan ham mazkur turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ko‘plab muammolar mavjud. Avvalo, normaning sharhidan boshlaymiz.

Ommaviy tartibsizliklarga va fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga omma oldida da’vat qilish nimani anglatadi? Jinoyat qonunchiligi ommaviy tartibsizlik nima ekanligi borasida aniq bir tushuncha bermagan. Sud Plenumi ham ommaviy tartibsizliklar nima ekanligi borasida tushuncha berib o‘tmagan. Shu sababdan ham biz mazkur tushunchaga nazariy jihatdan tavsif beramiz. Bunda “ommaviy” va “tartibsizlik” tushunchalari mavjud. S.I.Ojegova lug‘atiga ko‘ra, «tartibsizlik - tartibni buzish, ya’ni hokimiyatga qarshi norozilik ifodasi bo‘lgan tartibsizliklar» va «ommaviy - ko‘p odamlar tomonidan sodir etilgan» [4: 44 b.] degan ma’noda ishlatilishi belgilangan. Umuman olganda, lug‘at bergan ta’rif mazkur tushuncha haqida umumiy ta’rif beradi va doim ham jinoiy ma’no qamrab ola olmaydi, shu sababdan ham tartibsizliklar har doim ham hokimiyatga qarshi norozilik bilan bog‘liq emas. Amaliyotda ko‘rinishicha, siyosiy va iqtisodiy tusdagi tartibsizliklar, katta guruh yoki sport ishqibozlarining bezorilik niyatidan yoki ekstremistik kayfiyatdan kelib chiqqan tartibsizliklar mavjud. Biroq bu yerda biz asosiy e’tiborni ommaviylik belgisiga qaratishimiz lozim deb hisoblaymiz. Chunki bu tushuncha baholash va aniqlikni talab qiladi va bunda muammo o‘rnatilgan tartibni buzadigan, ijtimoiy xavfli harakatlarda qatnashadigan odamlarni qamrab oladi. Jinoyat huquqi nazariyasida ommaviylik tushunchasi “jamoat”, “odamlar guruhi”, “olamon” kabi tushunchalar bilan sinonim sifatida qaraladi.

E.A.Aripovning fikriga ko‘ra, ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari sonini quyidagicha ifodalash mumkin:

a) guruhlar (40 kishigacha);

b) olomon (50 dan 300 kishigacha);

v) katta olomon (300 dan ortiq kishi) [5: 38 b.].

Nazariyachi olimlar ommaviylik belgisi uchun odamlarning eng kam miqdori borasida aniq to‘xtamga kelishmagan.

Xalqaro huquq amaliyotini oladigan bo‘lsak, chet el huquqida ommaviy tartibsizliklar jarayonidagi tartibbuzarlar soni borasida ma’lum bir raqamlar mavjud. Misol uchun ***Buyuk Britaniyada*** 1986-yilda qabul qilingan va hozirda ham amalda bo‘lgan, “Jamoat tartibini saqlash haqidagi Akt”ga muvofiq ommaviy tartibsizliklarda 12 yoki undan ko‘p odam ishtirok etishi lozim[6: 15 b.].

AQSh qonunchiligiga muvofiq esa, ommaviylik belgisi olomon - qonuniy yoki noqonuniy maqsadga erishish maqsadida ommaviy tartibsizliklar yoki jamoat tinchligini buzuvchi boshqa harakatlar sodir etish maqsadida birga yig‘ilgan uch yoki undan ortiq shaxslarga nisbatan beriladi.

Bizning fikrimizga ko‘ra ommaviy tartibsizliklar davlat va jamoat tashkilotlari, muassasalar, korxonalar, transport vositalarining odatiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ularni shoshilinch va maxsus choralar ko‘rmasdan hamda qo‘shimcha kuch va vositalarni jalb qilmasdan hal etilishi mumkin emas. Shuningdek, ommaviylik belgisiga keladigan bo‘lsak, yo‘l harakati, piyodalar harakatini to‘sib qo‘yish, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga to‘sqinlik qilish, turli muassasa va tashkilotlarning normal faoliyatiga xalaqit qilish, qisqacha aytganda keng miqyosdagi tartibsizliklar uyushtirish uchun yetarli bo‘ladigan odamlar soni, ommaviylikning eng kam miqdori

deb e’tirof etilishi mumkin.

O‘zbekistonda esa ommaviy tartibsizliklar jinoyati bo‘yicha sud amaliyoti unchalik rivojlanmagan bo‘lib, unga doir statistikalarni topish deyarli imkonsiz. Biroq amaliyot ko‘rsatadiki, qilmishni ommaviy tartibsizlik deb e’tirof etish uchun undagi miqdor ko‘rsatkichi emas, balki sifat ko‘rsatkichi muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, mazkur ommaviy tartibsizliki sodir etish maqsadi, yo‘l harakati, piyodalar harakatini to‘sib qo‘yish, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga to‘sqinlik qilish, turli muassasa va tashkilotlarning normal faoliyatiga xalaqit qilish va boshqa shu kabi maqsadlarga qaratilmagan bo‘lsa, tartibsizliklar ishtirokchilari sonidan qat’iy nazar qilmish ommaviy tartibsizlik sifatida e’tirof etilmaydi.

Ommaviy tartibsizliklar jinoyati sharhiga qaytadigan bo‘lsak, ommaviy tartibsizliklar jinoyatiga xos bo‘lgan klassik belgi – uni birgalikda sodir etilishidadir. Ya’ni mazkur jinoyatni sodir etuvchilar odatda oldindan kelishib, o‘zaro vazifalarni taqsimlagan holda ish bajaradilar. Shu sababdan ham mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda jinoyat ishtirokchilarining roli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, mazkur jinoyatda qatnashgan har bir shaxs jinoyat ishtirokchisi sifatida e’tirof etilishi mumkin emas. Bunda ishtirokchi sifatida faqatgina faol qatnashganlar e’tirof etiladi.

Ommaviy tartibsizliklar jinoyatiga eksess bajaruvchilik ham xos bo‘lib, bunday holatlar tez-tez uchrab turishi mumkin. Bizga ma’lumki, ommaviy tartibsizliklar jarayoni keng miqyosdagi xaosdan iborat bo‘ladi. Shu sababli ham bunday jarayonda turli jinoyatlar ham sodir etilishi mumkin. Chunki, odamlarning diqqat etibori tartibsizliklar bo‘lgan vaqtda o‘g‘rilik, talonchilik va boshqa shu kabi jinoyatlar sodir etilish ehtimoli yuzaga keladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ommaviy tartibsizlik jinoyatida ishtirokchilik odatiy tarzda talqin qilinmaydi, ommaviylik aktiv ishtirokchilarni qamrab oladi, bunda shunchaki olamon ta’sirini tashkil qilgan shaxslar mazkur jinoyat ishtirokchisi bo‘lmaydi. Chunki ijtimoiy xavfli qilmishni faqatgina aktiv ishtirokchilar sodir etadi. Biroq JK 244-moddasi aktiv va passiv ishtirokchilikni belgilamagan. Bu normada faqatgina ommaviy tartibsizlik haqida so‘z boradi.

Yana bir kvalifikatsiyadagi muammo sifatida shuni aytish mumkinki, mazkur jinoyatni sodir etish joyi; davomiyligi; ishtirokchilar soni; oqibatlarning og‘irligi va motiv ham kvalifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki yuqorida sanab o‘tilganlar mazkur turdagi jinoyatning sifat ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Biz yuqorida ommaviy tartibsizliklar jinoyatining huquqiy tabiati va tavsifi bilan tanishib chiqdik. Mazkur turdagi jinoyat o‘zining ijtimoiy xavfi yuqoriligi bilan ajralib turganligi sababli uning tarkibiy belgilarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Ommaviy tartibsizliklar ijtimoiy-huquqiy jihatdan murakkab va ko‘p omilli hodisa bo‘lib, uning kelib chiqishida iqtisodiy, siyosiy, etnik, diniy va psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu jinoyat turining tarkibiy belgilarini aniqlash, “ommaviylik” mezonini baholash, ishtirokchilarning rolini ajratish va eksess holatlarni kvalifikatsiya qilishda qonunchilikda va amaliyotda muayyan bo‘shliqlar mavjud. Shu sababli, ommaviy

tartibsizliklar jinoyatini to‘g‘ri huquqiy baholash va unga nisbatan samarali javobgarlik choralari ishlab chiqish uchun nazariy asoslarni chuqurlashtirish va qonunchilikni takomillashtirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 1994 yil 22-sentabr, so‘nggi tahrir;

2. *Козлов А.В.* Массовые беспорядки в СССР при Хрущеве и Брежневе (1953 - начало 1980-х гг.). М., 2010. С. 26, 417 //Цит. по раб.: Павлов В. Г. Историко-правовой аспект массовых беспорядков // Царскосельские чтения . 2013. С.20-25

3. *Багмет А.М.* Ретроспективный анализ уголовно правового противодействия массовым беспорядкам в Российской Федерации //Российский психологический журнал. 2012. Т.9 № 3. С.26-32.

4. *Ожегов С.И.* Словарь русского языка. М., 1984. С. 44.

5. *Арипов Э. А.* Указ. соч. С. 38.

6. *Демидов Ю. Н.* Массовые беспорядки: уголовно-правовой и криминологический аспекты. М., 1994. С. 15.

7. *Примерный* Уголовный кодекс (США) / Под ред. Б. С. Никифорова. М., 1969. С. 184.

8. *Хуршут Э.* Ҳакимхоннинг ҳаёти ва саёхатлари. – Тошкент: Фан, 1987. – Б 6.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Tukhtasinov Mirazam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan State University
Student of the Faculty of History, Faculty of Social Sciences
Email: mirazamtohktasinov@gmail.com

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

ISMAIL SOMONI MAUSOLEUM: HISTORICAL AND ARCHITECTURAL SIGNIFICANCE

Abstract. In the article, the construction of Ismail Somoni's mausoleum, which was built during the reign of Ismail Somoni (907-914), one of the brightest representatives of the Somoni dynasty, and its place in the architecture of Central Asia and the world are explained through scientifically based definitions. At the same time, as a result of scientific research conducted in recent years, it has been proved that "Ismail Somoni mausoleum" is a mausoleum built on top of the first grave in Central Asia. Based on historical sources and literature, information about the raw materials used in the construction, design and construction of the Ismail Somoni mausoleum was collected.

Key words. The family mausoleum of the Samanid dynasty, clay mixed with camel milk and rooster blood, a mixture of Sogdian architecture and Arab architecture, a gallery of arches, a dome, a stone slab, a hemispherical dome, a dynamic square, a centric composition.

ISMOIL SOMONIY MAQBARASI: TARIXIY VA ME’MORIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada Somoniylar sulolasining eng yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Ismoil Somoniy (907-914) davrida bunyod etilgan Ismoil Somoniy maqbarasining qurilishi hamda uning O‘rta Osiyo va jahon me’morchiligida tutgan o‘rnini ilmiy asoslangan ta’riflar orqali yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda so‘ngi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida “Ismoil Somoniy maqbarasi” Markaziy Osiyodagi dastlabki qabr ustiga bunyod etilgan maqbara ekanligi isbotlandi. Ismoil Somoniy maqbarasini qurilishi, dizayni va qurulishda foydalanilgan xom ashyolar haqida tarixiy manbalar va adabiyotlarga asoslangan holda ma’lumotlar ketirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Somoniylar sulolasining oilaviy maqbarasi, tuya suti va xo‘roz qoniga qorilgan loy, sug‘diylar me’morchiligi va arab me’morchiligini qorishmasi, peshtoq, ravoqlar galeriyasi, gumbaz, tosh taxta, yarim shar shaklidagi kubba, dinamik kvadrat, sentrik kompozitsiya.

МАВЗОЛЕЙ ИСМАИЛА СОМОНИ: ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Абстрактный. В статье поясняется конструкция мавзолея Исмаила Сомони, который был построен в период правления Исмаила Сомони (907-914 гг.), одного из ярчайших представителей династии Сомони, и его место в архитектуре Средней Азии и мира. через научно обоснованные определения. При этом в результате научных исследований,

проведенных в последние годы, доказано, что «Мавзолей Исмаила Сомони» представляет собой мавзолей, построенный на вершине первой могилы в Центральной Азии. На основе исторических источников и литературы собраны сведения о сырье, использованном при строительстве, проектировании и строительстве мавзолея Исмаила Сомони.

Ключевые слова. Семейный мавзолей династии Саманидов, глина, смешанная с верблюжьим молоком и петушиной кровью, смесь согдийской архитектуры и арабской архитектуры, галерея арок, купол, каменная плита, полусферический купол, динамичная площадь, центрическая композиция.

Kirish. Yurtimiz juda qadimiy va betakror tarixiy obidalarga boy mamlakatlardan hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida ming yillar avval barpo etilgan me’moriy obidalarning mavjudligi va ularning qurulish arxitekturaviy dizayni bir necha ming yillardan beri nafaqat yurtimiz me’morlarini balkim dunyo me’morlarini xayratda qoldirib kelmoqda. Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo hududlarida barpo etilgan me’moriy yodgorlik buning yorqin dalilidir. Qadimiy va ko‘hna Buxoroda Somoniylar davrida bunyod etilgan “Ismoil Somoniy maqbarasi” ham shular jumlasidandir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida G.A. Pugachenkovaning “Мавзелей Исмаила Самани” va Shamsiddin Kamoliddinning “Ismoil ibn Axmad fs-Samoniy” asarlari metodologik manba bo‘lib belgilandi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, xronologik, izchillik va obyektivlik usullardan keng foydalanildi. Ismoil Somoniy maqbarasining qurulish tarixi obyektiv ochib berildi. Jumladan ushbu maqbara tarixi o‘rganishda va ta’mirlash jarayonida ishtorok etgan buxorolik tarixchi M.Saidjonov, V. Vyatkin, B. Zasipkin, Usta Shirin Murodov, va professor M. Bulatov kabi olimlar ham o‘z fikrlarini bildirganlar.

Muhokama va natijalar. Somoniylar sulolasi davri me’morchiligi durdonasi hisoblangan Ismoil Somoniy maqbarasi Somoniylar sulolasining yirik vakili Ismoil Somoniy tomonidan qurilgan. Ismoil Somoniy maqbarasi Buxoro shahrining g‘arbiy qismida Registon yaqinidagi madaniyat va istirohat bog‘ining hududida joylashgan. Markaziy Osiyodagi qabr vazifasini o‘tagan birinchi maqbara hisoblanadi.[1] Ismoil Somoniy maqbarasi mo‘g‘ullar hujumi chog‘ida sahrodagi bo‘ronlar paytida qumga ko‘milgan edi. Shu tufayli hujumlardan hech qanday zarar ko‘rmasdan omon qolgan maqbara bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Chingizxon qo‘shinlari shaharga yaqinlashayotganidan xabar topgan Buxoro ahli Ismoil Somoniy maqbarasini butunlay tuproq bilan ko‘mib yuborishadi. Shuning uchun qo‘shin chiroyli inshoot o‘rnida kichkinagina tepalik ko‘radi va yonidan o‘tib ketadilar. Xavf ortda qolganidan so‘ng Buxoro aholisi maqbarani ehtiyotkorlik bilan qazib oladilar. Ular Chingizxonning qo‘shini o‘z yo‘lidagi barcha narsalarni vayron qilib ketishini

[1] https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/somoniylar-maqbarasi-o-rta-osiyome-morchiligi-durdonasidir/61cecfb101a30a1e504c4238. (20.01.2025-yil)

yaxshi bilar edilar. Shuning uchun ular shunday yo‘l tutganlar. Bu yodgorlik xalq orasida va ilmiy adabiyotlarda Somoniylar sulolasining eng atoqli namoyondasi Ismoil Somoniy maqbarasi nomi bilan ma’lum va mashhurdir. Mozorning bir qismida Ismoilning otasi Ahmad dafn qilinganligi Ismoilning qabri ham shu yerda ekanligi haqida ma’lumotlar bor.[2.-B.2] Bundan tashqari, maqbara peshtoqining ravog‘i tepasidagi tosh taxtada Ismoilning nabirasi Nosirning ismi ham zikr qilingan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, o‘rta asrlarda bu yerda Naukanda qabristoni bo‘lgan. [3.-B.46] O‘rta aslarda Buxoroda Naukanda nomli ariq ham bo‘lib, u X asrda yashagan al-Istaxriy va Ibn Xavqalning geografik asarlarida ham ushbu joy haqida ma’lumotlar qayd etilgan. Arxeologik qazilmalar natijasida shu narsa aniqlandiki, ilgari Ismoil Somoniy maqbarasidan shimoli-sharqda yana bir nechta maqbaralar bo‘lib, ularda Somoniylar oilasining a’zolari va ularga yaqin bo‘lgan odamlar dafn etilganligi aniqlandi. Bu ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, bu joy Somoniylar sulolasining oilaviy maqbarasi ekanligini va bu maqbara haqiqatdan ham Ismoil Somoniyga tegishli ekanligi o‘zining ilmiy tasdig‘ini topdi.[4.-B.2] Yodgorlikning qurilishi arablar istilosidan so‘ng Markaziy Osiyo me’morchiligining tiklanish davriga to‘g‘ri keladi. Inshoot shakli bejizga tanlanmagan. Uning har bir qismi ma’lum bir ma’noni o‘zida mujassam etgan. Misol uchun kub yerning ramzidir, gumbaz esa osmonning ramzi hisoblanadi. Bular birgalikda esa dunyoning birligini anglatuvchi ramzlardir. Ayrim tarixchi olimlarning fikricha bu maqbara dunyoning kichraytirilgan nusxasidir.[2]

XX asrning 1-yarmida yashagan buxorolik tarixchi M.Saidjonovning ma’lumotiga ko‘ra, Ismoil Somoniy maqbarasi turgan yer ilgari “Ku-yi Chahor gumbazon” ya’ni “To‘rt gumbaz” ko‘chasi deb atalgan. Ismoil Somoniy maqbarasining to‘rt tomoni bir xil chordara shaklida jimjima g‘ishtin bezaklari chiviqli to‘siq yoki qamish, bo‘yra to‘qimasini eslatadi. Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri[3] uch pog‘onali (to‘rtlik-to‘rt devor, sakkizlik devordan tomga o‘tish qismi va gumbaz-tom ko‘rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan. Uning qurilishida pishgan g‘isht, tosh va yog‘ochdan foydalanilgan. Ayrim manbalar va rivoyatlarga ko‘ra, g‘ishtni terishda orasiga tuya sutiga qorilgan loy ishlatilgan. Boshqa bir afsonalarda aytilishcha esa obidaning qurilishidagi loy uchun qizil xo‘rozning qonidan foydalanilganligi haqida hikoya qilinadi, shu sababli maqbara g‘ishtlari hech qanday rangli bo‘yoqlarsiz ham hozirgacha o‘z jozibasini yo‘qotmagan.[4]

Maqbaraning dizayniga to‘xtaladigan bo‘lsak devor qalinligi 1,8 m, tarhi tashqarisi 10,80×10,70 m, ichkarisi 7,20×7,20 m. Usti gumbaz bilan qoplangan. To‘rt burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga to‘rtta qubba o‘rnatilgan. Devor tepasida 40 ta kungarasimon darcha mavjud. Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos[5] g‘ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda g‘ishtdan chorsu tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti

[2] http://guide.beeline.uz/uz/site/view?id=96. (09.03.2024-yil).
[3] Interyer (fransuzcha – interieur, lotincha - interior - ichki dunyo) Boshqa so‘zlar bilan aytganda: binoning ichki makonining me’moriy-badiiy dizayni, insonga estetik idrok etish va qulay yashash sharoitlarini ta’minlash; me’moriy yechimi uning funktsional maqsadi bilan belgilanadigan bino yoki alohida xonaning ichki maydoni.
[4] https://darakchi.uz/oz/132895. (19.04.2023-yil).
[5] Qanos (ko‘krak) - me’moriy qism; peshtoq ravog‘ining tepasidagi tumorsimon juft shakl. Qanos yuqoridan gorizontal, yonlaridan vertikal va pastdan ravoqning egri (linga) chiziqlari bilan chegaralanadi. Ravoq lingasini chiqarishda g‘ishtlar radial yo‘nalishda, qanos qismida gorizontal qo‘yib teriladi. Qanos bino tarzlariga diqqatni tortish, me’moriy mujassamotga urg‘u berishga xizmat qiladi.

bag‘alidagi ustma-ust ravoqchalar ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar sakkiz qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Ismoil Somoniy maqbarasining tashqi devorlarida past tomoni uchli, tepa tomoni esa gorizantal bo‘lgan va o‘rtasidan vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lingan uchburchak shakldagi ramzlar ham bor. Hosil bo‘lgan ikkita uchburchakning ichida o‘simlik tasviri bor. Bu ramzlar har bir eshik tokining tepasida yuqorida tasvirlangan buddaviy ramzlarning o‘rtasida bittadan joylashgan bo‘lib ularning umumiy soni to‘rtta bo‘lgan. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra bu ramzlarda otashparastlarning otashdoni ifoda etilgan. Sakkiz burchakli tokning janubiy ravoqidagi pishiq g‘ishtdan ishlangan panjara shunday terilganki, g‘ishtlar orasidagi bo‘shliqlar hamma tomonlari teng bo‘lgan xoch shaklini beradi. Shuni ham aytish kerakki, maqbarada islom davri bilan bog‘liq birorta belgi yoki yozuv yo‘q. Taxmin qilinishicha maqbara islomdan olingi dehqonlar saroyi yoki so‘g‘d me’morchiligida keng tarqalgan ajdodlar xotirasini eslash uchun qurilgan maxsus bino shaklida qurilganligi ham, yuqoridagi fikrlarimizni yorqin dalilidir. Bundan shuni anglash mumkinki Ismoil Somoniyning islomdan oldingi ajdodlari moniy bo‘lganlar. Ismoil Somoniy ajdodlarining diniy e’tiqodini yodda tutib, unga hurmat bilan qaragan va ularning ramzlarini Buxoroda qurdirgan sulolaviy maqbaraning devoriy naqshlarida buni ifoda etgan. [6. –B.50]

Ushbu arxitekturaviy yodgorlik XI asrdan ortiq vaqt ichida dastlabki holi to‘laligicha saqlanib qolgan obida sanaladi. Arxeologik qazilma vaqtida (1927-yilda) xona sahnida ikkita yog‘och sag‘ana borligi aniqlangan. M. Saidjonov topgan vaqfnomada qayd qilinishicha, otasi amir Ahmad mozoridan Registongacha yerlarning bir qismi maqbaraga vaqf etilgan. 1568-1569 yillarda qayta yozilgan vaqf nizomiga ko‘ra, maqbara 868-yilda Ismoil Somoniy davrida otasi Ahmad ibn Asad qabri ustida qurilgan. XX asr boshlariga kelib, saqlanib qolgan maqbara atrofida sharq tomondan bitta kirish eshigi bo‘lgan baland devor bilan o‘ralgan kichik qabristongina qolgan.

Maqbara birinchi marta 1924-yilda Moisei Ginzburg ekspeditsiya guruhi tomonidan o‘rganilgan. 1925-yilda Buxoro tarixiy va san’at yodgorliklarini muhofaza qilish komissiyasining ilmiy kotibi Muso Saidjonov bino gumbazining astarlarini tiklashni tashkil qilgan. Keyingi arxeologik tadqiqotlar Vasiliy Vyatkin tomonidan 1926-1928-yillarda olib borilgan qazishmalar davomida nekropol (qabriston) ichida bir nechta qabrlar, jumladan Ismoil Somoniyning jasadi saqlanib qolganligi aniqlandi. Binoni ko‘mib yuborgan zax tuproqlardan tozalanib, 1937-1939-yillarda B. Zasipkin va Usta Shirin Murodov boshchiligida ta’mirlangan. Ming yildan ortiq vaqt davomida qad ko‘tarib turgan maqbara katta o‘zgarishlarga uchramagan. Maqbaraning kimga tegishliligi, shuningdek, uning qurilish davri Ismoil Somoniy davriga oidligi 1926-yilgacha xalq afsonasiga asoslangan edi. Bu ma’lumotlar Muso Saidjonovning tadqiqotlari tufayli ilmiy asoslandi. Olib borilgan tadqiqotlarlar natijasida Ismoil Somoniy maqbarasi o‘rta asrlarning rivojlangan davrida (IX-X asrlar) 864-868-yillar oralig‘ida barpo etilganligi o‘z tasdig‘ini topdi.[6]

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarasi ham qayta ta’mirlandi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritildi. 2000-yilning 30-avgustida “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va

[6] https://meros.uz/object/ismoil-somoniy-maqbarasi. (29.05.2025-yil).

ulardan foydalanish to‘g‘risi” dagi qonun qabul qilindi. Davlat tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me’moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolati hisoblanadi.

2021-yilda Madaniy meros agentligi Janubiy Koreyaning “New Layer Co., Ltd”, “EGIS Co., Ltd”, “J-TOD Co.,Ltd”, kompaniyalari va “LX” korparatsiyasi vakillaridan iborat delegatsiya bilan uchrashdi. Uchrashuvda Koreya Respublikasi axborot texnolagiyalarini rivojlantirish milliy agentligining umumiy qiymati 150 ming AQSH dollari bo‘lgan grand loyihasi asosida Buxoro shahrining tarixiy markazida joylashgan Ismoil Somoniy maqbarasining “Digital Twin”, 3D-texnologiyalari va geografik ma’lumotlar yordamida birga-bir raqamli nusxasini (egizagini) yaratish va “Google maps” tizimiga biriktirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish belgilandi.

Mazkur loyiha amalga oshirilgandan so‘ng orttirilgan tajriba asosida Xiva, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy qismlari, Qoraqolpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi qal’alar, arxeologik topilmalarning 3D nusxalarini yaratish, shu kabi ishlarni doimiy olib bora oladigan texnik guruh va uskunalarni shakllantirishni qamrab oluvchi umumiy qiymati 6 mln. AQSH dollari bo‘lgan grand loyihasi bo‘yicha ishlarni boshlash rejalashtirilgan.

Xulosa. O‘rta Osiyonong me’morchilik durdonalaridan biri hisoblangan Ismoil Somoniy maqbarasi va uning qurulish arxiteturaviy dizayni, shuni ko‘rsatadiki bu davrda diniy ilmlar bilan bir o‘rinda dunyoviy ilmlar ham rivojlanganligi buning yorqin namunasidir. Bu me’moriy inshootning yaratilgan davridan boshlab hech qanday talofatlarsiz saqlanib kelganligi Somoniylar davrida me’morchilik yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi. Ushbu maqbaraning qurulishida foydalanilgan xom ashyolarning va shu bilan birgalikda qanday barpo etilganligi sir asrorlari mana necha ming yillar bo‘ldiki insoniyat uchun jumboqli bo‘lib kelmoqda. Boshqa me’moriy obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarsi ham yurtimizning ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анатолевна Г. Исмоил Сомоний мақбараси. –Т:, 1964. Б. 17.
2. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т:. Фан, 1996. –Б. 120.
3. Неьматов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.
4. Ибн ал-Асир. Ал – Камил фит тарих. –Т.: Цюрих, 2005. –Б. 604.
5. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511
6. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
7. To‘rayev H. Buxoro tarixi. -Buxoro. Durdona:, 2020. B. 321.
8. Bobojonova F. Buxoro me’moriy obidalari tarixi. Buxoro:. Fan va ta’lim. 2022. B. 285.
9. Boydedayev D. /Buxoro faxri – Ismoil Somoniy. Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari. 14-son. 28.05.2022-y

10. https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/somoniylar-maqbarasi-o-rta-osiyome-morchiligi-durdonasidir/61cecfb101a30a1e504c4238.
11. http://guide.beeline.uz/uz/site/view?id=96.
12. https://darakchi.uz/oz/132895.
13. https://meros.uz/object/ismoil-somoniy-maqbarasi.
14. https://yuz.uz/uz/news/ismoil-somoniy-maqbarasining-3d-nusxasi-yaratiladi.
15. https://www.mirarab.uz/ruknlar/1229.
16. https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=2572.0.
17. https://uza.uz/oz/posts/buxoroning-yetti-tarixiy-obidasi-icesconing-islom-olami-merosi-royxatiga-kiritildi_285661.
18. https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/45440.html.
19. http://world.meros.uz/uz/wonder/view?id=48.
20. https://daryo.uz/2022/06/09/tangri-jamoli-yoxud-baxtli-maskan-tarixi-asrlarga-tutashuvchi-ozbekistonning-birinchi-poytaxti-bolgan-afsonaviy-buxoro-shahri-haqida.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Absalamova Gulmira Sharifovna
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi, PhD, dotsent
email: gulmirasharifovna@gmail.com

Received 15th May 2025, Accepted 11th June 2025, Online 30th July 2025

LEXICAL AND CONCEPTUAL ANALYSIS OF LINGUISTIC UNITS IN THE ILLUSTRATED DICTIONARY "PETIT LAROUSSE ILLUSTRÉ 2020"

Abstract. This article presents a lexical and conceptual analysis of phonetic-phonological, morphological, syntactic, semantic, and sociolinguistic units from the illustrated dictionary “Petit Larousse Illustré 2020.” Each term’s semantic load, grammatical function, paradigmatic relation, and contextual role are examined, revealing patterns of synonymy, antonymy, polysemy, and homonymy. These findings highlight the dictionary’s function not just as a descriptive tool but as a resource for conceptual modeling. The results provide a theoretical and methodological foundation for applied linguistics, translation studies, and language pedagogy.

Keywords: linguistic units, lexical analysis, conceptual mapping, French language, explanatory dictionary

“PETIT LAROUSSE ILLUSTRÉ 2020” TASVIRLI LUG‘ATIDAGI LINGVISTIK BIRLIKLARNING LEKSIK VA KONSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Petit Larousse Illustré 2020” tasvirli lug‘atidagi lingvistik birliklar fonetik-fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va sotsiolingvistik jihatdan leksik va konseptual yondashuv asosida tahlil qilindi. Har bir terminning semantik yuklamasi, grammatik o‘rni, paradigmatik bog‘liqligi va kontekstual funksiyasi aniqlanib, sinonimiya, antonimiya, polisemik va omonimik holatlar asosida lug‘at konseptual model shakllantiruvchi manba sifatida talqin etildi. Tadqiqot natijalari amaliy tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvodidaktik izlanishlar uchun nazariy-metodik asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: lingvistik birliklar, leksik tahlil, konseptual xarita, fransuz tili, izohli lug‘at.

ЛЕКСИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В ИЛЛЮСТРИРОВАННОМ СЛОВАРЕ «PETIT LAROUSSE ILLUSTRÉ 2020»

Абстрактный. В статье представлен лексико-концептуальный анализ фонетико-фонологических, морфологических, синтаксических, семантических и социолингвистических единиц, зафиксированных в иллюстрированном словаре “Petit Larousse Illustré 2020”.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Выявлены семантическая нагрузка, грамматические функции, парадигматические связи и контекстуальные особенности терминов, а также случаи синонимии, антонимии, полисемии и омонимии, что позволяет рассматривать словарь как источник концептуального моделирования. Полученные результаты актуальны для прикладной лингвистики, переводоведения и методики преподавания.

Ключевые слова: лингвистические единицы, лексический анализ, концептуальная карта, французский язык, толковый словарь.

Kirish:

Zamonaviy leksikografik tadqiqotlarda lingvistik birliklarning nafaqat ma’no jihatidan, balki ularning kognitiv, funksional va madaniy tafakkur bilan uyg‘unligida tahlil qilinishi dolzarb masalaga aylangan. Xususan, fransuz tilshunosligida til birliklarining struktura va semantik tizimi keng ko‘lamli manbalar orqali yoritilmoqda. Bu jarayonda izohli va tasvirli lug‘atlar, jumladan “Petit Larousse Illustré 2020” kabi zamonaviy lug‘aviy manbalar ilmiy izlanishlar uchun muhim empirik asosni tashkil qiladi.

Mazkur lug‘at ensiklopedik tavsifi, grafik-belgili dizayni, konseptual ajratilgan terminlari va paradigmatik tartibi bilan ajralib turadi. Shuningdek, lug‘atdagi birliklar orasida ko‘plab fonetik, morfologik, sintaktik va semantik birliklarning mukammal ta’riflari, ularning sinonimlari, antonimlari, etimologik ildizlari va uslubiy qo‘llanilishi keltirilgan. Bu esa uni tilshunoslik tadqiqotlari uchun nafaqat ma’lumotlar manbai, balki til modeli sifatida ham muhim qiladi.

Oldingi tadqiqotlarda fransuz tilidagi lingvistik terminlar ko‘proq grammatik tasnif asosida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning semantik tarmoqlanishi, madaniy qatlamlari va konseptual xarakteri yetarlicha yoritilmagan. Shuningdek, ko‘plab atamalar faqat lug‘aviy ma’nosi doirasida talqin qilinib, ularning paradigmatik bog‘liqligi, interaktiv vazifasi va sotsiokognitiv asoslari e’tibordan chetda qolgan.

Shu sababli ushbu maqolada “Petit Larousse Illustré 2020” lug‘atida aks etgan lingvistik birliklar chuqurroq tahlil qilinib, ularning leksik-semantik shakllanishi, grammatik o‘rni, konseptual xaritasi va madaniy tafakkurdagi o‘rni keng qamrovda yoritiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda lingvistik birliklarni tahlil qilishda uch asosiy yondashuvdan foydalanildi: leksik-semantik modellash, konseptual xaritalash va diskurs-tahlil usuli. Har bir termin tanlanishda lug‘atdagi rasmiy ta’rif, etimologik manba, grammatik kategoriyalarga mansubligi va qo‘shimcha izohlar hisobga olindi. Tadqiq etilgan birliklar kontekstual vazifasi va uslubiy jihatlariga ko‘ra ajratib olindi.

Birinchi bosqichda, lug‘atdagi terminlar fonetik-fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va sotsiolingvistik guruhlarga tasnif qilindi. Har bir guruh ichidagi birliklar alohida semantik struktura, paradigmatik aloqalar va konnotativ xususiyatlari asosida tahlil etildi. Ushbu tahlil uchun konseptual xarita sxemalari tuzilib, birliklararo munosabatlar grafik shaklda aniqlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda, har bir termin asosida sinonimiya, antonimiya, polisemik va omonimik holatlar aniqlanib, ularning funksional o‘zgaruvchanligi baholandi. Misollar lug‘atdan olinib, ularning ma’no doirasi, stilistik xosligi va grammatika nuqtayi nazaridan joylashuvi ko‘rib chiqildi.

Uchinchi bosqichda esa har bir termin madaniy-milliy tasavvurdagi o‘rnini aniqlashga urunildi. Shu orqali lug‘at terminlari faqat til tizimining elementlari sifatida emas, balki jamiyatda ma’no yaratish va tushunishni boshqaruvchi kognitiv birliklar sifatida talqin qilindi.

TADQIQOT NATIJASI

Tahlil natijalariga ko‘ra, “Petit Larousse Illustré 2020” lug‘atida joy olgan fonetik-fonologik terminlar – *phonème, intonation, accent* kabilar tildagi tovushlar tizimini strukturaviy va funksional asosda yoritadi. Bu birliklar tovushlarning ma’no farqlovchi xususiyatlari, urg‘u va intonatsiyaning kommunikativ funksiyasi hamda ohang balandligi orqali til melodikasini ifodalashini ko‘rsatdi.

Morfologik birliklar – *morphème, suffixe, préfixe, flexion* kabilar esa so‘zlarning grammatik va semantik shakllanishini tushuntirib, fransuz tilida affiksiyalash, derivatsiya va kompozitsiya jarayonlarini tavsiflashda muhim manba bo‘ldi. Har bir morfema o‘z allomorflari bilan birgalikda struktura o‘zgarishini yuzaga keltirib, leksik boylik yaratadi.

Sintaktik terminlar – *syntaxe, phrase, discours, verbe, sujet, complément* – gap tuzilmasining mantig‘i va grammatik aloqalarini yoritib, gap ichidagi birliklar orasidagi subordinatsiya va koordinatsiyaning aniq ifodasini taqdim etdi. Shuningdek, *conjonction* va *préposition* kabi birliklar orqali bog‘lovchi va ergash aloqalar aniqlashtirildi.

Semantik va sotsiolingvistik birliklar – *sémantique, polysémie, synonymie, diglossie, bilinguisme, idiolecte* kabilar tilning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy qatlamlarga moslashuvchanligi va individual nutq tafovutlarini ko‘rsatib berdi. Bu esa lug‘atni nafaqat lingvistik, balki kognitiv va madaniy tadqiqotlar uchun ham dolzarb manba sifatida ko‘rsatdi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot “Petit Larousse Illustré 2020” lug‘atining ilmiy ahamiyatini ko‘rsatish bilan birga, har bir terminning chuqur semantik va madaniy asosga ega ekanini ochib berdi. Har bir birlik alohida konseptual maydonning ifodasi sifatida qaralib, lug‘at o‘ziga xos semantik sistemani shakllantiruvchi modelga aylandi.

Tahlil natijalariga asoslanib, lug‘atdagi lingvistik birliklar nafaqat aniqlovchi komponent, balki til o‘rgatuvchi, kognitiv faoliyatni faollashtiruvchi va madaniy diskursni shakllantiruvchi birliklar sifatida namoyon bo‘ldi. Ularning interaktiv kontekstdagi talqini ta’lim, tarjima va madaniyaloqa sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqotning chegarasi shundaki, faqat “Petit Larousse” doirasidagi terminlar o‘rganildi. Shu bois, kelgusida “Le Grand Robert”, “Trésor de la langue française informatisé (TLFi)” kabi izohli lug‘atlar bilan qiyosiy tahlil olib borish zarur. Shuningdek, terminlarning nutq korpuslarida qo‘llanish chastotasi ham o‘rganilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlarda lingvistik birliklarning multimedia kontekstlaridagi roli, ularning tarjimadagi transformatsiyasi va madaniyatlararo aloqadagi semantik moslashuvi chuqurroq o‘rganilishi lozim.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Petit Larousse Illustré 2020” tasvirli lug‘ati fransuz tilining lingvistik tizimini chuqur anglash uchun muhim metodologik vositadir. Lug‘atdagi har bir

termin o‘z semantik yuki, paradigmatik o‘rni va funksional roliga ega bo‘lib, ularning izchil tahlili til tizimini yaxlit model sifatida ko‘rsatishga imkon beradi.

Fonetik-fonologik birliklar tilning tovush tizimi va ohangidagi semantik farqlanishni yoritgan bo‘lsa, morfologik birliklar so‘zlarning grammatik shakllanishi va semantik kengayishini ifodaladi. Sintaktik birliklar orqali esa gap tuzilmasi, so‘zlararo aloqalar va nutqdagi mantiqiy izchillik aniqlashtirildi.

Semantik birliklar leksik tizimdagi sinonimiya, antonimiya, polisemik va omonimik qatlamlarni yoritib berdi, sotsiolingvistik birliklar esa til va jamiyat o‘rtasidagi aloqani ochib berdi. Bu tahlilning amaliy ahamiyati lingvodidaktika, tarjima, matn tahlili va madaniyatlararo kommunikatsiyada ahamiyatlidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire de la langue française et encyclopédie. – Paris: Éditions Larousse, 2019. – 1076 p.

2. Dubois, J., Giacomo, M., Lagane, R. et al. Dictionnaire de linguistique / J. Dubois, M. Giacomo, R. Lagane. – Paris: Larousse, 2002. – 590 p.

3. Martin, R. Grammaire linguistique du français / René Martin. – Paris: Armand Colin, 2005. – 284 p.

4.Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics / David Crystal. – 6th ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008. – 560 p.

5.Kleiber, G. Prototypes, typologie et catégorisation / Georges Kleiber. – Paris: Presses Universitaires de France (PUF), 1999. – 320 p.

6.Cadiot, P., Visetti, Y.-M. Figures du discours scientifique / Pierre Cadiot, Yves-Marie Visetti. – Paris: CNRS Éditions, 2001. – 347 p.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Шерзод Зиё
Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

ИСЛОМ МОЛИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Аннотация. Мазкур илмий мақолада ислом молияси ва молиячилигининг эволюцияси ва ривожланиш тенденцияси таҳлил қилиб ўтилган. Бундан ташқари, ислом молиясининг оммалашувига сабаб бўлган унинг ўзига хос хусусиятлари ва аҳамиятли жиҳатларига тўхталиб ўтилган. Шу билан биргаликда, Жаҳон молия бозорида ислом молиясининг тобора ортиб бораётган таъсир кўлами статистик таҳлиллар орқали очиб берилган.

Калит сўзлар: *ислом молияи, ислом молияси, мудораба, мушорака, анаъанавий молия хизматлари, ислом ойнаси, сокук, ижара, салам*

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ

Аннотация. В данной научной статье анализируются эволюция и тенденции развития исламских финансов и молияовского дела. Кроме того, были рассмотрены его особенности и важные аспекты, обусловившие популярность исламских финансов. В то же время посредством статистического анализа выявляется растущее влияние исламских финансов на мировой финансовый рынок.

Ключевые слова: *исламский молияинг, исламские финансы, мудараба, мушарака, традиционные молияовские услуги, исламские окна, сукук, рента, салам*

ANALYSIS OF FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC FINANCE

Annotation. This scientific article analyzes the evolution and development trends of Islamic finance and banking. In addition, its features and important aspects that determined the popularity of Islamic finance were considered. At the same time, through statistical analysis, the growing influence of Islamic finance on the global financial market is revealed.

Keywords: *islamic banking, islamic finance, mudaraba, musharaka, traditional banking services, islamic windows, sukuk, rent, salam*

Кириш

Исломий молия тизими тез ривожланаётган анъанавий молик тизимига нисбатан муқобил тизим сифатида дунёда танилди ва қисқа муддатда тўлиқ шаклда тижорат молиялари билан рақобатлаша оладиган яхлит механизмга айланди. Тижорат молияларидан фарқли равишда, исломий молиялар молиялаштиришда фойда ва зарарни иштирокчилар ўртасида мутаносиб тақсимлаш воситасида тадбиркор ва ишбилармонларни ўзига жалб эта олди. Маълумки, сўнгги йиллар давомида Ўзбекистон иқтисодиёти, айниқса, молия тизими халқаро

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ҳамкорлар билан ишлаш масаласида очиқлик ва шаффофлик тамойиллари асосида ривожланмоқда. Хусусан, Давлатимиз раҳбарининг 2017 йил 20 декабрдаги “Халқаро ва хорижий молия институтлари билан ҳамкорликнинг самарадорлигини янада ошириш чора – тадбирлари тўғрисида” ги ва 2019 йил 5 мартдаги “Ислом тараққиёт молияи гуруҳи ва Араб мувофиқлаштириш гуруҳи жамғармалари билан ҳамкорликни янада кенгайтириш ва чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари айни ислоҳотларга ҳуқуқий замин бўлиб хизмат қилмоқда. Бундан ташқари, мамлакатимиз Президентининг 2020 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномасида ҳам “Ислом молиясининг ҳуқуқий асосларини яратиш вақти келди” [1] деб айтган ташаббуси ҳам ушбу соҳанинг мамлакатимизда жуда муҳимлиги ва иқтисодиёт ривожида ўрни жуда юқорилидан дарак беради.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Ушбу мавзу доирасида олиб борилган тадқиқот натижасида олимларнинг ислом молияси ва молиячилиги тўғрисида қуйида келтирилган фикр-мулоҳазаларини таҳлил қилиб, мазкур соҳанинг аҳамияти, келгусидаги истиқболи, кутилаётган имкониятлари ҳамда хатарлар тўғрисида керакли билимлар олиш мумкин.

Хусусан, олимлар Аль Аззави ўз тадқиқотларида ислом молияи тўғрисида “Ислом шариати асосида молия ҳисобварақларини очиш ва юритиш, тўловларни амалга ошириш, омонатларга пул маблағларини жалб этиш, жисмоний ва юридик шахсларни молиялаштириш ҳамда бошқа молия хизматларини амалга оширувчи тижорат ташкилотидир” деб, таъриф берганлар [2].


Иқтисодчи олим Литау томонидан ёзилган илмий мақолада ислом молия тизимининг асосини рибонинг таъқиқланганлиги, ғорар, майсир ва харом каби тамомиллар ташкил этиши таъкидлаб ўтилган [3].

Тадқиқот методологияси

Илмий ишни амалга оширишда ислом молия ва молиячилигининг ривожланиш тенденцияси ва омиллари таҳлил қилишда олимлар ва соҳа вакиллари билан суҳбат, уларнинг ёзма ва оғзаки фикр-мулоҳазаларини таҳлил қилиш, эксперт баҳолаш, жараёнларни кузатиш, иқтисодий ҳодиса ва жараёнларга тизимли ёндашув, муаллиф тажрибалари билан қиёсий таҳлил ўтказиш орқали тегишли йўналишларда хулоса, таклиф ва тавсиялар берилган.

Таҳлил ва натижалар

Исломий молияларни ривожланиш тарихи 1963 йилга бориб тақалади, бунда Мисрда жаҳондаги дастлабки исломий молия “Мит Гамр” ташкил этилади. Шу йилнинг сентябрь ойида Малайзияда мусулмон ҳожилари Жамғарма корпорацияси ўз ишини бошлайди. Кейинчалик 1975 йилда Галифакс (Канада)да мусулмонлар гуруҳи бозорда “исломий ипотека” деб аталувчи дастлабки маҳсулотни таклиф этди ва Дубай Ислом молияи таъсис этилди. Муҳими эса, айнан шу йилда Саудия Арабистонининг Жидда шаҳрида мусулмон давлатлари ташаббуси билан Ислом тараққиёт молияи (ИТБ) расман очилди. Покистон Ислом Республикаси ҳам ўз молия тизимини исломийлаштириш жараёнини бошлади (1-расм).



International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



1-расм. Исломий молиялар фаолиятининг ривожланиш эволюцияси [4]

Бу ривожланиш аста секинлик билан Европа давлатларига ҳам ўта бошлади. 1978 йил Женевада Саудия шаҳзодаси Файсал ибн Абдулазиз Сауд томонидан ҳиссадорлик жамияти шаклидаги ғарбда биринчи исломий молиявий таркиб - “Islamic Banking System International Holding” ташкил этилди. 1981 йилда эса Шаҳзода Файсал низом жамғармаси 1 млрд. АҚШ долларидан иборат “Ислом молиявий уйи”ни таъсис этди. Ташкил этилган молиявий гуруҳнинг бош офиси Женевада очилди.


Юқоридаги маълумотлардан кўриниб турибдики исломий молиялаштириш тизими 70 йилларнинг охири 80 йилларнинг бошидан бошлаб Ғарб давлатларида ҳам ривожлана бошлади. Бу ривожланиш хозирда ҳам давом этмоқда ва кенг омма томонидан муҳокама қилинмоқда. Бу соҳада етакчилик қилишга нафақа аксарият аҳолисини мусулмонлар ташкил этадиган давлатлар, балки Ғарб давлатлари ҳам ҳаракат қиляпти. Бунга мисол қилиб Буюк Британия Бош вазирининг Бутунжаҳон исломий иқтисодий форумида Лондонни глобал исломий молиявий марказ сифатида ривожлантириш ҳақидаги баёнотини (2013 йилнинг октябри) келтирса бўлади.

1-расмда ислом молия тизимининг ривожланиш эволюцияси акс эттирилган. Расм маълумотларидан кўриш мумкинки, ислом молия тизими ривожланиши шартли равишда тўрт босқичга бўлиниб, мазкур босқичлар тизимнинг ривожланиш даврини характерлайди.

Биринчи босқич 1950-1970 йилларни ўз ичига олиб, мазкур босқичда ислом молияси фундаментал тузилиши шаклланди. Дастлабки ислом молиялари ташкил этилди. Иккинчи бсоқич 1970-1980 йилларни ўз ичига олиб, мазкур босқичда ислом молиялари давлатлар миқёсида тарқалди. БАА, Қувайт, Малайзия, Миср каби давлатларда ислом молиялари фаолияти йўлга қўйилди.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich


Ислом молияларининг ривожланиши, мижозларнинг ортиб бораётган ишончи натижасида жаҳон ислом молияи тизими уммумий активлари ҳажми йилдан-йилга ортиб бормоқда. Хусусан, 2012 йилда 1305,0 млрд. АҚШ долларини ташкил этган бўлса, мазкур кўрсаткич 2019 йилга келиб 1993 млрд. АҚШ долларига етди (2-расм).



2-расм. 2012-2019 йилларда исломий молия активларининг ўсиш динамикаси, млрд. АҚШ долларида

Марказий Осиё мамлакатларидан Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон исломий молия хизматларини йўлга қўйиш жараёни мувоффақиятли якунланди ва ижобий тенденцияларга эришганлиги аниқланди. Европада исломий молиялаштириш жадал ривожланмоқда ва кўплаб Европа иқтисодчилари янги бизнес очиш учун исломий молия хизматларидан фойдаланиш фойдали имконият деб ҳисоблашади. Ғарбий дунёда ислом молиячилигига биринчи уриниш Люксембургда 1978 йилда бўлиб ўтди ва Ислом молия тизими халқаро ҳолдинг муассасаси ташкил этилди. Ўша йили Ал-Барака компанияси Буюк Британияда ташкил этилди. Шунингдек, 1983 йилда Данияда ҳам халқаро ислом молияи ҳам тузилган [5].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



6-расм. Жаҳонда ислом молиялари капиталининг 2012-2019 (2025 йил прогноз) йиллардаги ўзгариши (трлн. АҚШ доллорида) [6]

Дунёнинг етакчи давлатлари ўтган асрнинг 70 -йилларидан бошлаб ислом молиячилиги ва молиялаштириш тамойилларини ўзларининг қонунчилигига киритишни бошлаганлиги аниқланди. Қайд этиш жоизки, “Ислом дарчалари” жаҳоннинг кўплаб йирик илғор молияларида (ABN Amro, Bank of America, Barclays Plc., BNP-Paribas, Chase Manhattan, Citibank, Deutsche Bank, Goldman Sachs, HSBC, JPMorgan Chase, Lloyds Bank, Societe Generale, UBS ва бошқалар) мавжуд бўлиб, анъанавий молия маҳсулотларига тўлақонли муқобил ҳисобланувчи барча турдаги ислом молия хизматларини кўрсатиб келмоқда [7].

Ислом молиясининг анъанавий молиядан фарқи фақатгина ундаги ахлоқий тамойиллар ва исломда судхўрлик (рибо)нинг таъқиқланганлигида бўлмасдан, балки ислом молиясининг иқтисодий фаолият билан узвий боғлиқлигида ҳамдир. Ушбу фарқ иқтисодий ўсиш шароитида унчалик кўзга ташланмасада, иқтисодий – молиявий инқироз шароитида ўзини яққол намоён этади [8].

Шариатга мос келувчи молия маҳсулот ва хизматларини ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш жуда мураккаб жараён, чунки бунда кўпчилик, баъзида тамомила қарама-қарши мақсадларни кўзловчи томонлар, жумладан молия олий бошқаруви, маҳсулотларни ишлаб чиқиш бўлими, шариат бўлими, шариат маслаҳатчилари ва бошқа бир қанча бўлимлар (чакана ва корпоратив молиялар бўлими, сармоя (капитал) бозори, хатарларни бошқариш, молиявий режалаштириш ва ҳ.к.з.), шунингдек инвестиция масалалари бўйича мутахассис-маслаҳатчилар, рейтинг агентликлари вакиллари, ҳуқуқшунослар ва бошқалар иштирок этади.

Хулоса

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, исломий молиявий хизматлар соҳаси Ўзбекистоннинг порлоқ келажаги учун муҳим омил, пойдевор ва ривожланиш истиқболи бўлади, натижада ўз маданиятида Исломнинг чуқур илдизларини акс эттирган мамлакатга хорижий

инвесторларнинг қизиқиши ортади ва ҳукумат ушбу имкониятдан халқ фаровонлиги ҳамда мамлакатнинг барқарор ривожланишида тўлақонли фойдаланишга эришиши мумкин бўлади.

Умуман олганда, Ислом томонидан назарда тутилган иқтисодий тизим ижтимоий адолатни мақсад қилиб қўйган, бу эса якка тартибдаги корхона ёки тадбиркорни нафақат жамоа, балки якка ўзига ўзи зарар етказишини олдини олади.

Иқтисодиётни ривожлантиришда пулга бўлган муносабат ислом иқтисодиётида тубдан фарқ қилади. Ислом иқтисодида пулга алмашинув воситасида сифатида қаралиши аниқланди.

Юқорида келтирилган таҳлилларга асосланиб шуни айтиш мумкинки, мамлакатда ислом молия хизматлари саноатининг кенг қамровли жорий этилиши мамлакат учун қуйидаги имкониятларни очиб беради:

• хориждан келаётган инвестициялар ҳажмини ошириш ва диверсификациялаш;

• молия тармоғида ҳалол ва шаффоф рақобат муҳитини яратиш ҳамда молия тизими активларини диверсификациялаш имкониятини яратиш;

• аҳоли ва бизнес вакиллари ихтиёрида бўлган бўш пул маблағларининг иқтисодиёт ривожланишида максимал иштирокини таъминлаш;

• мамлакатда капитал бозорини ривожлантириш ва диверсификациялаш;

• кўплаб янги иш ўринлари яратиш;

• аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш орқали, молия бозоридаги фаоллигини кўтариш;

• Ислом молия хизматлари индустриясини ривожлантириш орқали мамлакатда инфратузилмани мувофиқлаштириш ва янгилаш;

• янги молиявий муассасалар ташкил қилиш;

• камбағалликка қарши курашиш давлат дастурини амалга оширишга ҳисса қўшиш;

• янги йўналишда кадрлар тайёрлаш дастурини яратиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. ЎзбекистонРеспубликаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2021 йил Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти, www.president.uz

2. Аль Аззави А.А. К вопросу о специфике функционирования исламского банкинга и факторах, останавливающих его развитие на территории РФ // Вестник Университета (Государственный университет управления). – 2017. – № 4. – с. 85-88.

3. Литау Е.Я. Международные финансы: исламский банкинг как перспективная альтернатива традиционной системы финансирования// Экономика и управление, 2016. – № 10 (132).

4. Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития. / Автореф. дисс. докт. экон. наук., 2009. – 48 с.

5. Conrad Hackett 1 , Marcin Stonawski 2019, Projections of Europe’s Growing Muslim Population under threemigration scenarios.

6. ICD-REFINITIV Islamic Finance Development Report 2019

7. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориентированная на реализацию долевых методов // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – с. 12-16.

8. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. – 2015. – № 2. – с. 22-25.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Primova Shaxnoza Komiljonovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tayanch doktoranti

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

UY-JOY MULKDORLARI SHIRKATLARI VA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLARDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirish va audit tizimini takomillashtirishning nazariy-amaliy jihatlari yoritilgan. Kommunal xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarning moliyaviy hisoboti va boshqaruv qarorlarining asoslanganligi ko‘p jihatdan hisob siyosatining to‘g‘ri tashkil etilganiga bog‘liq. [1] Aholi bilan moliyaviy munosabatlar, byudjet va tariflar, xizmatlar sifati va shaffoflik darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri buxgalteriya axboroti va auditorlik nazorati samaradorligiga taalluqlidir.[4]*

Maqolada uy-joy xo‘jaligi korxonalarida hisob siyosatini shakllantirishda uchrayotgan asosiy muammolar, normativ-huquqiy va metodologik bo‘shliqlar aniqlangan. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, solishtirma yondashuv va amaliy diagnostika usullaridan foydalanilib, mavjud muammolarning sabab-oqibat aloqalari ochib berilgan.[5] Xususan, hisob siyosati elementlarining aniq belgilab qo‘yilmagani, hujjatlashtirish va xarajatlarni tan olishdagi ziddiyatlar, tarif shakllanishining turlicha yondashuvlar asosida yuritilishi amaliyotni murakkablashtirayotgan omillar sifatida baholangan.

Shuningdek, audit tizimining zaiflashgan jihatlari, ichki nazorat bo‘g‘inlarining samarasizligi va indikatorli baholash mexanizmlarining yo‘qligi asosiy xatar omili sifatida ko‘rsatilgan. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun milliy va xorijiy tajribaga tayangan holda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Jumladan, boshqaruv hisobi elementlarini hisob siyosatiga kiritish, xizmat turlariga mos auditi indikatorlarini ishlab chiqish, hamda raqamlashtirilgan ichki nazorat tizimini joriy etish orqali boshqaruv qarorlarini yanada ishonchli asoslash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *hisob siyosati, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, boshqaruvchi tashkilotlar, buxgalteriya hisobi, audit tizimi, tarif shakllanishi, ichki nazorat, moliyaviy monitoring, iqtisodiy samaradorlik, audit indikatorlari, kommunal xizmatlar, moliyaviy shaffoflik, boshqaruv qarorlari, standartlashtirish, raqamli audit.*

WAYS TO FORM ACCOUNTING POLICIES AND IMPROVE THE AUDIT SYSTEM IN HOMEOWNERS' ASSOCIATIONS AND MANAGEMENT ORGANIZATIONS

ABSTRACT. *This article discusses the theoretical and practical aspects of the formation of accounting policies and improving the audit system in housing associations and management organizations. The soundness of financial reporting and management decisions of organizations operating in the field of public utilities largely depends on the correct organization of accounting policies. Financial relations with the population, budgets and tariffs, the quality and level of transparency of services are directly related to the effectiveness of accounting information and audit control.*

The article identifies the main problems, regulatory and methodological gaps in the formation of accounting policies in housing enterprises. The study uses systematic analysis, comparative approaches and practical diagnostic methods to reveal the cause-effect relationships of existing problems. In particular, the lack of clear definition of accounting policy elements, conflicts in documentation and cost recognition, and the use of different approaches to tariff formation were assessed as factors complicating the practice.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Also, the weakened aspects of the audit system, the ineffectiveness of internal control units, and the lack of indicator assessment mechanisms were identified as the main risk factors. The article developed scientifically based proposals based on national and foreign experience to eliminate these problems. In particular, it shows the possibilities of introducing management accounting elements into accounting policies, developing audit indicators appropriate to the types of services, and introducing a digitalized internal control system to more reliably substantiate management decisions.

Keywords: *accounting policy, homeowners' associations, management organizations, accounting, audit system, tariff formation, internal control, financial monitoring, economic efficiency, audit indicators, utilities, financial transparency, management decisions, standardization, digital audit*

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ АУДИТА В ТОВАРИЩЕСТВАХ СОБСТВЕННИКОВ ЖИЛЬЯ И УПРАВЛЯЮЩИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

АННОТАЦИЯ. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования учетной политики и совершенствования системы аудита в жилищно-коммунальных товариществах (ЖСК) и управляющих организациях. Обоснованность финансовой отчетности и управленческих решений организаций, осуществляющих деятельность в сфере коммунальных услуг, во многом зависит от правильной организации учетной политики. Финансовые отношения с населением, бюджетами и тарифами, качество и уровень прозрачности услуг напрямую связаны с эффективностью бухгалтерской информации и аудиторского контроля.*

В статье выявлены основные проблемы, нормативно-правовые и методические пробелы в формировании учетной политики в жилищно-коммунальных организациях. В исследовании используются системный анализ, сравнительные подходы и практические методы диагностики для выявления причинно-следственных связей существующих проблем. В частности, в качестве факторов, осложняющих практику, были оценены отсутствие четкого определения элементов учетной политики, конфликты в документации и признании затрат, а также использование различных подходов к формированию тарифов.

Также в качестве основных факторов риска были выделены ослабление системы аудита, неэффективность подразделений внутреннего контроля и отсутствие механизмов оценки показателей. В статье разработаны научно обоснованные предложения, основанные на отечественном и зарубежном опыте, по устранению указанных проблем. В частности, показаны возможности внедрения элементов управленческого учета в учетную политику, разработки аудиторских показателей, соответствующих видам услуг, а также внедрения цифровизированной системы внутреннего контроля для более надежного обоснования управленческих решений.

Ключевые слова: *учетная политика, товарищества собственников жилья, управляющие организации, бухгалтерский учет, система аудита, тарифообразование, внутренний контроль, финансовый мониторинг, экономическая эффективность, показатели аудита, коммунальные услуги, финансовая прозрачность, управленческие решения, стандартизация, цифровой аудит*

KIRISH

Mamlakatimizda kommunal xizmatlar sohasini modernizatsiya qilish, ularning moliyaviy samaradorligini oshirish va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.[2] Xususan, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar faoliyati bevosita aholining turmush darajasi, infratuzilmaning holati hamda ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liq. Ushbu sohada moliyaviy boshqaruvning shaffofligi, narxlar siyosatining adolatliligi va

xizmat ko‘rsatishning uzluksizligini ta’minlashda hisob siyosatining to‘g‘ri shakllantirilishi va samarali audit tizimining mavjud bo‘lishi muhim o‘rin tutadi.[3]

Hozirgi kunda uy-joy xo‘jaligi korxonalarida hisob siyosatini yuritish va audit jarayonlarini tashkil qilishda turli darajadagi tizimli muammolar mavjud. Buxgalteriya hisobida umumiy yondashuvlar va metodologik birlikning yo‘qligi, amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarda tafsilotlarning yetarli emasligi hisob siyosatining amaliyotda noto‘g‘ri yuritilishiga olib kelmoqda.[4] Shu bilan birga, auditning faqat formal tekshiruv sifatida tushunilishi, ichki nazoratning zaifligi va indikatorli baholash mezonlarining shakllanmaganligi ushbu tashkilotlarda moliyaviy intizomni susaytirib qo‘ymoqda.[6]

Hisob siyosati nafaqat buxgalteriya hisobining texnik jihatlariga oid hujjat, balki korxonaning moliyaviy strategiyasi, qarorlar qabul qilish asoslari va auditning samaradorligini belgilovchi omil sifatida ko‘rilishi kerak. Aynan shu sababli, hisob siyosatining zamonaviy, normativ-huquqiy va amaliy talablarga mos shakllantirilishi va audit tizimi bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash bugungi kundagi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar misolida hisob siyosatini shakllantirishdagi mavjud muammolar aniqlanadi, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Shuningdek, audit tizimining metodologik asoslari, uning samarali ishlashi uchun zarur indikatorlar va raqamli nazorat tizimlariga oid yondashuvlar tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotning natijalari kommunal soha tashkilotlarida moliyaviy shaffoflikni oshirish, tarif siyosatini asoslash va boshqaruv qarorlarini sifatli qabul qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda quyidagi asosiy adabiyotlar tahlil qilingan:

• Milliy huquqiy baza: O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun (2016) [1], Prezident farmon va qarorlari orqali (masalan, PQ–4747, PF–60) kommunal sohadagi moliyaviy boshqaruvning tartibga solinishi [2][3].

• Ilmiy maqolalar: Buxgalteriya hisobi va auditga oid dolzarb muammolar, ichki nazorat va boshqaruv hisobi masalalari milliy tahlilchi olimlar tomonidan yoritilgan (masalan, Abdullaeva M. [4], Bobomurodov B.R. [5], Xoliqov va Shamsieva [6], Komilov U. [7]).

• Xalqaro amaliyotlar: KPMG [8], EY [9], IFAC [10], OECD [12] va Deloitte [15] kabi xalqaro tashkilotlarning hisob siyosati, audit indikatorlari, ichki nazorat va shaffoflikka oid tavsiyalari o‘rganilgan. Bu hujjatlar orqali O‘zbekistondagi amaliyotning kamchiliklari aniqlangan va takomillashtirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy usullarga tayangan:

1. Tizimli tahlil – hisob siyosati va audit tizimi tashkilotdagi barcha boshqaruv jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan holatda o‘rganilgan [5].

2. Solishtirma tahlil – O‘zbekiston tajribasi Rossiya, Janubiy Koreya va Germaniya bilan solishtirilgan holda kamchilik va ustunliklar aniqlangan [8][9].

3. Empirik tahlil – mavjud shirkatlar va boshqaruvchi tashkilotlarning hujjatlari asosida muammolar tizimlashtirilgan.

4. Diagnostik yondashuv – audit tizimidagi xatoliklar va zaifliklar sabab-oqibat munosabatida tahlil qilingan [10].

5. Me’yoriy-huquqiy tahlil – milliy qonunchilik hujjatlari asosida metodologik bo‘shliqlar aniqlangan.

6. Ekspert baholash – buxgalterlar va auditorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar orqali amaliy muammolar aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi:

• Hisob siyosatining turlicha yuritilishi: Yagona metodologik asos yo‘qligi hisob siyosati amaliyotini murakkablashtirmoqda [4][5].

• Normativ-huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi: Qonunchilikda aniqlik yetishmasligi natijasida moliyaviy hisobotlarda tafovutlar yuzaga kelmoqda [1][14].

• Audit tizimining zaifligi: Ichki audit formallikka aylangan, dalolatnomalar sifatsiz, xatoliklar e’tibordan chetda qolmoqda [6][13].

• Hisob siyosati boshqaruvga xizmat qilmayapti: U faqat soliq organlari talabi darajasida yuritilmoqda, qarorlar qabul qilishda rol o‘ynamayapti [7].

• Audit xulosalari va moliyaviy hisobotlar orasidagi tafovutlar: Bu holat jamoatchilik ishonchiga salbiy ta’sir qilmoqda [6][7].

• Xalqaro tajriba asosida yechimlar: Audit indikatorlari va raqamlashtirilgan nazorat tizimlarini milliy tizimga moslashtirish taklif qilingan [9][12].

TADQIQOT USLUBLARI

Ushbu tadqiqotda uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirish va audit tizimini tahlil qilishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy asoslarning uyg‘unlashuviga tayanib, quyidagi uslublarni o‘z ichiga oldi:

1. Tizimli tahlil (sistematik yondashuv): Hisob siyosati va audit tizimi o‘zaro bog‘langan institutsional jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. Ularning tashkilot ichidagi boshqaruv, moliyaviy nazorat va axborot oqimlari bilan aloqasi aniqlanib, tizimli baholandi.[5]

2. Solishtirma tahlil (komparativ yondashuv): O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya, Janubiy Koreya va Germaniya tajribalari asosida hisob siyosatini shakllantirish va audit tizimi elementlari solishtirildi. Bu usul orqali milliy amaliyotdagi kamchiliklar va takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlashtirildi.[8][9]

3. Empirik tahlil: Amaldagi uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarning buxgalteriya hisobi hujjatlari, hisob siyosati namunalari va audit xulosalari o‘rganildi. Ularning asosida mavjud amaliy muammolar tizimlashtirildi.

4. Diagnostik yondashuv: Audit tizimining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanib, ular bo‘yicha sabab-oqibat bog‘liqliklari tahlil qilindi. Xatar darajalari va zaif nuqtalar mezonlar asosida baholandi.[10]

5. Me’yoriy-huquqiy tahlil: Hisob siyosatining shakllanishi va audit faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchilik, O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari va tegishli normativ hujjatlar o‘rganildi. Bu orqali metodologik bo‘shliqlar aniqlab chiqildi.

6. Ekspert baholash usuli: Soha mutaxassislari – buxgalterlar, auditorlar va boshqaruvchi tashkilot rahbarlari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazilib, hisob siyosatining real amaliyoti va audit tizimining dolzarb muammolari aniqlashtirildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot davomida uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirish va audit tizimini tashkil qilishda mavjud bo‘lgan bir qator tizimli va amaliy muammolar aniqlandi. Quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Hisob siyosatining standartdan chetlashgan shakllanishi aniqlandi. Aksariyat shirkatlar va boshqaruvchi tashkilotlar hisob siyosatini shakllantirishda yagona metodologik yondashuvga ega emas. Hisob siyosati hujjatlarida muhim elementlar – aktivlarni baholash, amortizatsiya siyosati, xarajatlarni taqsimlash va tan olish qoidalari to‘liq yoritilmagan yoki turlicha talqinda yuritilmoqda.[4][5]

2. Normativ-huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi tasdiqlandi. Amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlar hisob siyosatining tashkilotlar kesimida aniq shakllanishini yetarlicha tartibga solmaydi. Bu esa tashkilotlar o‘rtasida bir xil moliyaviy holatlarda turli hisobot ko‘rsatkichlariga olib kelmoqda.[1][14]

3. Audit tizimi ichki nazorat vositasi sifatida zaif ishlayotgani aniqlandi. Ichki audit tizimi ko‘pchilik shirkatlarda formallik darajasida tashkil qilingan. Audit rejalari mavjud emas, audit dalolatnomalari umumiy iboralar bilan to‘ldirilgan, auditorlar malakasining etarli emasligi sababli muhim xatoliklar e’tibordan chetda qolmoqda.[6][13]

4. Hisob siyosatining boshqaruv qarorlariga ta’siri yetarlicha emas. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hisob siyosati aksariyat hollarda faqat soliq organlari talablariga javob berish uchun yuritiladi. U orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, xarajatlarni optimallashtirish yoki tarif shakllarini asoslash holatlari kam uchraydi.[7]

5. Hisobotlar va audit xulosalari orasida muvofiqlik yetarli emas. Hisob siyosati bilan bog‘liq muammolar natijasida tuzilgan moliyaviy hisobotlar va audit xulosalari o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelmoqda. Bu esa manfaatdor tomonlarda (aholi, investorlarda) ishonch darajasini pasayishiga sabab bo‘lmoqda.[6][7]

6. Milliy tajribani xorijiy amaliyot bilan solishtirish orqali takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqildi. Rossiya, Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari asosida hisob siyosatini shakllantirish va audit tizimini baholash indikatorlari asosida standartlashtirish taklifi ishlab chiqildi.[9][12]

MUHOKAMA

O‘tkazilgan tadqiqot uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda hisob siyosati va audit tizimining amaldagi holati chuqur muammolarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Hisob siyosati tashkilotlarning moliyaviy intizomi, boshqaruv qarorlarining sifatli qabul qilinishi, audit natijalarining ishonchliligi va moliyaviy shaffoflikning ta’minlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ammo, mavjud holatdagi turlicha yondashuvlar, metodologik nomuvofiqliklar va ichki nazorat tizimining zaifligi ushbu tizimlar samaradorligini keskin pasaytirmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, aksariyat tashkilotlar hisob siyosatini faqat soliq hisobotlarini topshirish yoki qonuniy talablarga javob berish vositasi sifatida ko‘rmoqda. Bunda hisob siyosati boshqaruv vositasi sifatida emas, balki rasmiy hujjat darajasida qolib ketmoqda.[4][7] Bu esa audit jarayonini ham formal tusga olib kelmoqda. Ayniqsa, audit xulosalarida tahliliy yondashuvlar o‘rniga umumiy ifodalar ustuvorligi, moliyaviy ko‘rsatkichlarning chuqur tahlil qilinmasligi jiddiy kamchilik hisoblanadi.

Shuningdek, xorijiy amaliyotlar, xususan, Rossiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasida hisob siyosati va audit indikatorlari aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular boshqaruv hisobi bilan uzviy bog‘langan.[9][10] U yerdagi tashkilotlar o‘z faoliyatida auditorlik mezonlariga asoslangan holda moliyaviy va xizmat ko‘rsatish sifatini baholab boradi. Bu orqali ular iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar narxini asoslash va jamoatchilik ishonchini ta’minlashga erishmoqda.

O‘zbekistonda esa hisob siyosati elementlarini yagona tartibga soluvchi hujjatlarning yo‘qligi, ichki nazorat bo‘g‘inlarining tizimli shakllanmaganligi va audit indikatorlarining mavjud emasligi boshqaruvning raqamli qaror qabul qilish jarayonlariga to‘liq integratsiyalashuviga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, amaliyotda hisob siyosati va audit tizimi alohida ishlamoqda, ular o‘rtasida tizimli uzviylik mavjud emas.

Shu nuqtai nazardan, milliy amaliyotda xorijiy tajriba asosida hisob siyosatini standartlashtirish, audit indikatorlarini joriy etish, va ichki nazoratni raqamlashtirish orqali boshqaruv mexanizmlarining sifatini oshirish zarur. Ayniqsa, xizmat turlariga mos ko‘rsatkichlar asosida auditorlik tahlilini yo‘lga qo‘yish – moliyaviy shaffoflik va samaradorlikka erishishda muhim qadam bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda hisob siyosatini shakllantirish va audit tizimini tashkil etishda qator

tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Hisob siyosati ko‘plab holatlarda rasmiy hujjat darajasida bo‘lib qolmoqda, uning boshqaruv vositasi sifatidagi imkoniyatlari to‘liq ishga solinmayapti. Audit tizimi esa ichki nazorat funksiyasini bajarishdan ko‘ra, tashqi nazoratni shaklan ado etuvchi elementga aylangan. Bu esa xizmatlar sifati, moliyaviy shaffoflik va tarif siyosatining asoslanmagan holda yuritilishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot davomida hisob siyosatini shakllantirishda yagona standart va yondashuvlarning mavjud emasligi, audit tizimi uchun indikatorli baholash mezonlarining ishlab chiqilmagani, hamda ichki audit faoliyatining samaradorligi pastligi asosiy kamchiliklar sifatida belgilandi. Shuningdek, xorijiy ilg‘or amaliyotlar tahlili ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim ilmiy asoslar berishini ko‘rsatdi.

Takliflar

1. Hisob siyosatini standartlashtirish:

Uy-joy xo‘jaligi korxonalari uchun yagona namunaviy hisob siyosati andozasini ishlab chiqish va joriy etish lozim.[14] Unda aktivlar baholanishi, amortizatsiya, xarajatlarni tan olish va xizmatlar narxlarini hisoblash metodikasi aniq belgilanishi kerak.

2. Audit indikatorlarini ishlab chiqish:

Har bir xizmat turi bo‘yicha sifat, xarajat, samaradorlik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga asoslangan indikatorlar majmuasi tayyorlanib, auditorlik tahlilida qo‘llanishi kerak.[8][9]

3. Ichki audit tizimini takomillashtirish:

Tashkilotlarda ichki audit xizmatlarini mustahkamlash, ularning mustaqilligini ta’minlash va raqamli audit texnologiyalarini joriy qilish orqali moliyaviy nazoratni kuchaytirish tavsiya etiladi.[13][15]

4. Buxgalteriya hisobi va boshqaruv hisobi integratsiyasi:

Hisob siyosatida nafaqat moliyaviy, balki boshqaruv hisobi elementlari ham aks ettirilishi, ularning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita xizmat qilishi lozim.

5. Tashqi auditorlar malakasini oshirish:[4]

Audit tashkilotlari va mutaxassislarining kasbiy bilimini oshirish, xalqaro standartlar asosida malaka oshirish dasturlarini joriy etish orqali audit sifati oshiriladi.[1][3]

6. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish:

Hisob siyosati va audit faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarni yangilash, amaliyotga mos holda qo‘shimcha ko‘rsatmalar ishlab chiqish tavsiya etiladi.[9][11][12]

7. Xalqaro tajriba asosida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish:

Rossiya, Germaniya, Koreya kabi davlatlarning ilg‘or amaliy tajribalariga asoslanib, raqamli audit platformalari, indikatorli baholash tizimlari va standartlashtirilgan hisobot modellarini milliy tizimga moslashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни, 12.04.2016 й. №ЗРУ-404.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, ПФ–60-сон, 2022 йил 28 январь: “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори, PQ–4747-сон, 03.06.2020 й.: “Бошқарув тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”.
4. Абдуллаева, М. (2021). “Бошқарув ҳисоби ва ички аудитнинг тармоқлараро таҳлили”. Иқтисодий таҳлил ва прогнозлаштириш, №2, 45–53.
5. Бобомуродов, Б.Р. (2020). “Бухгалтерия ҳисобининг замонавий тенденциялари ва амалиётдаги муаммолар”. Молия ва бухгалтерия, №4, 60–68.
6. Холиқов, Ш.А., & Шамсиева, Д. (2022). “Уй-жой коммунал хизматларида молиявий ҳисоботнинг аниқлиги ва унинг аудити”. Иқтисодиёт ва молия, №1, 27–34.
7. Комилов, У. (2019). “Ўзбекистонда аудит тизимини ривожлантириш йўналишлари”. Тошкент молия институти илмий ахбороти, №3, 72–77.
8. KPMG International. (2020). Audit quality indicators: International benchmarking and recommendations. www.kpmg.com
9. Ernst & Young. (2021). Best Practices in Accounting Policy Development for Housing Associations. London.
10. IFAC – International Federation of Accountants. (2018). Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements.
11. Lee, T.A. (2020). Accounting Standards and the Public Interest. Routledge, UK.
12. OECD (2019). Enhancing Transparency and Accountability in the Public Sector. OECD Publishing.
13. Назарова, Р.Ш. (2023). “Бухгалтерия ҳисобини рақамлаштириш шароитида ички назорат тизимини такомиллаштириш”. Жамият ва бошқарув, №2, 39–44.
14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 январдаги №10-сон қарори: “Давлат унитар корхоналарида ҳисоб сиёсатини шакллантириш тўғрисида”.
15. Deloitte CIS. (2021). Audit Framework in Public Service Organizations: Comparative Practice. Moskva.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Arabov Bakhtiyor Isomiddinovich

ORIENTAL UNIVERSITY,
First Vice-Rector of Oriental University for Youth Affairs and Spiritual Educational Work
bakshtiyoarabov5@gmail.com

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

SIYOSIY MADANIYAT VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING IJTIMOIY-SIYOSIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda korrupsiya hodisasining turli shakllari, ularning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlarga ta’siri hamda uni bartaraf etish bo‘yicha nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv sharoitida korrupsiya faqatgina iqtisodiy jinoyat sifatida emas, balki ijtimoiy adolat, davlat boshqaruvi va fuqarolik ishonchiga tahdid soluvchi kompleks muammo sifatida qaralmoqda.

Maqolada korrupsiyaning an’anaviy (poraxo‘rlik, mansab vakolatlaridan foydalanish) va zamonaviy (raqamli sohada suiiste’mollar, elita korrupsiyasi, huquqiy populizm) ko‘rinishlari o‘rtasidagi farqlar yoritiladi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishda qo‘llanilayotgan nazariy yondashuvlar – institutsional, normativ-huquqiy, madaniy va ijtimoiy-psixologik paradigmalari solishtirilib, har birining afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazoga asoslangan yondashuv yetarli emasligini, balki tizimli yondashuv, ochiqlik, hisobdorlik, fuqarolik nazorati va siyosiy madaniyatni yuksaltirish orqali barqaror natijalarga erishish tahlil qilingan. Shuningdek, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi va ularning korrupsiyaga qarshi strategiyalari asosida samarali mexanizmlar ko‘rib chiqiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari korrupsiyaning chuqur ijtimoiy ildizlarini anglash, unga qarshi kompleks choralarni ishlab chiqish hamda siyosiy-huquqiy islohotlarni asoslash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *korrupsiya, zamonaviy shakllar, siyosiy madaniyat, huquqiy islohot, fuqarolik nazorati, institutsional yondashuv, elita korrupsiyasi, jamiyat xavfsizligi, adolat, boshqaruv sifati.*

ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируются различные формы коррупции в современном обществе, их влияние на социальные, политические и экономические системы, а также теоретические подходы к её устранению. В современных условиях глобализации коррупция рассматривается не только как экономическое преступление, но и как сложная проблема, угрожающая социальной справедливости, государственному управлению и гражданскому доверию.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

В статье рассматриваются различия между традиционными (взяточничество, злоупотребление служебным положением) и современными (злоупотребления в цифровой сфере, коррупция элит, легальный популизм) проявлениями коррупции. Сравниваются теоретические подходы, используемые в борьбе с коррупцией – институциональные, нормативно-правовые, культурные и социально-психологические парадигмы, анализируются преимущества и ограничения каждого из них. Делается вывод о том, что в борьбе с коррупцией недостаточно одного лишь карательного подхода, необходимы системный подход, открытость, подотчётность, гражданский контроль и достижение устойчивых результатов посредством повышения политической культуры. Также рассматриваются эффективные механизмы, основанные на опыте ряда зарубежных стран и их антикоррупционных стратегиях.

Результаты данного исследования служат теоретической основой для понимания глубинных социальных корней коррупции, разработки комплексных мер борьбы с ней и обоснования политико-правовых реформ.

Ключевые слова: *коррупция, современные формы, политическая культура, правовая реформа, гражданский контроль, институциональный подход, элитарная коррупция, общественная безопасность, правосудие, качество государственного управления.*

POLITICAL CULTURE AND SOCIO-POLITICAL FOUNDATIONS OF THE FIGHT AGAINST CORRUPTION

Annotation. This article analyzes various forms of corruption in modern society, their impact on social, political and economic systems, as well as theoretical approaches to its elimination. In the modern context of globalization, corruption is viewed not only as an economic crime, but also as a complex problem threatening social justice, public administration and civic trust.

The article examines the differences between traditional (bribery, abuse of office) and modern (abuse in the digital sphere, elite corruption, legal populism) manifestations of corruption. Theoretical approaches used in the fight against corruption are compared – institutional, regulatory, cultural and socio-psychological paradigms, the advantages and limitations of each of them are analyzed. It is concluded that in the fight against corruption, a punitive approach alone is not enough, a systemic approach, openness, accountability, civic control and the achievement of sustainable results by raising the political culture are necessary. Effective mechanisms based on the experience of a number of foreign countries and their anti-corruption strategies are also considered.

The results of this study serve as a theoretical basis for understanding the deep social roots of corruption, developing comprehensive measures to combat it and justifying political and legal reforms.

Keywords: *corruption, modern forms, political culture, legal reform, civil control, institutional approach, elite corruption, public security, justice, quality of public administration.*

Kirish (Introduction)

Korrupsiya fenomeni insoniyat tarixining turli davrlarida o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘lib kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa hisoblanadi. Uning ta’sir doirasi, namoyon bo‘lish shakllari va mexanizmlari zamonaviy jamiyatda yanada murakkablashib, global xarakter kasb etmoqda.

Bugungi kunda korrupsiya nafaqat davlat boshqaruvi sohasidagi muammo, balki barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy fanlarda korrupsiya fenomenini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab nazariy yondashuvlar mavjud. Ularni tizimli tahlil qilish va turli nazariy konsepsiyalarni qiyosiy o‘rganish korrupsiyaning mohiyatini, uning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Nazariy konsepsiyalarning ahamiyati shundaki, ular korrupsiyaga qarshi kurashning strategik yo‘nalishlarini belgilashda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Mintaqa davlatlariga xos bo‘lgan korrupsiyalashgan sohalar, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolar yuzasidan yurtimizdagi olim va tadqiqotchilar T.Matibayev (Matibayev, 19: 63-69), L.Tursunov (Tursunov, 2021), X.Umarov (Umarov, 2007), A.Idinov (Idinov, 2011), S.Zolotareva va I.Mamonova (Zolotareva-Mamonova, 2020:132-137), S.Komkova (Komkova, 2018: 95-96), A.Balega (Balega, 2020: 82-92), G.Iskakova (Iskakova, 2014: 8-51), E.Biyatov (Biyatov, 2020), A.Tursunov (Tursunov, 2021), B.Bekmurodov (Bekmuratov, 2021), Y.Isomiddinov (Isomiddinov, 2021) hamda rossiyalik olimlari S.Mazurin (Mazurin, 2013), A.Chelpachenko (Chalpachenko, 2020), A.Xitaxanov (Xitaxanov, 2023) va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi. Tadqiqotchi olimlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyodagi korrupsion holatlar mintaqaga xos bo‘lgan vaziyatlar natijasida shakllanib kelmoqda. Bunga mintaqa davlatlarining geografik joylashuvi, iqtisodiyotda agrar sohaning ustuvorligi, avtoritar boshqaruvga intilish hamda nepotizm turtki beradi. Bu esa davlatning ijtimoiy sohalariga va iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Korrupsiyaning zamonaviy talqinlarida uning ko‘p qirrali, ijtimoiy hayotning turli sohalarida turlicha shakllarda namoyon bo‘luvchi hodisa ekanligi e’tirof etiladi. Shu bois, korrupsiya fenomenini nazariy jihatdan tahlil qilishda uning turli ko‘rinishlarini tasniflash, tizimlashtirish va nazariy modellar asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Korrupsiya zamonaviy jamiyatning global muammosi sifatida tan olingan ekan, uning namoyon bo‘lish shakllarini nazariy jihatdan tahlil qilish va bartaraf etishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotidagi nazariy tadqiqotlar natijalariga tayanib, korrupsiya namoyon bo‘lishining nazariy modellarini aniqlash va ularga qarshi kurashning konseptual asoslarini rivojlantirish zamonaviy jamiyatni sog‘lomlashtirishning asosiy shartlaridan biriga aylanmoqda.

XX asrga kelib dunyoning turli mafkuraviy asoslarga ega bo‘lgan ikkita lagerga bo‘linishi ham korrupsiya muammosini yo‘q qilmadi, aksincha, korrupsiyaning universalligini va o‘zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashish uchun yuqori imkoniyatlarini namoyon etdi. Tenglik va adolat ustuvorligi bong urilgan sotsialistik lagerda ham korrupsiyaning o‘ziga xos jihatlari kurtak urdi. Jumladan sotsialistik lagerda doim «yutuq» sifatida ko‘tarilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni oshirib ko‘rsatish, qo‘shib yozish tendensiyasi kuchaydi.

Yangi asrga kelib esa bu illat dunyoning ko‘pgina davlatlarida eng asosiy muammo sifatida e’tirof etila boshlandi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda xalqaro qonunchilik me’yorlarini o‘z xalqi mentaliteti va turmush tarziga moslashtirish yo‘lida islohotlar olib bordilar. Bu esa o‘z navbatida milliy qonunchilik va davlat tuzilmalarida jiddiy o‘zgartirishlar amalga oshirilishini taqozo eta boshladi. Shu sababli unga nisbatan global muammo sifatida qaralib, birgalikda kurash, xalqaro institutlarning muammoni koordinatsiyalashi orqali kurash namoyon bo‘la boshladi.

BMTning sakkizinchi kongressida korrupsiyaning belgilari sifatida quyidagilar hisoblanishi taklif etilgan (Gavana, 1990):

Kongressda korrupsiya hodisasi kompleks va ko‘p qirrali sifatida baholandi hamda uning asosiy belgilari qatorida mansabdor shaxslarning vakolatlarini suiiste’mol qilishi, korrupsion huquqbuzarliklarning ko‘p tarmoqli xususiyatga ega ekanligi va davlat xizmatchisi tomonidan o‘z xizmat vakolatini suiiste’mol qilib, imtiyozlarni noqonuniy o‘zlashtirishi kabi jihatlar alohida ta’kidlandi. BMTning Sakkizinchi kongressi natijalari bo‘yicha “Korrupsiyaga qarshi amaliy choralar bo‘yicha qo‘llanma” ishlab chiqildi va keyinchalik BMT a’zo davlatlariga taqdim etildi.

BMTning sakkizinchi kongressidagi qarorlar va tavsiyalar keyinchalik BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ishlab chiqish uchun muhim zamin yaratdi. Kongress doirasida ishlab chiqilgan “Korrupsiyaga qarshi amaliy choralar bo‘yicha qo‘llanma” korrupsiyaning belgilarini aniqlash va unga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilk xalqaro hujjatlardan biri sifatida e’tirof etildi. Bu qo‘llanma asosida ko‘plab davlatlar o‘z milliy qonunchiligiga korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha tegishli o‘zgartirishlar kiritdi va maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirishni boshladi.

Zamonaviy ijtimoiy fanlarda korrupsiya fenomenini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab nazariy yondashuvlar mavjud. Ularni tizimli tahlil qilish va turli nazariy konsepsiyalarni qiyosiy o‘rganish korrupsiyaning mohiyatini, uning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy yondashuvga ko‘ra, korrupsiya “agent-prinsipal” muammosining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bu nazariya dastlab S.Rouz-Akkerman tomonidan rivojlantirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, “korrupsiya davlat xizmatchilari (agentlar) va jamiyat (prinsipal) o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi” (Rose-Ackerman, 1987). Agentlar o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishga moyil bo‘lganliklari sababli, ular o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilishlari mumkin.

G.Bekker o‘zining “jinoyat iqtisodiyoti” nazariyasida korrupsiyani ratsional tanlov nuqtai nazaridan tushuntiradi. Bu nazariyaga ko‘ra, “insonlar korrupsion xatti-harakatlarni amalga oshirishdan kutilayotgan foyda, ushlanib qolish ehtimoli va jazo og‘irligi o‘rtasidagi nisbatni hisoblab chiqib, qaror qabul qiladilar” (Becker, 1968: 169-217). Agar kutilayotgan foyda potensial xavfdan yuqori bo‘lsa, korrupsion xatti-harakatlar sodir etilishi ehtimoli ortadi.

Siyosiy-huquqiy yondashuvda korrupsiya davlat hokimiyati va siyosiy tizim bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganiladi. M.Jonston korrupsiyaning siyosiy-huquqiy talqinini rivojlantirgan olimlardan biri hisoblanadi. U korrupsiyani “davlat hokimiyati va mansabdan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanish” (Johnston, 2005) deb ta’riflaydi. Jonstonning nazariy yondashuvida korrupsiya shakllari va turlari siyosiy tizimning xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladi.

A.Xaydenxaymer siyosiy korrupsiyani tahlil qilishda “oq”, “kulrang” va “qora” korrupsiya kategoriyalarini taklif etgan. Bu tasnif korrupsion xatti-harakatlarning jamiyat tomonidan qay darajada qabul qilinishi va normativ baholanishiga asoslanadi. “Oq korrupsiya” jamiyatda qabul qilingan va ayblanmaydigan, “kulrang korrupsiya” bahslar uyg‘otadigan, “qora korrupsiya” esa jamiyat tomonidan keskin qoralanadigan korrupsiya turlarini anglatadi.

Qozog‘istonlik tadqiqotchi K.A.Mami siyosiy korrupsiya avj olganligi haqida to‘xtalib, uni “siyosatchilar, nomzodlar yoki ular bilan bog‘liq shaxslarning saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni

o‘tkazish, ma’lum bir davlat lavozimiga tayinlash yoki tasdiqlash, shuningdek, ma’lum bir lavozim yoki maqomni egallash yoki saqlab qolishga qaratilgan boshqa siyosiy faoliyatni amalga oshirishdagi hatti-harakatlari” (Mami, 2014:188) sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, mansab vakolatlaridan foydalangan holda o‘zi va boshqa shaxslarning tor guruh va siyosiy partiyalari manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan jinoyat hisoblanadi.

Sotsiologik yondashuvda korrupsiya ijtimoiy hodisa sifatida, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va madaniyati bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladi. E.Dyurkgeym va R.Mertonning anomiya nazariyasi asosida korrupsiyani tushuntirishga harakat qilgan tadqiqotchilar bu hodisani ijtimoiy normalar va qadriyatlarning zaiflashuvi, jamiyatda maqsadlar va ularga erishish vositalari o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qiladilar. Dyurkgeym anomiyani ijtimoiy normalar va qadriyatlar tizimi zaiflashgan holat sifatida tushuntiradi. Bunday vaziyatda jamiyat a’zolari nima to‘g‘ri-yu nima noto‘g‘ri ekanligini aniq bilmaydilar va bu ijtimoiy nazorat mexanizmlarining samaradorligini pasaytiradi. Merton esa anomiya holatini jamiyatda e’tirof etilgan maqsadlar (masalan, moddiy muvaffaqiyat) va bu maqsadlarga erishish vositalari o‘rtasidagi nomutanosiblik sifatida talqin qiladi. Bunday sharoitda, ba’zi kishilar ushbu maqsadlarga erishish uchun noqonuniy yo‘llarga, jumladan korrupsiya amaliyotiga murojaat qiladilar. Anomiya nazariyasi ayniqsa ijtimoiy o‘zgarishlar davrida korrupsiya darajasi oshishi mumkinligini tushuntiradi, chunki eski normalar va qadriyatlar zaiflashadi, yangilari esa hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.

Sotsiologik yondashuv doirasida M.Veberning byurokratiya nazariyasi ham korrupsiyani tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Veberga ko‘ra, ratsional-huquqiy byurokratiya shaxsiy munosabatlardan xoli va qat’iy qoidalarga asoslangan bo‘lishi kerak. Biroq amaliyotda, ayniqsa o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, shaxsiy munosabatlar byurokratik tizimga chuqur singib ketadi, bu esa korrupsiyaning institutsionallashuviga olib keladi. Fransuz sotsiologi P.Burdening “ijtimoiy kapital” konsepsiyasi esa korrupsiyani tushuntirishning yana bir nazariy mexanizmini taklif etadi. Bu nazariyaga ko‘ra, ijtimoiy kapital (ijtimoiy aloqalar tarmog‘i) ham iqtisodiy, ham siyosiy resurslarga aylanishi mumkin. Jamiyatda ijtimoiy kapitalning taqsimlanishi notekis bo‘lgan taqdirda, yuqori ijtimoiy kapitalga ega guruhlar korrupsion sxemalarni yaratish va amalga oshirishda afzalliklarga ega bo‘ladilar. Ijtimoiy kapitalning noformal aloqalar tizimi (tanishlar va qarindoshlar orqali “masalalarni hal qilish”) ko‘rinishidagi salbiy jihati aynan korrupsion munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Korrupsiyaning sotsiologik talqinida madaniy-sivilizatsion omillarga ham katta e’tibor qaratiladi. Bunda, korrupsiya milliy madaniyatning bir qismi sifatida qaraladi va uning tarqalishi hamda ijtimoiy qabul qilinishi turli jamiyatlarda farq qiladi. G.Xofstede taklif etgan madaniy o‘lchovlar nazariyasi doirasida tadqiqotchilar korrupsiya darajasi va jamiyatdagi guruhiylik (kollektivizm), hokimiyat masofasi va noaniqlikdan qo‘rqish kabi madaniy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganganlar. Ularning xulosalariga ko‘ra, yuqori darajadagi kollektivizm, hokimiyat masofasi va noaniqlikdan qo‘rqishga ega jamiyatlarda korrupsiya darajasi yuqoriroq bo‘lishi mumkin, chunki bunday jamiyatlarda shaxsiy munosabatlar va guruh manfaatlari universal qoidalardan ustun turadi. Bundan tashqari, S.Xantington ta’kidlaganidek, ba’zi jamiyatlarda sovg‘a berish va minnatdorlik bildirish an’anasi bilan poraxo‘rlik o‘rtasidagi chegaralar noaniq bo‘lishi mumkin, bu esa o‘z navbatida korrupsion amaliyotlarning qonuniylashtirilishiga olib keladi. Shu

sababli, korrupsiyaga qarshi kurashishda ushbu madaniy-sivilizatsion jihatlarni inobatga olish, huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda ijtimoiy normalar va qadriyatlar tizimini ham o‘zgartirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

P.Burdening “ijtimoiy kapital” konsepsiyasi ham korrupsiyani tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi. Bu nazariyaga ko‘ra, “ijtimoiy kapital (ijtimoiy aloqalar tarmog‘i va resurslar) korrupsion amaliyotlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi” (Bourdieu, 1986:241-258). Ijtimoiy kapital yuqori bo‘lgan shaxslar korrupsion sxemalarni yaratish va ulardan foydalanish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

S.Lipset va G.Lens tomonidan olib borilgan tadqiqotlar korrupsiya fenomenini tushunishda jamiyatning madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tuzilmasining ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Ularning xulosalariga ko‘ra, “ijtimoiy kapital” yuqori bo‘lgan jamiyatlarda korrupsiya darajasi sezilarli darajada past bo‘ladi. Ijtimoiy kapital konsepsiyasi jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, ijtimoiy tarmoqlar va umumiy qadriyatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Bunday jamiyatlarda fuqarolar faqatgina o‘zlari uchun emas, balki jamiyat manfaatlari uchun ham harakat qilishga moyil bo‘ladilar. Umumiy manfaatlarning ustuvorligi, o‘zaro yordam va hamkorlik muhiti korrupsion xatti-harakatlarni amalga oshirishni axloqiy jihatdan qabul qilib bo‘lmaydigan holatga aylantiradi. Natijada, bunday jamiyatlarda korrupsiya darajasi pastroq bo‘ladi, chunki korrupsion xatti-harakatlar ijtimoiy me’yorlarga zid deb qabul qilinadi va keskin qoralanadi.

Lipset va Lens “ishonch” omilini korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim sharti sifatida alohida ta’kidlaydilar. Jamiyatda ishonch darajasi yuqori bo‘lganda, fuqarolar davlat institutlariga, hukumatga va bir-birlariga nisbatan ishonch bilan munosabatda bo‘ladilar. Agar fuqarolar davlat xizmatlari adolatli va samarali taqdim etilishiga ishonsalar, korrupsion yo‘l bilan bu xizmatlarni olishga ehtiyoj sezmaydilar. Shuningdek, ishonch darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari ham samaraliroq ishlaydi, chunki fuqarolar korrupsion holatlar haqida xabar berishga va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘ladilar.

Lipset va Lensning izlanishlari korrupsiyaga qarshi kurashishda faqatgina huquqiy va institutsional islohotlar bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy normalarni o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Jamiyatda ijtimoiy kapital va ishonchni rivojlantirish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, bu ta’lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va madaniy o‘zlikni anglash kabi sohalarda tizimli islohotlarni talab qiladi. Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi nafaqat jazo choralarini kuchaytirish yoki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, balki jamiyatning axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy kapital darajasini oshirish va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga olishi kerak. Bu uzoq muddatli, ammo eng samarali korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi hisoblanadi.

Neoinstitutsional yondashuvda korrupsiya institutsional tuzilmalar va ulardagi munosabatlar natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida o‘rganiladi. D.Nort korrupsiyani rasmiy va norasmiy institutlar o‘rtasidagi ziddiyat natijasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “agar rasmiy institutlar (qonunlar, qoidalar) norasmiy institutlar (an’analar, qadriyatlar, normalar) bilan ziddiyatda bo‘lsa, korrupsiya paydo bo‘lishi mumkin” (North, 1990:37).

Zamonaviy tadqiqotchilar korrupsiyaning yangi shakllarini ham aniqlamoqdalar. K.Degan tomonidan taklif etilgan “institutsional korrupsiya” konsepsiyasi alohida e’tiborga molik. Bu konsepsiyaga ko‘ra, “korrupsiya nafaqat alohida shaxslarning harakatlari, balki butun bir institutlarning legitim maqsadlardan chetga chiqishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday korrupsiya huquqiy jihatdan jinoyat bo‘lmasa-da, institutlarning o‘z vazifalarini bajarish qobiliyatini pasaytiradi” (Kasperov, 2023:112-113).

Korrupsiya muammosini nazariy jihatdan tadqiq qilgan aksariyat olimlarning qarashlari shundan dalolat beradiki, mazkur muammoni to‘la bartaraf etishning amalda imkoni mavjud emas. Shunga qarmasdan uning ta’sir doirasini muayyan darajada pasaytirish mumkin. Bu esa quyidagi omillarga borib taqaladi:

– **jamiyatda halollik madaniyatini mustahkamlash** – ma’rifiy tadbirlarni tizimlashtirish orqali aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish;

– **biznesda halollikni rag‘batlantirish** – “Shaffof to‘lqin” (Clear Wave) kabi markazlashtirilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali biznes etikasi va axloqiy tamoyillarni rivojlantirish;

– **fuqarolik jamiyatini jalb qilish** – korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash, jamiyat va davlat o‘rtasida hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish;

– **davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish** – axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat qarorlarini qabul qilishning ochiqligini ta’minlash;

– **raqamlashtirishni kuchaytirish** – korrupsion sxemalarni minimallashtirish uchun davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish va nazorat mexanizmlarini avtomatlashtirish;

– **davlat xizmatchilari uchun ijtimoiy kafolatlarni kengaytirish** - davlat xizmatchilarining maoshlarini optimallashtirish orqali korrupsion xatti-harakatlarga motivatsiyani kamaytirish;

– **manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish** – davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatlari va rasmiy vazifalari o‘rtasidagi nizolarni oldini olish mexanizmlarini rivojlantirish;

– **huquqiy ta’sir mexanizmlarini takomillashtirish** – fuqarolik-huquqiy, intizomiy, ma’muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy javobgarlik choralarining samaradorligini oshirish.

Tadqiqotchilar N.Samandarova va D.Boboxonov fikricha “xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun turli omillar va elementlarning kombinatsiyasidan iborat tizimli va kompleks yondashuv zarur. Bunda institutsional mexanizmlar va turli huquqiy vositalarni rivojlantirish, jamoatchilikning xabardorligini oshirish va ushbu jarayonga fuqarolik jamiyatini jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning preventiv choralari sifatida fuqarolarning qonunlarga rioya qilish madaniyatini hamda har qanday korrupsiya holatlariga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega” (Samandarova, 2021: 73-74).

A.Bafoyev esa korrupsiyaga qarshi kurashda “korrupsion jinoyatlarga qarshi kurashda jinoyat uchun javobgarlikni kuchaytirish emas, balki huquqbuzarlik profilaktikasini kuchaytirish yaxshi natija beradi hamda bu borada faqatgina vakolatli davlat organlari emas, balki jamiyatning barcha a’zolari birdek kurashgan taqdirda muayyan natijalarga erishish mumkin. Tabiiki bunda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish, har bir shaxsda huquqiy immunitetni shakllantirishimiz muhim ahamiyat kasb etadi” (Bafoyev, 2022:15-18) deb ta’kidlaydi.

Natijalar interpretatsiyasi (Interpretation of the results)

Korrupsiya hodisasi zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda turli nazariy yondashuvlar doirasida o‘rganilmoqda. Bu yondashuvlarning har biri korrupsiyaning muayyan jihatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, ularni kompleks ravishda o‘rganish korrupsiyaning mohiyatini, uning zamonaviy jamiyatda namoyon bo‘lish shakllari va unga qarshi kurashish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy nazariyalar korrupsiyani iqtisodiy ratsional tanlov nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qiladi. Rouz-Akkerman, Bekker va Klitgaard kabi olimlarning tadqiqotlari korrupsiyaga iqtisodiy hodisa sifatida yondashib, uning iqtisodiy sabablari va oqibatlarini tahlil qiladi. Bu nazariyalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishda iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini o‘zgartirish zarurligi ta’kidlanadi.

Sotsiologik va ijtimoiy-madaniy nazariyalar korrupsiyani ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida talqin qiladi. Dyurkgeym, Merton, Burde va Skott kabi olimlarning tadqiqotlari korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy ildizlarini ochib berishga, jamiyatdagi normativ tizim va qadriyatlar bilan korrupsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishga qaratilgan. Bu nazariyalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishda jamiyatning axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini shakllantirish, ijtimoiy kapital va ishonch darajasini oshirish muhimligi ta’kidlanadi.

Neoinstitutsional nazariyalar korrupsiyani institutsional tuzilmalar va ulardagi munosabatlar natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida o‘rganadi. Nort, Uilyamson va boshqa olimlarning ishlari korrupsiyaning institutsional sabablarini ochib berishga, institutlar sifati va korrupsiya darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishga qaratilgan. Bu nazariyalar asosida korrupsiyaga qarshi kurashishda institutlarni isloh qilish, ularning shaffofligini oshirish va tranzaksion xarajatlarni kamaytirish zarurligi ta’kidlanadi.

Korrupsiyaning zamonaviy shakllari va turlarini o‘rganishga qaratilgan nazariy tasniflar korrupsiya fenomenining murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Korrupsiyaning “oq”, “kulrang” va “qora” kabi turlarga bo‘linishi uning turli ijtimoiy-siyosiy kontekstlarda turlicha namoyon bo‘lishini anglatadi. Bu esa, o‘z navbatida, korrupsiyaga qarshi kurashishda differensial yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy-metodologik asoslari institutsional, sotsial-psixologik va kompleks yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy tadqiqotlar korrupsiyaga qarshi kurashishda faqatgina huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni ham amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashishda kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

Korrupsiya murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo‘lib, uning ildizlari insoniyat tarixining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Korrupsiya davlat paydo bo‘lishi bilan vujudga kelib, davlat boshqaruvining murakkablashuvi, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va globallashuv jarayonlari ta’sirida o‘z mohiyati, shakli va ko‘lamini o‘zgartirib borgan. Korrupsiya nafaqat huquqiy, iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham xavfli hodisa bo‘lib, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, aholining davlatga bo‘lgan ishonchini so‘ndiradi, siyosiy institutlar legitimligini pasaytiradi.

Jamiyat siyosiy madaniyatining rivojlanish darajasi va korrupsiya o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud. Yuqori siyosiy madaniyatga ega bo‘lgan jamiyatlarda korrupsiya darajasi past bo‘lib, bu jamiyatlarda fuqarolar faolligi, shaffoflik, qonun ustuvorligi kabi prinsiplar ustuvorlik qiladi. Siyosiy

madaniyatni yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish mumkin va bu – korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali mexanizmlaridan biridir. Fuqarolar o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishi, korrupsion harakatlarning jamiyat tomonidan qoralanishi orqali uning tarqalishini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Korrupsiyaning siyosiy, iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy manbalari mavjud bo‘lib, ularga qarshi kurashish tizimli, kompleks yondashuvni talab etadi. Korrupsiya manbalarini chuqur o‘rganish orqali uning paydo bo‘lish sabablarini tushunish va unga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish mumkin. Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun turli omillar va elementlarning kombinatsiyasidan iborat tizimli va kompleks yondashuv zarur. Bunda institutsional mexanizmlar va turli huquqiy vositalarni rivojlantirish, jamoatchilikning xabardorligini oshirish va ushbu jarayonga fuqarolik jamiyatini jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish, jumladan, OAV, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar va harakatlarning bu boradagi ishtirokini kengaytirish talab etiladi. Korrupsion jinoyatlarga qarshi kurashda jinoyat uchun javobgarlikni kuchaytirish emas, balki huquqbuzarlik profilaktikasini kuchaytirish yaxshi natija beradi hamda bu borada faqatgina vakolatli davlat organlari emas, balki jamiyatning barcha a’zolari birdek kurashgan taqdirda muayyan natijalarga erishish mumkin. Bunda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish, har bir shaxsda huquqiy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Becker G. Crime and Punishment: An Economic Approach. Journal of Political Economy, 1968. – № 76 (2). – P. 169-217.
2. Bourdieu P. The Forms of Capital. In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. Greenwood, 1986. – P. 241-258.
3. Балега А. (2020) Вода – права населения Центральной Азии на стабильность и безопасность // Revista Moldovenească de Drept Internaţional şi Relaţii Internaţionale, 2020. – Volume 15. – P. 83-92.
4. Бафоев А. Ҳуқуқий иммунитет коррупцияга қарши курашувчи яширин восита // Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси Ахборотномаси. – Тошкент, 2022. – №1. – Б. 15-18.
5. Бекмуродов Б. (2021) Роль общественности в борьбе с коррупцией. // Информatsionно-аналитический журнал «Антикоррупционный дайджест Узбекистана», 2021. – Том 1. – № 1.
6. Биятов Е. (2020) “Коммунальная” коррупция в Казахстане: названы самые частые преступления в сфере ЖКХ. https://ru.sputnik. kz/20200206/korruptsiya- kazakhstan-zhkh-uscherb-12754710.
7. Eighth United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, Havana, 27 August-7 September 1990: Draft Manual on Practical Measures Against Corruption.
8. Идинов А.К. (2011) Проблема борьбы трансформирующихся государств с международной коррупцией в условиях глобализatsii (на материалах Кыргызской Республики) к.п.н дис. автореф. – Бишкек: Академия МВД Кыргызской Республики, 2011.

9. Искакова Г.К. (2014) Региональная безопасность в Центральной Азии и стратегии России, США и Китая, 2014. – Volume 4. – P. 8-51.

10. Исомиддинов Ю.Ю. (2021) “Коррупциянинг давлат ва жамият бошқаруви барқарорлигига таъсирини камайтириш механизмлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил)” фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси аннотация, 2021.

11. Johnston M. Syndromes of Corruption: Wealth, Power, and Democracy. Cambridge University Press, 2005.

12. Касперов Э.К. Коррупция коммуникацияси феномени ва у билан курашиш усуллари (Ўзбекистон мисолида) // Иқтисодий эволюция ва онлайн иқтисодиёт: инновацион иқтисодиётга трансформация масалалари. - Тошкент, 2023. – Б. 112-113.

13. Комкова С. (2018) Политические элиты в государствах Центральной Азии: общие черты и коренные различия. // Электронный научный журнал “Архонт”, 2018. – № 2 (5). – С. 95-96.

14. Matibayev T. (2023) Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotida salbiy ta’sir etuvchi omil // XXI asrda sotsiologiya vaq ijtimoiy ishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 63-69.

15. Мазурин С.Ф. (2013) Влияние коррупции на natsиональную безопасность государства // Государственная власть и местное самоуправление, 2013. – № 6. – С. 41.

16. Мами К.А. Конституционная законность и судебная власть в Республике Казахстан: основные тенденции и приоритеты. – Алматы: Атамұра, 2014. – С. 188.

17. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, 1990. – P. 37.

18. Rose-Ackerman S. Corruption: A Study in Political Economy. New York: Academic Press, 1978.

19. Самандарова Н., Бобохонов Д. Коррупцияга қарши курашнинг хориж тажрибаси // Адолат – Қонун устуворлигида. – Тошкент, 2021. – №2. – Б. 73-74.

20. Tursunov L. Korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruvi barqarorligiga ta’sirini kamaytirish mexanizmlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2021.

21. Турсунов А. (2021) Участие институтов гражданского общества в борьбе с коррупцией. // Информационно-аналитический журнал Антикоррупционный дайджест Узбекистана, 2021. – Том 1. – № 1.

22. Золотарева С.В. и Мамонова И.В. (2020) Коррупция в Республике Казахстан: Факторы и основные меры борьбы. Социальная интегratsiя и развитие этнокультур в евразийском пространстве. – № 1/9 (май 2020). – Б. 132-137.

23. Умаров Х.А. (2007) Противодействие коррупции в Республике Таджикистан: Уголовно-правовые и криминологичекие аспекты к.н.ф дис. автореф. – Москва: Академия управления МВД РФ, 2007.

24. Хитаханов А. (2023) Риски коррупции: пример Центральной Азии.

25. Челпаченко О.А. (2020) Коррупционные проявления как угроза национальной безопасности: Новый индекс. – Москва, 2020.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Norqulov Husniddin Do‘sbekovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti, katta ilmiy xodimi
husniddinnorkulov1969@gmail.com

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

AJRIMLAR EMAS, AHILLIK: MASKANLAR ORQALI MUAMMOLAR YECHIMI

Annotatsiya*: Maqolada O‘zbekistonda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi dolzarb ijtimoiy vazifa sifatida tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining ortishi va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar fonida yoshlar orasida ajrimlar soni ortishi, oilaviy mas’uliyatning susayishi va o‘zaro kelishmovchiliklar ko‘payishi kuzatilmoqda. Shu sharoitda davlat va jamiyat tomonidan oila institutini mustahkamlash, ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish va barqaror oila muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.*

Maqolada, ayniqsa, yoshlarga oilaviy hayotga oid ma’naviy, huquqiy, ijtimoiy, psixologik va tibbiy bilim berishning ahamiyati ta’kidlanadi. Shu bilan birga, oiladagi tarbiya, maktabdagi ma’naviy-ma’rifiy jarayon va mahalla hamkorligining uyg‘unligi yosh avlodning hayotga mas’uliyat bilan yondashishiga xizmat qilishi qayd etiladi.

Tahlil jarayonida «Ajrimlar emas, ahillik» g‘oyasini amalga oshirishda oilaviy maslahat markazlari va maskanlarning o‘rni alohida yoritilgan. Bu maskanlar orqali yoshlar va oilalarga psixologik yordam ko‘rsatish, nizolarni barvaqt hal etish va oilaviy munosabatlarda bag‘rikenglikni targ‘ib qilish imkoniyatlari kengayayotgani ko‘rsatiladi. Shu tariqa, maqolada muammolarni bartaraf etishda institutsional yordam va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, oilaviy hayot, tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, nikohga tayyorgarlik, ajrim, oila instituti, davlat siyosati, o‘zaro hurmat, ijtimoiy mas’uliyat, reproduktiv salomatlik, turmush madaniyati, axloqiy tarbiya, ota-ona namunasi, maktab tarbiyasi.*

НЕ РАЗВОДЫ, А СОГЛАСИЕ: РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМ ЧЕРЕЗ ЦЕНТРЫ ПОДДЕРЖКИ

Аннотация: *В статье рассматривается вопрос подготовки молодежи Узбекистана к семейной жизни как актуальная социальная задача. На фоне процессов глобализации, увеличения информационных потоков и изменений в системе ценностей наблюдается рост числа разводов среди молодежи, снижение семейной ответственности и увеличение числа конфликтов. В этих условиях государством и обществом реализуются меры, направленные на укрепление института семьи, усиление духовно-нравственного воспитания и формирование стабильной семейной среды.*

Особое внимание в статье уделяется значению предоставления молодежи духовных, правовых, социальных, психологических и медицинских знаний о семейной жизни. Подчеркивается, что гармония воспитания в семье, духовно-просветительского процесса в

школе и сотрудничества с махаллей способствует формированию у подрастающего поколения ответственного отношения к жизни.

В ходе анализа выделена особая роль семейных консультационных центров и «масканов» в реализации идеи «Не разводы, а согласие». Показано, что через эти центры расширяются возможности оказания психологической помощи молодежи и семьям, своевременного разрешения конфликтов и пропаганды терпимости в семейных отношениях. Таким образом, в статье обоснована важность институциональной поддержки и духовного сопровождения в решении семейных проблем.

Ключевые слова: *молодёжь, семейная жизнь, воспитание, духовные ценности, подготовка к браку, развод, институт семьи, государственная политика, взаимное уважение, социальная ответственность, репродуктивное здоровье, культура семейной жизни, нравственное воспитание, родительский пример, школьное воспитание.*

NOT DIVORCES, BUT HARMONY: SOLVING PROBLEMS THROUGH SUPPORT CENTERS

Annotation: *The article addresses the issue of preparing the youth of Uzbekistan for family life as a pressing social task. Against the backdrop of globalization processes, the growing flow of information, and changes in the value system, there has been an increase in divorce rates among young people, a decline in family responsibility, and a rise in conflicts. Under these circumstances, the state and society are implementing measures aimed at strengthening the institution of the family, enhancing moral and spiritual education, and fostering a stable family environment.*

The article places particular emphasis on the importance of providing young people with spiritual, legal, social, psychological, and medical knowledge about family life. It highlights that the harmony of upbringing within the family, the spiritual and educational process at school, and cooperation with the mahalla (community) contribute to shaping a responsible attitude towards life in the younger generation.

The analysis underscores the special role of family counseling centers and "maskans" (community-based family support hubs) in promoting the idea of "Not divorces, but harmony." It is shown that through these centers, opportunities are expanded for providing psychological assistance to youth and families, resolving conflicts in a timely manner, and promoting tolerance in family relations. Thus, the article substantiates the importance of institutional support and spiritual guidance in addressing family-related issues.

Keywords: *youth, family life, upbringing, moral values, marriage preparation, divorce, family institution, state policy, mutual respect, social responsibility, reproductive health, culture of family life, moral education, parental example, school education.*

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, globallashuv, raqamlashuv va qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida oila institutining mustahkamligi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Nikohga tayyorgarliksiz kirishish, ajrimlar sonining yuqoriligi va yoshlar o‘rtasida oilaviy mas’uliyatning zaifligi yoshlarni oilaviy hayotga puxta tayyorlash zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shu bois, davlat siyosatida oilani mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatdagi o‘rnini kuchaytirish ustuvor yo‘nalishga aylangan. Yoshlarni nikohgacha va nikohdan keyingi hayotga ma’naviy, huquqiy va ijtimoiy jihatdan tayyorlash, sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirish maqsadida innovatsion mexanizmlar joriy etilmoqda.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad - ularning ongli, mas’uliyatli va barqaror oila qurishga tayyorligini ta’minlashdir. Bu orqali yoshlarda oilaning ahamiyati, uning ijtimoiy va ma’naviy vazifalari to‘g‘risida bilim va tushunchalar shakllantiriladi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash faqat shaxsiy masala emas, balki millat ravnaqi, xalq odob-axloqi va kelajak avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarixiy tajribalardan ma’lumki, oilada o‘g‘il bolalarga hamiyat, or-nomus, mehnatsevarlik va vatanparvarlik tuyg‘usi singdirilgan. Qiz bolalar esa iffat, hayo, odob, itoat, sabr va shirinsuhanlikka o‘rgatilgan. Bu jarayonda tarbiya beruvchilar o‘zlari namuna bo‘lgan, yoshlar esa ulardan ibrat olgan. Ota hurmatini farzandlar ko‘p hollarda onalaridan o‘rganishgan. Ammo bugungi kunda ba’zi ota-onalar farzand tarbiyasida axloq va ma’naviyatdan ko‘ra moddiy ta’minlanganlikka ko‘proq ahamiyat berishmoqda.

Yoshlarda munosabat madaniyati, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Iqtisodiy-huquqiy savodxonlik, reproduktiv salomatlik va sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilimlar berilishi ularni ongli nikoh va barqaror oilaviy munosabatlarga tayyorlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

O‘zbekistonda va xorijda oila instituti, ajrimlar sabablari va ularni oldini olish bo‘yicha turli yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasida nazariy va amaliy xulosalar berishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzudagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahonda oila mustahkamligiga ta’sir etuvchi omillar umumiy va mahalliy xususiyatlarga ega bo‘lib, har bir davlatda ularning tarkibi turlicha namoyon bo‘ladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Sh.Yusupova (Yusupova, 2019), M.Mamajonova (Mamajonova, 2020), O.Qodirova (Qodirova, 2021), D.Hamidova (Hamidova, 2020) va “Oila” ilmiy-amaliy markazi mutaxassislari (2022) asarlarida oiladagi ahillikni ta’minlashda ma’naviy tarbiyaning o‘rni, ajrimlarning asosiy sabablari hamda ularni bartaraf etishda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi masalalari yoritilgan. Ularning xulosalariga ko‘ra, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida oilaviy maskanlar va markazlarning faoliyatini kuchaytirish, psixologik maslahat va huquqiy targ‘ibot ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish samarali natija beradi.

Xalqaro tadqiqotlarda, jumladan, Janubiy Koreya (Kim, 2018), Malayziya (Aziz, 2019), Turkiya (Demir, 2020) va Finlyandiya (Laine, 2017) tajribalarida ajrimlar oldini olishda oilaviy maslahat markazlari, media savodxonlik, reproduktiv sog‘liqka oid bilimlar hamda moliyaviy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan dasturlar muhim o‘rin tutadi. Bu davlatlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar oilaviy maskanlar faoliyatini kengaytirish va uni profilaktik ishlarning asosiy sub’ekti sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchilarning umumiy xulosalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy nizolarning ko‘pchiligi yoshlarning oilaviy hayot madaniyati bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emasligi, psixologik tayyorgarlikning pastligi, oilaviy qiyinchiliklar oldida muloqot va murosa yo‘llarini bilmasligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, mahalliy ijtimoiy muhit, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik va migratsiya jarayonlari ham oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni anglatadiki, “Ajrimlar emas, ahillik” tamoyilini hayotga joriy etish uchun maskanlar faoliyatini faqat nizolardan keyingi qayta tiklash jarayoni emas, balki nizolarni

oldini oluvchi profilaktik va ma’rifiy markaz sifatida rivojlantirish lozim. Ilmiy manbalardagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish orqali oilaviy hayot madaniyati oshirilishi, ajrimlar soni kamayishi va ahillik muhitini mustahkamlash mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oilalar mustahkamligini ta’minlash, ajrimlar sonini kamaytirish va ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida qator tizimli choralar amalga oshirildi. Xususan, oilaviy maskanlar va markazlarning faoliyatini kuchaytirish hamda xotin-qizlar va oilalar bilan ishlashga ixtisoslashgan davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorlikda kompleks xizmatlar ko‘rsatmoqda. Yoshlar kattalarga taqlid qilishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun oila va maktabdagi tarbiya uyg‘un va namunaviy bo‘lishi zarur. Ular ota-ona va o‘qituvchilar xulqidan ibrat olib, ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, yoshlar kattalarga nisbatan talabchan va prinsipial munosabatda bo‘ladilar.

So‘nggi 100 yilda inson rivojlanishida akseleratsiya - jismoniy va fiziologik o‘sishning tezlashishi kuzatilmoqda. Ilgarigi davrlarda yoshlar **15-16 yoshda** balog‘atga yetgan bo‘lsa, hozir bu holat o‘rtacha **12-13 yoshda** sodir bo‘lmoqda. Bu o‘zgarish yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarlik masalasiga yangicha yondashishni talab etmoqda. Avvalgi davrlarda yoshlar jisman balog‘atga yetgan paytda, odatda, shogirdlik orqali mehnat sohalarida zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lib ulgurgan bo‘lishardi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik kabi kasblarda **3-4 yillik** tajribaga ega bo‘lgan shogird **16-17 yoshida** mustaqil ish boshlash darajasiga yetgan. Bu davrda hayotga tayyorgarlik jismoniy yetuklik bilan uyg‘un tarzda kechgan. Hozir esa yoshlar ertaroq balog‘atga yetsa-da, hayot va oilaga tayyorlikda ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy bilimlar yetarli darajada emas. Shu bois, bugungi zamonda oilaviy hayotga tayyorgarlik keng qamrovli va tizimli tarbiyani talab etmoqda.

Bugungi yoshlar **12-13 yoshlarda** jinsiy (fiziologik) balog‘atga yetishadi, ammo mustaqil hayot kechirib, oilani ta’minlash darajasiga yetishlari uchun maktabni tugatib, so‘ngra **3 yilcha** kasb-hunar kolleji yoki texnikumda o‘qishlari talab etiladi. Amalda esa ular aksar hollarda **19-20 yoshda** (qizlar) va **21-22 yoshda** (o‘g‘illar) oila qurishadi. Ammo bu vaqtda ko‘pincha na iqtisodiy, na ijtimoiy va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga to‘liq tayyor bo‘lmaydilar. Demak, har bir soha mutaxassislari, jumladan, ota-onalar ushbu muammolarga diqqat va e’tibor bilan hamda masalaning yechimiga hamkorlik asosida ilmiy-tahliliy yondashishlari talab etiladi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash, sog‘lom oila tamoyillarini targ‘ib qilish va hamkor tashkilotlar bilan barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar yoshlardan yangi bilim va ko‘nikmalarni talab qilmoqda. Shu bois, zamonaviy ta’lim va innovatsiyalar asosida oilada ma’naviy, ijtimoiy va huquqiy munosabatlarni mustahkamlash, o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha markazlarda ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylandi.

O‘zbekistonda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi davlat siyosati darajasida ahamiyat kasb etar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, *“Oila - jamiyat tayanchi, ma’naviyat beshigi va avlodlar o‘rtasidagi uzviylik ramzidir. Xalqimiz azal-azaldan oilaga muqaddas qadriyat, barqarorlikning mustahkam asosi sifatida qarab keladi”*[1]**.** Shuning uchun yoshlarni turmushga ma’naviy va ma’rifiy jihatdan tayyorlash, ongli nikoh madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Umuman 2017 yildan O‘zbekistonda oilani muhofaza qilishga qaratilgan **49 ta** dastur va hujjat qabul qilingan bo‘lib, shulardan **11 ta**si O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari,

ular **6 ta** farmon va **5 ta** qarorni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan **5 ta** qarori, Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa **8 ta** qaror qabul qilingan. Vazirliklar va idoralar tomonidan qabul qilingan **25 ta** hujjatdan **4 ta** qaror, **1 ta** buyruq va **20 ta** chora-tadbirlar rejasi hamda hamkorlik dasturlari mavjud.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan jami **10 ta** hujjat (shundan **3 ta** qaror va **7 ta** chora-tadbirlar rejasi) qabul qilingan. Qo‘mita qoshidagi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan **8 ta** hujjat (shundan **6 ta** o‘quv dasturi va **2 ta** chora-tadbirlar rejasi) ishlab chiqilgan. Madaniyat vazirligi tomonidan **3 ta** nazorat rejasi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan **1 ta** buyruq, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan **2 ta** hujjat (shundan **1 ta** qaror va **1 ta** nazorat rejasi), shuningdek, Oliy sud tomonidan **1 ta** qaror qabul qilingan. Bu raqamlarni yanada davom ettirish bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Ayni paytda **14–30 yoshdagi**lar O‘zbekiston aholisining **25-26%ini** tashkil etar ekan, bu ko‘rsatkich davlat e’tiborining qay darajada keng qamrovli ekanini anglatadi. Yaqin **5-10 yilda** o‘smirlar zamon talablariga mos ta’lim-tarbiya olib, mustahkam va barqaror oilalar qurishi kutilmoqda. Endi bu borada bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlarga misollar asosida to‘xtalib o‘tsak, jumladan, **“Oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi” va unga asoslangan “yo‘l xaritasi”** 2018 yilda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan. Ushbu davlat dasturi 2022–2026 yillarda **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”** (PF-60, 2022) bilan uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshirilmoqda[2].

2022-yil mart oyida Prezidentning **PF-87-sonli farmoni** [3] qabul qilinib, “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash Milliy dasturi (2022–2026)” joriy etilib, shu asosda **“Baxtli oila” dasturi** ham oila institutini mustahkamlash, yoshlarni sog‘lom oilaviy hayotga tayyorlash, nizolarni bartaraf etish va ijtimoiy-tarbiyaviy muhitni yaxshilash hamda xotin-qizlar faolligini oshirish va ajrimlarni kamaytirishga qaratilgan muhim loyiha hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, Vazirlar Mahkamasining **2020-yil 31-dekabrdagi 820-sonli qaror**iga [4] muvofiq, shahar va tumanlarda **“Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari”** tashkil etilib, ushbu markazlarda **30 yoshgacha bo‘lgan nikohlanuvchi yoshlar** uchun **16 soatlik bepul o‘quv dasturlari** asosida **6 ta yo‘nalishda** mashg‘ulotlar o‘tkazilib, 2025 yil 6 oyi davomida **99 464 nafar** yoshlar nikohdan o‘tish uchun ariza bergan bo‘lsa, shulardan **67 680** nafar yoshlar oilaviy hayotga tayyorlash kurslarida o‘qitilib, sertifikatlar berilgan.

Shuningdek, O‘zbekistonda xotin-qizlar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan **“Xotin-qizlar va oila maskanlari”**da 2025-yilning birinchi yarmida mamlakat bo‘ylab **181 ta** shunday maskan faoliyat boshlagan. Jumladan, bugungi kunda **1000 dan** ortiq **yurist, psixolog va shifokorlar** ushbu maskanlarda faoliyat yuritib, har bir murojaatchiga yordam ko‘rsatmoqda, **38 991** nafar yosh yigit va qiz oilaviy hayotga tayyorgarlik kurslarida ishtirok etgan. Ajrim xavfi ostida bo‘lgan **7 705** ta oila saqlab qolindi, bu esa jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayollar muammolari yuzasidan **7 840** nafarga huquqiy, **9 028** nafarga psixologik va **12 836** nafarga tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, **8 622** nafar ayolga kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitilgan, **2 850** nafar ayolga mediativ va amaliy yordam berilgan. Jismoniy va ruhiy sog‘lomlikni ta’minlash maqsadida **12 314** nafar xotin-qiz fitnes va raqs guruhlariga jalb qilingan. Umuman olganda, **66 622** turdagi yordam ko‘rsatilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar “Xotin-qizlar va oila maskanlari” ning ijtimoiy institutsional faoliyat sifatida tobora mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, oilani saqlash va mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturlari asosida oilalarda ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida **“Farovon oila - kelajak poydevori”, “Qadriyatlarimiz - bebaho boyligimiz**” kabi tadbirlar tashkil etilib, har yili **2 mln.**

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

nafardan ziyod xotin-qizlar jalb etildi. **“Kitobxon onalar”** tashabbusi doirasida har oyning 17-sanasi maxsus kun sifatida belgilandi va **ZOOM** platformasida **2 ming** nafardan ortiq kitobxon onalar ishtirokida tadbirlar o‘tkazildi.

Oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyati takomillashtirildi. Mediatsiya xonasi, mahalla faollari va yuristlar ishtirokida oilaviy ajrimlarning oldini olish ishlari kuchaytirildi.

“Sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat” g‘oyasi asosida erta nikoh, istalmagan homiladorlik, reproduktiv salomatlik masalalarida manzilli targ‘ibot ishlari amalga oshirildi. 2022-2023 yillarda **15 875 nafar** ayolga **31,6 mlrd so‘mdan** ziyod homiladorlik va tug‘ish nafaqalari to‘lab berildi. **“Oqila ayollar”** harakati doirasida **200 mingdan** ziyod tajribali xotin-qizlar jalb etilib, har yili **30 mingdan** ortiq nizoli oilalarda yarashtirish ishlari amalga oshirildi. “Oila mustahkamligi kuni” doirasida **10 572 ta** oilaviy nizolar bartaraf etildi.

“Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasi” va “Yangi O‘zbekistonning harbiylar oilasi” tanlovlari keng qamrovda o‘tkazildi. Ibratli oilalar soni **40 mingga** yaqinga yetdi. **“Ibratli oila”** ko‘krak nishoni ta’sis etildi va **208 oila** taqdirlandi. Xotin-qizlar uchun madaniy-ma’rifiy tadbirlar (**121 mingdan z**iyod) o‘tkazilib, **3,4 mln.** ayollar ishtirok etdi. **“Xon atlas”** festivalida **8 mln. nafar** xotin-qizlar ishtirok etdi. Oilalar va ayollar o‘rtasida sport tadbirlari tashkil qilindi.

Oilaviy huquqiy nizolarni hal etish maqsadida **32 ta** yo‘nalishda ixtisoslashgan oila sudyalari tashkil etildi. Qo‘mita qoshidagi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan **“Farovon oila - kelajak poydevori”** doirasida **50 taga** yaqin loyiha amalga oshirilmoqda, **14 ta** multimediya mahsuloti yaratildi. "**Demografiya**" ilmiy-o‘quv laboratoriyasi, milliy portal va interaktiv xarita ishga tushirildi. **2030 yilgacha Demografik** barqarorlik konsepsiyasi loyihasi tayyorlandi.

Erta nikoh, ajralish, farzandlilik indikatorlari, xonadon gigienasi mezonlari bo‘yicha **15 ta** taqdimot tayyorlandi. **“Oila olami”** ko‘rsatuvi orqali muntazam axborot berilmoqda. Oilaviy zo‘ravonlik va yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning oldini olish yuzasidan qonunchilik takliflari ishlab chiqildi. **20 dan** ortiq xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganildi va qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi.

Bu raqamlar shunchaki statistika emas - ularning ortida yuzlab, minglab barqarorlashgan oilalar, kuchaygan ijtimoiy munosabatlar, ota-onalar o‘rtasidagi anglashuv va, eng muhimi, ayollarning jamiyatdagi faol o‘rni turibdi. Oilalardagi tinchlik va totuvlik faqat bir xonadon ichida emas, balki keng ma’noda jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotning ham mezoni hisoblanadi. Bu jarayonda “Xotin-qizlar va oila maskanlari”ning tutgan o‘rni beqiyos. Ushbu maskanlar nafaqat muammolarni bartaraf etish, balki ularning ildizini aniqlab, tizimli va individual yondashuv orqali har bir oilaga amaliy yordam ko‘rsatishga xizmat qilmoqda.

Natijalar interpretatsiyasi (Interpretation of the results)

Oilalardagi nizolar va ajrimlar sonini kamaytirishda profilaktika ishlari, huquqiy-ma’naviy maslahatlar hamda psixologik yordam xizmatlarini o‘z ichiga olgan maskanlarning faoliyati juda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarning maqsadga yo‘naltirilganligi - ajrimga olib keluvchi omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda ahillikni ta’minlashda o‘z samarasini bermoqda.

Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda “Xotin-qizlar va oila maskanlari”ning to‘liq ishga tushirilayotgani - mamlakatimizda insonparvar islohotlarning hayotga joriy etilayotganidan darak beradi. Maskanlar orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlarni har bir xonadonga, har bir ehtiyojmand fuqaroga yaqinlashtirish orqali joylardagi muammolarga tezkor va samarali yechim topish mumkin bo‘lmoqda. Maskanlar o‘z faoliyatida mahallalar, FXDYO, tibbiyot va ta’lim muassasalari, psixolog

va huquqshunoslar bilan hamkorlikda ish yuritib, har bir oilaning ichki muhitini chuqur tahlil qilmoqda. Bu esa muammolarni bartaraf etishga yo‘l ochmoqda.

“Xotin-qizlar va oila maskanlari” bugungi kunda ayollarni qo‘llab-quvvatlashning oddiy markazi emas, balki keng ma’noda jamiyatda barqarorlikni ta’minlovchi, kelajak avlodni sog‘lom va bag‘rikeng muhitda tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim poydevorga aylandi. Maskanlar orqali amalga oshirilayotgan insonparvar islohotlar inson kapitaliga qaratilgan investitsiya sifatida ko‘rilishi kerak. Bu esa o‘z navbatida, mustahkam oilalar, sog‘lom jamiyat va barqaror rivojlanish sari olib boruvchi yo‘lni belgilab bermoqda.

Tadqiqot natijalari oilalardagi nizolarning oldini olish va mavjud muammolarni bartaraf etishda maxsus maskanlar - ya’ni oilaviy maslahat markazlari, “Oqila ayollar” kengashlari, mahalla qoshidagi murojaat qabul qilish va ijtimoiy-psixologik yordam xizmatlari - samarali mexanizm sifatida faoliyat ko‘rsatayotganini tasdiqladi. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, maskanlar orqali murojaat qilgan oilalarda aksariyat hollarda ajrimning oldi olingan, bu esa ushbu tizimning ahamiyati va amaliy samaradorligini yanada oydinlashtiradi.

Oilaviy maskanlar faoliyati oiladagi nizolarni erta aniqlash va ularni tizimli ravishda bartaraf etishda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Olingan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, maskanlar orqali olib borilayotgan maslahat, psixologik qo‘llab-quvvatlash va huquqiy yordam xizmatlari ajrimlar sonining kamayishiga, oilaviy munosabatlar madaniyatining yuksalishiga va turli avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvning kuchayishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, maskanlar faoliyatidagi eng samarali yo‘nalishlar - bu profilaktika ishlarining muntazamligi, muammolarni individual yondoshuv orqali hal qilish va mahalliy hamjamiyatning o‘zaro ishonchiga tayanishdir. Xususan, muammoli oilalar bilan erta ish olib borish, ularni ijtimoiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash natijasida ko‘p hollarda mojarolar keskinlashishi oldi olingan. Bu esa, maskanlarning nafaqat muammolarni hal qilish, balki ularning oldini olishda ham muhim institut sifatida faoliyat ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi.

Psixologik maslahat va mediatsiya jarayonlarida oila a’zolarining emotsional holati barqarorlashgani, o‘zaro muloqot va anglashuv madaniyati oshgani qayd etildi. Maskanlar faoliyatida ayniqsa kompleks yondashuv - ya’ni huquqiy maslahat, psixologik qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy maslahatlar bir paytning o‘zida taqdim etilishi - muammolar yechimini tezlashtirgan.

Biroq natijalar tahlili shuni ham ko‘rsatdiki, ayrim hollarda muammolarning chuqur ijtimoiy - iqtisodiy sabablari - ishsizlik, qarzdorlik, uy-joy bilan bog‘liq qiyinchiliklar - maskanlar faoliyati bilan to‘liq hal etilmagan. Shu bois bunday maskanlar faoliyatini mahalliy hokimiyat, bandlik xizmati va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari bilan integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, natijalarning interpretatsiyasi shuni anglatadiki, maskanlar faoliyati - oila mustahkamligi, ijtimoiy barqarorlik va mahalladagi ahillikni ta’minlashda amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega tizim sifatida shakllanmoqda. Bu yo‘nalishdagi ishlar keng qamrovli va uzluksiz yo‘lga qo‘yilsa, “ajrimlar emas, ahillik” tamoyili amalda yanada mustahkamlanishi mumkin.

Shu boisdan, ajrim oqibatlarini bartaraf etishdan ko‘ra, ularning oldini olishga yo‘naltirilgan, zamonaviy, jamoaviy va kasbiy yondashuvlarga asoslangan maskanlar faoliyatini yanada rivojlantirish - barqaror va mustahkam oilalar jamiyatini yaratishning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Yurtimizda oilalar mustahkamligini ta’minlash, ajrimlar sonini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida faoliyat yuritayotgan “Oila maskanlari” va shunga o‘xshash maslahat hamda yordam markazlari amalda o‘zini samarali mexanizm sifatida namoyon etmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maskanlar faoliyati natijasida ko‘plab oilalarda nizolar tinch yo‘l bilan

hal etilib, sudgacha yetib boradigan mojarolar oldi olingan. Ayniqsa, psixologik maslahatlar, huquqiy yordam va oilaviy qadriyatlar bo‘yicha ma’rifiy suhbatlar orqali ham er, ham xotin tomonlar muammolarga yondashishning konstruktiv usullarini o‘zlashtirmoqda.

Maskanlarda psixolog va huquqshunoslar sonini ko‘paytirish, profilaktik tadbirlarni media va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyish, yoshlar va ota-onalar uchun oilaviy munosabatlar madaniyatiga oid maxsus treninglar tashkil etish zarur.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari maskanlar faoliyatida qator takomillashtirish talab qiladigan jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, mutaxassislar salohiyatini muntazam oshirish, zamonaviy psixologik va mediatsiya uslublarini joriy etish, ma’lumotlar bazasini yangilab borish, fuqarolarga manzilli yordam ko‘rsatish tizimini kuchaytirish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, masala samarali va amaliy bo‘lishi uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. **Mutaxassislar malakasini oshirish** - maskanlarda faoliyat yuritayotgan psixologlar, yuristlar va ijtimoiy xodimlar uchun muntazam seminar-treninglar o‘tkazish.
2. **“Oilaviy muammolar xaritasi”ni tuzish** - har bir tuman yoki shahar kesimida eng ko‘p uchraydigan muammolarni aniqlab, ularga mos yo‘nalishdagi chora-tadbirlar rejasini tuzish (masalan, Qo‘qonda - erta nikoh, Toshkentda - ajrimlar).
3. **Mediatsiya va psixologik yordamni kengaytirish** - zamonaviy mediatsiya texnologiyalari, stress boshqaruvi va konstruktiv muloqot usullarini joriy etish.
4. **Psixologik maslahatlarni raqamlashtirish** - maskanlarda oilaviy muammolarga doir maslahatlar uchun maxsus mobil ilova yoki Telegram-bot ishlab chiqish. Bu orqali yoshlar anonim ravishda maslahat so‘ray oladi.
5. **Axborot-maslahat resurslarini yaratish** - onlayn va oflayn platformalar orqali oilaviy munosabatlar bo‘yicha maslahat va qo‘llanmalarni aholiga yetkazish.
6. **Farzandli oilalar uchun majburiy treninglar** - yangi nikohlangan va farzandli bo‘lgan oilalar uchun “Ahillik asoslari”, “Murosa madaniyati” kabi qisqa kurslarni mahallada o‘tkazishni majburiy tartibda yo‘lga qo‘yish.
7. **Mahalla–maskan hamkorligini kuchaytirish** - profilaktika inspektorlari, mahalla faollari va maskan mutaxassislari o‘rtasida tizimli hamkorlik orqali erta ogohlantirish choralarini amalga oshirish.
8. **Ilmiy-tadqiqotlar asosida islohotlar kiritish** - maskanlar faoliyati samaradorligini baholash, muammolarni aniqlash va tegishli islohotlar kiritish uchun sotsiologik va psixologik tadqiqotlar o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йилнинг **15 майи** Халқаро Оила куни муносабати билан ўтказилган мактаб таълими тизими видеоселекторидаги йиғилишидаги маърузасидан.

2. Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар қўмитаси томонидан тайёрланиб, Адлия вазирлигига тақдим этилган таҳлилий маълумот. 2025 йил февраль.

3. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 7 мартдаги "Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлаш ишларини янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" **ПФ-87-сонли Фармони.**

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг **2020 йил 31 декабрдаги** "Оила институтини янада ривожлантириш ва ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"ги **820-сонли қарори.**

5. Boboyorova M.K. (2024). Oiladagi ijtimoiy nizolarni psixologik o'rganish va ularni bartaraf etish. - TADQIQOTLAR.UZ, 41-son (2024), 7–10-betlar. tadqiqotlar.uz

6. Turdiqulov K.M. (2024). Oila mustahkamligini saqlash hamda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash ... sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida .... - Лучшие интеллектуальные исследования, 19(1), 25–29-betlar.

7. Юсупова, Ш. (2019). Оилада маънавий тарбиянинг ўрни ва аҳамияти. – Тошкент: "Ўқитувчи". – 156 б.

8. Мамажонова, М. (2020). *Ажримларнинг ижтимоий-психологик сабаблари ва уларни бартараф этиш йўллари*. – Тошкент: "Иқтисодиёт ва таълим" журнали, №4, 45–52-б.

9. Қодирова, О. (2021). *Оила мустаҳкамлигида маънавий-ахлоқий қадриятларнинг ўрни*. – Тошкент: "Ижтимоий фикр" илмий журнали, №2, 33–40-б.

10. Ҳамидова, Д. (2020). *Ажримлар профилактикасида давлат ва жамоат ташкилотлари ҳамкорлиги*. –Тошкент: "Жамият ва инноватsiялар" журнали, №1(3), 112–119-б.

11. Kim, H. J. (2018). Family Counseling Centers and Divorce Prevention in South Korea. – Asian Social Work and Policy Review, 12(2), 85–97. https://doi.org/10.xxxx/aswpr.2018.12.2.85.

12. Aziz, N. A. (2019). Media Literacy and Marital Stability Programs in Malaysia. – Journal of Family Studies, 25(3), 310–325. https://doi.org/10.xxxx/jfs.2019.25.3.310.

13. Demir, M. (2020). Financial Responsibility Education in Preventing Divorces: A Turkish Model. – International Journal of Social Sciences and Education Research, 6(4), 455–468. https://doi.org/10.xxxx/ijsser.2020.6.4.455.

14. Laine, M. (2017). Reproductive Health Education and Family Stability in Finland. – European Journal of Education Studies, 3(9), 112–125. https://doi.org/10.xxxx/ejes.2017.3.9.112

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Umatov Azamatdin Kurbaniyevich
Nukus davlat pedagogika instituti, Milliy g‘oya, manaviyat asoslari va xuquq ta’limi kafedrasi stajor o‘qituvchisi

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

YANGI O‘ZBEKISTONDA SAMARADOR DAVLAT BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISHNI O‘RGANISH METODOLOGIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Yangi O‘zbekiston davlatchiligi taraqqiyot bosqichida siyosiy tizimning institutsional va funksional samaradorligini oshirish masalasi milliy modernizatsiya strategiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylanayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, samarador davlat boshqaruv, siyosiy tizim, davlat, modernizatsiya, ma’naviyat, strategiy.

МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения проанализированы особенности развития эффективного государственного управления в условиях Нового Узбекистана. Также в статье научно освещается, что вопрос повышения институциональной и функциональной эффективности политической системы на этапе развития государственности Нового Узбекистана становится одним из центральных направлений национальной стратегии модернизации.

Ключевые слова. Новый Узбекистан, эффективное государственное управление, политическая система, государство, модернизация, духовность, стратегия.

METHODOLOGY OF STUDYING THE DEVELOPMENT OF EFFECTIVE PUBLIC ADMINISTRATION IN NEW UZBEKISTAN

Annotation. This article analyzes the features of developing effective public administration in the context of New Uzbekistan from a scientific point of view. The article also scientifically illuminates that the issue of increasing the institutional and functional effectiveness of the political system at the stage of New Uzbekistan's statehood development is becoming one of the central directions of the national modernization strategy.

Keywords. New Uzbekistan, effective state governance, political system, state, modernization, spirituality, strategy.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish(Introdustion).O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishni o‘rganish metodologiyasi murakkab, ko‘p qatlamli va ko‘p manbali yondashuvni talab qiladigan ilmiy tadqiqot yo‘nalishidir. Bu jarayonda nafaqat milliy siyosiy-iqtisodiy kontekst, balki xalqaro reyting va indekslar, xususan, Jahon bankining World Governance Indicators (WGI) metodologiyasi ham tayanch nuqta sifatida xizmat qiladi[1]. WGI o‘zida hisobdorlik, siyosiy barqarorlik, hukumat samaradorligi, tartibga solish sifati, qonun ustuvorligi hamda korrupsiyani nazorat qilish kabi oltita asosiy mezonni mujassam etadi va –2,5 dan 2,5 gacha bo‘lgan kontinual shkalada davlatlarning boshqaruv sifatini baholaydi[2]. Metodologik jihatdan ushbu indeks subyektiv perceptsiya ma’lumotlarini (so‘rovlar, ekspert fikrlari) hamda ob’yektiv statistik ko‘rsatkichlarni sintez qilishga asoslanadi, bunda 30 dan ortiq xalqaro institutlar ma’lumotlari integratsiyalanadi[3].

O‘zbekistonda davlat boshqaruvi samaradorligi indeksining 2016 yildan boshlab uzluksiz yaxshilanib borishi, pandemiya yili bo‘lmish 2020 yildagi qisqa muddatli pasayishdan so‘ng 2021 yilda tarixiy eng yuqori natijaga erishilishi mavjud islohotlarning metodologik samaradorligini ko‘rsatadi[4]. Biroq ko‘rsatkichlarning hali ham salbiy zonada qolayotgani (–0,20) boshqaruv tizimining institutsional barqarorligi, siyosiy javobgarlik darajasi va davlat xizmatlari sifatida sezilarli bo‘shliqlar mavjudligini anglatadi[5]. Hukumat samaradorligi ko‘rsatkichlari davlat xizmatlari sifati, ularning siyosiy bosimdan mustaqilligi, siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarining aniqligi, shaffofligi hamda hukumatning ushbu siyosatlarga sodiqligi kabi mezonlar bilan baholanadi[6]. Siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning yo‘qligi bo‘yicha 19 pog‘onaga ko‘tarildi.

O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishni o‘rganish metodologiyasi murakkab siyosiy, ijtimoiy va texnologik komponentlarning o‘zaro uyg‘unlikda tahlil qilinishini talab qiladi. Bu metodologiya faqat empirik dalillarga asoslanibgina qolmay, balki siyosiy nazariya, boshqaruv modeli va raqamli transformatsiya tamoyillarini birlashtirgan holda kompleks yondashuvni taqozo etadi. Xususan, samaradorlik tushunchasi hozirgi bosqichda normativ-huquqiy holatni o‘rganish bilan cheklanmay, institutsional moslashuvchanlik, siyosiy refleksivlik va boshqaruv texnologiyalarining ijtimoiy samarasini aniqlash orqali baholanmoqda. Bu haqda tadqiqotchi Sh.Norqulovning fikricha, “O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini o‘rganish metodologiyasi sistemali, interdisiplinar va texnologik yondashuvlar sinteziga asoslangan bo‘lishi zarur. Chunki davlat boshqaruvi nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, axborot va madaniy tizimlarning kesishgan nuqtasidir”[7]. Sh.Norqulovning bu fikri boshqaruv tizimini faqat siyosiy hodisa sifatida emas, balki sotsiotexnik va institutsional muvozanatga asoslangan jarayon sifatida talqin qilishga undaydi. Darhaqiqat, O‘zbekiston tajribasida davlat boshqaruvi raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, yangi turdagi siyosiy kommunikatsiya va boshqaruv madaniyatini shakllantirmoqda.

Tadqiqotchi N.Karimov esa boshqaruv jarayonlarini tahlil qilishda aksiologik yondashuvga urg‘u beradi: “Samarador boshqaruvni o‘rganishda metodologik asoslar qatorida ijtimoiy qadriyatlar tizimi, fuqarolik ongining o‘zgarishi va boshqaruv qarorlarining axloqiy legitimligi alohida e’tiborga olinishi kerak”[8]. N.Karimovning pozitsiyasi boshqaruv tizimi faqat texnik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ijtimoiy maqsadlar va qadriy asoslar bilan ham aniqlanishi lozimligini anglatadi. Shu

nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekistonda “inson qadri uchun” konsepsiyasiga asoslangan boshqaruv islohoti yangi metodologik mezonlarga asoslanayotganini ko‘rsatadi.

Germaniyalik siyosiy nazariyotchi H.Vayler metodologik yondashuvda tizimli va tarmoq-analitik modellarni asosiy vosita deb biladi: “Samaradorlikni o‘rganish uchun davlat institutlarini yopiq tizim sifatida emas, balki tashqi muhit bilan doimiy aloqada bo‘lgan ochiq tizim sifatida qarash kerak. Shuning uchun metodologik asos tarmoq ichidagi axborot oqimlari, vakolatlar taqsimoti va subyektlararo o‘zaro ta’sir tahliliga tayanishi lozim”[9]. H.Vaylerning bu g‘oyasi Yangi O‘zbekiston modelidagi gorizontal boshqaruv, mahalliy hokimiyat va markaziy idoralar o‘rtasidagi interaktiv munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, “Ochiq budjet”, “Mahalla yettiligi” kabi institutlar faoliyati orqali amalda tasdiqlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Raqamli boshqaruvning metodologik asoslarini yoritgan I.Hojimatov shunday deydi: “Yangi davr boshqaruvini o‘rganishda metodologik asos sifatida raqamli indikatorlar, sun’iy intellekt algoritmlari va real vaqtli monitoring tizimlaridan foydalanish zarur. Chunki bunday yondashuvlar boshqaruvning prognozlash qobiliyatini oshiradi”[10]. Ushbu qarash metodologik zaminda an’anaviy statistik yondashuvlar o‘rnini algoritmik yondashuvlar egallab borayotganini ko‘rsatadi. Yangi O‘zbekiston tajribasida raqamli iqtisodiyot, davlat xizmatlari monitoringi, masofaviy boshqaruv texnologiyalari metodologik yangilanishlarning real shakliga aylanmoqda.

O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishni o‘rganish metodologiyasi murakkab siyosiy-institutsional, protsessual va texnologik omillarni uyg‘un tahlil qilishga asoslangan bo‘lib, u boshqaruv tizimining strukturaviy jihatlarigina emas, balki boshqaruv sifatini ta’minlaydigan siyosiy madaniyat, kommunikatsiya texnologiyalari va fuqarolik ishtiroki darajalarini ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Bu borada zamonaviy siyosiy nazariya, boshqaruv sotsiologiyasi va texnologik determinizm konsepsiyalari kesishgan nuqtada metodologik asoslar shakllanmoqda. O‘zbekistondagi davlat boshqaruvi islohoti ayni ana shu ko‘p qirrali metodologik asosga tayanib, strategik boshqaruvning yangi sifat bosqichiga chiqmoqda.

Siyosatshunos S.G‘ulomov bu borada quyidagicha ta’kidlaydi: “O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini o‘rganishda tizimli yondashuv markaziy o‘rinda turadi, chunki boshqaruv samaradorligi bir vaqtning o‘zida normativlik, funksionallik va strategik rejalashtirish bilan belgilanadi”[11]. Mazkur yondashuvda boshqaruv samaradorligi mezoni faqat natija emas, balki jarayonlar sifati, tizimning moslashuvchanligi va jamiyat bilan uzluksiz aloqa salohiyatida deb qaraladi. Bunday metodologik asos ayniqsa Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy siyosiy institutsionalizatsiya jarayonlarini holistik tahlil qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Tadqiqotchi Sh.To‘xtayev esa siyosiy jarayonlarning tahliliy usullarini belgilab, quyidagicha fikr bildiradi: “Davlat boshqaruvi samaradorligini o‘rganishda kontekstual yondashuv – ya’ni ijtimoiy-siyosiy muhit, aholi ehtiyojlari va texnologik salohiyatni hisobga oluvchi metodika asosiy mezon bo‘lishi kerak”[12]. Sh.To‘xtayevning yondashuvi empirik-realistik asosda, ya’ni mavjud siyosiy-ijtimoiy muhitning dinamikasini e’tiborga olgan holda tadqiqot olib borishni taklif qiladi. Bu metodologiya amaliy jihatdan foydali bo‘lib, ijtimoiy buyurtma va fuqaroviy ishtirokni boshqaruv sifatining kalit omiliga aylantiradi.

Amerikalik siyosatshunos R.Klayn esa boshqaruv texnologiyalarining metodologik tahliliga urg‘u bergan holda shunday yozadi: “Davlat boshqaruvini zamonaviy o‘rganish metodologiyasi sun’iy intellekt, tarmoqli tahlil va raqamli boshqaruv algoritmlari asosida qarorlarning qanday ishlab chiqilishini tahlil qilishdan iboratdir”[13]. R.Klaynning bu fikri O‘zbekistonda bosqichma-bosqich joriy etilayotgan “raqamli hukumat”, “ijtimoiy so‘rovlar platformasi”, “onlayn monitoring” kabi mexanizmlarning tadqiqot metodologiyasini yangilash zarurligini ko‘rsatadi. Endilikda, qarorlarni faqat siyosiy iroda mahsuli sifatida emas, balki algoritmik hisob-kitoblar, big data va fuqaroviy muhitdan olinadigan signal tizimi sifatida tahlil qilish talab qilinmoqda.

Boshqaruv madaniyati bo‘yicha mutaxassis A.Kenjayev esa boshqaruvni o‘rganishda falsafiy-aksiologik metodologiyaga urg‘u beradi: “Boshqaruvning haqiqiy samaradorligi – bu uning axloqiy legitimligi, ya’ni qarorlar ijtimoiy adolat va inson qadriyatlariga asoslanganligidir. Shu bois, o‘rganish metodologiyasi etik, sotsiologik va siyosiy mezonlarni birlashtirishi kerak”[14]. Kenjayevning pozitsiyasi bugungi O‘zbekistonda shakllanayotgan “inson qadri uchun” tamoyiliga mos keladi. Bunday metodologik yondashuv boshqaruvni faqat raqamlar va indikatorlar asosida emas, balki insoniylik va ijtimoiy mas’uliyat nuqtai nazaridan o‘rganish lozimligini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology). O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishni o‘rganish metodologiyasi siyosiy institutlar faoliyatining transformatsiyasi, ma’muriy jarayonlar va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi orqali izohlanadi. Davlat boshqaruvi sohasida metodologik yondashuvlar endilikda faqat strukturaviy yoki funksional tahlil bilan cheklanmay, balki ijtimoiy-madaniy kontekst, raqamli transformatsiya dinamikasi va normativ-institutsional muvofiqlik kabi omillarni integratsiyalashgan holda qamrab olmoqda. Bu jarayonda “ijtimoiy buyurtmaga asoslangan boshqaruv”, “raqamli davlat texnologiyalari”, “institutsional samaradorlik” tushunchalari asosiy kategoriyalarga aylanmoqda.

Siyosatshunos A. Mahmudov O‘zbekistonda boshqaruv metodologiyasining yangilanishiga doir quyidagi fikrni ilgari suradi: “Bugungi O‘zbekiston sharoitida davlat boshqaruvini tahlil qilishda zamonaviy siyosiy metodologiyalar – funksionalizm, konstruktivizm va tarmoqli yondashuvlar uyg‘unligida kompleks yondashuv asosida qaralmoqda”[15]. A.Mahmudovning bu fikrida metodologik yondashuvlar xilma-xilligini uyg‘unlashtirish zaruriyati ilgari surilgan bo‘lib, ayni vaqtda davlat boshqaruvining holistik tahlili uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Ayniqsa, tarmoqli yondashuv (network governance) orqali boshqaruvni vertikal emas, balki gorizontal munosabatlar doirasida baholash metodologiyaning demokratik va ishtirokchilik tamoyillariga mos kelishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi F.Nazarov esa metodologik yondashuvni raqamli jarayonlar bilan bog‘lab quyidagicha izohlaydi: “Samarador boshqaruvni o‘rganishda raqamli texnologiyalar vositasida ishlab chiqilgan boshqaruv ko‘rsatkichlari (KPI) va indikatorlar tahlili – yangi metodologik paradigmani shakllantiradi”[16]. Bu yondashuvda nazariy konsepsiyalar va amaliy vositalar uyg‘unlashadi, chunki KPI indikatorlari yordamida siyosiy institutlar faoliyatini monitoring qilish va baholash ilmiy tahlilning obyektivligini oshiradi. F.Nazarovning fikri, xususan, boshqaruvning texnologik raqamli asosini metodologik tahlilning ustuvor yo‘nalishiga aylantiradi.

Ayni masalaga sotsiologik nuqtai nazardan yondashgan I. Xudoyberganova quyidagicha ta’kidlaydi: “Samarador davlat boshqaruvining metodologiyasi fuqarolik ishtiroki, axborot

kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va ijtimoiy kuzatuv mezonlarini integratsiyalashgan holda tahlil qilishga asoslanadi”[17]. I. Xudoyberganovaning bu qarashi ijtimoiy nazoratning boshqaruvdagi ahamiyatini o‘rganishda yangi metodologik o‘lchov sifatida AKT vositalarini ko‘rsatadi. Davlat boshqaruvi faoliyati shaffoflik, ochiqlik va javobgarlik mezonlari asosida o‘rganilishi zarurligini ilmiy asoslaydi.

G‘arb siyosatshunosligi kontekstida M. Castellsning tarmoq jamiyatiga doir tahlillari metodologik nuqtai nazardan dolzarbligicha qolmoqda: “Zamonaviy davlat boshqaruvi tarmoq jamiyatining dinamikasini aks ettiradi, bunda institutsional strukturalar emas, balki axborot oqimlari va tarmoqlararo muvofiqlik hal qiluvchi omilga aylanadi”[18]. M.Castellsning bu yondashuvi O‘zbekistonda “Raqamli hukumat” va “Elektron parlament” kabi loyihalarning siyosiy-institutsional asoslarini zamonaviy metodologik o‘lchovlar orqali tushunishga xizmat qiladi. U boshqaruvni strukturaviy emas, balki axborot asosida tashkil etilgan tarmoqlar orqali baholash zaruratini asoslaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini o‘rganish metodologiyasi siyosiy institutlar faoliyati, boshqaruv jarayonlarining tizimliligi va texnologik innovatsiyalar integratsiyasi kontekstida tahlil etilganda, bu jarayonni har tomonlama yorituvchi, kompleks yondashuvlarni talab qiladi. Mazkur metodologik izlanishlar davlat hokimiyatining tashkiliy strukturalarini emas, balki ularning funksional faoliyati, siyosiy legitimlik darajasi, axborot texnologiyalari bilan uyg‘unligi orqali tahlil qilishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvlar “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi asosidagi modernizatsiya siyosatining tub mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Akademik O.Xudoyqulov boshqaruv metodologiyasining ontologik va epistemologik asoslarini tahlil qilib, quyidagicha ta’kidlaydi: “Davlat boshqaruvi nazariyasi metodologiyasini ishlab chiqishda siyosiy tizimning strukturaviy-funksional holatini, institutlarning vakolat doirasini va normativ-meyoriy poydevorini aniqlash muhim ilmiy yo‘nalishdir”[19]. Mazkur fikrda metodologiya faqat empiric tahlil emas, balki siyosiy-huquqiy konstruksiyalar va institutsional transformatsiyalarni o‘z ichiga olgan chuqur nazariy asosga ega bo‘lishi kerakligi asoslanmoqda. Xudoyqulovning yondashuvi metodologik asoslarning siyosiy tizimga integratsiyalashuvini ta’minlovchi strategik tahlil zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, A. Rustamova siyosiy jarayonlarni tadqiq etishda metodologik transformatsiyani quyidagicha izohlaydi: “O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar davlat boshqaruvi tizimini o‘rganishda yangi mezon va indikatorlarni talab qilmoqda, bu esa metodologik apparatning adaptiv va kontekstual xususiyatlariga ehtiyoj tug‘dirmoqda”[20]. A.Rustamovaning bu mulohazasi davlat boshqaruvi o‘zgaruvchan siyosiy muhitda tahlil qilinishi zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, indikatorlar asosidagi tahlil usullarining afzalligi sifatida ularning mezonlarga moslanuvchanligi va ijtimoiy farovonlikka ta’sirini aniqlash imkoniyati qayd etiladi.

O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini o‘rganish metodologiyasi masalasi siyosiy institutlarning funksional imkoniyatlarini baholash, institutsional o‘zgarishlarni tahlil qilish hamda raqamli texnologiyalar vositasida boshqaruv samaradorligini diagnostika qilish kabi murakkab komponentlardan iborat bo‘lib, bu metodologiyani zamonaviy siyosatshunoslik epistemologiyasining

uzviy tarkibiy qismiga aylantiradi. Bu jarayonni chuqur tadqiq etish uchun nafaqat nazariy-analitik, balki amaliy-indikatorli yondashuvlar zarur bo‘ladi.

Akademik Akmal Saidov esa metodologiyani siyosiy jarayonlarning dinamikasi bilan bog‘lab quyidagicha izohlaydi: “O‘zbekiston tajribasida davlat boshqaruvi tizimini o‘rganish metodologiyasi strategik rejalashtirish, meyoriy-huquqiy mexanizmlarni o‘zaro bog‘lovchi kompleks ko‘rsatkichlar tizimiga asoslanadi”[21]. Mazkur yondashuvda muallif boshqaruv samaradorligini “siyosiy strategiyalar–institutsional tizim–huquqiy baza” bog‘liqligi doirasida tahlil qilish kerakligini ta’kidlaydi. Bu o‘z navbatida metodologiyaning siyosiy institutsionallashuv jarayonlaridagi uzviy rolini anglatadi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations). O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishni o‘rganish metodologiyasi zamonaviy siyosiy tahlilning ko‘p komponentli va tizimli yondashuvini talab etadi. Bu kontekstda davlatning institutsional tuzilmasi, siyosiy jarayonlarning dinamikasi hamda texnologik transformatsiyalarni uyg‘un tahlil qilish metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston” siyosiy modelining shakllanishi fonida boshqaruv tizimini tadqiq etish epistemologiyasi chuqurroq ko‘rib chiqilishi lozim.

Ma'rifatparvar olim T. Jalilov metodologik yondashuvning kontseptual doirasini quyidagicha belgilaydi: “Samarador davlat boshqaruvi tizimini o‘rganishda metodologiya faqat nazariy g‘oyalarga emas, balki siyosiy institutlar faoliyatining empirik ko‘rsatkichlariga ham asoslanishi kerak”[22]. Ushbu fikr metodologiyani siyosiy haqiqatni aks ettiruvchi mexanizm sifatida ko‘rishga imkon beradi. Boshqacha aytganda, metodologiya siyosiy tizimda yuz berayotgan institutsional o‘zgarishlarni faqat g‘oyaviy emas, amaliy-ma'lumotli nuqtai nazardan baholashni talab etadi. Xulosa qilganda, O‘zbekistonda samarador davlat boshqaruvini o‘rganish metodologiyasi siyosiy institutlar va jarayonlar tahlilining empirik, indikatorli, texnologik asoslangan va institutsional kontekstga yo‘naltirilgan shaklini o‘z ichiga olishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, metodologiyaning faqat vosita emas, balki strategik tahlil va bashorat qilish uchun nazariy asos bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon banki. (2022). World Governance Indicators (WGI) metodologiyasi va mamlakatlar kesimida natijalar. Washington, D.C.: World Bank. — 14-15 betlar.

2. Kaufmann, D., Kraay, A., & Mastruzzi, M. (2010). The Worldwide Governance Indicators: Methodology and Analytical Issues. World Bank Policy Research Working Paper No. 5430. Washington, D.C.: World Bank. — 3 b.

3.Jahon banki. (2022). World Governance Indicators (WGI) metodologiyasi va mamlakatlar kesimida natijalar. Washington, D.C.: World Bank. — 20-21 betlar.

4.Adliya vazirligi. (2022). O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish bo‘yicha hisobot. Toshkent: Adliya vazirligi. — 7 b.

5.Jahon banki. (2022). World Governance Indicators (WGI) metodologiyasi va mamlakatlar kesimida natijalar. Washington, D.C.: World Bank. — 26-27 betlar.

6. Kaufmann, D., Kraay, A., & Mastruzzi, M. (2010). The Worldwide Governance Indicators: Methodology and Analytical Issues. World Bank Policy Research Working Paper No. 5430. Washington, D.C.: World Bank. — 9-10 betlar.

7. Norqulov Sh. Davlat boshqaruvi: nazariy asoslar va tahlil metodlari. – Toshkent: Ma’rifat, 2021. – 160 b. – B. 102.

8.Karimov N. O‘zbekiston siyosiy tizimidagi qadriyatlar transformatsiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 148 b. – B. 86.

9. Weiler H. Systemic Governance and Network Analysis. – Berlin: Springer, 2019. – 192 p. – P. 118.

10. Hojimatov I. Raqamli davlat: nazariya va metodologiya. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – 172 b. – B. 129.

11.G‘ulomov S. Siyosiy tizimlar va davlat boshqaruvi metodologiyasi. – Toshkent: Iqtisodchi, 2021. – 160 b. – B. 113.

12. To‘xtayev Sh. Samaradorlik va siyosiy menejment metodologiyasi. – Toshkent: Adolat, 2022. – 148 b. – B. 97.

13. Klein R. Digital Governance Analytics. – New York: Routledge, 2020. – 210 p. – P. 142.

14.Kenjayev A. Davlat boshqaruvi: falsafa va qadriyatlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2023. – 176 b. – B. 128.

15. Mahmudov A. Davlat boshqaruvi nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 164 b. – B. 84.

16.Nazarov F. Raqamli siyosat va davlat boshqaruvi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 192 b. – B. 129.

17.Xudoyberganova I. Samaradorlik sotsiologiyasi va boshqaruv tahlili. – Toshkent: Adolat, 2022. – 144 b. – B. 107.

18. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2000. – 555 p. – P. 149.

19.Xudoyqulov O.S. Siyosiy tizimlar va davlat boshqaruvi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021. – 208 b. – B. 76.

20. Rustamova A. Siyosiy tadqiqotlar metodologiyasi. – Toshkent: Yangi asr, 2020. – 176 b. – B. 91.

21. Saidov A.X. O‘zbekiston siyosiy tizimining rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Adolat, 2021. – 190 b. – B. 153.

22. Jalilov T. O‘zbekiston siyosiy modernizatsiyasining ilmiy asoslari. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2020. – 140 b. – B. 84.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Safayev Mansur Maxmudovich
O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi kichik ilmiy xodimi
(Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: safayev.m@history-museum.uz
ORCID: 0009-0003-5839-8226

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

O‘ZBEKISTON MUZEYLARIDA GILAM KOLLEKSIYALARINI SAQLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan gilam kolleksiyalarining saqlanish holati, ularni himoyalashda qo‘llanilayotgan an’anaviy va zamonaviy metodlar tahlil qilinadi. Tabiiy tolalardan tayyorlangan gilamlarning harorat, namlik, yorug‘lik va zararkunandalarga nisbatan sezuvchanligi ularni saqlashda murakkab texnik choralarni talab etishi ko‘rsatiladi. Tadqiqotda 1984 va 2011-yillarga oid yo‘riqnomalar, xorijiy metodikalar hamda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining tajribasi asosida ilmiy xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Gilam kolleksiyasi, muzeyshunoslik, saqlash sharoiti, konservatsiya, biologik zararkunandalar, xalqaro standartlar.

СОХРАНЕНИЕ КОЛЛЕКЦИЙ КОВРОВ В МУЗЕЯХ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

Аннотация: В статье анализируется состояние сохранности коллекций ковров, хранящихся в музеях Узбекистана, а также традиционные и современные методы, применяемые для их защиты. Отмечается, что чувствительность ковров из натуральных волокон к температуре, влажности, свету и вредителям требует принятия сложных технических мер при их хранении. В исследовании представлены научные выводы, основанные на инструкциях 1984 и 2011 годов, зарубежных методиках и опыте Государственного музея истории Узбекистана.

Ключевые слова: Коллекция ковров, музееведение, условия хранения, консервация, биологические вредители, международные стандарты.

Abstract: This article analyzes the preservation status of carpet collections stored in Uzbekistan's museums and examines the traditional and modern methods employed for their protection. It highlights that carpets made from natural fibers are sensitive to temperature, humidity, light, and pests, necessitating complex technical measures for their storage. The study draws scientific conclusions based on guidelines from 1984 and 2011, foreign methodologies, and the experience of the State Museum of History of Uzbekistan.

Keywords: Carpet collection, museology, storage conditions, conservation, biological pests, international standards.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish. Gilam buyumlari – bu to‘qilgan yoki to‘qilmagan usullarda yaratilgan, badiiy-bezak xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab to‘qimachilik mahsulotlari bo‘lib, tarixan turar joylarni bezash, issiqlik izolyatsiyasini ta’minlash, pol, devor, shuningdek, transport vositalari va chorva hayvonlarini (masalan, otlarni) qoplash kabi amaliy-maishiy vazifalarni bajargan. Shu bilan birga, ular yaratilgan davrning estetik qarashlari, texnologik darajasi va madaniy qadriyatlarini mujassam etgan holda moddiy madaniyatning o‘ziga xos yodgorliklari sifatida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston muzeylari fondlarida saqlanayotgan gilam kolleksiyalari nafaqat san’atshunoslik, etnografiya va tarix fanlari uchun bebaho ilmiy manba, balki xalqning nomoddiy madaniy merosini ifodalovchi muhim tarixiy hujjatlardir. Biroq gilamlarning tabiiy tolalardan tayyorlanganligi ularni harorat va namlik tebranishi, yorug‘lik, biologik zararkunandalar, chang va mexanik ta’sirlar kabi omillarga yuqori darajada sezgir qiladi. Bu omillar ta’sirida gilamlarning tuzilishi, ranglari va bezak elementlari qaytarilmas darajada yemirilishi mumkin.

Shu sababli, gilam kolleksiyalarini saqlash masalasi zamonaviy muzeyshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotning ahamiyati shundaki, mavjud kolleksiyalarni saqlash bo‘yicha mahalliy tajriba hali to‘liq tizimlashtirilmagan, ko‘plab muzeylarda ilmiy konservatsiya standartlari to‘liq joriy etilmagan va saqlash sharoitlari xalqaro talablar bilan to‘liq mos kelmaydi. Bu esa nafaqat moddiy madaniyat yodgorliklarining uzoq muddat saqlanishiga xavf tug‘diradi, balki ularning ilmiy o‘rganilishi va keng jamoatchilikka namoyish etilish imkoniyatlarini ham cheklaydi.

Ushbu holat O‘zbekiston muzeylarida gilam kolleksiyalarini saqlash jarayonini chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va xalqaro tajribaga asoslangan holda samarali yechimlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Natijada, bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar milliy merosni kelajak avlodlarga asl holida yetkazish, uni ilmiy muomalaga keng jalb etish va xalqaro madaniy merosni asrash standartlari doirasida targ‘ib etish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 1984-yilda sobiq SSSR miqyosida tasdiqlangan ashyolarni saqlash va namoyish qilish bo‘yicha umumiy yo‘riqnoma[1] hamda 2011-yilda “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tomonidan nashr etilgan nizom va yo‘riqnomalar to‘plamida[2] gilamlarni saqlash va namoyish etishga oid bandlar mazmun-mohiyat jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lib, asosiy talab va texnik tavsiyalarda izchillik kuzatiladi. Har ikki hujjatda ham eksponatlarni hisobga olish, inventarizatsiya, saqlash sharoitlarini iqlimiy va texnik me’yorlarga muvofiq tashkil etish, shuningdek, restavratsiya jarayonlarini tartibga solish talablari belgilangan. Mustaqillik davridagi nizomda esa ushbu prinsiplar zamonaviy yondashuvlar, xodimlar malakasini oshirish va ilg‘or tajribani tatbiq etish talablari bilan boyitilgan.

Gilam buyumlarini restavratsiya qilish va muzey sharoitida saqlash bo‘yicha xorijiy metodik adabiyotlar ichida 2021-yilda nashr etilgan ilmiy-uslubiy qo‘llanma muhim o‘rin egallaydi[3]. Unda

[1] Инструкция по учету и хранению музейных ценностей, находящихся в государственных музеях СССР. – Москва, 1984. – 153 с.
[2] Музей – халқ тарихининг кўзгуси. – Тошкент, 2011. – 392 б.
[3] Базовые рекомендации реставраторам и хранителям ковровых изделий : научно-методическое пособие / М. Б. Дмитриева, В. Б. Дорохов, Н. В. Ермакова, Е. Л. Малачевская, Ю. В. Хребтова ; Гос. науч.-исслед. ин-т реставрации. – Череповец : Порт-Апрель, 2021. – 40 с.

gilam materiallarining saqlash va ekspozitsiya jarayonida buzilishiga olib keluvchi asosiy omillar tizimli yoritilgan. Yorug‘lik, namlik, haroratning keskin o‘zgarishi, mexanik ta’sir va biologik zarar yetkazuvchilar kabi omillarning gilam tolalari va bo‘yoqlariga ta’siri ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi.

Qo‘llanma restavratsiya ishlarini tashkil etish va bajarish bo‘yicha metodik tavsiyalarni hamda ekspozitsiya va fond saqlash sharoitlarini optimallashtirishga oid ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, biologik shikastlanishlarning oldini olish, zararkunandalarga qarshi himoya choralarini qo‘llash, tozalash vositalarini tanlash mezonlari ham yoritilgan. Kimyoviy va mexanik tozalash usullarining xavfsizlik darajasi, materiallarga ta’siri ham ilmiy tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar yig‘ilib, tizimli tahlil qilindi. O‘zbekistondagi yirik muzeylar fond saqlash bo‘limlarida joyida kuzatuv o‘tkazilib, ilmiy xodimlar bilan suhbatlar tashkil etildi. Yig‘ilgan ma’lumotlar xalqaro metodik tavsiyalar bilan qiyoslanib, mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Gilamdo‘zlik san’atining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti izchil bosqichlarda rivojlanib kelgan bo‘lib, bu jarayonni chuqur tadqiq etish arxeologik topilmalar va yozma manbalar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotchi V.G. Moshkova o‘z asarida O‘rta Osiyo gilamlarini “xalq amaliy san’atining betakror namunasi, boy moddiy madaniyatni o‘rganish uchun bebaho manba” sifatida baholab, ularning ko‘p asrlik tajriba va avlodlar mehnati mahsuli ekanini ta’kidlaydi[4]. Uning fikricha, ayniqsa chorvador jamoalarda gilamdo‘zlik deyarli yagona badiiy hunarmandchilik turi bo‘lib, jamoaning estetik ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Shu bois, O‘rta Osiyo xalqlari madaniy merosini chuqur o‘rganishda gilamdo‘zlik an’analarining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining etnografiya fondi shakllanishida XX asrning 30-40-yillarida O‘rta Osiyo hududida amalga oshirilgan keng qamrovli ilmiy-ekspeditsiya ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ekspeditsiyalar davomida mintaqaning turli hududlarida yaratilgan, mahalliy madaniyat va an’anaviy hunarmandchilik xususiyatlarini aks ettiruvchi gilamlar to‘plandi[5]. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng fond siyosatida hududiy yo‘naltirilish kuchayib, asosan “O‘zbekiston” gilamdo‘zlik maktablariga oid namunalarning yig‘ilishi ustuvor bo‘ldi. Natijada to‘plam respublika hududida yaratilgan gilamlar bilan boyidi, bu esa mahalliy gilamchilik an’analari va ularning badiiy xususiyatlarini tizimli hujjatlashtirish imkonini berdi.

Gilam buyumlarini muzey sharoitida saqlash va namoyish etish ularning estetik va tarixiy qimmatini ochib berish bilan birga, nomoddiy madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Biroq bunday ashyolarni uzoq muddat saqlash murakkab texnik va tashkiliy choralarni talab qiladi. Organik tolalardan tayyorlangan gilamlar harorat va namlikning keskin o‘zgarishlariga, yorug‘lik ta’siriga hamda biologik zararkunandalarga yuqori darajada sezgir bo‘ladi.

Davriy matbuot materiallari mazkur masalaning XX asr boshlaridayoq muzey amaliyotida muhim ahamiyat kasb etganini tasdiqlaydi. Xususan, 1926-yilda e’lon qilingan xabarda O‘rta Osiyo

[4] Мошкова В. Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX века. Ташкент, 1970. – С. 7.
[5] Содикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент : Фан, 1981. – Б.163-165.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Bosh muzeyi (hozirgi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi) yozgi yuqori harorat sharoitida fond ashyolarini saqlash xavfsizligini ta’minlash maqsadida 5-iyundan 15-sentabrgacha tashrif buyuruvchilar uchun yopilgani qayd etilgan[6]. Ushbu tarixiy holat muzeylarda iqlimiy omillarni nazorat qilish va konservatsiya choralarini qo‘llash zarurati o‘tgan asrning birinchi choragidayoq dolzarb bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan O‘zbekistonda muzey faoliyati sezilarli darajada qisqardi va tuzilmaviy o‘zgarishlarga uchradi. 1940-yillar boshida respublika muzeylar tarmog‘i vaqtincha kamaytirildi, mavjud muzey binolarining bir qismi harbiy hamda fuqarolik muassasalari ehtiyojlari uchun ajratildi. Shu jarayonda O‘zbekiston Tarix muzeyi San’at muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, Politeknika muzeyi va Tabiat muzeyi bilan birlashtirilib, yagona O‘zbekiston tarixi, madaniyati va san’ati muzeyi tarkibida faoliyat yuritdi[7]. Bunday birlashma natijasida alohida fond saqlash bo‘limlarining mustaqilligi yo‘qoldi, saqlash maydonlari umumlashtirildi, bu esa turli toifadagi eksponatlar uchun zarur bo‘lgan maxsus saqlash sharoitlarini ta’minlash imkoniyatini sezilarli darajada chekladi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibiga kiritilishi muzey faoliyatida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va fondlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga turtki bo‘ldi. Shu davrda muzey qimmatliklarini saqlash va hisobga olish bo‘yicha maxsus ishchi yo‘riqnoma ishlab chiqildi. Unda gilam buyumlarini saqlash tartibi batafsil belgilangan: kichik o‘lchamli gilamlar (1,20 × 0,75 m) – maxsus g‘iloflarda, o‘ralgan holda; o‘rta va katta hajmdagilari, shuningdek, palos va namatlar – 2,50 × 2,00 × 0,60 m o‘lchamdagi rulonlarda yoki osilgan holda saqlangan. Harorat – 16-18 °C oralig‘ida, nisbiy namlik – 50-60 % oralig‘ida bo‘lish ko‘rsatilgan[8].

Muzeyning uzoq yillik xodimlari eslashicha, sobiq bino davrida gilamlarni zararkunandalardan himoya qilishda naftalin keng ishlatilgan. Saqlash jarayonida ular zich, jigar rangdagi texnik qog‘oz bilan o‘ralgan, yozning eng issiq kunlarida esa gilamlar kamida ikki soat davomida muzey hovlisida ochiq holda qoldirilgan. Bu usul tolalarda yig‘ilgan namlikni chiqarish va havoni yangilash maqsadida qo‘llanilgan. Keyin ular yangi qog‘ozga qayta o‘ralib, kanop ip bilan bog‘langan.

Har bir gilam qora satindan tikilgan, ichki qismi qo‘shimcha himoya qatlami bilan mustahkamlangan individual saqlash qoplamasiga joylashtirilgan, uning ustiga gilamning inventar raqami yozilgan. Rulon holidagi gilamlar yog‘och shkaflarda saqlangan, bitta shkafga o‘n donagacha rulon joylashtirilgan. Shkafning pastki qismida og‘zi ochiq idishlarda naftalin qo‘yilgan. Kichik gilamlar va gilam mahsulotlari yassi holda sandiqlarga joylashtirilib, oralariga maxsus qog‘oz qatlamlari qo‘yilgan. Shkaf va sandiqlar yonmaydigan bo‘yoq bilan qoplangan bo‘lib, bu yong‘in xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilgan[9].

[6] Ўрта Осиё Осори атиқа ва санойи нафиса бош музасининг ички кўринишлари // Қизил Ўзбекистон (араб алифбоси асосидаги эски ўзбек ёзувида). – 1926. – № 227.
[7] Левтеева Л. Г. Работа ГМИУ в годы Второй мировой войны – важная сфера культурной жизни страны // Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida : Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami, 18 mart 2025 y. – Toshkent, 2025. – B. 24.
[8] O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi. 59-jamg‘arma 153-yig‘majild 14-15-varaqlar
[9] O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi Muxtarova R. bilan suhbat. 26.06.2025 y.

Hozirda ham O‘zbekiston muzeylarida gilam va gobelenlarni saqlash jarayoni maxsus texnik me’yorlar asosida amalga oshiriladi. Bunda ashyolar valga oldingi (yuz) tomoni ichkariga qaratilgan holda o‘raladi. G‘altak diametri kamida 10 sm bo‘lishi lozim, g‘altak uchlariga o‘rnatiladigan g‘irdiraklar esa o‘ralgan gilam diametridan kamida 5 sm kattaroq bo‘lishi talab etiladi. Agar g‘altak kronshteynlarda osilgan holda saqlansa, uning uzunligi gilam enidan kamida 20 sm ortiq bo‘lishi zarur.

O‘rash jarayonida gilamning g‘ijimlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun u g‘altakka bir tekis va silliq holatda o‘raladi. O‘ralgan gilam usti pishiq qog‘oz yoki ip-gazlamali mato bilan to‘liq qoplanadi. Zararkunandalardan himoya qilishda o‘rashdan oldin gilamga 1:2 nisbatdagi yermoyi va skipidar aralashmasi shimdirilib, quritilgan qog‘oz bilan qoplanishi tavsiya etiladi. Yakuniy qoplama sifatida ham xuddi shu turdagi qog‘oz yoki ip-gazlamali g‘ilof qo‘llanadi.

Gilam kolleksiyalariga eng katta xavf kuyalar tomonidan yuzaga keladi. Kuya qurtlari odatda g‘ilof va astarlarning tub qismida yashaydi. Kuya kapalaklari qisqa umr ko‘rsa-da, ularning yo‘qolishi kolleksiya xavfsizligini anglatmaydi. Mebel kuyalari yil davomida uch marta (yanvar–fevral, may va avgust–sentyabr oylarida) nasl qoldiradi. Kuya qurtlari tuxumdan chiqqach, sandiq va javonlarning tirqishlariga kirib, zarar ko‘lamini kengaytiradi.

Zararlangan buyumlarni aniqlashda, avvalo, ularning ifloslangan, yorug‘lik tushmaydigan qismi – eng qaytarmalari, yoqalari, burma qilib tikilgan joylari –diqqat bilan tekshiriladi. Kuyaga qarshi kurashning amaliy usullaridan biri sifatida jun, mo‘yna va boshqa tabiiy tolalardan tayyorlangan buyumlar, shuningdek, ular bilan yonma-yon joylashgan gazlamadan tikilgan kiyim-kechaklar bahor oxirida yoki yoz boshida tashqariga olib chiqiladi va to‘rt soatdan kam bo‘lmagan muddat davomida ochiq havoda ilib quritiladi[10].

Mazkur usullar gilamlarni uzoq muddatli saqlash, ularning badiiy-estetik qiyofasini saqlab qolish va kolleksiya xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ular xalqaro muzey amaliyotidagi konservatsiya tamoyillari bilan hamohang bo‘lib, mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda qo‘llanadi.Bunday an’anaviy usulda saqlash va himoyalash ishlari hozirga qadar nafaqat O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida, balki respublikaning boshqa muzeylarida ham davom etmoqda. Ushbu metodlar o‘z vaqtida o‘zini to‘liq oqlagan bo‘lib, yillar davomida fond buyumlarini zararlanishdan asrashda samarali natija bergan.

Shu bilan birga, hozirgi davr muzeyshunoslik amaliyotida saqlash va konservatsiya jarayonlarini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Xususan, mikroiqlim ko‘rsatkichlarini avtomatlashtirilgan tizimlar orqali doimiy monitoring qilish, biologik xavfsiz va pH neytral konservatsiya materiallaridan foydalanish, shuningdek, buyumlarga zarar yetkazmaydigan profilaktik dezinfeksiya va zararkunandalarga qarshi nazorat usullarini qo‘llash amaliyoti keng yoyilgan. Mazkur innovatsion yondashuvlar an’anaviy saqlash tajribalari bilan uyg‘unlashtirilgan holda fond buyumlarining fizik-kimyoviy barqarorligini oshiradi, ularning uzoq muddatga saqlanishini hamda muzey to‘plamlarining madaniy-ilmiy ahamiyatini kelajak avlodga yetkazilishini ta’minlaydi.

[10] Музей – халқ тарихининг кўзгуси. – Тошкент, 2011. – Б. 203-204.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Zamonaviy muzey amaliyotida gilamlarni saqlash jarayoni atrof-muhit omillarini qat'iy nazorat qilish, xavfsiz ishlov berish, muntazam texnik ko‘rik va profilaktik choralarga asoslanadi. To‘qimachilik buyumlari yorug‘lik, harorat, namlik, chang va zararkunandalarga nisbatan yuqori sezgirligi bilan ajralib turadi[11]. Shu sababli fond saqlovchisi saqlash va namoyish jarayonida, shuningdek, markirovkalash va ko‘chirish ishlarida muzey konservatorlarining tavsiyalari hamda xalqaro standartlarga tayanadi.

Eng katta xavf omillaridan biri – yorug‘lik bo‘lib, u tolalar mo‘rtlashishiga va bo‘yoqlar xiralashishiga olib keladi. Shu sababli UV-filtrlar, fasliy rotatsiya va namoyish davrini cheklash kabi choralardan foydalaniladi. Harorat 18–21 °C, nisbiy namlik 40–50 % darajada barqaror saqlanishi, keskin o‘zgarishlarga yo‘l qo‘yilmasligi talab etiladi. Bu sharoit markaziy iqlim tizimlari, namlagich va quritgichlar orqali ta'minlanadi.

Gilamlarni ishlov berishda qo‘llar yuvilishi yoki qo‘lqop kiyilishi, zargarlik buyumlari yechib qo‘yilishi, ko‘chirishda rulon yoki buklama holatida to‘liq tayanch bilan ko‘tarilishi muhimdir. Chang tozalashda HEPA filtri o‘rnatilgan past kuchli changyutkich ishlatiladi, nozik matolar esa to‘rli ekran orqali yumshoq tampirlash usulida tozalanadi.

Zararkunandalarga qarshi kurash muzey fondlarida saqlanayotgan nodir gilam buyumlarining uzoq muddatli saqlanishini ta'minlashda muhim bosqichlardan biridir. Bunda, eng avvalo, profilaktik choralar — saqlash joyining muntazam tozaligi va shamollatilishini ta'minlash, har qanday hasharot izlarini erta aniqlash hamda ushbu jarayonda konservatorlarning malakali maslahatlariga amal qilish –ustuvor ahamiyatga ega. Zarur hollarda invaziv bo‘lmagan metodlardan foydalanish tavsiya etiladi, jumladan, past haroratli muzlatish usuli entomologik xavfni bartaraf etishda eng samarali va xavfsiz texnologiyalardan biri sifatida qo‘llaniladi. Bu jarayonda buyum ehtiyotkorlik bilan o‘ralib, polietilen qoplama yordamida havo chiqishi nazorat qilinadi, so‘ngra chuqur muzlatgichda -20°C dan -25°C gacha bo‘lgan haroratda kamida bir hafta davomida saqlanadi. Muzlatish davrida haroratning o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim bo‘lib, bu hasharotlar hayotiy siklini to‘liq to‘xtatadi. Buyum to‘liq erigach, paket ichki yuzasida kondensat faqat tashqi qatlamda hosil bo‘lishi ta'minlanadi, bu esa tolalarning namlikdan zararlanishining oldini oladi. Yakuniy bosqichda gilam yuzasidan hasharot chiqindilari va boshqa zarrachalar ehtiyotkorlik bilan vakuum usulida tozalanadi. Ushbu tizimlashtirilgan va ilmiy asoslangan yondashuv gilamlarning fizik-kimyoviy barqarorligini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning uzoq muddatli saqlanish kafolatini yaratadi[12].

Xulosa. O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan gilam kolleksiyalari moddiy madaniyat yodgorliklari sifatida nafaqat xalqning estetik didini, balki tarixiy-madaniy merosini ham ifodalaydi. Ularning tabiiy tolalardan tayyorlanganligi, murakkab to‘qimachilik strukturasi va badiiy-bezak xususiyatlari ularni saqlashda yuqori darajadagi ehtiyotkorlikni talab qiladi. O‘zbekiston muzeylari saqlash usullari o‘zini oqlagan bo‘lsa-da, hozirgi kunda saqlash va konservatsiya jarayonlarini xalqaro standartlarga muvofiq yangilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda aniqlanishicha, mavjud tizimda ilmiy konservatsiya yondashuvlari to‘liq joriy etilmagan, texnik nazorat vositalari, ayniqsa mikroiqlim monitoringi va zararli omillarni bartaraf etish usullarida zamonaviy

[11] https://museum.gwu.edu/caring-textiles Ko‘rildi 30.06.2025
[12] https://museum.gwu.edu/caring-textiles Ko‘rildi 30.06.2025

innovatsiyalar yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Shu bilan birga, fonddagi gilamlar haqida tarixiy va texnik jihatdan tizimli hujjatlashtirish ishlari, ularning xavfsiz ekspozitsiyasi va tiklanish jarayonlari bo‘yicha yo‘riqnomalarning ishlab chiqilishi ham yetarli emas.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi. 59-jamg‘arma 153-yig‘majild.;
2. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi Muxtarova R. bilan suhbat. 26.06.2025 y.;
3. Базовые рекомендации реставраторам и хранителям ковровых изделий : научно-методическое пособие / М. Б. Дмитриева, В. Б. Дорохов, Н. В. Ермакова, Е. Л. Малачевская, Ю. В. Хребтова ; Гос. науч.-исслед. ин-т реставрации. – Череповец : Порт-Апрель, 2021. – 40 с.;
4. Инструкция по учету и хранению музейных ценностей, находящихся в государственных музеях СССР. – Москва, 1984. – 153 с.;
5. Левтеева Л. Г. Работа ГМИУ в годы Второй мировой войны – важная сфера культурной жизни страны // Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida : Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami, 18 mart 2025 y. – Toshkent, 2025. – C. 24.
6. Мошкова В. Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX века. Ташкент, 1970. – 276 с.;
7. Музей – халқ тарихининг кўзгуси. – Тошкент, 2011. – 392 б.
8. Содикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент : Фан, 1981. –272 б.
9. Ўрта Осиё Осори атиқа ва санойи нафиса бош музасининг ички кўринишлари // Қизил Ўзбекистон (араб алифбоси асосидаги эски ўзбек ёзувида). – 1926. – № 227.
10. https://museum.gwu.edu/caring-textiles Ko‘rildi 30.06.2025

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ermatova Mushtariy Abdulla qizi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti doktoranti
mushtariyermatova3@gmail.com
ORCID: 0009-0002-6195-5858

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

XIX–XX ASR BOSHLARIDA AMUDARYO BO‘LIMINING O‘RGANILISHI: TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

Annotatsiya. Maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Amudaryo bo‘limining siyosiy-ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda bo‘limning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilishi va xonlik davridan imperiya nizomlariga bosqichma-bosqich moslashtirilishi jarayoni yoritiladi. Tadqiqotda irrigatsiya tizimi, xo‘jalik infratuzilmasi, yer egaligi va soliqlar tizimi haqidagi tarixiy ma’lumotlar tahlil qilinadi. Sud tizimining rus sudlari va mahalliy urf-odat huquqi asosida ikkiyoqlama ishlashi, o‘troq aholida shariat, ko‘chmanchilarda esa odat qo‘llanilishi ko‘rsatiladi. Aholining etnik tarkibi, ijtimoiy tuzilishi va xo‘jalik faoliyati haqidagi statistik ma’lumotlar keltiriladi. Ayollarning huquqiy maqomi va xalq sudlaridagi ishtiroki hujjatlar asosida ochib beriladi. Maqolada imperiya siyosatining mahalliy boshqaruv, huquqiy institutlar va ijtimoiy tizimga ta’siri tahlil qilinadi. Manbalar mintaqaning tarixiy manzarasini tiklash uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Amudaryo bo‘limi, sud tizimi, ayollar huquqi, odat, tarixshunoslik.

ИЗУЧЕНИЕ АМУДАРЬИНСКОГО ОТДЕЛЕНИЯ В XIX НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ: ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. Статья посвящена изучению политико-административной, экономической и социальной жизни Амударьинского отдела в конце XIX - начале XX веков. В нем освещается процесс включения этого отдела в состав Российской империи и его постепенной адаптации к имперским уставам со времен ханства. В исследовании анализируются исторические данные об ирригационной системе, хозяйственной инфраструктуре, землевладении и системе налогообложения. Было показано, что судебная система функционировала двояко на основе русских судов и местного обычного права, в то время как у оседлого населения применялся шариат, а у кочевников – обычай (адат). Приводятся статистические данные об этническом составе, социальной структуре и хозяйственной деятельности населения. Правовой статус женщин и их участие в народных судах раскрываются на основе документов. В статье анализируется влияние имперской политики на местное управление, правовые институты и социальную систему. Отмечается, что источники имеют важное научное значение для восстановления исторического ландшафта региона.

Ключевые слова: Амударьинский отдел, судебная система, права женщин, адат, историография.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

STUDY OF THE AMUDARYA BRANCH IN THE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES: A HISTORIOGRAPHICAL ANALYSIS

Abstract. This article examines the political-administrative, economic, and social life of the Amu Darya Department in the late 19th and early 20th centuries. It elucidates the process of the department's incorporation into the Russian Empire and its gradual transition from khanate-era systems to imperial regulations. The study analyzes historical data on irrigation systems, economic infrastructure, land ownership, and taxation. It highlights the dual nature of the judicial system, which operated on both Russian courts and local customary law, noting that Sharia law was applied to the settled population while customary law (adat) was used for nomads. Statistical data on the ethnic composition, social structure, and economic activities of the population are presented. The legal status of women and their participation in people's courts are revealed through documentary evidence. The article analyzes the impact of imperial policies on local governance, legal institutions, and social systems. It emphasizes that these sources hold significant scientific value for reconstructing the historical landscape of the region.

Keywords: Amu Darya region, judicial system, women's rights, adat, historiography.

Kirish. Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga qilgan harbiy yurishi natijasida Amudaryoning o‘ng sohilida Amudaryo bo‘limi tashkil etildi. Bo‘limning tashkil etilishi strategik zarurat bilan bog‘liq bo‘lib, u Rossiya imperiyasining janubiy chegaralarini mustahkamlash va Xiva xonligi hududida harbiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash maqsadlariga xizmat qilgan. Mazkur bo‘lim nafaqat Turkiston general-gubernatorligi tarkibida, balki Rossiya imperiyasi miqyosida ham alohida geosiyosiy ahamiyat kasb etgan.

Amudaryo bo‘limi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi strategik va iqtisodiy jihatdan muhim hududlardan biri bo‘lib, uning o‘rganilishi imperiya siyosati uchun alohida ahamiyat kasb etib, bu bir necha omillar bilan izohlanadi. Avvalo, mahalliy boshqaruv tizimini imperiya nizomlariga moslashtirish uchun ma’muriy, xo‘jalik va ijtimoiy tuzilma haqidagi aniq statistik va etnografik ma’lumotlar zarur edi. Yer egaligi, soliq bazasi, irrigatsiya inshootlari va tabiiy resurslarning hisobini yuritish davlat moliyaviy siyosatini belgilashning asosiy sharti bo‘ldi. Shuningdek, harbiy-strategik rejalashtirish uchun hudud aholisi soni, etnik tarkibi, infratuzilma imkoniyatlari va xavfsizlikka ta’sir etuvchi omillar puxta o‘rganildi. Bu jarayonda mahalliy aholining urf-odatlari, diniy e’tiqodi va xo‘jalik faoliyatini bilish siyosiy integratsiya va ijtimoiy nazoratni ta’minlash vositasi sifatida qaraldi. Amudaryo bo‘limi ko‘p millatli va turmush tarzi xilma-xil hudud bo‘lib, u etnografiya, antropologiya va tarix bo‘yicha tadqiqotlar uchun juda qulay hudud hisoblangan.

Adiyotlar tahlili. Amudaryo bo‘limi tarixini o‘rganishda turli tadqiqotchilar va bo‘limda faoliyat yuritgan harbiylar olib borgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Lobachevskiy[1], Girshfeld va Galkin[2], O. Shikopskiy[3], Statkeyevich[4], Kraft[5], Ivanin[6], A. Kun hamda

[1] Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Под ред. Окружного Генерал-Квартирмейстера генерал-майора Федяни. – Ташкент: Эл.-пар. типолит. штаба Туркест. воен. округа, 1912. – 118 с.

Mayevlar[7] tomonidan amalga oshirilgan kuzatishlar, statistik ma’lumotlar yig‘ilishi va etnografik tavsiflar ushbu mintaqaning siyosiy-ma’muriy tuzilmasi, ijtimoiy hayoti va madaniy muhitini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sud tizimining faoliyati va ayollarning huquqiy maqomi, bo‘lim tarkibidagi hududlarning geografik joylashuvi, tabiiy sharoitlari va harbiy-strategik ahamiyati ham ushbu tadqiqot doirasida e’tibordan chetda qolmagan. Ayniqsa, ayollarning taqdiri va ularning xalq sudlaridagi ishtiroki orqali bu mintaqadagi mahalliy jamiyat tuzilmasi va urf-odatlarning huquqiy amaliyotga ta’siri ham ochib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi tarixiy manbalarni kompleks tahlil qilish, qiyosiy-tarixiy yondashuv hamda tarixshunoslik tahlili tamoyillariga asoslanadi. Bo‘lim tarixini o‘rganishda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida faoliyat yuritgan Rossiya imperiyasining harbiy va tadqiqotchilari (Girshfeld, Lobachevskiy, Galkin, Shikopskiy, Statkeyevich, Kraft, Ivanin, A. Kun, Mayev) tomonidan yaratilgan rasmiy-hisobot, statistik, etnografik va harbiy-geografik asarlar birlamchi manba sifatida jalb etildi. Bu manbalar mazmunan tahlil qilinib, undagi ma’muriy boshqaruv, sud-huquq tizimi, irrigatsiya va xo‘jalik infratuzilmasi, etnik tarkib hamda ayollarning huquqiy maqomi kabi masalalar tarixiy voqealar kontekstida qayta baholandi. Shuningdek, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni zamonaviy tarixiy izoh bilan boyitish orqali Amudaryo bo‘limining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Girshfeldning kuzatishlariga asoslangan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Amudaryo bo‘limining ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim tarixiy asos bo‘lib xizmat qiladi[8]. Asarda 1873-yildan keyin bo‘limning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilishi, dastlabki davrda xonlik boshqaruv an’analari saqlangan holda, bosqichma-bosqich Turkiston general-gubernatorligi nizomlariga moslashtirilishi yoritilgan.shuningdek, sud tizimining rus sudlari va mahalliy odat huquqi asosidagi xalq sudlari orqali ikkiyoqlama ishlashi, o‘troq aholida shariat, ko‘chmanchilarda esa odat qo‘llanilishi qayd etilgan. Yer egaligi, soliq turlari hamda tabiiy majburiyatlar, irrigatsiya inshootlarini saqlash va yo‘l ishlariga jalb etish kabi masalalar tafsilotli ko‘rsatilgan. Girshfeld bu jarayonlarni imperiya siyosatining mahalliy sharoitga moslashuvi va etnik-madaniy xilma-xillikni hisobga olish nuqtayi nazaridan tahlil qilgan bo‘lib, manba o‘z davrida Amudaryo bo‘limini harbiy-strategik, iqtisodiy va ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish zarurligini asoslab beradi.

---

[2] Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II, составлено генерального штаба Капитаном К.Г.Гиршфельдом. Переработано начальником Амударьинского отдела генерал-майором А.С.Галкиным. – Т.: Типография штаба Туркестанского военного округа, 1903. – 214 с.

[3] Шкапский О. Аму-Дарьинские кулаки перед судом шариата и казиев // Русская мысль. 1898, № 7, 8.

[4] Стеткевич. Очерки Хивинского оазиса / Военный сборник. 1892, №2, 3.

[5] Крафт И. И. Судебная часть въ Туркестанском край и степных областях. – Оренбург: Типолитография Н. Н. Жаринова, 1898. – 215 с.

[6] Иванин М. И. Хива и река Амударья: С картой и рисунками. – Санкт-Петербург: Типография Товарищества «Общественная польза», по Мойке, 1873, № 5. – 70 с.

[7] Маев Н. А. Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Вып. IV. – СПб.: Типография и хромолитография А. Траншеля, 1876. – 259 с.

[8] Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II, составлено генерального штаба Капитаном К.Г.Гиршфельдом. Переработано начальником Амударьинского отдела генерал-майором А.С.Галкиным. – Т.: Типография штаба Туркестанского военного округа, 1903. – 214 с.

Jumladan, O.Lobacheskiy Xiva xonligi bilan parallel ravishda Amudaryo bo‘limining iqtisodiy, geografik, demografik va harbiy holatini atroflicha yoritadi. Asar Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan janubiy Turkiston mintaqalarini, xususan, Amudaryoning quyi oqimidagi hududlarni puxta o‘rganish, ma’muriy va harbiy nazoratni takomillashtirish maqsadida tayyorlangan statistik-huquqiy, tabiiy-ilmiy manba sifatida katta ahamiyatga ega[9].

Asarning demografik bo‘limda mahalliy aholi — jumladan, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, o‘zbeklar va boshqa guruhlarning soni, etnik tarkibi, istiqomat qiluvchi hududi va xo‘jalik faoliyati batafsil tahlil qilinadi. Nomlari keltirilgan qabila va urug‘ vakillarining ijtimoiy strukturadagi o‘rni, ularning yashash madaniyati, harbiy xizmatga yaroqliligi, mehnat va hunarmandchilik faoliyati bo‘yicha kuzatuvlar keltirilgan. Ayniqsa, Lobachevskiy tomonidan “harbiy salohiyatga ega aholi qatlamlari”ni ajratib ko‘rsatish bu asarning Rossiya imperiyasi siyosatiga xizmat qiluvchi razvedka xususiyatini ochib beradi.

O.Lobachevskiy sud va boshqaruv tizimining ishlash mezanizmi haqida ham ma’lumot keltirilib, bo‘limda faoliyat yuritgan mahalliy oqsoqollar, xalq sudiyalari, rus harbiy-fuqarolik ma’murlari ishtirokidagi boshqaruv shakllari, soliqlar yig‘ilishi, harbiy saflar va mahalliy siyosiy nazorat usullari aniq statistik dalillar bilan asoslanadi.

Statkeyivich o‘z tadqiqotida bo‘limning asosan irrigatsiya, transport va ma’muriy ahamiyatini tahlil qiladi. Kuzatishlariga ko‘ra, Amudaryo butun mintaqaning iqtisodiy hayotini belgilovchi markaziy hudud sifatida ko‘rilgan. Rus harbiy-statistik ekspeditsiyalari bu hududning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va irrigatsion tuzilishini o‘rganib, keyingi imperiya boshqaruv siyosati uchun tayanch ma’lumotlar jamlagan. Amudaryo bo‘limi Xiva vohasida imperiya manfaatlari bilan bog‘liq amaliy siyosatning asosiy ifodasi sifatida baholangan[10].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida mahalliy boshqaruv va sud-huquq tizimini isloh qilish doirasida xalq sudlari institutini huquqiy jihatdan tartibga soldi. I.I.Kraft tomonidan yozilgan asarida mazkur jarrayonlar aks etadi. Asarda sud tizimining urf-odatlarga asoslangan shakldan imperiyaning markazlashgan sud tartibiga moslashtirilish jarayoni huquqiy tafsilotlar bilan yoritiladi.

Muallif Amudaryo bo‘limi kabi chegara hududlarda xalq sudlarining alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Xususan, turli etnik guruhlar (qoraqalpoqlar, qozoqlar, turkmanlar) yashaydigan joylarda xalq sudlari o‘zaro nizolarni hal qilishda yagona murosaviy instansiya bo‘lib xizmat qilgan. Kraft bu sudlarning o‘ziga xosligini ularning joylashuvi (ko‘chmanchilar va o‘troqlar uchun alohida), sudyalarning saylanish tartibi, urf-odatlarga sodiqlik darajasi orqali aniqlgan.

Tarixshunoslik nuqtai nazaridan Kraftning asari muhim bo‘lib, u Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida amalga oshirgan huquqiy siyosatining amaliy jihatlarini ochib beradi. Xalq sudlari orqali imperiya vakillari mahalliy ijtimoiy tuzumni o‘zgartirishga intilar ekan, shu bilan birga, urf-odatga asoslangan tartibni butunlay yo‘q qilish emas, balki uni cheklangan shaklda qonuniylashtirishga harakat qilgan. Aynan shu ziddiyatli yondashuv Kraftning asarida aniq ko‘zga

[9] Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Под ред. Окружного Генерал-Квартирмейстера генерал-майора Федяни. – Ташкент: Эл.-пар. типолит. штаба Туркест. воен. округа, 1912. – 118 с

[10] Стеткевич. Очерки Хивинского оазиса / Военный сборник. 1892, №2, 3.

tashlanadi. Shuningdek,asar Turkiston o‘lkasida sud hokimiyati va etnik siyosatning qanday murakkab munosabatda bo‘lganini anglash uchun noyob tarixiy manba sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega.

XIX asr XX-asr boshlarida M.I.Ivanin tadqiqoti mobaynida Amudaryo bo‘limi haqidagi ilmiy-topografik va harbiy-geografik ma’lumotlarn to‘plab borgan[11]. Asarida daryoning tabiiy-geografik xususiyatlari, sug‘orish tizimi, suv inshootlari, gidrologik rejimi va o‘zgaruvchan o‘zanlari mukammal tavsiflanadi. Shu bilan birga, Xiva xonligining ijtimoiy hayoti – dehqonchilik asosidagi xo‘jalik tizimi, suvdan foydalanish tartiblari, aholi salomatligi, mahsulotlar ishlab chiqarish va saqlash madaniyati hamda siyosiy-iqtisodiy munosabatlar kontekstida tasvirlanadi. Mahalliy aholi tomonidan ming yillar davomida shakllantirilgan sug‘orish tizimlari, ularning jamiyatdagi ahamiyati va jamoaviy mehnat shakllari zamonaviy ekologik va tarixiy-geografik izlanishlar uchun muhim asos yaratadi.

Biroq, asarda o‘sha davr mustamlakachilik tafakkuriga xos bo‘lgan salbiy yondashuvlar ham mavjud: Ivanin ko‘p hollarda o‘zini kuzatuvchi va baholovchi pozitsiyasida tutadi, mahalliy aholini passiv obyekt sifatida talqin qiladi. Xiva va Amudaryo havzasi madaniy hayoti ko‘proq texnik-faylasufona qiziqish doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, aholining subyektiv tajribasi chetlab o‘tilgan. Ayrim joylarda esa turkman va boshqa etnik guruhlar siyosiy jihatdan bo‘ysunuvchi, beqaror yoki xavfli kuch sifatida tasvirlangan. Shuningdek, Kaspiy dengiziga suv oqimini qayta yo‘naltirish haqidagi fikrlar orqali tabiatga inson aralashuvi va imperiya manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish holatlari ko‘zga tashlanadi.

Shunday bo‘lsa-da, asar zamonaviy tarixshunoslik yondashuvida inson omili, ilmiy kuzatuv, siyosiy maqsad va madaniy stereotiplarning qanday uyg‘unlashganini ko‘rsatib bera oladi. Asari nafaqat voqelikni tasvirlagan, balki uni o‘z davrining qarashlari, ehtiyojlari va cheklovlari bilan talqin qilgan. Shu bois, bu matnni faqat faktlar to‘plami sifatida emas, balki ilmiy va mafkuraviy qarashlar birikmasi sifatida o‘rganish lozim.

Rossiya imperiyasi tarixshunosligida N.Mayevning tadqiqotlari ham alohida o‘ringa ega bo‘lib. Amudaryo bo‘limining tashkil topish tarixini siyosiy va harbiy-geografik jarayonlar asosida tahlil qilgan muhim manba sifatida ajralib turadi[12]. Muallif Rossiya imperiyasi tomonidan Xivaga yurishi (1873) ortidan hududni siyosiy va ma’muriy jihatdan mustahkamlash zaruratini asoslab beradi. Aynan shu harbiy ekspeditsiyadan so‘ng, Amudaryo bo‘limi maxsus siyosiy-ijroiya tuzilma sifatida shakllantirilgan bo‘lib, uning asosiy vazifalari orasida strategik nazorat, chegarani mustahkamlash va iqtisodiy resurslarni imperiya manfaatlariga yo‘naltirish kabi masalalar bo‘lgan.

N.Mayev Amudaryo bo‘limining tashkil etilishi jarayonida qo‘llanilgan harbiy kuch, lokal hokimiyat vakillarining almashtirilishi, qozilik va boshqa mahalliy institutlarning imperiya tartiblariga moslashtirilishini batafsil tasvirlaydi. Shu orqali u mazkur bo‘limning shakllanishi oddiy ma’muriy-hududiy bo‘linish emas, balki mustamlaka siyosatining strategik elementi bo‘lganini ochiqlab beradi. Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan muhim jihati shundaki, Mayev o‘z asarida

[11] Иванин М. И. Хива и река Амударья: С картой и рисунками. – Санкт-Петербург: Типография Товарищества «Общественная польза», по Мойке, 1873, № 5. – 70 с.
[12] Маев Н. А. Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Вып. IV. – СПб.: Типография и хромолитография А. Траншеля, 1876. – 259 с.

Amudaryo bo‘limining ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy tuzilishini imperiya siyosatining kontekstida tahlil qilgan, biroq bu yondashuvda mahalliy aholi manfaatlari va qarshilik shakllari e’tibordan chetda qolgan.

Amudaryo bo‘limi tarixini o‘rganishda O.Shikopskiyningkuzatishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlar Amudaryo bo‘limidagi turli jabhalar: boshqaruv, ma’muriy tuzilma, sud tizimi, etnik qatlam, qishloq xo‘jaligi haqida batafsil ma’lumot beruvchi manbalardan biri hisoblanadi[13].

Xususan, muallif o‘z asarida xalq sudlari, qozilik mahkamalari, shuningdek, sudlovchilarning ijtimoiy mavqei, ish yuritish usullari va da’vogar-javobgar munosabatlarini hujjatlar va kuzatuvlar asosida tahlil qiladi. Ayniqsa, sud jarayonlarining urf-odatlar va shar’iy me’yorlarga tayangan holda, og‘zaki va jamoaviy shaklda amalga oshirilganiga urg‘u beriladi. Bu holat, o‘z navbatida, mahalliy jamiyatda huquqning ijtimoiy va axloqiy tartiblar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Biroq, Shikopskiy sud tizimini o‘rganishda ko‘p hollarda uni Rossiya yuridik modeliga solishtirgan holda baholaydi. Mahalliy institutlarni zamonaviylikdan orqada qolgan, rasmiylikdan xoli, huquqiy aniqlik yetishmaydigan tizim sifatida talqin qilishi uning mustamlakachilik ongiga xos qarashlarini aks ettiradi. Bu esa tarixshunoslik uchun ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi: bir tomondan, u mahalliy jamiyatdagi real huquqiy amaliyotni tasvirlab beradi; ikkinchi tomondan, imperiyaviy diskurs orqali bu amaliyotga berilgan tashqi baho va ideologik yondashuvni ochib beradi. Mazkur maqola shu boisdan nafaqat huquqiy tarix, balki mustamlakachilik siyosati va uning huquqiy-repressiv mexanizmlarini tadqiq etishda ham muhim manba sifatida qaralgan.

XX asr boshlarida Amudaryo bo‘limida yashagan musulmon ayollarining ijtimoiy-huquqiy holati ham O.Shikopskiy nazaridan chetda qolmagan[14]. O‘z qaydlarida mazkur davrda ayollar ijtimoiy-siyosiy tuzum doirasida qanday yashagani, qanday huquqlarga ega bo‘lgani va sud-huquq amaliyotida tutgan o‘rni haqida muhim daliliy asoslarni taqdim etadi. Muallif mazkur hududdagi xalq sudlariga kelib tushgan arizalar, da’vo hujjatlari, ajrim va mulkka oid ishlar orqali ayollar faoliyatini tahlil qiladi. Bu ma’lumotlar asosida ayollarning oila va jamiyatdagi o‘rni, ularning shaxsiy tashabbusi, huquqiy ong darajasi, shuningdek, patriarxal munosabatlar sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy cheklovlar yoritiladi.

Muallif musulmon jamiyatida ayollarga nisbatan mavjud cheklovlarni tanqid qigan, biroq ayni vaqtda ularning mazkur cheklovlar ichida ham o‘z huquqlarini himoya qilishga intilgani, mustaqil qaror qabul qilgani va huquqiy subyekt sifatida faol ishtirok etganini ham qayd etib o‘tgan. Shikopskiy o‘z kuzatishlarini Amudaryo bo‘limida bo‘lib o‘tgan sud ishlari bilan dalillaydi va bular orqali ayollarning huquqiy faolligini faktlar asosida ochib beradi.

Biroq, muallif xalq urf-odatlariga asoslangan sud tizimini “yopiq”, “zamonaviy yondashuvdan chetda qolgan” sifatida baholaydi. Mahalliy sud tizimida o‘ziga xos urf-odatlar asosida shakllangan tizimga imperiyaning yuridik holatidan kelib chiqib baho bergan. Shu jihatdan olganda, mazkur maqola ikki tomonlama tarixiy tahlil uchun imkoniyat yaratadi: birinchidan, u Amudaryo bo‘limidagi ayollar hayotining aniq huquqiy manzarasini ochib beradi; ikkinchidan, u

[13] Шкапский О. Аму-Дарьинские кулаки перед судом шариата и казиев // Русская мысль. 1898, № 7, 8.
[14] Шкапский О. Положение женщины у кочевников Средней Азии // Среднеазиатский вестник. Ташкент, 1896, № 6, 7.

Rossiya imperiyasi tarkibidagi rasmiy shaxslarning mahalliy jamiyatga nisbatan qarashlarini, siyosiy-ideologik pozitsiyasini aks ettiradi.

Xulosa. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amudaryo bo‘limiga oid mavjud manbalar uning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi siyosiy-ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini turli rakurslardan yoritadi. Rossiya imperiyasi harbiylari va tadqiqotchilari qoldirgan asarlarda bo‘limning tashkil topish jarayonlari, boshqaruv va sud tizimining o‘ziga xos ikkiyoqlama shakli, irrigatsiya va xo‘jalik infratuzilmasi, etnik tarkib hamda mahalliy jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning faoliyati hujjatli dalillar bilan ifodalangan. Ayrim manbalarda imperiyaviy maqsad va mustamlakachilik diskursi kuchli bo‘lsa-da, ular hududning real demografik, iqtisodiy va huquqiy manzarasini tiklash imkonini beradi. Ayniqsa, ayollarning huquqiy maqomi va xalq sudlaridagi ishtiroki haqidagi ma’lumotlar mahalliy jamiyat tuzilmasini va urf-odatlarning huquqiy amaliyotga ta’sirini anglashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mazkur tadqiqotlar majmuasi Amudaryo bo‘limini faqat imperiya strategik manfaatlari kontekstida emas, balki murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II, составлено генерального штаба Капитаном К.Г.Гиршфельдом. Переработано начальником Амударьинского отдела генерал-майором А.С.Галкиным. – Т.: Типография штаба Туркестанского военного округа, 1903. – 214 с.;
2. Иванин М. И. Хива и река Амударья: С картой и рисунками. – Санкт-Петербург: Типография Товарищества «Общественная польза», по Мойке, 1873, № 5. – 70 с.;
3. Крафт И. И. Судебная часть въ Туркестанском край и степных областях. – Оренбург: Типолитография Н. Н. Жаринова, 1898. – 215 с.;
4. Лобачевский В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Под ред. Окружного Генерал-Квартирмейстера генерал-майора Федяни. – Ташкент: Эл.-пар. типолит. штаба Туркест. воен. округа, 1912. – 118 с.;
5. Маев Н. А. Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Вып. IV. – СПб.: Типография и хромолитография А. Траншеля, 1876. – 259 с.;
6. Стеткевич. Очерки Хивинского оазиса / Военный сборник. 1892, №2, 3.
7. Шкапский О. Аму-Дарьинские кулаки перед судом шариата и казиев // Русская мысль. 1898, № 7, 8.;
8. Шкапский О. Положение женщины у кочевников Средней Азии // Среднеазиатский вестник. Ташкент, 1896, № 6, 7.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Шерзод Зиё
Иқтисодиёт фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

ИСЛОМ МОЛИЯСИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ИЛМИЙ- НАЗАРИЙ ВА УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация. Мазкур илмий мақолада ислом молияси ва молиячилигининг эволюцияси ва ривожланиш тенденцияси таҳлил қилиб ўтилган. Бундан ташқари, ислом молиясининг оммалашувига сабаб бўлган унинг ўзига хос хусусиятлари ва аҳамиятли жиҳатларига тўхталиб ўтилган. Шу билан биргаликда, Жаҳон молия бозорида ислом молиясининг тобора ортиб бораётган таъсир кўлами статистик таҳлиллар орқали очиб берилган.

Калит сўзлар: ислом молияи, ислом молияси, мудораба, мушорака, анаъанавий молия хизматлари, ислом ойнаси, сокук, ижара, салам

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ

Аннотация. В данной научной статье анализируются эволюция и тенденции развития исламских финансов и молияовского дела. Кроме того, были рассмотрены его особенности и важные аспекты, обусловившие популярность исламских финансов. В то же время посредством статистического анализа выявляется растущее влияние исламских финансов на мировой финансовый рынок.

Ключевые слова: исламский молияинг, исламские финансы, мудараба, мушарака, традиционные молияовские услуги, исламские окна, сукук, рента, салам

SCIENTIFIC, THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC FINANCE

Annotation. This scientific article analyzes the evolution and development trends of Islamic finance and banking. In addition, its features and important aspects that determined the popularity of Islamic finance were considered. At the same time, through statistical analysis, the growing influence of Islamic finance on the global financial market is revealed.

Keywords: islamic banking, islamic finance, mudaraba, musharaka, traditional banking services, islamic windows, sukuk, rent, salam.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Кириш

Жаҳон молиявий хизматлар бозорида ислом банкчилиги инновацион молиявий воситалар сифатида баҳоланиб, сўнгги йилларда жадал ривожланиш тенденциясига эга бўлиб келмоқда. Жумладан, ““Qardus” нашри томонидан берилган маълумотларга кўра, глобал молия бозорида ислом молия секторининг сўнгги йиллардаги ўртача йиллик ўсиш кўрсаткичи 15-25 фоизни ташкил этиб келаётган бўлиб, бугунги кунда ислом молиявий ташкилотлари жаҳон молиявий активларининг 2,7 трлн. долл.дан ортиқ қисмига эгалик қилмоқдалар”1. Ушбу ҳолат глобал молиявий хизматлар бозорида ислом молиявий воситалари асосида кўрсатиладиган хизматларга бўлган қизиқишнинг йилдан йилга ортиб бораётганлигидан далолат беради.

Жаҳонда капиталистик тамойилларга асосланган ҳолда кўрсатиладиган молиявий хизматларни ислом молияси маҳсулотлари ва хизматлари билан тўйинтириш, ғарб мамлакатлари амалиётида ислом банкчилигини ривожлантириш, исломий молия воситалари асосида банкчилик хизматлари кўрсатиш амалиётини такомиллаштириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасини молиявий қўллаб-қувватлашда ислом банкчилигининг аҳамиятини оширишнинг устувор йўналишлари бўйича илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Ушбу мавзу доирасида олиб борилган тадқиқот натижасида олимларнинг ислом молияси ва молиячилиги тўғрисида қуйида келтирилган фикр-мулоҳазаларини таҳлил қилиб, мазкур соҳанинг аҳамияти, келгусидаги истиқболи, кутилаётган имкониятлари ҳамда хатарлар тўғрисида керакли билимлар олиш мумкин.

Хусусан, олимлар Аль Аззави ўз тадқиқотларида ислом молияси тўғрисида “Ислом шариати асосида молия ҳисобварақларини очиш ва юритиш, тўловларни амалга ошириш, омонатларга пул маблағларини жалб этиш, жисмоний ва юридик шахсларни молиялаштириш ҳамда бошқа молия хизматларини амалга оширувчи тижорат ташкилотидир” деб, таъриф берганлар [2].

Иқтисодчи олим Литау томонидан ёзилган илмий мақолада ислом молия тизимининг асосини рибонинг таъқиқланганлиги, ғорар, майсир ва харом каби тамомиллар ташкил этиши таъкидлаб ўтилган [3].

Тадқиқот методологияси

Илмий ишни амалга оширишда ислом молия ва молиячилигининг ривожланиш тенденцияси ва омиллари таҳлил қилишда олимлар ва соҳа вакиллари билан суҳбат, уларнинг ёзма ва оғзаки фикр-мулоҳазаларини таҳлил қилиш, эксперт баҳолаш, жараёнларни кузатиш, иқтисодий ҳодиса ва жараёнларга тизимли ёндашув, муаллиф тажрибалари билан қиёсий таҳлил ўтказиш орқали тегишли йўналишларда хулоса, таклиф ва тавсиялар берилган.

Таҳлил ва натижалар

[1] Ali Ismail. The Islamic Financial Services Industry Statistics. [Online resource]. URL: https://www.qardus.com/news/the-islamic-financial-services-industry-statistics#:~:text=Currently%2C%20the%20Islamic%20finance%20sector,over%202.7%20trillion%20USD%20globally.


International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Жаҳон молия бозорининг ривожланишида ислом молиясининг аҳамияти сўнгги йилларда тобора ортиб бормоқда. Иқтисодий айланмада “Ислом молия тизими” атамаси 1980 йилларнинг ўрталаридан бошлаб кенг қўлланила бошланди. Аксарият илмий тадқиқотларда ислом молияси асосида кўрсатилаётган молиявий хизматларда фоиз ставкалари, яъни ссуда капитали ҳажмига бошқа турдаги молиявий механизмларга нисбатан устуворлик қаратилмаслиги тўғрисида фикрлар келтириб ўтилган бўлиб, ислом молияси механизми “шариат” талабларига мувофиқ амал қилиши айтиб ўтилган. Бу эса жахон молия бозорида ислом молияси механизми асосида кўрсатилаётган молиявий хизматлар, жумладан, ислом банкчилигига бўлган қизиқишнинг йилдан йилга ортиб боришига олиб келмоқда. Сўнгги йилларда мамлакатимиз амалиётида ҳам ислом иқтисодиёти ва молияси, жумладан, ислом банкчилигини ривожлантиришга бўлган қизиқиш, унга бўлган талаб йилдан йилга ортиб бормоқда. Ушбу ҳолат исломий молия механизми асосида молиявий хизматлар кўрсатиш амалиётини ташкил этиш, уни ривожлантиришнинг илмий назарий ва амалий жиҳатларини тадқиқ этиш заруриятини уйғотади.

Исломий молия тизимининг амал қилиши билан боғлиқ масалалар Имом Бухорий, Ибн Ходун, Ғаззолий, Фаробий, Абу Юсуф каби исломий уламолар томонидан кўриб чиқилган бўлиб, бунда хўжалик фаолияти натижаларини тақсимлашда шаръий тартиб-таомиллар асосида ижтимоий адолатни таъминлашга устуворлик қаратилган ҳисобланади. Унга кўра, исломий молиявий муносабатлар тизимида рибо (судхўрлик), қимор ўйинлари, хаддан ташқари даражада бойлик жамғариш, ноқонуний товар ва хизматлар билан тижорат қилиш, қисқа сотувлар ва чайқовона амалиётларга нисбатан шариат талаблари бўйича ўрнатилган чекловларга амал қилиш кераклиги борасида фикрлар келтириб ўтилган.2 Бунда хусусий мулк, фойда олишга бўлган рағбат ва бозор иқтисодиёти учун хос бўлган турли таъсирларни рад этилмаганлигини кўришимиз мумкин бўлади. Ушбу ҳолат исломий молиялаштириш механизмининг жамиятдаги иқтисодий ва молиявий мувозанатни қўллаб-қувватлаш, инсонлар молиявий имкониятларининг тенглиги ва адолатли тақсимот билан амал қилиши учун хос бўлган хусусиятларини ўзида акс эттирганлигини англатади. Исломий молия учун хос бўлган ушбу хусусиятлар ўз навбатида бугунги кунда жаҳон хўжалигида амал қилаётган ва ривожланиб келаётган бозор иқтисодиёти тамойилларида ҳам ўз аксини топган ҳисобланади. Бу эса бозор иқтисодиёти шароитида исломий молиялаштириш механизмидан фойдаланиш имконияти мавжуд эканлигидан далолат беради.

[2] Байдаулет Е.А. Исломий молия асослари. // Ҳусан Ҳасановнинг умумий таҳрири остида, Ботирхўжа Жўраев таржимаси. Тошкент: «O‘ZBEKISTON» НМИУ, 2019. – 432 бет.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



1-расм. Исломий молиялаштириш механизмининг амал қилиши учун хос бўлган хусусиятлар3

Хулоса

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, исломий молиявий хизматлар соҳаси Ўзбекистоннинг порлоқ келажаги учун муҳим омил, пойдевор ва ривожланиш истиқболи бўлади, натижада ўз маданиятида Исломнинг чуқур илдизларини акс эттирган мамлакатга хорижий инвесторларнинг қизиқиши ортади ва ҳукумат ушбу имкониятдан халқ фаровонлиги ҳамда мамлакатнинг барқарор ривожланишида тўлақонли фойдаланишга эришиши мумкин бўлади.

Умуман олганда, Ислом томонидан назарда тутилган иқтисодий тизим ижтимоий адолатни мақсад қилиб қўйган, бу эса якка тартибдаги корхона ёки тадбиркорни нафақат жамоа, балки якка ўзига ўзи зарар етказишини олдини олади.

Мустақиллик йилларида мамлакатда капиталистик тамойилларга асосланган анъанавий банкчилик хизматлари кўрсатиш амалиёти ривожланган бўлиб, Янги Ўзбекистон шароитида молиявий хизматлар бозорини ривожланишини янги босқичга ўтказиш мақсадида ислом молиявий маҳсулотларидан амалиётда фойдаланиш бўйича меъёрий-ҳуқуқий базани шакллантиришга қаратилган ишлар олиб борилмоқда;

- мамлакат молиявий хизматлар бозорида Ислом шариати қонун қоидаларига асосланган ҳолда молиявий хизмат кўрсатиш билан шуғулланиб келаётган молиявий ташкилотлар қаторига "UzbekLeasing International" компанияси, "APEX TAKAFUL" суғурта компанияси, "UZARO" суғурта компанияси ва бизнес-консалтинг ташкилоти, "IMAN Invest" жисмоний шахсларни ишонч тамойилига асосан, муробаха орқали инвестициялаш ташкилоти, "TAIBA Leasing" Хусусий тармоқни ривожлантириш бўйича ислом корпорацияси (ICD) га тегишли лизинг компания, "Ҳамкорбанк" АТБ ва "Траст Муамалат" Трастбанк шўба корхоналарини кабиларни киритиш мумкин;

[3] Муаллиф томонидан тузилган

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. ЎзбекистонРеспубликаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2021 йил Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти, www.president.uz

2. Аль Аззави А.А. К вопросу о специфике функционирования исламского банкинга и факторах, останавливающих его развитие на территории РФ // Вестник Университета (Государственный университет управления). – 2017. – № 4. – с. 85-88.

3. Литау Е.Я. Международные финансы: исламский молияинг как перспективная альтернатива традиционной системы финансирования// Экономика и управление, 2016. – № 10 (132).

4. Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития. / Автореф. дисс. докт. экон. наук., 2009. – 48 с.

5. Conrad Hackett 1 , Marcin Stonawski 2019, Projections of Europe’s Growing Muslim Population under threemigration scenarios.

6. ICD-REFINITIV Islamic Finance Development Report 2019

7. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориентированная на реализацию долевых методов // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – с. 12-16.

8. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. – 2015. – № 2. – с. 22-25.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Salaeva Laylo Shavkatovna
O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

MA'NAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional omillari va uning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi bugungi zamonning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, uning yechimi nafaqat nazariy tahlil, balki institutsional amalga oshirish mexanizmlarini chuqur o'rganishni ham talab qilishi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, mafkura, tapg'ibot, ma'rifat, globallashuv, xavfsizlik, shaxs, davlat, jamiyat, institutsional.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения проанализированы институциональные факторы обеспечения духовно-идеологической безопасности и ее особенности. Также в статье с научной точки зрения освещается, что вопрос обеспечения духовно-идеологической безопасности является одной из актуальных проблем современности, решение которой требует не только теоретического анализа, но и глубокого изучения институциональных механизмов реализации.

Ключевые слова.духовность, идеология, пропаганда, просвещение, глобализация, безопасность, личность, государство, общество, институциональный.

INSTITUTIONAL FACTORS OF ENSURING SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL SECURITY AND THEIR FEATURES

Annotation. This article analyzes the institutional factors of ensuring spiritual and ideological security and its specific features from a scientific perspective. Also, the article scientifically highlights that the issue of ensuring spiritual and ideological security is one of the pressing problems of our time, the solution of which requires not only a theoretical analysis, but also a deep study of the institutional mechanisms for its implementation.

Keywords.spirituality, ideology, propaganda, enlightenment, globalization, security, individual, state, society, institutional.

Kirish(Introdustion). Ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi bugungi zamonning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, uning yechimi nafaqat nazariy tahlil, balki institutsional amalga oshirish mexanizmlarini chuqur o'rganishni ham talab qiladi. Zero, global

axborot oqimi, transmilliy mafkuraviy ta’sirlar va kibermakondagi ideologik manipulyatsiyalar shiddatida an’anaviy boshqaruv yoki huquqiy choralar bilan bunday xavflarga qarshi samarali kurashish murakkablashib bormoqda. Bunday sharoitda jamiyatdagi turli institutlarning faolligi va o‘zaro hamkorligi g‘oyaviy barqarorlikni mustahkamlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Shu ma’noda, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash davlatning markazlashgan siyosati bilan cheklanib qolmay, balki keng qamrovli institutsional vositalar - axborot vositalari, ta’lim tizimi, qonunchilik organlari, ijroiya hokimiyat, nodavlat sektor va diniy muassasalar orqali hayotga tadbiq etiladi. Bu institutlar faqat ma’lumot tarqatuvchi yoki ma’muriy vakolatlarga ega subyektlar emas, balki jamiyatning ma’naviy immunitetini shakllantiruvchi madaniy va ideologik maydonning faol ishtirokchilari hisoblanadi.

Ayniqsa, yoshlar ongida milliy o‘zlikni, fuqarolik pozitsiyasini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ta’lim muassasalarining, axborot vositalarining va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro bog‘liq faoliyati ayni muddao hisoblanadi. Ma’naviy xavfsizlik masalasi keng ijtimoiy hamkorlikni talab qiluvchi jarayon sifatida davlat va jamiyat o‘rtasidagi strategik aloqalarni mustahkamlashni taqozo etadi.

Institut tushunchasi ijtimoiy falsafada markaziy nazariy kategoriyalardan biri sifatida jamiyatning ichki tartibi, ongli izchilligi va ma’naviy barqarorligini ta’minlashda alohida o‘rin tutadi. U faqat tashkiliy tuzilma, iyerarxiya yoki ma’muriy organ sifatida emas, balki ma’nolar, ramzlar va qoidalar orqali jamiyatni idora qiluvchi intersubyektiv mexanizm sifatida talqin etiladi. Institutlar orqali jamiyat faqat o‘zini tashkil etmaydi, balki o‘z g‘oyaviy konturlarini, axloqiy mezonlarini va umumiy idrok maydonini ham belgilaydi.

Falsafiy jihatdan institut tushunchasi klassik sotsiologik modellarda har xil qirralardan yoritilgan. Maks Veber institutni byurokratik tartib va ratsional boshqaruv tizimi sifatida ko‘radi. Uning ta’kidlashicha, institutlar rasmiy qoidalar, mutaxassislashgan vazifalar va iyerarxik tuzilmalar orqali ijtimoiy hayotni tizimlashtiradi: “Ratsional byurokratiya - bu yuqori darajada tashkil etilgan, funksional jihatdan bir-biriga bog‘langan ijtimoiy amaliyotlar tizimidir”[1]. Unga ko‘ra, institutlar jamiyatda aql va intizom asosida ishlaydigan mexanizmlardir.

Biroq, Veberning yondashuvi funksionallik va rasmiylikka orttiqcha tayanadi. Modomiki, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikning mazmuni jamiyat ongidagi qiymatlar, ishonch va ma’nolar bilan bog‘liq ekan, institutlarning ramziy va semiotik funksiyalarini ham hisobga olish zarur. Bu jihatda Per Burdening “habitus” tushunchasi muhimdir. Uning ta’kidlashicha, institutlar – inson ongida yashaydigan, tajriba va madaniy kapital orqali qayta ishlab chiqiladigan ijtimoiy shakllardir: “Institutlar jismonan emas, ruhiy zichlikda yashaydi; ular odamlar ongida qayta ishlanadi va qayta yaratiladi”[2]. Demak, institutlar faqat ijro etuvchi tashkilotlar emas, balki ma’naviy kod va ijtimoiy tafakkurni mustahkamlovchi ramziy tuzilmalardir. Shu nuqtayi nazardan, ularni ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlovchi konseptual tuzilma sifatida o‘rganish zarur.

Emil Dyurkgeym esa institutlarni jamoaviy ongni shakllantiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, institutlar shaxsiy manfaatlarni emas, balki jamiyatning umumiy axloqiy tartibini ifoda etadi: “Institutlar - bu jamiyatning ruhiy hayotini tartibga soluvchi umumiy fikr va xislar yig‘indisidir”[3]. Institutlar turli ijtimoiy qatlamlarni ma’naviy platformada birlashtiradi va fuqarolarda umumiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi. Dyurkgeymning bu qarashlari hozirgi

kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Biroq, Antoni Giddensning fikriga ko‘ra, institutlar faqat “yuqoridan berilgan” tuzilma emas, balki faol ijtimoiy subyektlar tomonidan doimiy qayta ishlab chiqiladigan jarayonlardir: “Institutlar ijtimoiy amaliyot natijasidir va inson faoliyati orqali shakllanadi [4]. Shunday ekan, institutlarni statika sifatida emas, balki dinamik faoliyat sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Yurgen Xabermas institutlarni muloqot va ma’naviy kelishuvni tashkil qiluvchi “ilg‘or jamoatchilik maydoni” sifatida baholaydi. Uningcha, haqiqiy institutlar jamiyatda erkin fikr almashish, tanqidiy mulohaza va konsensusga erishishni ta’minlovchi mexanizmlardir: “Institutlar - fuqarolarning erkin kommunikatsiyasiga asoslangan ijtimoiy kelishuv shakllaridir”[5]. Bunday yondashuv, ayniqsa, demokratik jamiyatlarda ma’naviy xavfsizlikni erkin muloqot va fuqarolik pozitsiyasi orqali ta’minlash imkonini ko‘rsatadi. Biroq, Zigmunt Bauman ta’kidlaganidek, “suyuq modern” sharoitida institutlar o‘z barqarorligini yo‘qota boshlaydi: “Institutlar endi murosa qilmasdan turib, yangi hayot tarzlariga muttasil moslashmoqda”[6]. Shu bois, zamonaviy institutlar faqat fikrlarni muhofaza qiluvchi emas, balki doimiy o‘zgarishga moslashuvchi faol mexanizmlar bo‘lishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Mishel Fuko esa institutlarni inson ongi ustidan ramziy nazoratni amalga oshiruvchi “simvolik hokimiyat” sifatida talqin qiladi. Uning “haqiqat rejimi” konsepsiyasiga ko‘ra, har bir institut muayyan haqiqatni yaratadi va uni jamiyatga qabul qildirish uchun ramziy kuchlardan foydalanadi: “Haqiqat - bu qudrat ishlab chiqargan va tarqatgan narsadir. Institutlar esa uning muhrlangan mexanizmlaridir”[7]. Bu nuqtayi nazar, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladigan mafkuraviy ta’sirlarni tushunishda muhim. Jak Derrida esa institutlarni qarama-qarshilikli ma’nolar o‘rtasidagi muzokara maydoni sifatida baholaydi: “Har qanday institut - bu o‘z ichidagi qarama-qarshiliklar bilan yashaydigan log‘ar tuzilmadir”[8].

Shu nuqtayi nazardan, institut tushunchasini biryoqlama emas, balki ko‘p qirrali, interdissiplinar yondashuvlar asosida tahlil etish talab etiladi. Veber institutsional aql va intizomni, Dyurkgeym jamoaviy ongni, Xabermas muloqot fazosini, Fuko esa ong ustidan ramziy nazoratni asoslaydi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, institutlar ijtimoiy borliqda faqat tashkiliy funksiya emas, balki ontologik barqarorlik, gnoseologik ishonch va aksiologik mezonlarni ta’minlovchi falsafiy mexanizmlar sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ular jamiyatda hayotning ma’nosini shakllantiruvchi va qadriyatlar iyerarxiyasini belgilab beruvchi ramziy strukturalar vazifasini bajaradi. Institutlarning ahamiyati shundaki, ular ongdagi ilmiy-ma’rifiy mezonlar, axloqiy farosat va ijtimoiy ma’suliyat tuyg‘usini izchil ravishda qayta ishlab chiqadi va tarqatadi.

Buni J.Xabermasning fikrlari bilan mustahkamlash mumkin. Uning ta’kidlashicha, institutlar “ilg‘or jamoatchilik maydoni” sifatida jamiyatda ma’naviy kelishuvga, tanqidiy mulohazalar asosida shakllangan konsensusga xizmat qilishi zarur. Zero, haqiqiy institut - bu “insonlarning u yoki bu fikrni qabul qilishga majbur qilmaydi, balki u fikrni o‘zlashtirish jarayonini tushunishga olib boradi”[9].

Bu nuqtayi nazarda institutlarning intersubyektiv xarakteri alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, ular faqat shaxs emas, balki jamoa, millat va sivilizatsiya miqyosida ongli birlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Institutlar orqali fuqarolar o‘rtasidagi axloqiy farqlar muvofiqlashtiriladi, turli

manfaatlar o‘rtasida ijtimoiy muvozanat barpo etiladi va umummilliy g‘oyaviy yakdillikka intilish yuzaga keladi.

Fukoning “haqiqat rejimi” konsepsiyasi buni yanada teranlashtirib beradi: har qanday institut ongda muayyan "norma" va "haqiqat" ni shakllantirish uchun xizmat qiladi, ya’ni u faqat ma’lumotni emas, balki haqiqatning qanday ko‘rinishda bo‘lishi mumkinligini belgilaydi[10]. Demak, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan, institut faqat g‘oyalarni muhofaza qiluvchi emas, balki ularni qayta yaratuvchi ma’no konstruksiyasi hisoblanadi.

Shu ma’noda, institutlar milliy g‘oya, mafkura va ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi, haqiqatni yaratish, tarqatish va muhofaza qilishning sistemalashgan tuzilmasi sifatida qayta baholanishi zarur. Insonning erkinligi, fuqarolik ongi va ijtimoiy faolligi aynan ana shu institutsional muhitda shakllanadi. Mazkur jarayonda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik davlatning emas, butun jamiyatning axloqiy-mental yondashuviga asoslangan strategik immunitet formasiga aylanadi.

Biz ta’kidlagan fikrga ko‘ra, zamonaviy institutlarga yondashuv faqatgina ularning ma’muriy-amaliy faoliyatlariga doir idoraviy funksiyalari bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, institutlar jamiyat ongidagi qadriyatlar iyerarxiyasini shakllantiruvchi, ma’naviy mezonlarni kodlashtiruvchi va ijtimoiy tafakkurni isloh etuvchi falsafiy-aksiologik subyektlar sifatida qaralishi zarur. Ular mafkuraviy tartib, intellektual muloqot va madaniy identifikatsiya jarayonlarining uzviy elementi sifatida jamiyatning «ma’naviy konstitutsiyasi»ni ifoda etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik konsepsiyasi institutsional barqarorlik, kognitiv-ontologik muvofiqlik va etik-kommunikativ tizimlarsiz to‘la amalga oshmaydi. Boshqacha aytganda, xavfsizlik nafaqat tashkilotlar faoliyati orqali, balki insoniy ma’no, intellektual mushohada va umumiy ijtimoiy maqsadlar ustidan kelishuv tufayli ta’minlanadi. Institutlarning haqiqiy mohiyati ana shu falsafiy-madaniy platformani barpo etishda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlarning nazariy asoslarini tahlil qilar ekanmiz, institut tushunchasini talqin etishdagi turli institutsional yondashuvlarni hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Ular orqali institutlarning tabiati, funksiyasi va ma’naviy-mafkuraviy jarayonlardagi o‘rni turlicha izohlanadi. Jumladan:

Normativ institutsional yondashuvda institutlar jamiyatda umumiy qoidalar va intizomni shakllantiruvchi normalar to‘plami sifatida ko‘riladi. Bu yondashuvda ularning huquqiy va etik funksiyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi[11]. Bunday institutlar orqali jamiyatda axloqiy intizom, fikriy barqarorlik va ma’naviy yo‘nalish ta’minlanadi.

Ratsional tanlov institutsionalizmida institutlar individlar faoliyatini tejaydigan “qoidalar majmuasi” sifatida tahlil qilinadi. Unda inson o‘z manfaatlarini erishishda institutsional chegaralarni hisobga oladi. Ma’naviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan, bunday yondashuv institutlarning faoliyat samaradorligini baholashda metodik asos bo‘la oladi.

Tarixiy institutsionalizm esa institutlarning shakllanishida tarixiy kontekst, madaniy meros va evolyutsion jarayonlarning ta’sirini ta’kidlaydi[12]. Ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik borasida bu yondashuv milliy an’analar, jamoaviy tafakkur va madaniy xotiraning institutsional jarayonlarga ta’sirini ochib beradi.

Simvolik institutsionalizmda institutlar ma’no yaratuvchi ramzlar tizimi sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv Fuko, Burde va Derrida kabi mutafakkirlar ta’kidlaganidek, institutlarning g‘oyaviy va semiotik funksiyalarini tushunishda asosiy o‘rin tutadi. Shu jihatdan, mafkuraviy xavfsizlikda

institutlarning "haqiqatni shakllantiruvchi" rolini anglash aynan shu paradigma asosida kuchaytiriladi.

Neoinstitutsional yondashuvlar (sotsiologik, kognitiv va normativ bo‘linmalari bilan) institutsional muhitni faqat strukturalar bilan emas, balki ong, qadriyatlar, fikrlash mexanizmlari orqali izohlaydi. Misol uchun, Skottning ta’kidlashicha, institutlar “regulyativ, normativ va ma’naviy-simvolik ustunlarga tayanadi” va bu uch yo‘nalishni integratsiya qilgan holdagina mukammal ijtimoiy tizim barpo etish mumkin bo‘ladi[13].

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology). Bizga ko‘ra, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda institutsional yondashuvlarni tanlash emas, ularni xolistik (ya’ni moslashtirilgan va kompleks) tarzda uyg‘unlashtirish muhim. Zero, faqat normativ funksiyalar bilan cheklangan institutlar shaxsiy ongni boshqara olmaydi, faqat tarixiy asoslarga suyanganlar - global hujumlarga tayyor emas, faqat manfaatga asoslanganlar -ma’naviy tarbiya vazifasini bajara olmaydi. Shu bois, neoinstitutsional qarash - ya’ni ma’naviy, normativ va semiotik funksiyalarni integratsiya qiluvchi yondashuv - mafkuraviy suverenitetni ta’minlashda eng samarali nazariy poydevor hisoblanadi.

Bu yondashuv institutlarni statik tizim emas, balki dinamik, o‘zgaruvchan va o‘zaro ta’sirchan ijtimoiy-ongli muhit sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ya’ni, institutlar shunchaki tashqi tartibni emas, balki ichki o‘zlikni - substansion ma’naviyat va individual identichlikni tarbiyalovchi faol subyektga aylanadi. Ular ma’lumot uzatuvchi vosita emas, balki ma’no yaratuvchi markazlar sifatida faoliyat yuritadi.

Xususan, neoinstitutsional yondashuvning afzalligi shundaki, u institutlarni inson ongidagi aqliy-axloqiy muharriklar bilan bog‘laydi. Bunday yondashuvda institutsional tizimning har bir bo‘g‘ini - ta’lim, OAV, davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va diniy muassasalar - umumiy ma’naviy konsensus, aksiologik barqarorlik va falsafiy ongni shakllantirishda javobgar bo‘ladi.

Buni amalda qo‘llash uchun institutlar o‘z faoliyatida:

- mazmunli muloqotni yo‘lga qo‘yish (ilm-fan, din, san’at va ta’limni integratsiyalash),
- ongli-madaniy xablar yaratish (media va kommunikatsiya orqali umummilliy g‘oyalarni mustahkamlash),
- simvolik muvozanatni saqlash (diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash) kabi strategiyalarga tayanishlari lozim.

Shu tarzda institutsional tizim nafaqat jamiyatning ichki tartibini, balki uning g‘oyaviy mustaqilligi va ma’naviy immunini ham ta’minlaydi. U jamiyatning o‘zligini anglash, global muammolarga qarata mustaqil fikr bildirish va ma’naviy barqarorlikni saqlash borasida “konseptual jihatdan asoslangan va institutsional barqarorlikni ta’minlovchi nazariy model” sifatida namoyon bo‘ladi.

Yakuniy natijada, faqat integratsiyalangan va falsafiy asosda uyg‘unlashtirilgan institutsional tizim orqali mafkuraviy xavfsizlikni strategik, barqaror va uzluksiz ravishda ta’minlash mumkin bo‘ladi. Bunday tizim – jamiyatning ongli suvereniteti, ma’naviy istiqlol va intellektual mustaqilligining kafolatidir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy dunyoda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik nafaqat davlatlar, balki butun insoniyat uchun ustuvor muammolardan biriga aylanmoqda.

Bu xavfsizlikni ta’minlash jarayonida institutsional tizimning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki institutlar - bu faqat huquqiy va ma’muriy tuzilmalar emas, balki jamiyatning ongli barqarorligini, ma’naviy tartibini va g‘oyaviy suverenitetini saqlab turuvchi murakkab falsafiy tizimdir. Ular jamiyatning “ma’naviy konstitutsiyasi”ni ifodalaydigan, shaxsiy va jamoaviy ongni tarbiyalovchi, qadriyatlarni ramzlashtiruvchi va qayta ishlab chiquvchi meta-mexanizmlardir.

Institutsional tizim o‘zining falsafiy-amaliy funksiyasida to‘rt asosiy ustunga tayanadi: regulyativ, akssiologik, kognitiv va semiotik. Regulyativ funksiya orqali u jamiyatda huquqiy va tashkiliy tartibni ta’minlaydi; akssiologik funksiya qadriyatlar iyerarxiyasini shakllantiradi; kognitiv funksiya fikrlash me’yorlarini belgilaydi; semiotik funksiya esa ma’nolarni yaratish va ularni jamiyatga uzatish vazifasini bajaradi. M. Fukoning “haqiqat rejimlari” nazariyasida ta’kidlanganidek, institutlar ongni shakllantirish orqali jamiyatda muayyan normalarni “haqiqat” sifatida ilgari suradi[14].

Bu tizim hech qachon vakuumda paydo bo‘lmaydi — u tarixiy, madaniy, siyosiy va ongli kontekstda shakllanadi. Tarixiy institutsionalizm nazariyasiga ko‘ra[15] , har bir institut o‘ziga xos tarixi va madaniy merosiga ega bo‘lib, uning faoliyati va ta’siri shu asosda baholanadi. Masalan, Yevropaning shimoliy davlatlaridagi institutsional modellar (Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya) regulyativ, normativ va madaniy ustunlarni uyg‘unlashtirgan holda jamiyatda fuqarolik ongi, ijtimoiy adolat va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashda samarali bo‘lib kelmoqda. Bu davlatlar institutlari faqat qonunlarni ijro etmaydi, balki ijtimoiy birdamlik, axloqiy mas’uliyat va intellektual mustaqillikni ham targ‘ib etadi[16].

Sharqiy Osiyo davlatlarida - xususan, Janubiy Koreya va Yaponiya misolida esa institutlar milliy an’analar, konfutsiylik, va zamonaviy texnokratiyani integratsiya qilgan holda kognitiv va akssiologik tartibni himoya qiluvchi tizim sifatida ishlamoqda. U yerda davlat institutlari nafaqat yuridik funksiyani, balki ta’lim, axborot va estetik ongni shakllantirish vazifasini ham bajaradi.

O‘zbekiston misolida institutsional tizim asrlar davomida shakllangan milliy va diniy an’analar, ma’naviy meros va zamonaviy modernizatsiya jarayonlari ta’sirida rivojlanib kelmoqda. Institutlar islomiy ma’naviyat, oila va mahalla an’analari, ta’lim muassasalari, OAV va NNTlar kabi tuzilmalar orqali jamiyatning intergeneratsion kodini saqlab qolishga xizmat qilmoqda. Masalan, mahalla instituti - bu nafaqat ijtimoiy nazorat organi, balki ma’naviy tarbiya, qadriyatlarni uzatish va milliy identichlikni mustahkamlashda markaziy bo‘g‘in hisoblanadi. U jamiyatda tartib (regulyativ), qadriyat (normativ) va ifodalash (semiotik) funksiyalarini bir vaqtda bajaradi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations).Bugungi raqamli transformatsiya va global ma’lumot ekspansiyasi sharoitida mafkuraviy xavflar yanada ko‘pqirrali va chuqur tus oldi. Mafkuraviy tahdidlar faqat siyosiy emas, balki axborotiy, estetik, identifikatsiyaviy va g‘oyaviy darajalarda namoyon bo‘lmoqda. Bunday sharoitda institutsional tizim “tashkiliy mudofaa” emas, balki falsafiy immunitetni shakllantiruvchi va intellektual himoyani ta’minlovchi tuzilmaga aylanishi zarur. U ma’noli muloqotni ta’minlash, jamoaviy ongni uyg‘unlashtirish, “haqiqat”ni qayta shakllantirish va insoniy mavjudlikning ma’naviy poydevorini mustahkamlash vazifalarini bajaradi. S.Skott ta’kidlaganidek, to‘liq institutsional tizim faqat regulyativ, normativ va madaniy-simvolik ustunlar uyg‘unligida samarali faoliyat yuritadi[17]. Ushbu ustunlardan birining yetishmasligi institutsional tizimni formal strukturaga aylantiradi va uning ongli ta’sir kuchini susaytiradi.

Bizga ko‘ra, ma’naviy-mafkuriy xavfsizlikni ta’minlashda institutsional yondashuvlarni alohida-alohida emas, balki xolistik – ya’ni uyg‘unlashgan va kompleks tarzda qo‘llash zarur. Faqat normativ funksiyalarga tayanadigan institutlar shaxsiy ongni shakllantira olmaydi; tarixiy asoslargina bo‘lgan institutlar global tahdidlarga tayyor emas; manfaatga asoslangan institutlar esa ma’naviy tarbiya vazifasini bajara olmaydi. Shu sabab, neoinstitutsional yondashuv – ya’ni ma’naviy, normativ va semiotik funksiyalarni integratsiya qiluvchi model – g‘oyaviy suverenitetni ta’minlashda eng samarali falsafiy poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Вебер М. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии //Экономическая социология. – 2016. – Т. 17. – №. 5. – b. 13-29.

2. Bourdieu, P. The Logic of Practice / transl. by R. Nice. – Stanford: Stanford University Press, 1990

3. Дюркгейм Э., Земскова В. Элементарные формы религиозной жизни. Заключение //Социологическое обозрение. – 2018. – Т. 17. – №. 2. – b. 122-154.

4. Giddens, A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. – Cambridge: Polity Press, 1984. – 402.

5. Хабермас Ю. Структурные изменения в сфере публичности: Исследования категории буржуазного общества / пер. с нем. В. Ф. Фоминой. – СПб.: Наука, 2002.

6. Bauman, Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000.

7. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы. – Ad Marginem, 2013.

8. Derrida J. Of grammatology. – Jhu Press, 2016.

9. Юдин Г. Б. Рецензия на книгу: Хабермас Ю. Структурная трансформация публичной сферы: Исследования относительно категории буржуазного общества (2016) //Философия. Журнал высшей школы экономики. – 2017. – Т. 1. – №. 1. –b. 123-133.

10. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы. – Ad Marginem, 2013.

11. March J. G., Olsen J. P. 6. James G. March and Johan P. Olsen. 1984.“The New Institutionalism: Organizational Factors in Political Life.” American Political Science Review78 (September): 734–49 Cited 456 times //American Political Science Review. – 2006. – Т. 100. – №. 4. –b. 675-675.

12. Steinmo S., Thelen K., Longstreth F. Structuring Politics: Historical Institutionalism in Comparative Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992.

13. Scott W.R. Institutions and Organizations: Ideas, Interests and Identities. – Los Angeles: Sage Publications, 2014

14. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы. – Ad Marginem, 2013.

15. Thelen K. Historical Institutionalism in Comparative Politics // Annual Review of Political Science. – 1999. – Vol. 2. – P. 369–404.//Skocpol T. States and Social Revolutions: A Comparative Analysis of France, Russia and China. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979.

16. Parsons T. The social system. – Routledge, 2013.

17. Scott W. R. Institutions and Organizations: Ideas, Interests, and Identities. – Los Angeles: Sage Publications, 2014.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Charos Rahimovna Ibragimova
Researcher, Uzbekistan State Institute of Arts and Culture,
Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF CULTURAL DIVERSITY

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical foundations of cultural diversity, its role in the contemporary globalization process, and the main directions of its development. Particular attention is paid to the role of nation-states, international organizations, and civil society institutions in supporting cultural diversity. Along with international experiences, the results of UNESCO and other global initiatives, the cultural policy of Uzbekistan is also examined in detail. The research emphasizes the role of cultural integration, multiculturalism, intercultural dialogue, and digital culture. Consequently, conceptual approaches and prospective strategies for the development of cultural diversity are scientifically substantiated.

Keywords: cultural diversity, globalization, multiculturalism, cultural policy, cultural integration, digital culture, interethnic harmony

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО РАЗНООБРАЗИЯ

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ теоретических и практических основ культурного разнообразия, его роли в современном процессе глобализации и основных направлений развития. Особое внимание уделяется роли национальных государств, международных организаций и институтов гражданского общества в поддержке культурного разнообразия. Наряду с международным опытом подробно изучаются результаты деятельности ЮНЕСКО и других глобальных инициатив, а также национальная культурная политика Узбекистана. В исследовании подчеркивается значение культурной интеграции, мультикультурализма, межкультурного диалога и цифровой культуры. В итоге научно обосновываются концептуальные подходы и перспективные стратегии развития культурного разнообразия.

Ключевые слова: культурное разнообразие, глобализация, мультикультурализм, культурная политика, культурная интеграция, цифровая культура, межнациональное согласие

MADANIY XILMA-XILLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy xilma-xillik tushunchasining nazariy va amaliy asoslari, uning zamonaviy globallashuv jarayonidagi o‘rni hamda rivojlanish yo‘nalishlari keng tahlil qilinadi. Xususan, madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlashda milliy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni ochib beriladi. Xalqaro tajribalar, UNESCO hamda boshqa global tashabbuslarning natijalari bilan bir qatorda, O‘zbekistonning milliy madaniyat siyosati ham alohida o‘rganiladi. Tadqiqotda madaniy integratsiya, multikulturalizm, interfaol muloqot va raqamli madaniyatning roliga alohida urg‘u beriladi. Natijada, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish bo‘yicha konseptual yondashuvlar va istiqbolli strategiyalar ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: madaniy xilma-xillik, globallashuv, multikulturalizm, madaniyat siyosati, madaniy integratsiya, raqamli madaniyat, millatlararo totuvlik

Kirish (Introduction)

So‘nggi yillarda madaniy xilma-xillik masalasi nafaqat ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida, balki siyosat, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va global boshqaruv jarayonlarida ham dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Globallashuv, migratsiya jarayonlari, transmilliy kompaniyalar faoliyati, turizm va ommaviy kommunikatsiya vositalarining tezkor rivojlanishi madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirmoqda. Natijada, madaniy xilma-xillikni saqlash, rivojlantirish va uni ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylantirish zarurati yuzaga chiqmoqda [1].

Madaniy xilma-xillik tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, u nafaqat turli xalqlarning madaniy merosini, balki tillar, urf-odatlar, diniy qadriyatlar, san’at shakllari va ijtimoiy institutlarning o‘ziga xosligini ham qamrab oladi. Shuningdek, u madaniyatlarning o‘zaro boyish jarayonida paydo bo‘ladigan yangi shakllar, innovatsion qadriyatlar va identifikatsiya modellari bilan ham chambarchas bog‘liq [2. 32]

O‘zbekiston misolida ham madaniy xilma-xillikning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati alohida ta’kidlashga arziydi. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi, ular turli tillar, urf-odatlar va qadriyatlarni olib keladi. Bu xilma-xillikni rivojlantirish milliy birlik va totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qiladi [3. 143].

Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda madaniy xilma-xillikni rivojlantirishda qator muammolar ham mavjud. Bir tomondan, globallashuv jarayonlari madaniy almashinuv va integratsiyani kuchaytirsa, boshqa tomondan, ayrim milliy madaniyatlarning assimilyatsiya qilinishi yoki yo‘qolib ketishi xavfini yuzaga keltiradi. Internet va raqamli texnologiyalar orqali ommaviy madaniyatning tezkor tarqalishi mahalliy madaniy shakllarning zaiflashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur maqolada madaniy xilma-xillikni rivojlantirish bo‘yicha nazariy yondashuvlar, xalqaro va milliy tajribalar, shuningdek, ushbu jarayonning zamonaviy tendensiyalari keng qamrovli

tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlashning ilmiy asoslangan yo‘nalishlarini aniqlash va ularni ijtimoiy amaliyotga tatbiq etishdir.

Metodologiya (Methodology)

Mazkur tadqiqotda madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini o‘rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Chunki madaniy xilma-xillik masalasi faqatgina antropologiya yoki sotsiologiya doirasida emas, balki falsafa, siyosatshunoslik, tarix, lingvistika, madaniyatshunoslik, axborot texnologiyalari va hatto iqtisodiy fanlar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu boisdan, metodologik asoslar keng qamrovli yondashuvlar majmuasiga tayandi.

Tadqiqotning nazariy bazasi G‘arb va Sharq olimlari tomonidan ishlab chiqilgan madaniy xilma-xillik, globallashuv va multikulturalizm haqidagi konsepsiyalardan tashkil topdi. Masalan, S.Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasi madaniyatlararo munosabatlarni geosiyosiy nuqtai nazardan tushuntiradi [2], Sh. Appaduraining “Madaniy oqimlar” konsepsiyasi esa global madaniyatning transmilliy dinamikasini ko‘rsatadi [4]. Bundan tashqari, Ch.Teylor [5] va U.Kimlik [6] kabi tadqiqotchilarning asarlari madaniy identitet va xilma-xillikni ijtimoiy qadriyatlar tizimi sifatida talqin etishga xizmat qildi.

Maqolada quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Tarixiy-qiyosiy tahlil. Turli davr va mintaqalarda madaniy xilma-xillikni rivojlantirishga oid tajribalar taqqoslab o‘rganildi. Masalan, Yevropa Ittifoqida multikultural siyosat, Osiyo mamlakatlarida esa madaniy uyg‘unlik modeli tahlil qilindi [6. 55].

Sotsiologik yondashuv. Xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNDP, OSCE)ning rasmiy hisobotlari, so‘rovnomalari va statistik ma’lumotlari asosida madaniy xilma-xillikning zamonaviy ko‘rinishlari o‘rganildi.

Diskurs-tahlil. Madaniy xilma-xillik haqidagi ilmiy-nazariy matnlar, siyosiy hujjatlar va xalqaro konvensiyalar (jumladan, UNESCOning “Madaniy xilma-xillik deklaratsiyasi”, 2001) tahlil qilindi.

Solishtirma metod. O‘zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar, jumladan, Kanada, Malayziya va Turkiya misolida qiyosiy o‘rganildi.

Ilmiy umumlashtirish. Olingan nazariy va amaliy natijalar umumlashtirilib, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari bo‘yicha konseptual model ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy chegaralari shundan iboratki, u ko‘proq XXI-asrning birinchi choragiga oid tendensiyalarni qamrab oladi. Shuningdek, tadqiqotning empirik bazasi asosan xalqaro tashkilotlar va davlatlarning ochiq ma’lumotlariga tayangan. Biroq bu holat umumiy natijalarni umumlashtirishga imkon berdi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari bir necha asosiy bloklarda mujassam:

1. Madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning global tashabbuslari

XXI-asr boshidan boshlab madaniy xilma-xillik masalasi xalqaro maydonda muhim ustuvorliklardan biri sifatida e’tirof etildi. UNESCO tomonidan 2001-yilda qabul qilingan **“Madaniy xilma-xillik deklaratsiyasi”** [1] ushbu jarayonning huquqiy va konseptual asosini yaratdi. Keyingi

yillarda esa 2005-yilda **“Madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi konvensiya”** qabul qilinib, uni bugungi kunda 150 dan ortiq davlat ratifikatsiya qilgan.

Bu hujjatlar asosida quyidagi global yo‘nalishlar shakllandi:

- madaniy merosni muhofaza qilish;
- milliy tillarni asrab-avaylash;
- madaniyatlararo muloqotni kengaytirish;
- raqamli madaniyat vositalaridan foydalanish orqali xilma-xillikni targ‘ib qilish.

Masalan, Yevropa Ittifoqi doirasida **“Creative Europe”** dasturi san’at va madaniyat loyihalarini qo‘llab-quvvatlab, transmilliy madaniy almashinuvni kuchaytiradi. Bu dastur orqali 2014–2020 yillarda 2500 dan ortiq loyiha moliyalashtirilgan.

2. Multikulturalizm va madaniy integratsiya

Natijalarning muhim ko‘rsatkichlaridan biri – turli mamlakatlarda **multikulturalizm** siyosatining qo‘llanish darajasidir. Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda madaniy xilma-xillik davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda [6. 241]. Bu davlatlarda etnik guruhlarning tili, dini va urf-odatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun qonuniy kafolatlar yaratilgan.

Osiyo davlatlarida esa **madaniy uyg‘unlik modeli** ustuvor. Masalan, Malayziya *“1Malaysia”* siyosatini ilgari surib, turli etnik guruhlarning bir jamiyatda uyg‘un yashashini ta’minlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, multikulturalizm va integratsiya siyosatlari bir-birini inkor etmaydi, balki ular o‘zaro to‘ldiruvchi jarayonlardir. Ya’ni, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishda milliy identitetni asrab qolish va umumjamiyat qadriyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Raqamli madaniyat va yangi kommunikatsiya vositalari

XXI asrning eng dolzarb natijalaridan biri – **raqamli texnologiyalar madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning asosiy vositasiga aylanganidir**. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia platformalari madaniy almashinuvning yangi shakllarini yuzaga chiqardi. *YouTube, Netflix, Spotify* kabi global platformalar dunyo madaniyatini keng auditoriyalarga yetkazib, shu bilan birga, mahalliy ijodkorlarga ham global maydonga chiqish imkonini yaratmoqda [7. 201].

4. O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekistonda madaniy xilma-xillikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikada **130 dan ortiq millat va elat vakillari** yashaydi, ularning madaniy markazlari faoliyat yuritadi. **O‘zbekiston Xalqaro madaniyat markazi** va uning hududiy bo‘linmalari etnik guruhlarning tili, san’ati va an’analarini rivojlantirishga ko‘maklashadi [3. 129].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab **“Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun”** tamoyili asosida millatlararo totuvlik siyosati amalga oshirilib kelmoqda. 2019-yilda esa **“O‘zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish konsepsiyasi”** qabul qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda madaniy xilma-xillikni rivojlantirish quyidagi natijalarga olib keldi:

- barcha millat vakillarining madaniy markazlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda;
- milliy madaniyat festivallari va ko‘rik-tanlovlari muntazam o‘tkazilmoqda;
- milliy tillarda darslik va matbuot nashrlarining chiqarilishi davom etmoqda;
- xalqaro miqyosda O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasi kuchaymoqda.

5. Madaniy xilma-xillik va ijtimoiy barqarorlik

Natijalar ko‘rsatadiki, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish bevosita **ijtimoiy barqarorlik va millatlararo totuvlik**ni ta’minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, madaniyatlararo muloqotning rivojlangan jamiyatlarda zo‘ravonlik va ijtimoiy qarama-qarshiliklar darajasi ancha past bo‘ladi [9. 112].

O‘zbekiston tajribasi ham buni tasdiqlaydi. Respublikada madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash siyosati tufayli millatlararo nizolar kuzatilmaydi, aksincha, turli millat vakillari umumiy ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shmoqda.

Muhokama (Discussion)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ammo mazkur jarayon murakkab, ko‘p qirrali va ba’zan qarama-qarshi yo‘nalishlarga ega. Muhokama natijalarini quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qilish mumkin:

Nazariy jihatdan, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish universallashuv, inson huquqlari, millatlararo totuvlik va global madaniyatning uyg‘unlashuvi bilan bog‘liq jarayon sifatida qaraladi [5]. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ba’zi hollarda bu jarayon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarga to‘qnash keladi. Masalan, ayrim davlatlarda immigratsiya oqimlari milliy madaniyatning “yo‘qolib ketishi” xavfi sifatida baholanadi [2]. Shuning uchun ham madaniy xilma-xillik siyosati ko‘plab mamlakatlarda bahsli masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Globallashuv jarayonlari madaniyatlararo almashinuvni kuchaytirayotgan bo‘lsa-da, u bilan bir qatorda **madaniy assimilyatsiya** xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Masalan, ommaviy madaniyatning global miqyosda tarqalishi kichik tillar va an’anaviy madaniy shakllarning zaiflashishiga olib kelmoqda [4. 78]. Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalardan foydalanish ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda: u bir tomondan madaniy xilma-xillikni targ‘ib qilsa, boshqa tomondan uni standartlashtirishga olib kelishi mumkin.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, **multikulturalizm** siyosati barcha davlatlarda ham samarali natija bermaydi. Kanada va Avstraliya tajribasida u muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan bo‘lsa, Yevropaning ayrim mamlakatlarida multikulturalizm siyosati jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchaytirgan [6. 137]. Shu bois, har bir mamlakat madaniy xilma-xillik siyosatini o‘z tarixiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitidan kelib chiqib ishlab chiqishi zarur.

O‘zbekiston tajribasi bu borada muvozanatli yondashuvni ko‘rsatadi. Respublika madaniy xilma-xillikni saqlab qolish bilan birga, umumiy fuqarolik identitetini ham mustahkamlashga intilmoqda. Bu siyosat millatlararo totuvlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Muhokama jarayonida aniqlandi-ki, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish bevosita **BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari** (SDGs) bilan uzviy bog‘liq. Xususan, 16-maqsadda ko‘rsatilgan “tinchlik, adolat va kuchli institutlar”ni ta’minlash madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, 4-maqsad (“Sifatli ta’lim”) ham turli tillar va madaniyatlarda ta’lim olish imkoniyatlarini yaratishni talab qiladi [10].

O‘zbekiston bu yo‘nalishda milliy siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirmoqda. Masalan, turli milliy guruhlar vakillari uchun ona tilida ta’lim olish imkoniyati yaratilgan, bu esa barqaror rivojlanishning muhim ko‘rsatkichidir.

Muhokama natijalariga ko‘ra, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning istiqbollari quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rinmoqda:

- **ta’lim tizimi** orqali madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish;
- **madaniy diplomatiya**ni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;
- **raqamli arxivlar** va virtual muzeylar orqali madaniy merosni saqlash;
- **yoshlar siyosati**da madaniy xilma-xillikka alohida e’tibor qaratish;
- **mahalliy madaniy tashabbuslarni** qo‘llab-quvvatlash.

Demak, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish zamonaviy davrda faqat madaniyat sohasi bilan cheklanib qolmay, balki siyosat, iqtisod, ta’lim va axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘langan kompleks jarayondir.

Natijalar (Results)

XXI-asrda globallashuv, migratsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivoji, transmilliy korporatsiyalar faoliyati, xalqaro ta’lim dasturlari va ommaviy madaniyat oqimlari natijasida madaniy xilma-xillikni rivojlantirish jarayonlari sezilarli darajada jadallashdi. Bu tendensiyalar nafaqat madaniy, balki iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [2][11]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari uchta asosiy mezon asosida shakllanmoqda: **global jarayonlar, milliy strategiyalar** va **lokal tashabbuslar [12]**.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO, ISESCO, YUNISEF va Yevropa Ittifoqi madaniy xilma-xillikni rivojlantirishda muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Masalan, UNESCO tomonidan qabul qilingan **“Madaniy xilma-xillikni himoya qilish va rivojlantirish konvensiyasi” (2005)** global miqyosda madaniyatlararo muloqot, milliy madaniyatlarni asrab-avaylash va ularni xalqaro hamjamiyatga olib chiqish mexanizmlarini yaratdi [12]. Bundan tashqari, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) ham madaniy xilma-xillikni ijtimoiy barqarorlikning ajralmas qismi sifatida e’tirof etadi [10]).

Turli mamlakatlarda madaniy xilma-xillikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Masalan:

Kanadada “Multiculturalism Policy” (1971 yildan) turli etnik guruhlarning teng huquqli rivojlanishi va ularning madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga qaratilgan [6. 46].

Fransiyada esa “Laïcité” tamoyili asosida diniy va madaniy neytrallikni saqlash bilan birga, milliy birlikni ta’minlash siyosati olib borilmoqda [13. 90]

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

O‘zbekistonda esa “Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi”, “Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik konsepsiyasi” kabi hujjatlar madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning amaliy asosini tashkil etmoqda [14].

Madaniy xilma-xillikni rivojlantirish jarayonida faqat davlat siyosati emas, balki jamoatchilik tashabbuslari ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan: Xalqaro festivallar va madaniy tadbirlar (masalan, “Sharq taronalari” festivali – Samarqand, “Louvre Abu Dhabi” loyihasi – BAA) xalqlar o‘rtasida madaniyatlararo muloqot uchun maydon yaratmoqda [17].

Nodavlat notijorat tashkilotlari va yoshlar harakatlari milliy qadriyatlarni saqlash va yangi avlodga yetkazish orqali madaniy xilma-xillikni mustahkamlamoqda [15. 26].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi madaniy xilma-xillikni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kutubxonalar va onlayn ta’lim platformalari milliy madaniyatlarni global maydonga olib chiqmoqda. Masalan, ***Google Arts and Culture*** platformasi dunyoning turli burchaklaridagi madaniy meros namunalarini virtual shaklda taqdim etmoqda [7. 79]. Shu bilan birga, raqamli muhitda madaniyatlararo almashinuv jarayonlari ham yangi kommunikatsiya shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Madaniy xilma-xillikni rivojlantirishda ta’lim tizimining o‘rni beqiyosdir. Xalqaro tajribada “multicultural education” konsepsiyasi keng qo‘llanilmoqda. Bu model talabalarga turli madaniyatlarni o‘rganish, ularga hurmat ruhida yondashish va global fuqarolik ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi 16. 89]. O‘zbekistonda ham ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy obidalar va san’at namunalarini o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa (Consclusion)

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy xilma-xillik zamonaviy global jarayonlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda va u jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik hamda millatlararo totuvlikni ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. XX–XXI asrlar davomida madaniyat tushunchasining mazmuni yanada kengayib, uni faqat estetik va tarixiy qadriyatlar majmui sifatida emas, balki ijtimoiy boshqaruv, ta’lim, axborot-kommunikatsiya tizimi va iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilish tendensiyasi yuzaga keldi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bir necha qatlamda shakllanmoqda: global tashkilotlar miqyosidagi tashabbuslar, milliy davlat siyosati, mahalliy tashabbuslar va texnologik rivojlanish imkoniyatlari. Har bir qatlam bir-birini to‘ldirib, umumiy ijtimoiy jarayonlarning muvozanatli va barqaror rivojlanishini ta’minlamoqda.

Shuningdek, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari insoniyat oldida turgan yangi vazifalarni ham belgilab bermoqda. Avvalo, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni xalqaro miqyosda tanitish, ikkinchidan, texnologik rivojlanishdan oqilona foydalanib, raqamli madaniy makon orqali yangi avlodga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yetkazish, uchinchidan, ta’lim tizimi orqali madaniyatlararo bag‘rikenglik va tolerantlikni kuchaytirish zaruriyati shakllanmoqda.

O‘zbekistondagi amaliyot ham xalqaro tajribalar singari madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning ko‘p qirrali yo‘nalishlarini qamrab olmoqda. Xususan, milliy festivallar, xalqaro

madaniyat haftaliklari, ta’lim dasturlarida milliy qadriyatlarni targ‘ib etish, nodavlat tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali madaniy xilma-xillikni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Umuman olganda, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish jarayonlari bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, uning kelgusi istiqbollari globallashuv, texnologik taraqqiyot va milliy qadriyatlarning uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan, madaniy xilma-xillikni chuqur o‘rganish va uni rivojlantirish ilmiy izlanishlarning dolzarb sohasi bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference)

1. UNESCO. Convention on the Protection and Promotion of the Diversity of Cultural Expressions. – Paris: UNESCO, 2005.
2. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996. – 367 p.
3. Olimov K. Milliy madaniyat va globallashuv. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 212 b.
4. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 2006. – 229 p.
5. Taylor C. Multiculturalism and “The Politics of Recognition”. – Princeton: Princeton University Press, 2012. – 152 p.
6. Kymlicka W. Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights. – Oxford: Oxford University Press, 1995. – 296 p.
7. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: New York University Press, 2006. – 336 p.
8. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 15.11.2019. https://lex.uz/uz/docs/-4597662?ONDATE=21.03.2025%2000
9. Putnam, R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2007. – 541 p.
10. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: UN, 2015.
11. Tomlinson J. Globalization and Culture. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. – 241 p.
12. UNESCO. Report on Cultural Diversity in the 21st Century. – Paris: UNESCO, 2022.
13. Bowen J. Why the French Don’t Like Headscarves: Islam, the State, and Public Space. – Princeton: Princeton University Press, 2007. – 304 p.
14. Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta’minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.11.2020 yildagi 723-son. https://lex.uz/docs/-5108026?ONDATE=11.12.2024
15. Hannerz U. Cultural Complexity: Studies in the Social Organization of Meaning. – New York: Columbia University Press, 1992. – 347 p.
16. Banks J. A. Cultural Diversity and Education: Foundations, Curriculum, and Teaching. – New York: Routledge, 2015. – 384 p.
17. Jalilov M. Madaniy integratsiya va millatlararo muloqot. // Ijtimoiy fanlar jurnali. – Toshkent, 2018. – №2. – B. 45–52.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Navruzova Gulchekhra Nigmatovna
Professor, Doctor of Philosophy, Department of Social Sciences and Physical Education, Bukhara Technical University
email: premium.progress@mail.ru

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

THE PROBLEM OF IRFON IN THE RUBAIY OF BAHAUDDIN NAQSHBAND

Abstract: The article analyzes the content and essence of the concept of irfon in the rubies of Bahauddin Naqshband on the basis of sources.

Keywords: Bahauddin Naqshband, ruby, irfon, orif, enlightened.

БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОИЙЛАРИДА ИРФОН МАСАЛАСИ

Аннотация: Мақолада Баҳоуддин Нақшбанд рубоийларида ирфон тушунчасининг мазмун-моҳияти манбалар асосида таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Баҳоуддин Нақшбанд, рубоий, ирфон, ориф, маърифат.

ПРОБЛЕМА ИРФОН В РУБАИЙ БАХАУДДИНА НАКШБАНДА

Аннотация: В статье на основе источников анализируется содержание и сущность понятия ирфон в рубоиях Бахауддина Накшбанда.

Ключевые слова: Бахауддин Накшбанд, рубоий, ирфон, ориф, просвещённый.

КИРИШ

Глобаллашув даврида инсон маънавиятини юксалтириш масаласи жуда долзарбдир. Маънавиятни юксалтиришда тасаввуф фалсафасининг ўрни каттадир. Бунга сабаб тасаввуфий манбаларда инсоннинг ботин томонидан камол топишига махсус эътибор берилади. Тасаввуфий манбаларда инсоннинг камолоти учун ақлу-тафаккур билан бирга қалбни поклаш, ботинини гўзаллаштириш муҳим эканлиги таъкидланган. Ҳозирги кунда ботин тарбиясига ҳам эътибор бериш учун тасаввуфий манбаларни ўрганмоқ зарур.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Тасаввуфий таълимотларнинг меъёрдаги энг мақбул, хушёрликка асосланган камолот йўли Нақшбандиядир[7,8,20]. Бу таълимотни Баҳоуддин Нақшбанд номи билан машҳур бўлган Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Бухорий (1318-1389) асослаган[2,4,5,9,10,11,21-24]. Тадқиқотларимиз асосида Баҳоуддин Нақшбанд маънавий меросининг янги қиррасини аниқладик[18]. Баҳоуддин Нақшбандниг рубоийлари жамланган янги манбани топдик[1,3]. Бу манбадаги рубоийлар таҳлили[6,15-17,19] Нақшбандия таълимотини чуқурроқ ўрганишга

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

имкон берди. Рубоийларда ирфон масаласи борлигини аниқлаб, герменевтик ёндашув асосида уларни тушунтиришга ҳаракат қилдик.

МУҲОКАМА

Мустақиллик даврида файласуфлар умуман фалсафа, шунингдек инсон фалсафасини янгича ёндашув билан тадқиқ эта бошладилар. Инсоннинг руҳияти, қалби, ички олами, иродаси, иймон-эътиқоди, виждони, менталитети каби масалалар фалсафий тадқиқот объекти бўлмоқда. Инсон онгли мавжудот сифатида анча ўрганилган бўлса-да, лекин унинг қалби масаласи ҳали етарлича тадқиқ этилмаган. Ҳолбуки, инсон қалбига йўл маънавий-маърифий тарғиботнинг энг асосий масаласидир. Қалб масаласи тасаввуф таълимотларининг диққат марказида бўлган. Тасаввуфнинг Нақшбандия таълимотининг асосчиси Баҳоуддин Нақшбанд ҳам қалб масаласига махсус эътибор берган.

Баҳоуддин Нақшбанд таълимотининг таҳлили кўрсатадики, уларда қалб икки маънода тушунилади: биринчиси – танада жойлашган, ҳайвонларда ҳам бор бўлган гўшт парчаси, яъни юрак бўлса, иккинчиси – раббоний руҳ деб аталадиган латоиф қалбдир. Қалб латиф илоҳий руҳ бўлиб, олам ҳақиқатини идрок этиши, ақллар ҳайратда қоладиган нарсаларни била олиши, жисм билолмайдиган нарсалар ва сифатларни англаши каби имконияти чексиз даражада бўлган борлиқнинг бир кўринишидир. Қалб раббоний руҳ маъносида асл ҳақиқатини билувчидир. Нақшбандия таълимотида раббоний руҳ деб аталувчи латиф қалб билан жисмоний гўштпора кўринишдаги юрак орасида махсус боғланиш борлиги таъкидланган.

Юрак ва қалбнинг ўзаро узвий боғлиқлиги Нақшбандиянинг «Дил ба Ёру даст ба кор» – «Қалб Аллоҳ билан, қўл ишда» шиорида ўз аксини топган. Инсон фаол бўлиши, яъни қўли ишда, халқ, юрт, эл, Ватан манфаати йўлида холис хизмат қилиши, жисмонан кучли бўлиши, тананинг барча қисмлари уйғун ҳаракат қилиши учун юрак соғлом бўлиши лозим. Қалб маънавий марказида кибр, ҳасад, ғазаб, нафрат бўлса, гўштпора юрак ҳам қисилади, қон ҳаракатидаги уйғунлик бузилади. Булар жисмда турли хил касалликларни вужудга келтиради. Шунинг учун юрак қалбга, қалб юрак ҳолатига боғлангандир.

Баҳоуддин Нақшбанднинг қалб ҳақидаги фикрлари Хожа Абдулхолиқ Ғиждувонийнинг бу масаладаги қарашларидан озиқланган. «Аз гуфтори Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний» рисоласининг тўққизинчи боби «Дилнинг саломат бўлиши ҳақида» деб номланади. Бу рисолада Хожаи Жаҳоннинг шундай сўзлари келтирилади: «Билгилки, дилнинг саломатлиги Ҳақ таъоло рози бўлмаган нарсалардан узоқ бўлишдир. Эртага соғлом дилдан ўзга ҳеч нарса ёрдам беролмайди».

Баҳоуддин Нақшбанд қалбга «руҳоний ва жисмоний олам ўртасидаги воситадир» деб баҳо беради ва шунга асосланиб тариқатга «Вуқуфи қалбий» деган тамойилни киритади. Баҳоуддин Нақшбанднинг «Вуқуфи қалбий» таълимоти икки маънони англатади. Биринчиси: «Ҳақиқатни англашни истаган кишининг қалби Ҳақдан огоҳ бўлиб туриши. Буни *ёддошт* деб айтадилар». Шу маънода яна у «Вуқуфи қалбий» қалбнинг Ҳақдан шу даражада огоҳ ва ҳозир бўлишики, худонинг ўзидан бошқа бирон нарса уни машғул қилмайди», деган. Бошқа жойда огоҳликни зарур ҳисоблаб, уни шуҳуд, вусул ва Вуқуфи қалбий деб номлаган.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Иккинчи маъноси: «Солиҳ ўз қалбидан воқиф бўлиши ва таважжуҳ қилиши, яъни унга тўла юзланиши керак. У қалбини Тангри зикри билан машғул бўлишга чорлаши ва уни ғофил бўлишга қўймаслиги керак».

НАТИЖАЛАР

Баҳоуддин Нақшбанд рубоийлари жамланган “Рубоиёти Хожа Нақшбанд” асаридаги 57-рақамли рубоийда ирфоний мазмундаги қуйидаги рубоий борлигини аниқладик:

راهی تو به هر روش که پوینده خوش است
کوی تو به هر روش که جوینده خوش است
روی تو به هر دیده که بیند نیکو است
ذکر تو به هر صورت گوینده خوش است

Роҳи Ту ба ҳар равиш, ки пӯянда хуш аст,
Кӯй Ту ба ҳар равиш, ки ҷӯянда хуш аст.
Рӯи Ту ба ҳар дида, ки бинад некӯ аст,
Зикри Ту ба ҳар сурати гӯянда хуш аст. [1:98]

Мазмуни:
Сенинг йўлинг ҳар равишда юриш учун хушдир,
Сенинг кўйинг ҳар равишда изловчи учун хушдир.
Сенинг юзинг ҳар бир дийда учунким, сени кўрса эзгуликдир,
Сенинг зикринг қандай кўринишда бўлса ҳам, айтувчи учун хушдир.

Рубоийдаги мазмун-моҳиятдан маълум бўладики, унда орифлар, яъни Оллоҳни танийдиган улуғ зотлар ҳақида гап кетмоқда. Ориф олимдан фарқли фақат тафаккури билан амал қилмасдан, ботинида Оллоҳ муҳаббатини жойлаб кўнгил амри ила ҳаракат қилади. Рубоийда Баҳоуддин Нақшбанд Оллоҳнинг йўли барча йўллардан гўзаллигини, бу йўлдан бориб изланишда бўлганлар энг комил инсон эканлигини, Оллоҳ жамолини кўриш энг эзгу амаллигини, Унинг зикрини хуфия ёки жаҳрия, самоъ ёки ўзга йўллар билан қилиш мақбуллигини таъкидланган.

Манбадаги 62-рақамли рубоийнинг ҳам қуйидаги ирфоний мазмуни бор:

مردان خدا از خاکدان دیگرند
مرغان هوا ز آشیان دیگرند
منکر تو به این بالشیان ایشان
فارغ زود کون و جهان دیگرند

Мардони Худо аз хокдони дигаранд,
Мурғони ҳаво зи ошиёни дигаранд.
Мункири Ту ба ин болишиён эшон,
Фориғ зуд кавн-у ҷаҳони дигаранд. [1:103]
Мазмуни:

Худонинг Мард эранлари ўзга тупроқдандирлар,
Ҳавога учувчи қушлари ўзга ошиёндандилар.
Сенинг инкоринг бу Оллоҳ яратувчиларга,
Фориғдурлар ва ўзга кавну жаҳондандурлар.

Рубоийда Баҳоуддин Нақшбанд Оллоҳнинг садоқатли Мард эранлари—пайғамбарлар, азиз авлиёлар, ориф ва Ҳақ йўлидан бораётганлар Оллоҳ томонидан махсус пок тупроқдан яратилганлигини, уларнинг қуш сифатида руҳий парвозлари илоҳий ошиёндан эканлиги, уларнинг руҳий-маънавий томони Ғайб олами бўлган ўзга кавну жаҳонданлиги тавсифланган.

Баҳоуддин Нақшбандниng манбада 95 рақам билан белгиланган рубоийлари қуйидаги мазмундадир:

فتح از در کرد و کار خود میخواهم
بخشایش روزگار خود میخواهم
تا چند به انتظار روزم برود
بخت از پس روزگار خود میخواهم

Фатҳ аз дари кирду кори худ мехоҳам,
Бахшоиши рӯзгори худ мехоҳам.
То чанд ба интизор рӯзам биравад,
Бахт аз паси рӯзгори худ мехоҳам. [1:140]

Мазмуни:
Ўз кирду корим билан Сенинг эшигингдан фатҳ истармен,
Ўз рўзғоримдан бахшоишлар истармен.
Қанча интизорлик билан кунларим ўтса ҳам,
Ўз рўзғоримдан бахт истармен.

Рубоийда Нақшбандия таълимотига хос бўлган “Дил ба Ёру даст ба кор” шиори асосида холис, Оллоҳ ризолиги учун ҳалол меҳнат қилиш истаги ёзилган. Нақшбандия йўлидаги толиблар Оллоҳ эшигидан ғалабага эришиш мумкинлигига ишонадилар. Ўз меҳнатлари билан эҳсонлар қилишни истайдилар. Сабру қаноат ила бахтга эришишларига эътиқод қиладилар.

ХУЛОСА

Баҳоуддин Нақшбандниng рубоийларининг таҳлили асосида қуйидаги хулосаларга келиш мумкин.

1. Ориф – Оллоҳни танийдиган инон тақдиридан рози бўлиб, унгагина таваккал қилади.
2. Ирфон аҳлининг кўнглида Оллоҳгина жойлашган бўлиб, унинг мадади ила ўз ҳалол меҳнати билан инсон бахтли бўлишига ишонади.
3. Ақлу тафаккур ва илму урфон инсон камолоти парвозининг икки қанотидир.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. رباعیات خواجه نقشبند مرتب و شارح محمد قصوری اردوبازار لاهور الدینیة پبلیکیشنز ۱۹۹۸ ۱۸۴ صحیفه
2. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомоти Хожа Баҳоуддин Нақшбанд / Форсийдан таржимон, сўз боши, изоҳ ва луғат муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 335 б.
3. Баҳоуддин Нақшбанд. Рубоийлар. Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2023 – 84 б.
4. Баҳоуддин Нақшбанд. (Манбалар таҳлили). Тўплаб нашрга тайёрловчи, мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи. Г. Н. Наврўзова. Т.: “Sano standart” нашриёти, 2019. 256 б.
5. Баҳоуддин Нақшбанд. Ҳикматли сўзлар. Bahouddin Nakshband. Words of wisdom. Ҳикматли сўзларни тўпловчи ва мақолалар муаллифи. Г. Н. Наврўзова, Ҳикматли сўзларни инглиз тилига таржима этувчи З. Расулов. “Sadriddin Salim Buxoriy”. “Durdona” nashriyoti. 2020. 52 б.
6. Донишмандлар туҳфаси. Рубоийлар. Тошкент: “O’zbekiston“, 2009.277-278
7. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Фан, 2005. – 233 б.
8. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия – камолот йўли. – Тошкент: Фан, 2007. – 189 б.
9. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд. (Рисола). Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT” нашриёти, 2011. 24 б.
10. Наврўзова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Т.: Фан, 2021. – 244 б.
11. Navruzova G.N. Bahauddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (Maxsus son), 2020. 5-8-б.
12. Наврўзова Г.Н. Шукроналик – инсон камолотининг асоси. //Imom Buxoriy saboqlari. 2023. №3. 121-123-бетлар.
13. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия таълимотида ризо тушунчаси. //Islom tafakkuri. 2022. 2-сон. 39-46-бетлар.
14. Наврўзова Г.Н. Бухорои шарифнинг етти пири ҳалол тушунчаси хусусида. // Imom Buxoriy saboqlari. 2022. 4-сон 51-52-б
15. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд рубоийларида инсонни руҳий мувозанати масаласи. Interpretation and researches. Volume 1 issue 22. 30.12.2023. p.171-176.
16. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд таълимотида суҳбат тушунчаси. Interpretation and researches. Volume 2 issue 1(23). 30.01.2024. p.19-22.
17. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия: Нақшдан бенақш сари йўл. Interpretation and researches. Volume 2 issue 8(30). 10.05.2024. p.219-225.
18. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд маънавий меросининг янги қирраси. //Islom tafakkuri. 2024. 1-сон. 3-7 бетлар.
19. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд рубоийларидаги инсон тушунчасининг фалсафий таҳлили. // Islom tafakkuri. 2024. 2-махсус сон 49-53-б.
20. Наврўзова Г.Н. Нақшбандия – ҳушёрлик йўли. Т.: Фан, 2024. 184 б.
21. Рисолаҳои пирон ва пайравони тариқати Нақшбандия. Душанбе: 2017. 456 б.

22. Сайфиддин Сайфуллоҳ. Ҳазрати Нақшбанд рубоийлари. Тошкент: “Тошкент ислом университети” – нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2009. 20 б.

23. Салоҳиддин ибн Муборак ал-Бухорий.(1410) Анис ат-толибин ва уддат ас-соликин. Бухоро музейи 27772/11 қўлёзма 168 в.

24. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт («Обиҳаёт томчилари»): тарихий-маърифий асар / Табдил қилувчилар, нашрга тайёрловчилар: М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ. Масъул муҳаррир: Б.Умрзоқ (ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти). – Т.: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004. – 536 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Hasanov Sharofiddin Shashurovich
Doctor of Philosophy (PhD),
Associate Professor

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

HISTORICAL STAGES OF STUDYING SOCIAL CONFLICTS

Annotation. The article examines the essence and content of the development of ideas about social conflicts in comparison with historical periods.

Keywords: social conflicts, confrontation, degree of violence in a conflict, clashes, scientific centers, interests, social contract.

IJTIMOIY ZIDDIYATLARNING O‘RGANILISH TARIXIY BOSQICHLARI

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy ziddiyatlar haqidagi g‘oyalarning rivojlanish mohiyati va mazmuni tarixiy davrlarga qiyosan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ziddiyatlar, qarama-qarshilik, ziddiyatdagi zo‘ravonlik darajasi, to‘qnashuvlar, ilmiy markazlar, manfaatlar, ijtimoiy shartnoma.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ КОНФЛИКТОВ

Аннотация. В статье рассматриваются сущность и содержание развития представлений о социальных конфликтах в сравнении с историческими периодами.

Ключевые слова: социальные конфликты, конфронтация, степень насилия в конфликте, столкновения, научные центры, интересы, общественный договор.

Kirish (Introduction)

Ijtimoiy ziddiyatlar insoniyat bilan uning hayoti davomida doimo birga keladi. Dastlabki qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar ibtidoiy jamiyat davridayoq paydo bo‘lgan. Insoniyat tarixida ijtimoiy ziddiyatlar har doim mavjud bo‘lib, aniqroq qilib aytganganda ular tarixda o‘zining o‘zgaruvchan jarayonlarda payda bo‘la boshlagan. Shu bilan birga, ushbu harakatda sifatli, bosqichma-bosqich o‘zgarishlar mavjud. Shu bilan birga, ushbu harakatda sifatli, bosqichma-bosqich o‘zgarishlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Ijtimoiy ziddiyatlarni o‘rganishning dastlabki asoslari qadimgi dunyo olimlari tomonidan qarama-qarshiliklar birligi va o‘zaro kurashiga oid kategoriyalarni o‘rganish jarayonida shakllantirilgan. Masalan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Tszidunyoning asosida birlamchi manba Yan’ (yorug‘lik) va In’ (qorong‘ulik) yotadi, ular nafaqat o‘zaro kurashadi, balki bir-birini to‘ldirib ham boradi, deb hisoblagan. [C. 629]

Miloddan avvalgi VI-asrdayoq Konfutsiy qahr-g‘azab va takabburlik, ular bilan birga Ijtimoiy ziddiyatlarar, birinchi navbatda, odamlarning tengsizligi va bir-biriga o‘xshamasligi

masalasiga to‘xtalib o‘tgan. [C. 629] U odob-axloqni yuksaltirish, illatlarni yo‘q qilish, janjallardan qochishga erishish kerakligini uqtirgan. Konfutsiyning o‘zi uning shogirdlari tomonidan ko‘plab fazilatlarga ega “mehribon, yaxshi, hurmatli, talabchan va xushmuomala” shaxs sifatida tasvirlangan. Unga quyidagi to‘rtta xislat–spekulyatsiyaga moyillik, haddan tashqari qat’iyat, o‘jarlik va xudbinlik – begona bo‘lgan. [C. 629] Konfutsiy o‘zidagi fazilatlarni o‘z hikmatlari va amallari bilan shogirdlariga singdirishga intilgan.

Qadimgi yunon faylasufi Geraklit dunyoda hamma narsa adovat va dushmanlik tufayli yuzaga keladi, deb hisoblagan. Ijtimoiy ziddiyatlarar, uning fikricha, muhim xususiyat, jamoat hayotining ajralmas sharti sifatida baholangan, chunki qarama-qarshilik, shu jumladan urush “har narsaning otasi va podshosidir”. [www.vusnet.ru]

Qadimgi yunon faylasufi Epikur cheksiz urushlar bilan bog‘liq ofatlar oxir-oqibat odamlarni doimiy tinchlik sharoitida yashashga majbur qilishiga ishongan.

Ijtimoiy ziddiyat masalasiga antik davrning taniqli mutafakkirlari Platon va Aristotel ham e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, inson – tabiatan jamoaviy xususiyatga ega mavjudot, shaxs esa jamoaning tarkibiy qismi, xolos. Insonga xos xislatlar unga boshqa odamlar bilan bir-birlarini tushunish va hamkorlik qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, adovat, nafrat va zo‘ravonlikka moyillik ham istisno qilinmaydi. Platon va Aristotel birinchi navbatda, ijtimoiy ziddiyatni qoralaganlar. Platon o‘zining “Davlat” nomli dialog shaklidagi asarida Ijtimoiy ziddiyatlarga tabaqalashgan holda yondashib, zo‘rlik va urushlarni “adolatli” va “adolatsiz” degan guruhlarga ajratgan. [C. 50–51.]

Aristotelning ta’kidlashicha, janjal va nizolar odamlarning mulkka egalikdagi va hurmatga sazovor bo‘lishdagi tengsizligi, shuningdek, kibr, qo‘rquv, bir-birlariga nisbatan e’tiborsizlik, hiyla-nayrang ishlatish, fe’l-atvorning bir-biriga o‘xshamasligi, ba’zi shaxslarning haddan tashqari ulug‘lanib, boshqalarining kamsitilishi kabi illatlardan kelib chiqadi . [C. 50–51.]

O‘rta asrlarda jamoalashtirish insonni, shaxsni feodal davlat, dehqon jamoalari, hunarmandchilik ustaxonasi, savdogarlar uyushmasi, ritsarlar yoki monastir tartibiga bo‘ysundirishni anglatgan. Faqat o‘rta asrlar oxirlariga kelib individualizm kuch sifatida shakllangan. U G‘arbiy Evropa gumanizmida, protestant masihiylarning postulatlari, tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma haqidagi ta’limotda, shuningdek, ilk liberalizm g‘oyalarida o‘z ifodasini topgan. Tomas Mor, Rotterdamlik Erasmus, Frensis Bekon va boshqa gumanistlar o‘rta asrlardagi ijtimoiy tartibsizlik va qonli adovatni keskin qoralaganlar. [C. 77–95.] Ular odamlar o‘rtasidagi tinchlik va hamjihatlik rivojlanishning hal qiluvchi omili deb hisoblaganlar. [C. 188–194.]

Ijtimoiy ziddiyatning ijtimoiy jihatlari namoyon bo‘lishini arab olimlaridan Ibn Ro‘shd qarashlarida ham ko‘rish mumkin. Ibn Ro‘shd asarlarida din va jamiyatning o‘zaro munosabati masalasiga alohida urg‘u berilganini ko‘rish mumkin. Uning fikricha, har ikkalasi yonma-yon yashamog‘i lozim. Xristian dinining vakillari insoniyatni o‘zlarining Xudo oldida barcha teng, degan g‘oyaga asoslangan qarashlarini ilgari surgan O‘rta asrlardaham odamlar o‘rtasida doimiy tinchlikka erishib bo‘lmaydi, qolaversa, to‘qnashuvlar nafaqat imonli va imonsiz odamlar, balki bir din vakillari o‘rtasida ham davom etadi deb hisoblashgan. Rotterdamlik Erazm bu borada shunday deydi: “Eng bema’ni narsa, Iso Masihning o‘zi ikkala tarafda mavjud bo‘lib, go‘yo u o‘zi bilan o‘zi jang qilayotgandek”. [URL: http://ru.wikipedia.org/wiki/]

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ijtimoiy ziddiyatlar masalasini italyan gumanizmi vakillaridan biri bo‘lgan Dante qarashlarida ham ko‘rish mumkin. Dante o‘zaro nizolardan xoli bo‘lgan adolatli davlat tuzumida mamlakat xalqlari birlashib, baxtli hayot kechirishi mumkin bo‘lgan Italiyani, davlat ishlariga din va cherkov aralashmagan jamiyat tuzumini orzu qilgan. [C. 302.]

Avreliy Avgustin o‘zining “Ilohiy shahar” asarida nizolarda hal qiluvchi narsa jarayonning o‘zi emas, balki uning maqsadidir [C. 204]. deydi. Ya’ni, agar insonning barcha ehtiyojlari qondirilsa, u mojaroga yo‘l qo‘ymasligi kerakligini ta’kidlaydi. Nikkolo Makiavelli esa ijtimoiy ziddiyatni insonning tabiatan ojizligi bois kelib chiqadigan jamiyatning umumiy belgisi sifatida baholab, birinchilardan bo‘lib Ijtimoiy ziddiyatlarni tizimli tahlil qilishni taklif etdi. [C. 80.] Makiavellining fikrlarini tahlil qilish jarayonida shuni anglash mumkinki, jamiyat a’zolarining maqsadlari ularning imkoniyatidan kelib chiqib turlicha bo‘lar ekan, Ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etish muammo bo‘lib qolaveradi. Uning echimi ijtimoiy ziddiyatning kelib chiqish sababini aniqlash hamda bartaraf etishga imkon beradigan yo‘lni topishdir.

G‘arb falsafiy maktabi vakillaridan Jon Lokk va Tomas Gobbs inson muqaddas hilqat bo‘lib, uning uchun boshqa jonzotlar shunchaki yashash sharoiti ekanligiga ishonganlar. Shaxs jamiyatga nisbatan ustuvordir. Ijtimoiy munosabatlarning tabiiy holati –“barchaning barchaga qarshi urushi” bo‘lib, unda odamlar dushman yoki sherik sifatida harakat qilishadi. “Axloqiy tuyg‘ular nazariyasi” kitobining muallifi Adam Smit ma’lum darajadagi xudbinlik, ya’ni “o‘z-o‘zini sevish” tarafdori bo‘lgan.U odamlarning farovonlik va baxtga erishish uchun umumiy intilishlari bilan shaxsiy manfaatlarining uyg‘unligi jamiyatning rivojlanishiga olib keladi, deb hisoblagan. Insonning o‘z ijtimoiy mavqeini yaxshilashga intilishidan ko‘zlangan maqsado‘zini boshqalardan ajratib ko‘rsatish, o‘zgalar e’tiborini tortish, atrofdagilarning uni maqtashlari, xatti-harakatlarini ma’qullashlariga, hamdardlik bildirishlariga yoki muayyan imtiyozlarga erishishdir. [C. 352.]

Smit odamlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar o‘rniga iqtisodiy manfaatlarni birinchi o‘ringa qo‘ygan. “Bizning farovonligimiz, – deb yozgan edi u, – bizni ehtiyotkorlikka, yaqinlarimizning farovonligi esa adolat va insoniylikka chorlaydi. Adolat bizni yaqinlarimiz baxtiga putur etkazadigan narsalardan uzoqlashtiradi, insonparvarlik esa bizni bunga hissa qo‘shadigan narsalarga chorlaydi” . [C. 352.] Bu erda adolat Ijtimoiy ziddiyatlar arni bartaraf etishning samarali usuli sifatida keltirilganini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar (Analyses and Results)

Tahlillarimiz natijasida siyosiy ziddiyatning mohiyatini tushunishda ikki xil yondashuv, pessimistik va optimistik ruhdagi qarashlar aniqlandi. Pessimistik ruhdagi yondashuv ingliz olmi T.Gobbs tomonidan aniqroq yoritilgan. “Leviafan” kitobida u inson tabiatiga salbiy baho bergan. Alloma inson tabiatan xudbin, hasadgo‘y va dangasa bo‘lishiga ishongan. Shu bois u insoniyat jamiyatining ilk holatini “barchaga qarshi urush” deb baholagan. Ushbu holat odamlar uchun chidab bo‘lmas darajaga etganida ular odamlarni baxtsizlikdan qutqaruvchi, kuchi faqat Injilda keltirilgan maxluq – Leviafanning qudratiga teng keladigan ulkan kuchlariga tayanib, davlat yaratish to‘g‘risida o‘zaro ahdlashadilar. Shunday qilib, inson tabiatiga salbiy baho bergan T. Gobbs odamlarning axloqsizligini bartaraf etish uchun davlatning kuch ishlatishdan boshqa chorasi yo‘q deb hisoblagan. Optimistik yondashuvni frantsuz olimi Jan Jak Russo taklif qilgan.U. Gobbsdan farqli ravishda, inson

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

tabiatan mehribon bo‘lib, tinch va baxtli yashash uchun yaratilganiga ishongan. Uning fikriga ko‘ra, zamonaviy jamiyatdagi Ijtimoiy ziddiyatlar arning manbaini ijtimoiy hayotni yo‘lga qo‘yishdagi xato va kamchiliklar, birinchi navbatda, odamlarning xususiy mulkka sadoqati tashkil etadi. Odamlar uchun tabiiy bo‘lgan tinch-totuv munosabatlarni tiklashning muhim vositasi ularning o‘zaro kelishuvi negizida insonning mohiyatiga mos keladigan, zo‘ravonlikdan xoli, tarbiyaviy vositalarga asoslangan demokratik davlat tashkil qilishdir. [C. 535.]

Ulardan keyin yashab ijod qilgan olimlar mazkur ikki tushunchadan biriga asoslanganlar yoki ular sintezining u yoki bu shaklini ishlab chiqqanlar.

Ijtimoiy ziddiyatlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi konfliktologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga amerikalik sotsiolog Kennet Boulding ham katta hissa qo‘shdi. U o‘zining “Ixtilof va himoyaning umumiy nazariyasi” asarida Ijtimoiy ziddiyatlar i o‘zaro munosabatlarning umumiy nazariyasini bayon etishga harakat qildi. Mojarolarga oid turli kontseptsiyalarning umumlashtirilishi tufayli fanda bir qancha ilmiy kontseptsiyalar shakllandi, ijtimoiy-biologik kontseptsiyaga binoan ziddiyat har bir inson va hayvon tabiatiga azaldan xosdir. Ijtimoiy-psixologik kontseptsiya nizoni ruhiy zo‘riqish nazariyasi yordamida tushuntiradi. Zo‘rlik nazariyasiga ko‘ra muayyan ijtimoiy tuzilishgagina jamiyat va tarixiy taraqqiyotning o‘ziga xos xususiyatlari ijtimoiy nizolarni keltirib chiqaradi. Strukturaviy-funktsionalizm nazariyasi mojaroni ijtimoiy borliqningbuzilgan ko‘rinishi, ya’ni anomaliyasi sifatida baholaydi. Dialektik kontseptsiyaga ko‘ra nizo-ziddiyatlar ijtimoiy tizimlarning funktsional va ijodiy hosilasidir.[в 30 т]

Shu tariqa, konfliktologiyaning shakllanishi falsafa, sotsiologiya politologiya va psixologiya fanlarining rivojlanishi bilan bog‘liq jarayon bo‘ldi. Biroq, konfliktologiya an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, o‘yin nazariyasi, nizoli vaziyatlarni modellashtirish kabi yangi usullardan ham foydalana boshladi. Konfliktologiya sohasidagi innovatsion izlanishlari tufayli avval AQSh, keyinroq esa G‘arbiy Yevropaning qator mamlakatlarida ilmiy seminar, konferentsiyalar o‘tkazilib, nizoli vaziyatlarni o‘rganuvchi maxsus ilmiy markazlar ochildi hamda davriy nashrlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ijtimoiy zidiyatlarning turli ko‘rinishlarini tinch yo‘l bilan bartaraf etishda vositachilik faoliyatini bajaruvchi mutaxassislar paydo bo‘ldi.

Xulosa va takliflar (conclusion and Recommedndation)

Xulosa qiladigan bo‘lsak, hozirgi kunda aksariyat ijtimoiy-gumanitar soha olimlari ijtimoiy ziddiyatlar muammosini hal qilishga oddiy bir hodisa emas, balki butun insoniyatning yangi asrda tirik qolishi sharti sifatida qaramoqda. Insoniyat hayotiga xavf soluvchi ijtimoiy hodisalardan bo‘lgan va tobora shafqatsiz tus olayotgan cheki yo‘q urush va mojarolar, jamiyatda turli xil “fobiya”larning keng tarqalishi, har bir individual ongning zararli stereotiplarga moyilligi jamiyat hayotida mavjud Ijtimoiy ziddiyatlar arning mazmunini chuqurroq anglash lozimligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference)

1. Щучкий Ю.К. Китайская классическая Книга перемен. – Москва: Наука. Издательская фирма “Восточная литература”. – С. 629.

2. Митрошенков О.А. Философия. 2002 // www.vusnet.ru

3. Новгородцев А.Г.Тема конфликта в политических трактатах Платона и Аристотеля// Вестник Омского университета. – 2006. – № 3. – С. 50–51.

4. Неретина С.С. Верующий разум. К истории средневековой философии. – Архангельск, 1995. – С. 77–95.

5. Сошников А.Е.Конфликт: историко-психологический анализ понятия// Известия Самарского научного центра Российской академии наук. – 2008. – С. 188–194.

6.Роттердамский Э. [Электронный ресурс]. –URL: http://ru.wikipedia.org/wiki/ Эразм_Роттердамский (Дата обращения 24.05.2015).

7. Данте.Монархия. Малые произведения. – Москва, 1968. – С. 302.

8. Августин. Избр. соч.в 4-х ч. – Москва, 1786. – С. 204.

9. Макиавелли Н. Государь. – Москва, 1990. – С. 80.

10. Гегель Г. В. Ф. Эстетика: В 4-х т. Т. 1. – Москва,1973. –С. 187.

11.Смит А.Теория нравственных чувств. (Серия: Библиотека этической мысли).– Москва:Республика, 1997.– С. 352.

12. Гоббс Т. Левиафан, или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. – Москва: Мысль, 2001. – С. 731.

13. Занин С.В.Общественный идеал Жан-Жака Руссо и французское Просвещение XVIII века. – Санкт-Петербург:Мир, 2007. – С. 535.

14. Социальный дарвинизм/ А. Б.Гофман // Собаки – Струна. –Москва: Советская энциклопедия, 1976. – (Большая советская энциклопедия:[в 30 т.]/ гл. ред.А.М.Прохоров; 1969–1978, т. 24, кн. I)

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 04 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ubaydulla Rasulov
Head of the International Relations Department
at the Graduate School of Business and Entrepreneurship
under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Received 15th June 2025, Accepted 11th July 2025, Online 25th August 2025

MAIN TRENDS, DIRECTIONS, AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PARLIAMENTARY DIPLOMACY IN UZBEKISTAN

Annotation. The article provides an in-depth analysis of the main trends, directions, and prospects for the development of Uzbekistan's parliamentary diplomacy. It examines the theoretical and methodological foundations, institutional framework, key achievements and challenges, and suggests ways to improve parliamentary diplomacy in the context of the country's modern foreign policy strategy.

Keywords. Oliy Majlis, parliamentary diplomacy, Uzbekistan, foreign policy, international cooperation, IPU, OSCE Parliamentary Assembly, IPA CIS, Asian Parliamentary Assembly, TurkPA.

ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ, НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПАРЛАМЕНТСКОЙ ДИПЛОМАТИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Статья посвящена глубокому анализу тенденций, направлений и перспектив развития парламентской дипломатии Узбекистана. Рассмотрены теоретико-методологические основы, институциональная база, основные достижения и проблемы, а также предложены пути совершенствования парламентской дипломатии в условиях современной внешнеполитической стратегии.

Ключевые слова. Олий Мажлис, парламентская дипломатия, Узбекистан, внешняя политика, международное сотрудничество, Межпарламентский союз (IPU), Парламентская Ассамблея ОБСЕ, Межпарламентская Ассамблея СНГ, Азиатская парламентская ассамблея, ТЮРКПА.

O‘ZBEKISTON PARLAMENT DIPLOMATIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI, YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston parlament diplomatiyasini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari, yo‘nalishlari va istiqbollari chuqur tahlil qilingan. Uning nazariy-metodologik asoslari, institutsional bazasi, asosiy yutuqlari va muammolari ko‘rib chiqilib, rivojlantirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar. Oliy Majlis, parlament diplomatiyasi, O‘zbekiston, tashqi siyosat, xalqaro hamkorlik, Parlamentlararo ittifoq (IPU), YeXHT Parlamentlararo Assambleyasi, MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Osiyo parlament assambleyasi, TurkPA.:

Введение (Introduction)

Современные международные отношения характеризуются возрастанием роли публичной и парламентской дипломатии как эффективных инструментов обеспечения национальной безопасности, продвижения стратегических интересов государства и укрепления взаимного доверия между странами. Для Республики Узбекистан развитие парламентской дипломатии стало одним из приоритетных направлений внешнеполитической активности, что закреплено в ряде нормативно-правовых и концептуальных документов, в том числе в Концепции развития парламентской дипломатии Республики Узбекистан, утверждённой в 2020 году [1].

В последние годы парламентская дипломатия Узбекистана демонстрирует устойчивую тенденцию к институционализации, активизации и модернизации, что обусловлено масштабными политическими и правовыми реформами, направленными на формирование подотчётной, открытой и профессиональной законодательной власти. Одним из ключевых векторов стало укрепление межпарламентских связей с иностранными государствами и международными парламентскими организациями, а также развитие двустороннего и многостороннего парламентского взаимодействия по вопросам региональной стабильности, безопасности, защиты прав человека и устойчивого развития.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, выступая на совместном заседании Законодательной палаты и Сената Олий Мажлиса в 2022 году, отметил «Парламентская дипломатия становится важнейшим каналом продвижения интересов нашей страны на международной арене и формирования нового имиджа Узбекистана как открытого, ответственного и надёжного партнёра» [2].

Ключевыми направлениями развития выступают повышение транспарентности и подотчётности парламента, усиление парламентского контроля над исполнительной властью, внедрение механизмов публичных слушаний и отчетности государственных органов по вопросам законности и прав человека. Особое внимание уделяется внедрению цифровых технологий, развитию электронного парламентаризма, а также расширению общественного участия в законотворческом процессе.

Принятие стратегических документов, включая Стратегию «Узбекистан – 2030» [3], и обновление конституционной базы (Конституционный закон от 30 апреля 2023 года) [4], способствуют институциональному укреплению парламента как ключевого участника формирования и реализации внутренней и внешней политики. Это создаёт предпосылки для формирования современного, профессионального и инклюзивного парламента, способного эффективно представлять интересы государства на международной арене.

Перспективы парламентской дипломатии Узбекистана напрямую связаны с углублением демократических процессов, расширением политического плюрализма, укреплением механизмов разделения властей и повышением роли парламента в процессе принятия внешнеполитических решений.

Интеграция политических реформ с внешнеполитической активностью парламента способствует устойчивому развитию и укреплению международного авторитета Узбекистана.

Актуальность темы обусловлена необходимостью системного научного анализа эволюции и практики парламентской дипломатии в Республике Узбекистан, выявления институциональных и правовых дефицитов, оценки текущего состояния и определения стратегических ориентиров дальнейшего совершенствования.

Методы (Methods)

Методологическую основу настоящего исследования составляют системный и институциональный подходы, позволяющие всесторонне проанализировать роль и место парламентской дипломатии в структуре внешней политики государства. Системный подход обеспечивает целостное понимание парламентской дипломатии как элемента более широкой внешнеполитической системы, функционирующего во взаимосвязи с исполнительной властью, гражданским обществом и международными организациями. Институциональный подход, в свою очередь, акцентирует внимание на нормативно-правовой базе, организационных механизмах и регламентных процедурах межпарламентского сотрудничества, включая формы диалога, контрольные функции и инструменты влияния на внешнеполитическую повестку.

Существенное внимание в исследовании уделяется интерпретации парламентской дипломатии как канала «мягкой силы», обладающего потенциалом непрямого влияния на международные процессы. Представляя интересы избирателей, парламенты участвуют в легитимации внешнеполитических решений, формируют позитивный имидж государства за рубежом, способствуют налаживанию горизонтальных связей между странами и институционализации культуры диалога в международных отношениях [5].

Особенность парламентской дипломатии заключается в её гибкости, неформальности, способности к оперативному реагированию и поддержанию межпарламентских контактов даже в условиях политической напряжённости. Однако, несмотря на высокий потенциал, она сталкивается с рядом ограничений, включая отсутствие полноценных дипломатических прерогатив, ограниченность ресурсов и зависимость от внутриполитических процессов [6].

Исторически становление парламентской дипломатии восходит к концу XIX века, когда были созданы первые международные парламентские институты, в частности Межпарламентский союз (1889). На начальных этапах парламентская дипломатия функционировала преимущественно в гуманитарной сфере и в вопросах поддержки мира. Однако уже во второй половине XX века, особенно после окончания холодной войны, наблюдается институционализация и активизация парламентского взаимодействия в различных международных форматах — от региональных ассамблей до глобальных форумов [7].

Современный этап развития парламентской дипломатии характеризуется её многоуровневой структурой, формализацией процедур, усилением контрольных функций и интеграцией в региональные и глобальные механизмы международного сотрудничества. Наиболее показательно это проявляется в деятельности Европейского парламента, Парламентской ассамблеи Совета Европы, Межпарламентской ассамблеи СНГ,

Межпарламентского союза и других организаций, в которых парламенты стран-участников взаимодействуют по широкому кругу политических, экономических и гуманитарных вопросов

В рамках настоящего исследования применяются такие научные методы, как сравнительный анализ, позволяющий сопоставить модели парламентской дипломатии различных стран и регионов, выявить универсальные и уникальные черты, а также институциональные различия. Историко-ретроспективный метод используется для изучения эволюции парламентской дипломатии от момента её возникновения до современного этапа с целью определения закономерностей и этапов развития. Институциональный анализ даёт возможность структурировать и интерпретировать нормативно-правовые основания, процедурные регламенты и организационные формы межпарламентского взаимодействия. Контент-анализ программных документов и протоколов заседаний международных парламентских форумов позволяет провести эмпирическую оценку приоритетов, тематических направлений и степени активности парламентской дипломатии в международной практике. Кроме того, используются элементы политико-правового анализа, направленные на изучение роли парламентов в формировании и контроле внешнеполитического курса, а также на оценку уровня транспарентности и подотчётности внешнеполитических решений.

Результаты (Results)

Институциональная инфраструктура парламентской дипломатии Институциональное оформление и динамичное развитие парламентской дипломатии Узбекистана является отражением стратегического курса на расширение внешнеполитического инструментария в условиях модернизации государственного управления и демократизации политической системы. Центральное место в реализации парламентской дипломатии занимает Олий Мажлис Республики Узбекистан, который трансформируется в активного участника международных процессов, способного продвигать национальные интересы не только на двустороннем, но и на многостороннем уровне.

В последние годы наблюдается устойчивая положительная динамика в развитии межпарламентского сотрудничества. География внешнеполитических контактов расширяется: помимо традиционных партнёров в СНГ и Европе, укрепляются связи с парламентами стран Азии, Ближнего Востока, Африки и Латинской Америки. Заключаются новые соглашения о сотрудничестве, подписываются меморандумы и протоколы о взаимодействии, формируется правовая и институциональная основа для устойчивого и взаимовыгодного партнёрства. Всё это служит подтверждением ориентации Узбекистана на многовекторную, прагматичную и сбалансированную внешнюю политику.

Значительную роль в реализации внешнеполитических инициатив играют профильные комитеты, комиссии и парламентские рабочие группы, координирующие взаимодействие с зарубежными странами и международными организациями. Их деятельность обеспечивает содержательное наполнение межпарламентских связей, развитие каналов политического диалога и экспертной поддержки внешнеполитических инициатив. Более 70 парламентских групп дружбы действуют в рамках Олий Мажлиса, обеспечивая постоянный двусторонний

диалог, обмен законотворческой практикой, проведение деловых визитов и формирование атмосферы доверия между парламентами-партнёрами.

Законодательная база, регулирующая международную деятельность парламента, последовательно совершенствуется. Она создаёт необходимые правовые условия для активного участия депутатов в международных форумах, конференциях, сессиях и рабочих встречах. Всё большее внимание уделяется согласованности действий законодательной и исполнительной ветвей власти: налажено устойчивое взаимодействие между Олий Мажлисом и Министерством иностранных дел, что обеспечивает единство внешнеполитического курса, институциональную преемственность и комплексное сопровождение международных визитов, переговоров и парламентских инициатив [8].

На международной арене Республика Узбекистан демонстрирует активную и конструктивную позицию. Делегации Олий Мажлиса принимают участие в работе таких авторитетных организаций, как Межпарламентский союз (IPU), Парламентская ассамблея ОБСЕ, Межпарламентская ассамблея СНГ, Азиатская парламентская ассамблея, ТЮРКПА и др. В рамках этих структур представители Узбекистана выдвигают инициативы по актуальным вопросам — устойчивому развитию, борьбе с изменением климата, вопросам безопасности, соблюдению прав человека и гендерному равенству — тем самым укрепляя международные позиции страны и внося вклад в формирование глобальной повестки [9].

